18. <https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/tasavvuf/sulaymon-rahmon-rumiy-va-uning-durdona-asari-manaviy-masnaviy-ning-ozbekcha-tarjimasiga-oid.html>

J.STYUARTNING "ANOTHER APRIL" HIKOYASIDAGI XX ASR AQSH REALISTIK HIKOYACHILIGI XUSUSIYATLARI TASVIRI

Ganiyeva Orzigul Xayriddinovna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
ganievaorzigul494@gmail.com
o.x.ganieva@buxdu.uz

Annotatsiya. Har qanday ijodkor o'z davrining badiiy gavalantirubchi bo'lib, unda hukmron davr ruhi hamda nuqsi namoyon bo'lishi, shubhasiz. Zero, badiiy asar va uning muallifi o'rtasida uyg'unlik mavjudligi hamda bu ikki tushunchaga nisbatan "et va tirnoq", "daraxt va uning hosili" singari azaldan mavjud iboralarni qo'llash mumkin degan fikrni ilgari surish mumkin. U.Normatov e'tiroficha, badiiylik darajasi san'atkorning o'z predmetiga, tasvir obyektiga, ya'ni odamlarga mehr ifodasining saviyasi, ko'lami, ta'sir kuchi, asarning qoni-taniga singib ketgan chuqur ichki hissiy ohangi [2]da bo'y ko'rsatadi. J.Styuart ham o'ziga xos ijodi, poetik tafakkuri hamda mushohadasining kengligi, hayotiy haqiqat tasvirida real yondashuvi, badiiy haqiqatda xolisona yindashgani va nuqtayi nazarining teranligi, poetik ifoda rakurslaridagi aniqligi bilan XX asr AQSH realistik hikoyachiligida individuallikka erishgan nosirlardan biriga aylandi.

Kalit so'zlar: tub xalqlar, xarakter, ruhiyat, madaniy o'ziga xos xususiyatlar, percoon, bloodroot.

ОСОБЕННОСТИ РЕАЛИСТИЧЕСКОЙ НОВЕЛЛИСТИКИ США XX ВЕКА В РАССКАЗЕ ДЖ. СТИУАРТА «ANOTHER APRIL»

Аннотация. Любой автор является художественным воплощением своего времени, в котором, несомненно, проявляются дух и недостаток господствующей эпохи. Ведь можно выдвинуть мысль о том, что существует гармония между художественным произведением и его автором, и к этим двум понятиям можно применить такие давно существующие выражения, как «плоть и нозоть», «дерево и его плод». По мнению У.Норматова, уровень художественности проявляется в уровне, масштабе, силе воздействия, глубококом внутреннем эмоциональном тоне, пронизывающем душу автора к своему предмету, объекту изображения, то есть к людям [2]. Дж. Стюарт также стал одним из прозаиков, достигших индивидуальности в реалистическом повествовании США XX века благодаря своему уникальному творчеству, поэтическому мышлению и широте наблюдений, реальному подходу к изображению жизненной правды, объективному рассмотрению художественной правды и глубине своей точки зрения, точности в ракурсах поэтического выражения.

Ключевые слова: коренные народы, характер, менталитет, культурные особенности, percoon, bloodroot.

ILLUSTRATION OF THE FEATURES OF 20TH CENTURY AMERICAN REALISTIC STORYTELLING IN J. STEWART'S STORY «ANOTHER APRIL»

Abstract. Any artist is a product of his time, and there is no doubt that he shows the spirit and character of the prevailing era. After all, it is not an exaggeration to put forward the opinion that there is a harmony between the work of art and its author, and that it is possible to apply such ancient expressions as "flesh and nails" and "a tree and its harvest" to these two concepts. According to U. Normatov, the level of artistry is the level, scope, impact of the artist's love for his subject, the object of the image, i.e. people, deep inner emotional tone embedded in the blood and flesh of the work [2] shows height. J. Stewart also became one of the novelists who achieved individuality in the 20th century US realist storytelling with his unique creativity, poetic thinking and breadth of observation, realistic approach to the depiction of life reality, adherence to objectivity in artistic reality and the depth of his point of view, precision in the angles of poetic expression.

Keywords: indigenous peoples, character, mentality, cultural characteristics, percoon, bloodroot.

Kirish. J.Styuart hikoyachiligi R. I. Foster, U.Holl, J.U.Miller, K. Klark, M.U.Klark, J.R. LeMaster, H.P. Teylor, E.L.Blair, G.Brosi, D.Kohler va J.A.Herndn singari adabiyotshunoslar tomonidan tadqiq qililib,

xususan, muallif kichik nasriy asarlarida ustunlik kasb etgan ta'lim mavzusi, hikoyalar tuzilishi, adib uslubi, folklor namunalaridan mohirona foydalanishi, mazkur ijod namunalarining vujudga kelishida turtki bo'lgan madaniy-tarixiy kontekstga oid fikrlar bayon qilindi.

J.Styuart XX asr AQSH milliy adabiyoti rivojiga hissa qo'shgan nosirlardan biri sifatida, aynan muallif nasrining o'ziga xos jihatini uning shaxsiy hayoti va kasb-korida ekani tadqiqot davomida o'z tasdig'ini topdi. Adib nasriy ijod namunalarida Appalachian tog'lari, shahardan uzoq masofada joylashgan, aniqrog'i qishloq hududlaridagi mahalliy fermalarga xos manzaralar, kichik aholi punktlari hamda ularning betakror tabiati, istiqomat qiluvchilarning turmush tarzi, madaniyati, qadriyatlarini tasviriga teran nazar tashlaydi. Yozuvchi bolaligidan Kentukki shtatining tog' yon-bag'irlarida fermerlar oilasida ulg'aygan yillarida to'plagan tajribasi aynan ijodining ilhom manbayi bo'lib xizmat qildi. J.Styuart qishloq xalqining dil anduhlari, murakkabliklar, jamiyatdagi ziddiyatlar bilan bir qatorda, ularni zavqlantira olgan xursandchilik va shodonliklarni, bir so'z bilan aytganda, mazkur hududda istiqomat qiluvchi tub aholining yashash tarzi hamda go'zal manzarasini qalamga oldi. Uning har bir ijod namunasida shu zamin insonlari va tabiatiga bo'lgan mehr, chuqur ehtirom hamda mashaqqatli mehnatiga nisbatan hurmat ufurib turdi, kichik nasriy asarlaridagi yetakchi mavzular ham aynan qishloq odamlaridagi samimiylig, bolajonlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, tabiat in'omlariga muhabbat va qayg'urish bo'ldi.

Adabiyotlar tahlili. J.Styuart umri davomida ko'plab she'rlari bilan birga, salmoqli hajmda nasriy asarlar ham yaratdi. To'rt yuzdan ortiq yozilgan hikoyalarida aynan mamlakatning bir necha shtatlari orqali o'tgan va Kentukki shtati kengliklariga qadar yastangan haybatli Appalachia tog'larida istiqomat qiladigan tub xalqlarning xarakteri, ruhiyati hamda madaniy o'ziga xos xususiyatlarini haqqoniylik va chuqur hamdardlik bilan gavdalandira olgani sababli millat adabiyotiga mazkur asarlar aks-sado bo'lib kirib keldi, chunki adib aksar ijod namunalarida e'tibordan chetda qolgan jamiyat qatlamiga diqqat qaratib, ular ham necha asrlik madaniyatga ega insonlar sifatida mamlakat tarixi va madaniyatida o'rni borligini yoritib berdi.

J.Styuart ilk hikoyasini 1923-yilda, aniqrog'i ikkinchi bosqich talabasi bo'lib tahsil olib yurgan yillarida yozdi. "Nest Egg" deb nomlanadigan mazkur hikoyada fermadagi bir xo'roz va uning dominantlikga intiluvchi tabiati tasvirlanib, parrandaning tovuqlarni o'ziga jalb qilishi, hatto, boshqa fermalardan tovuqlarning u bilan munosabat o'rnatish uchun kelishi, nihoyat qo'shnilar bilan to'qnashuv vujudga kelishi ifodalanadi. Majoziylik kasb etgan bu ijod namunasini muallif yigirma yil o'tgach, "Atlantik Mansli" ("Atlantic Monthly") jurnaliga beradi va tahririyat 1943-yil fevral oyida nashr qiladi, keyinchalik adib bu asarini "Tales from Plum Grove Hills" hikoyalar to'plamiga ham kiritadi. Nosirning o'ndan ortiq mavjud hikoyalar to'plami uning kichik nasriy janrdagi barakali ijodi, nainki poeziyada, balki prozada ham yetuk mahorat egasi ekanini namoyon etadi. Yuqorida zikr etilgan adabiyotshunoslar aksar hollarda J.Styuart hikoyalarida falsafiy jihatdan yondashgani, ko'proq mazmuniy jihatlar tilga olingani, mazmun va shakl birligi tahlilga tortilmagani, kichik nasriy namunalarning poetik ifodada turli kontekstlar orqali yondashilgani nazardan chetda qolgani e'tiborni tortadi. Shu sababli adib hikoyalari tahliliga gibridda, ya'ni XX asr Amerika madaniyatida muqim mavqega ega, ammo yetarli ochib berilmagan. Appalachia submadaniyatining nasrda talqini va yozuvchining bu tasvirga turli rakurslar orqali yondashishi uyg'un tadqiq qilishga harakat qilindi. Bunda muallifning hikoya janridagi betakror uslubi, aynan Appalachia submadaniyatiga xos bo'lgan mavzular ifodasi, mavjud insonlar tasviri asosida poetik xarakter yaratishdagi o'ziga xosligi, hayot haqiqatlarini turli ifoda rakurslari orqali istifoda etilishi "Another April" ("Yana bir Aprel") hikoyasi misolida tahlilga tortildi. J.Styuart kichik nasrining ijtimoiy-madaniy hamda poetik tahlilga tortilishi adib uslubi qamrov doirasini ochib berishi bilan birga, kitobxonlarning XX asr AQSH sotsiumi hamda madaniyatiga oid fikrlari boyishiga olib keladi.

Muhokama. 1941-yilda "Accent: A Quarterly of New Literature" adabiy jurnalida nashr qilingan "Another April" hikoyasida vaqt, inson hayotida umrning shiddat bilan o'tishi, hayot qadri va mazmuni, bolalik sururi, tabiat betakrorligi kabi mavzular yoritiladi. Asarda personajlar sistemasida uchta figura bo'lib, har uchalasining badiiy vazifasi mutanosib tarzda namoyon bo'ladi. Hikoyadagi to'qson yoshdan oshgan bobo obrazi muallif tug'ilib o'sgan Appalachian tog'lariga xos katta avlodning tipik namunasi ekani e'tiborni tortadi. Yozuvchi, hatto, qariya timsoli tasvirida ham turli rakursdan yondashadi. Asarning dastlabki qismlarida nevara orqali tasvir quyidagicha keltiriladi: "*He looked like a picture of Santa Claus. But Grandpa's cheeks were not cherry-red like Santa Claus's cheeks. They were covered with white thin beard --- and above his eyes were long white eyebrows almost as white as percoon petals and very much longer*". [5]J.Styuart dinamik portret orqali qahramonini butun dunyoda qorbobo yoki asosan, Yevropa, Amerika, Avstraliya qit'alarida Santa Klaus sifatida tanilgan qahramonga o'xshatish badiiy ifoda vositasi yordamida gavdalandiradi. "Santa Claus" obrazi afsonaviy timsol bo'lib, G'arb xristian madaniyatiga xos hamda ko'plab folklor qadriyatlar bilan bog'liq [6]. Nevara uchun bobosining oiladagi roli bevosita shu obraz tasviriga uyg'un ravishda aks ettiriladi. Yangi yilda Santa Klausni ko'rish bilan mamnuniyat his qiladigan

har bir oiladagi farzand singari nevara personaji ham bobosiga nisbatan xuddi shunday hissiyotlari mavjud ekani yozuvchi Santa Klaus, uning gilos kabi qizargan yonoqlari, oppoq nurli soqoli hamda uzun nuroniy qoshlari yordamida ifodalaydi.

Aynan shu tasvirda yana bir e'tiborli jihat mavjudki, bu J.Styuart uslubi poetikasida muhim xususiyatlardan biri ekani anglashiladi. Misoldagi "percoon" badiiy detali muallifning o'zi istiqomat qilgan hududning tipik muhitini gavdalanirishida ahamiyat kasb etadi. "Courier Journal"ning 1955-yildagi nashrida J. Styuart "percoon" o'simligi haqida batafsil ma'lumot beradi [7]. Aslida bu o'simlik "bloodroot" ("qonli ildiz") deb nomlanib, ammo ilk Kentukkiliklar mahalliy zanji qabilalar tilidan uni "puccoon" shaklida o'zlashtirib, muomalaga kiritishgani, butun mamlakatda bu o'simlik "bloodroot" shaklida qo'llanilsa, aynan shu hududda "percoon" sifatida muomalada ekani izohlab beriladi. O'simliklar olamida "sangvinariya" deb ataladigan bu gul faqat Shimoliy Amerika mintaqasida uchrab, ildiziga har qanday shikast yetkazilsa, ochiq qizil suyuqlik sizib chiqqanligi sababli, "bloodroot" – "qonildiz" deb ham ataladi. [8] Bir qarashda moychechakni eslatadigan, ammo moychechakga qaraganda gulbarglari ancha zichroq joylashgani unga betakror ifoda baxsh etadi. Muallif qahramonining qoshlarini aynan gulbarglarga mengzashi ham poetik ifodadagi o'zgachalikni ta'minlaydi.

J.Styuart maqolada mazkur gul mahalliy xalqlar uchun ramziylik kasb etgani, mahalliy zanji qabilalari uning ildizidan olinadigan alvon rangdagi sharbatidan marosimlarida tana a'zolarini bo'yashda foydalanishlarini, shuningdek, bu gul Kentukki bahorining darakchisi ekani hamda dunyodagi betakror o'simliklardan biri ekani ham qayd etiladi. Ko'rinadiki, yuqoridagi bosh qahramonning dinamik portretida "percoon" gulining oq rangli o'simlik sifatida kasb etgan mazmun-mohiyatidan maqsadli foydalaniladi. Oilaning kekxa a'zosi sanalgan bobo ehtiroimga ega inson, yillar zalvori, mavsumlar silsilasidan mustahkam insoniylik fazilatlarini bilan yashab kelayotgan qahramon sifatida o'zidan keyingi salafariga shu qadriyatlarini yetkazuvchi, Vatanga sadoqat hamda sodiqlikni o'zida mujassam etgan obraz ko'rinishida gavdalanadi. Muallif xalq orasida o'z qimmatiga ega ramziy gulning sifatlarini bobo personajiga ko'chiradi. Zukko kitobxon muallifning oq rangi misolida qahramonidagi soflik, musaffolik, poklik hamda pokizalik, halollik, samimiylik hamda donishmandlik xislatlariga urg'u berganini anglaydi. Hududdagi har bahorni boshlab beradigan "percoon" guli esa Kentukki madaniyati, tarixi, betakror xalqi, an'ana hamda qadriyatlarining timsoli sifatida qahramon tasviri bilan uyg'unlik hosil qiladi.

"Another April" hikoyasida Grinap hududi (Greenup County) badiiy tasviriga keng o'rin berilib, muallif mazkur makon odamlariga xos serg'ayratlilik, oilalardagi bahamjihatlik, oilaviy munosabatlardagi samimiylik hamda ahillik kabi jihatlariga ayro e'tibor qaratadi. *"I wondered who lived here on this land then, what kind of a house they lived in, and if they had a sassafras with tiny thin April leaves on its top growing in their yard, and if the person that cut that date on the terrapin's back was buried at Plum Grove, if he had farmed these hills where we lived today and cut timber like Grandpa had --- and if he had seen the Aprils pass like Grandpa had seen them and if he enjoyed them like Grandpa was enjoying this April"*. [3] J.Styuart hikoyadagi bola qahramonida kechgani ruhiy jarayonni ong oqimi texnikasi orqali bayon etadi. Bobosi hamda toshbaqa o'rtasidagi iliq munosabatlardan hayratlangan bola o'zi mansub hududning avvalgi odamlari, ularning madaniy hamda maishiy hayot tarzi haqida o'ylar ekan, ularda ham sassafras daraxtlari har Aprel oyida mitti barglar chiqqanmikan, toshbaqaning ustida o'yib yozilgan 1847-yil sanasi bilan bog'liq odamlar ham Plam Grouv (Plum Grove) qabristonida dafn etilganmikan, ular ham dehqonchilik bilan shug'ullanganmikan, xuddi bobosidek yog'och kesganmikan, ular ham bir necha Aprellarni ko'rganmikan, bobosi singari Apreldan bahramand bo'lganmikan kabi o'ylar charx uradi. Ko'rinadiki, parchadagi har bahorda oq rangda gullaydigan shifobaxsh sassafras daraxtining mayda barglari, yoki Plam Grouv qabristoni, yoki 1847-yilning eslatilishi hamda personaj tomonidan toshbaqaning badiiy zamonda to'qson besh yoshga kirganiniga urg'u berilishi real zamonda 1942- yil ekanini, tasvirlanayotgan geografik makon haqqoniyligi, undagi insonlarning ham hayotda prototipi mavjudligi tushuniladi. Manbalar shuni tasdiqlaydiki, [4] Plam Grouv qabristoni Grinap, Kentukki shtatida joylashgan bo'lib, bu qabristonda muallifning ajdodlari, oila a'zolari dafn etilgan. Shuningdek, real 1942-yilda adibning to'qson bir yoshli bobosi Natan Preston Hilton (Nathan Preston Hylton) hayot bo'lib, 1943-yilda vafot etgan. Anglashiladiki, hikoyadagi bola obrazi aslida yozuvchining o'zi bo'lib, real hayotda mavjud insonlar, ko'rgan-kechirgan, guvoh bo'lgan voqealar, tug'ilib o'sgan Grinapdagi tabiat go'zalliklari hikoyalarining fabulasi vazifasini o'tadi. Adibning inson sifatida shakllanishida, odamiylik fazilatlarini barkamollashuvida tayanch bo'lib xizmat qilgan oilasi, yaqin qarindoshlari, qadrdon qishloqdoshlarining samimiy munosabatlarini beqiyos rolini his etgani holda, hikoyalari syujetining asosini ham shu o'lmas rishtalar tasviriga qurdi.

Xulosa. J.Styuart hikoyachiligi millat ma'naviyati, madaniyati, tafakkur chegaralari, qadriyat hamda an'analarni o'zida yorqin namoyon eta oldi. M.U.Klark "Jesse Stuart's Kentucky" risolasini *"For the people of our Southern Mountains, whose heritage and destiny I share, and for the man who has given them a voice*

LITERARY CRITICISM

in the literature of our time”, [1] epigrafi bilan bohslaydi. Haqiqatda, J.Styuart mamlakat janubidagi tog‘lar, ularda ancha muddatdan beri istiqomat qilayotgan xalqlarga mansub meros va madaniyatni keyingi avlodga yetkazish bilan bir qatorda, ularga badiiy ovoz, poetik siyrat hamda umrboqiy nasriy va nazmiy hayot berdi. Adabiyotshunos adibning Appalachi madaniyati, tog‘li xalqning tafakkur chegaralari, qadriyatlarini hamda an‘analari tasvirida g‘oyatda sergak turib, avvalo, o‘zining qalb prizmalarida his etadi, keyin ularga poetik rang orqali talqin etadi, bu tasvirning ekspressivligi shu qadarki, uni o‘qigan kitobxon xoh u yoshi katta bobo personaj bo‘lsin, xohki yosh bola qahramon uning hislariga befarq bo‘la olmaydi.

J.Styuartning “Come Take This Tour with Me” maqolasi ham uning Ona yeriga muhabbatini ifodalaydi. Yozuvchining ijodiy nigohi orqali Kentukkiga sayohat qilinsa, xuddi Choserning Kenterberisi, R.Bernzning Shotlandiyasi hamda U.Folknerning yoki M.Tvenning Mississipisi singari Kentukki aholisiga tegishli mikroolamning madaniy-ma‘rifiy tasviri, tub xalqlarda mujassam zakiylik, oqilona va hazilomuz ruhdagi hayot darsiga oid mufassal ma‘lumotlar olish mumkin. Shu mikroodunyoga xos o‘zlik poetik talqinida muallif individual uslubini ta‘minlagan omillardan yana biri – Amerika folkloridan AQSH adabiyotiga o‘zlashgan “suhbat uslubi” (“talk style”), AQSH hikoyachiligida ustuvorlik qilgan yumoristik ruh, Mark Tven olib kirgan hamda boyitgan AQSH kengliklariga xos regional tasvir uyg‘unlashuvidan hosil bo‘lgan yondashuv ekani oydinlashadi. Ijodkor o‘zi daxldor hudud tasvirida faqat nabotot yoki hayvonot olamiga mansub elementlardan foydalanish bilan cheklanmadi. Regional dialekt hamda xalq og‘zaki ijodi merosining o‘rinli qo‘llanilishi ham hikoyalarning haqqoniyligi, hayotiyiligi hamda ta‘siradorligini ta‘minlay oldi. “Another April” hikoyasida dialektik birliklar ko‘proq bola va nevara suhbatlarida namoyon bo‘lsa, “Love” hikoyasida bola va otasining dialoglarida ko‘proq kuzatiladi. Mahalliy xalqlarning og‘zaki nutqida qo‘llangan birliklardan foydalanish xarakterlarning hayotiyiligi ta‘minlab, hududda hukmron muhitni his qilish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Clarke M.W. *Jesse Stuart's Kentucky*. – N.Y.: McGraw-Hill, 1968. – P.V.
2. Normatov U. *Yetuklik. Maqolalar*. – T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1982. – B. 85.
3. <https://docplayer.net/234563871-Another-april-by-jesse-stuart.html>
4. <https://www.findagrave.com/cemetery/1316912/memorial-search?firstname=nathan+&middlename=Preston&lastname=Hylton&cemeteryName=Plum+Grove+Cemetery&birthyear=&birthyearfilter=&deathyear=&deathyearfilter=&memorialid=&mcid=&linkedToName=&datefilter=&orderby=n&plot=&page=1#sr-33147614>
5. <https://fliphtml5.com/bjcs/ceam/basic>
6. https://en.wikipedia.org/wiki/Santa_Claus
7. <https://www.newspapers.com/article/the-courier-journal-percoon/47984461/>
8. <https://www.botanichka.ru/article/sangvinariya-tenelyubiviy-mnogoletnik/>

AKA-UKA GRIMM ERTAKLARINING TARJIMA VARIANTLARI XUSUSIDA (“Bir xumcha shovla” ertagi tarjimasi misolida)

Karimova Dilafro‘z Halimovna,

*Buxoro davlat universiteti Nemis filologiyasi kafedrası
dilafruz.karimova.1975@mail.ru)*

Narzieva Dilfuza Ramazonovna,

*Buxoro davlat universiteti Lingvistika
(nemis tili) yo‘nalishi 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya. Aka-uka Grimmlar nemis xalqining eng sevimli ertakchi-yozuvchilaridandir. Biroq ularning nomi nafaqat nemis o‘quvchilariga, balki jahondagi barcha xalqlarga tanishdir. Chunki ularning ertaklari juda ko‘p tillarga tarjima qilingan. Mazkur maqolada aka-uka Grimmlarning “Bir xumcha shovla” ertagining o‘zbek tiliga tarjima variantlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: syujet, folklor, motiv, davr grafikasi, ertak badiiyati, mentalitet, variant tarjima, mikromatn.

О ВАРИАНТАХ ПЕРЕВОДА СКАЗОК БРАТЬЕВ ГРИММ (на примере перевода сказки «Горшочек каши»)

Аннотация. Братья Гримм - любимые сказочники немецкого народа. Однако их имя знакомо не только немецким читателям, но и всем народам мира, потому что их сказки переведены на множество языков. В данной статье рассматривается узбекский перевод сказки братьев Гримм “Горшочек каши”.

Ключевые слова: сюжет, фольклор, мотив, старинная графика, сказочное искусство, менталитет, вариантный перевод, микротекст.

ON TRANSLATION VARIANTS OF THE BROTHERS GRIMM FAIRY TALES (as an example of translation of the fairy tale “Sweet porridge”)

Abstract. The Brothers Grimm are the favourite storytellers of the German people. However, their name is familiar not only to German readers, but to all peoples of the world. Because their tales have been translated into many languages. This article deals with the Uzbek translation of the Brothers Grimm's fairy tale “Sweet Porridge”.

Keywords: plot, folklore, motif, period graphics, fairy tale art, mentality, variant translation, microtext.

Kirish. Dunyodagi barcha xalqlar kabi nemis xalqi ham o‘z ertaklar dunyosiga va xazinasiga ega. O‘ziga xoslik ertak syujeti, voqealarning rivojlanishi va yechimi, ertaklarning boshlanishi va nihoyasi, qahramonlar nomi va voqealar o‘zbek xalq ertagiga o‘xshab ketadi. Biroq bu o‘xshashlik ertaklarimizning betakrorligini, milliy o‘ziga xos uslub rang – barangligini inkor etmaydi. Nemis xalq ertaklari deganda, albatta, ko‘pchilik o‘zbek kitobxonlari aka-uka Grimmlar to‘plagan ertaklarni ko‘z oldiga keltirishi tabiiy bir holdir, chunki boshqa adib va olimlar yozib olgan, to‘plagan hamda nashr ettirgan yuzlab ertak, afsonalar o‘zbek tiliga o‘girilmaganligi sababli xalqimizga ma‘lum emas edi.

Asosiy qism. Yevropada ertaklarni xalq orasidan to‘plab, sayqal berib yana xalqqa kitob holatida yetkazib berish yo‘lida ko‘plab folklorshunos olimlar jonbozlik ko‘rsatishgan. Xususan, aka-uka Grimmlar nomi bilan mashhur bo‘lgan Yakob (1785-1863) va Vilgelm (1786-1859) Grimmlar xalq og‘zaki ijodi namunalari va ertaklarni to‘plashgan. Bu jarayonda aka-ukalar turli usullardan foydalanishgan. Yakob ertaklarni asl holida qoldirish tarafdori bo‘lsa-da, ukasi Vilgelm ertaklar, asosan, bolalar uchun mo‘ljallanganligini hisobga olib, ularni soddalashtirish kerakligini ta‘kidlagan. Grimm ertaklari orasida “Oppog‘oy”, “Zolushka”, “Qor qiz”, “Gansning baxti”, “Quyvon va tipratikan”, “Botir tikuvchi”, “Bo‘ri va tulki”lar juda mashhur. 1812-yilda ular to‘plangan, o‘zgartirishlar kiritilgan ertaklarni “Kinder und Hausmärchen” (“Bolalar va oilaviy ertaklar”) nomi ostida nashr ettirishadi. Bu kitob birinchi jild bo‘lib, keyinchalik 1815-yilda ikkinchi jild ham chop ettiriladi. Yuqorida ko‘rsatilgan ikki jild 1822-yilda umumlashtirilib uchinchi jild yaratilgan. Grimmlarning uch jildlik kitoblarida ikki yuzdan ortiqroq ertaklar

jamlangan bo‘lib, unda mualliflar ko‘proq afsonaviy, maishiy va hayvonlar haqidagi ertaklarni umumlashtirishga harakat qilganlar. Har bir ertakda saxiylik, mehnatsevarlik, botirlik kabi fazilatlar bilan birga, qo‘rqoqlar ustidan kulish, dangasalik va yolg‘onchilikni qattiq qoralash birinchi o‘rinda turadi. Shunisi ham quvonchlik, ko‘pincha Grimmlar ertaklarining asosiy qahramonlari, shoh va shahzodalar emas, balki kambag‘al, beva-bechoralarning o‘g‘il-qizi, cho‘pon yoki askar bo‘ladi. Ular o‘zlarining ibratomuz ishlari bilan ertak tinglovchida chuqur taassurot qoldiradilar. Umuman, nemis xalq ertaklarini o‘zbekchallashtirish asrimizning 40-yillarida boshlanib, asosan, aka-uka Grimmlar ertaklarini o‘g‘irish bilan cheklangan. Bu xayrli ishni 1938-yil aka-uka Grimmlar to‘plamidan “Botir tikuvchi” ertagini rus tili orqali o‘g‘irgan Farid Rasulov boshlab bergan va bu tarjima lotin alifbosida bosilgan. Oradan bir yil o‘tgach, 1939-yilda Adham Rahmat tarjimasida sakkizta nemischa ertakdan iborat to‘plam o‘zbek bolalariga tortiq qilingan. Ushbu to‘plamdan barchaga mashhur “Bremen muzikachilari”, “Bir xurmacha shovla”, “Quyong bilan tipratikan” kabi ertaklar joy olgan. 1940-yilda esa o‘zbek bolalar nashriyatida aka-uka Grimmlarning “Oltin g‘oz” ertagi Vaxob Ro‘zimatov tarjimasida chop etildi. Keyingi yillarda (1954, 1963, 1978) aka-uka Grimmlar to‘plamidan o‘nlab ertaklar tarjima qilinib, o‘zbek bolalarining ertaklar dunyosini boyitdi. Shuni aytish kerakki, aka-uka Grimmlar to‘plamida jamlangan 210 ertakdan shu paytgacha 30 tacha ertak o‘zbekchallashtirilib, bu tarjimalar ruscha tarjima matnidan amalga oshirilgan [4; 297-298]. Ayrim ertaklar, jumladan, “Bremen muzikachilari”, “Botir tikuvchi”, “Bo‘ron kampir”, “Quyong bilan tipratikan”, “Yetti botir” kabi ertaklarning uch-to‘rt tarjima muqobillari mavjud. Aka-uka Grimmlarning “Bir xumcha shovla” ertagi o‘zbek tiliga turli yillarda bir necha bor tarjima qilingan. Ular ko‘proq rus tili vositasida o‘zbek tiliga o‘g‘irilgan. Bu tarjimalar quyidagilardir:

1. O‘zbek bolalar shoiri Adham Rahmat tomonidan 1938-yilda amalga oshirilgan vositali tarjima. U o‘sha yillarda amalda bo‘lgan lotin yozuvida, o‘zbek tilida chop etilgan [1; 36-38].

2. Oradan 40 yil o‘tib, bu ertak mutarjim mutaxassis Surayyo To‘raxonova tomonidan o‘zbek tiliga o‘g‘irilgan va krill yozuvida 1978-yilda chop qilingan [2; 447].

3. Ushbu ertak 2008-yilda internet sayti orqali ham e‘lon qilingan, ammo uning tarjimoni aniq ko‘rsatilmagan.

Ertakning shu uchala tarjima nusxasini qiyosiy o‘rganish natijasida quyidagi farqli belgilari borligi aniqlandi:

Birinchidan, Adham Rahmat o‘zi shoir bo‘lganligi uchun ertak badiiyatini saqlashga katta e‘tibor bilan yondashgan. Masalan, unda shavlanning oqishi daryo oqishiga o‘xshatilgan bo‘lsa, Surayyo To‘raxonova tarjimasida ariqqa o‘xshatilgan. Uchinchi tarjimada esa bunday ifodaning o‘zi mavjud emas.

Ikkinchidan, Adham Rahmat so‘zlarni aniq qo‘llashga harakat qilgan. Masalan, u ertak qahramoni – qizchanning o‘rmonga aynan maymunjon terгани ketganini aytsa, boshqa tarjimalarda uning o‘rnida umumiy ma‘no anglatuvchi “meva” so‘zi qo‘llangan. Bu holat kampirning qizchadan maymunjon so‘rashi motivida ham saqlangan.

Uchinchidan, Adham Rahmat ertakni eski lotin yozuvida qayta bayon etgani uchun unda unli va undosh tovushlar o‘sha davr grafikasi qonunlariga muvofiq berilgan:

a) unli grafikasida: o – o (ko‘p-kop, to‘ldi-toldi), o – a (bor-bar, biron-biran) tovushlari o‘zgargan holda talaffuzda ifoda etilgan. Rus tili ta‘sirida o‘zbek tiliga o‘zlashgan ya, yo, yu, yo kabi yotashgan tovushlar bitta j tovushini qo‘shish orqali yozilgan. Masalan: ya-ja (kifoya-kfaja), ye-je (yetgunicha-jetgunica), yu-ju (yugurdi-jugurdi), yo-ja (qayoqqa-qajajqa) kabi;

b) undoshlar grafikasida: g‘-q (savqab og‘ir-aqir), y-j (to‘xtaydi-toxtajdi, qo‘yib-qojib, yo‘l-jol), ch-s (uch-us, ko‘cha-koca), g-q (qolgan – qalqan) bilan almashgan holati kuzatiladi.

To‘rtinchidan, talaffuzda qisqa unililarning tushib qolish holati ko‘zga tashlanadi: shirin-shrin, shikoyatlanmadi-shkoyatlanmadi.

Beshinchidan, ertak nomi ilk variantda “Bir xurmacha shavla”, ikki variantda esa “Bir xumcha shovla” deb ko‘rsatilgan. Shuningdek, shavla va shovla so‘zlari ham ikki xil yozilgan. Agar “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga qaralsa, unda “shovla” so‘zi emas, shavla so‘zi berilgan. “Shavla” forscha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida o‘zlashgan so‘zlar qatorida turadi. Shavla guruchdan tayyorlangan yumshoq osh yoki go‘sht, sabzi-piyoz va guruch solib pishiriladigan bo‘tasimon ovqat turini anglatadi. [7; 565]

Xurmacha, odatda, qatiq ivitish, sut solib qo‘yish uchun ishlatiladigan qo‘shquloq sopol idishni bildiruvchi **xurma so‘ziga otlarga qo‘shiladigan -cha kichraytirish shakli qo‘shimchasini qo‘shishdan hosil qilingan. Xurma+cha=xurmacha so‘zi** kichik xurma ma‘nosini anglatadi.

Xumcha so‘zi ham shu tarzda hosil qilingan. U fors-tojikcha katta ko‘za ma‘nosini bildiruvchi **xum+cha=xumcha so‘ziga aloqador. Xum** biror suyuqlik, don va shu kabilarni saqlash uchun turli kattalikda yasaladigan, og‘zi torroq sopol idish bo‘lsa, xum uncha katta bo‘lmagan, kichik xum hisoblanadi [7; 446].

LITERARY CRITICISM

Demak, ushbu izohlar asosida xumcha va xurmachaning tuzilishida, yasalish usulida, ko‘rinishida biroz farq bor.

Oltinchidan, ertakda xumcha shavla qaynatishi uchun shart sifatida aytiladigan she’riy parcha berilishida farq bor:

A.Rahmat tarjimasida:

Bir, ikki, uch

– Xurmachada shavla pish.

Boshqa ikkala tarjimada:

Men uchgacha sanasam,

Qayna, sehrli xumcham!

Faqatgina keyingi ikkala tarjimaning birinchisida she’riy satrlar nihoyasi nuqta bilan, ikkinchisida undov belgisi bilan berilgan. Bu esa ularning aytilish ohangida farq borligini ilg‘ashga xizmat qiladi.

Mavjud tarjimalar so‘z va qo‘shimchalarning qo‘llanishi nuqtayi nazaridan ham ancha farq qiladi:

A.Rahmat: Onasi bu xurmachaga juda suyundi.	S.To‘raxonova: Ona bu xumchani ko‘rib quvonibdi.	Noma’lum tarjimon: Ona bu xumchani ko‘rib quvonibdi.
--	---	---

Yettinchidan, uchala tarjimonning gap tuzilishini tanlashida o‘zgachaliklar bor, ya’ni qaysinisidir sodda yoki murakkablashgan sodda gaplardan, qaysinisidir qo‘shma, murakkab qo‘shma gaplardan foydalanishi natijasida mikromatnlar hajmi turlicha bo‘lib qolgan:

Uy ham shavlaga to‘ldi. Uy oldida ham shavla, tomida ham shavla, hatto kochalar ham shavlaga to‘ldi, u hamon to‘xtamay shavlani pishiraverdi.	Xonaning hammayog‘i shovlaga to‘lib ketibdi, dahliz ham shovla, peshayvon ham shovla. Xumcha esa hamon pishirayotganmish.	Xonaning hamma yog‘i shovlaga to‘lib ketibdi: dahliz ham shovla, peshayvon ham shovla. Xumcha hamon pishirayotganmish. Tomlarga ham, hovlilarga ham shovla toshib chiqibdi. Hatto ko‘chalardan ham shovla oqayotganmish.
---	---	---

Ertakning tarjima variantlari o‘rtasidagi farqlarni quyidagi jadval asosida yanada yorqin kuzatish mumkin:

Ertakning “Bir xurmacha shavla” nomi bilan Adham Rahmat tarjimasi (1938)	Ertakning “Bir xumcha shovla” nomi bilan Surayyo To‘raxonova tarjimasi (1978)	Ertakning “Bir xumcha shovla” nomi bilan Tarjimoni ko‘rsatilmagan. (2008)
Boshlanishi: “ Bor ekan, yo‘q ekan , bir qizcha yashar ekan”.	Boshlanishi: “ Bir bor ekan, bir yo‘q ekan , bir qizcha bo‘lgan ekan”.	Boshlanishi: “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir qizcha bo‘lgan ekan”.
“Qizcha bir kuni o‘rmonga maymunjon olib kelish uchun bordi va unda bir kampirni uchratdi.	“Qizcha meva tergani o‘rmonga boribdi-yu, u yerda bir kampirni uchratib qolibdi.	“Qizcha o‘rmonga meva tergani boribdi-yu, u yerda bir kampirni uchratib qolibdi.
– Salom , – debdi kampir qizchaga , – menga rahm etib maymunjonningdan bersangchi!	– Salom, qizcha , – debdi unga kampir . – Menga mevalaringdan ber, aylanay.	– Salom, qizcha, – debdi unga kampir. – Menga mevalaringdan ber, aylanay.
– Ma, kampir , – debdi, qizcha.	– Oling, buvijon , – debdi, qizcha.	– Oling, momojon , – debdi, qizcha.
Kampir maymunjonni yeb bo‘lib:	Kampir mevalardan biroz yebdi-da:	Kampir mevalardan biroz yebdi-da:
– Sen menga maymunjon berding, man ham senga biro narsa sovg‘a qilaman, – debdi.	– Menga meva berding, endi senga men ham bir narsa sovg‘a qilaman, – debdi.	– Menga meva berding, endi senga ham bir narsa sovg‘a qilaman, – debdi.
– Mana senga xurmacha , sen faqat shuni aytishing kerak:	– Mana senga xumcha. Faqat: Men uchgacha sanasam,	– Mana senga xumcha. Faqat: Men uchgacha sanasam,

LITERARY CRITICISM

Bir, ikki, uch – Xurmachada shavla pish.	Qayna, sehrli xumcham, – desang bo‘ldi.	Qayna, sehrli xumcham! – desang bo‘ldi.
Shunda u shirin, mazali shavla pishaboshlaydi!	U mazali shovla pishira boshlaydi.	U mazali shovla pishira boshlaydi.
Undan so‘ng aytasanki: Bir, ikki, uch Pishirishdan kech. Shundan so‘ng xurmacha shavla pishirishdan to‘xtaydi.	Unga: – Men uchgacha sanasam, Qaynashdan, to‘xta xumcham. – desang, u pishirishdan to‘xtaydi.	Unga: – Men uchgacha sanasam, Qaynashdan, to‘xta xumcham! – desang, u pishirishdan to‘xtaydi.
– Rahmat buvi , – dedi qizcha, va xurmachani olib uyiga onasining oldiga ketdi.	– Rahmat, buvijon , – debdi qizcha va xumchani olib uyiga, onasining oldiga ketibdi.	– Rahmat, momojon , – debdi qizcha va xumchani olib uyiga, onasining oldiga ketibdi.
Onasi bu xurmachaga juda suyundi.	Ona bu xumchani ko‘rib quvonibdi.	Ona bu xumchani ko‘rib quvonibdi.
Minnatsiz, ovarasiz hammavaqt shirin va mazali shavla bo‘lsa-yu, tag‘in qanday suyunmasin?	Dasturxonda doimo bemashaqqat, betashvish xushxo‘r, mazali shovla tayyor turadi-yu, quvonmay bo‘larkanmi?	Dasturxonda doimo bemashaqqat, betashvish xushxo‘r, mazali shovla tayyor turadi-yu, quvonmay bo‘larkanmi?
Bir vaqt qiz qayoqqadir uydan ketdi. Onasi bo‘lsa xurmachani o‘z oldiga qo‘yib: Bir, ikki, uch Xurmachada shavla pish, dedi.	Bir kuni qizcha qayoqqadir ketgan ekan, ona xumchani oldiga qo‘yib: – Men uchgacha sanasam, Qayna, sehrli xumcham, – debdi.	Bir kuni qizcha qayoqqadir ketgan ekan, ona xumchani oldiga qo‘yib: – Men uchgacha sanasam, Qayna, sehrli xumcham! – debdi.
U shavla pishiraboshladi.	Xumcha pishira ketibdi.	Xumcha pishira ketibdi.
Juda ko‘p shavla pishirdi.	Ko‘p shovla pishirib yuboribdi.	Ko‘p shovla pishirib yuboribdi.
Onasi yedi, juda qorni to‘ydi.	Ona yeb qorni to‘yib qolibdi.	Ona yeb qorni to‘yib qolibdi.
Ammo xurmacha shavlani pishiraverdi.	Xumcha bo‘lsa hadeb pishirayotgan emish.	Xumcha bo‘lsa hadeb pishirayotgan emish.
Uni qanday qilib to‘xtatib bo‘ladi?	Qanday qilsa to‘xtarkin?	Qanday qilsa to‘xtarkin?
Bir, ikki, uch Pishirishdan kech, deyish kerak edi. Lekin onasi bu so‘zni esidan chiqarib qo‘ygan edi, qizcha esa uyda yo‘q edi.	“Men uchgacha sanasam, Qaynashdan, to‘xta xumcham”, deyish kerak ekan-u, ona bu so‘zlarni unutib qo‘ygan ekan.	“Men uchgacha sanasam, Qaynashdan, to‘xta xumcham!” deyish kerak ekan-u, ona bu so‘zlarni unutib qo‘ygan ekan.
Xurmacha hamon shavla pishiraverdi.	Xumcha hadeb pishiraveribdi.	Xumcha hadeb pishiraveribdi.
Uy ham shavlaga to‘ldi. Uy oldida ham shavla, tomda ham shavla, hatto ko‘chalar ham shavlaga to‘ldi, u hamon to‘xtamay shavlani pishiraverdi.	Xonaning hammayog‘i shovlaga to‘lib ketibdi, dahliz ham shovla, peshayvon ham shovla. Xumcha esa hamon pishirayotganmish.	Xonaning hamma yog‘i shovlaga to‘lib ketibdi: dahliz ham shovla, peshayvon ham shovla. Xumcha hamon pishirayotganmish. Tomlarga ham, hovlilarga ham shovla toshib chiqibdi. Hatto ko‘chalardan ham shovla oqayotganmish.
Onasi juda qo‘rqdi, qizchasiga yugurdi. Lekin yo‘lda issiq shavla daryo bo‘lib oqishidan o‘tish uning uchun juda og‘ir edi.	Ona qo‘rqib ketibdi, qizchani chaqirgani yuguribdi, faqat yo‘ldan o‘tishning sira iloji bo‘lmabdi – issiq shovla ariq bo‘lib oqib	Ona qo‘rqib ketibdi.

LITERARY CRITICISM

	yotgan emish.	
Yaxshi qizchasi uydan uzoqda emas edi.	Xayriyatki, qizcha uydan uncha uzoqda emas ekan.	Xayriyat, qizcha uydan uncha uzoqda emas ekan.
Qizcha ko'chadagi voqeadan xabardor bo'lib darrov uyga yugurdi.	Ko'chada nimalar bo'layotganini ko'rib qolibdi-yu, g'izillagancha uyiga chopibdi.	Ko'chada nimalar bo'layotganini ko'rib qolibdi-yu, g'izillagancha uyga chopibdi.
Juda zo'r qiyinchilik bilan kelib eshikning xalqasidan ushlab ochdi va Bir, ikki, uch Pishirishdan kech deb qichqirdi.	Bir amallab peshayvonga chiqibdi-da, eshikni ochib qichqiribdi: – Men uchgacha sanasam, Qaynashdan, to'xta xumcham.	Bir amallab peshayvonga chiqibdi-da, eshikni ochib qichqiribdi: – Men uchgacha sanasam, Qaynashdan, to'xta xumcham!
Shunda xurmacha shavla pishirishdan to'xtadi.	Xumcha pishirishdan to'xtabdi.	Xumcha pishirishdan to'xtabdi.
Ammo xurmacha shavlani shunday ko'p pishirdiki, kimning qishloqdan shaharga borishiga to'g'ri kelgan bo'lsa, unga bu shavla shaharga yetgunicha kifoya qilar edi.	Shovlani esa xumcha shuncha ko'p pishirib yuborgan ekanki, kim shaharga bormoqchi bo'lsa, shovla yeb, o'ziga yo'l ochishi kerak ekan.	Shovlani esa xumcha shunchalik ko'p pishirib yuborgan ekanki, kim shaharga bormoqchi bo'lsa, shovla yeb, o'ziga yo'l ochishi kerak ekan.
Hech kim bundan shikoyatlanmadi.	Faqat hech kim bundan shikoyat qilmabdi.	Faqat hech kim bundan shikoyat qilmabdi.
Chunki shavla juda shirin va mazali edi.	Shovla xushxo'r va mazali ekan-da.	Shovla xushxo'r va mazali ekan-da.

Ko'rinyaptiki, ikkinchi va uchinchi tarjimada ertak boshlanmasi bir xil keltirilgan. Ularda vaqt noaniqlikni bildiruvchi “bir” so'zi vositasida aniq ifodalanmagan. Birinchi tarjimada salomlashish holati undalmasiz keltirilgan va salomning kimga qaratilgani kesim orqali ifoda qilingan. Unda -chi so'roq-taajjub yuklamasi buyruq, iltimos ma'nosida qo'llangan. U o'sha davr grammatikasiga ko'ra so'zga hozirgiday chiziqcha bilan qo'shilmasdan, to'ppa-to'g'ri qo'shilib yozilavergan.

Birinchi tarjimada qizchaning yoshi katta insonga “Ma, kampir” deb murojaat qilishi, mentalitetimizga zid hisoblanadi. Ammo keyingi tarjimalarda holat boshqacha. Qizcha kampirga buvijon, momojon undalmasi orqali murojaat qilgan. Buvi va momo so'zlari adabiy til va sheva nuqtayi nazaridan o'zaro sinonim bo'lgani uchun ularni ma'nodoshlikda qo'llash xatolik sanalmaydi. A.Rahmat tarjimasida “Kampir maymunjonni yeb bo'lib” jumlasini keltirilar ekan, uning maymunjonlarni to'liq yeb bitirgani anglatilgan. Keyingi tarjimalarda esa “Kampir mevalardan biroz yebdi-da” deganda, uning mevalardan qisman va kam yegani tushuniladi.

A.Rahmat tarjimasida ko'makchi fe'lli fe'l qo'shilmalari qo'shib yozilgan: “Shunda u shirin, mazali shavla **pishaboshlaydi!**”. Yana uning tarjimasida “va” bog'lovchisidan so'ng vergul noo'rin ishlatilgan: “Rahmat buvi, – dedi qizcha, va xurmachani olib uyiga onasining oldiga ketdi. Yoki yana: “U shavla **pishiraboshladi!**”.

Xulosa. Xullas, olmon ertakchilari sifatida nom qozongan aka-uka Grimmlarning juda ko'p ertaklari o'zbek tiliga bir marta emas, bir necha marta goh shoir va yozuvchilar, goh professional mutarjimu olimlar tomonidan turli yillarda tarjima qilinganki, bu tarjimalar biri ikkinchisini inkor qilmagan holda yashab kelmoqda. Bunday tarjima nusxalarining biri ikkinchisini inkor qilmagan holda yonma-yon yashab kelayotgani esa ularni “variant tarjimalar” deb ko'rsatishga imkon bera oladi.

ADABIYOTLAR:

1. Aka-uka Grimm ertaklari. Adham Rahmat tarjimalari. – O'zSSR Davlat nashriyoti, 1938. – B.36-38.
2. Aka-uka Grimm ertaklari. Ruschadan Surayyo To'rxonova tarjimasini. – O'zLKSMM MK “Yosh gvardiya” nashriyoti, 1978. – 447 b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 4-jild. Tartibot-Shukr. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – B.565.
4. Yetti oqqush. Olmon xalq ertaklari. Xurram Raximov va Sharifa Salimova tarjimalari. – Toshkent. “Cho'lpon” nashriyoti, 1991. – 297-298 b.

LITERARY CRITICISM

5. Karimova Dilafruz Halimovna. *Variability and invariability in Fairy tales (as the exsample of the translation of Grimms Fairy Tales)*. // *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*. ISSN: 1475-7192. Volume 27 January 2020. P. 138-144

6. Каримова Дилафруз Ҳалимовна. *Вариантность в переводе (на примере произведений братьев Гримм)*. // Журнал «Вестник науки и образования». Издательство «Проблемы науки». 2019. №4 (58). Часть 2. Российский импакт-фактор: 3,58. Научно-методический журнал. Стр 43-46.

7. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдлик. 4-жилд. Тартибот-Шукр. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б.565.

“RO‘YO YOXUD G‘ULISTONGA SAFAR” ROMANIDA RAMZIYLIK VA UNING IFODALANISHI

*Ubaydullayeva Rayxon Abdujalil qizi,
Guliston davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va tillarni o‘qitish kafedrasida o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqola A. A‘zamning “Ro‘yo yohud G‘ulistonga safar” asaridagi ramziylik masalalarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada asardagi asosiy ramziy obrazlar, tush va sayohat motivlarining falsafiy va ijtimoiy talqinlari yoritilgan. Ushbu asar o‘zbek adabiyotida ramziylikning yorqin namunasi bo‘lib, jamiyat va inson ruhiyatini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Yana mazkur tadqiqotda zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi ramziylik masalasi tahlil qilinadi. Nazar Eshonqulning “Tobut” va Xurshid Do‘stmuhammadning “Jajman” hikoyalari misolida ramziylikning ma‘no qatlamlari va badiiy-estetik ahamiyati ochib beriladi. Ramzning o‘ziga xos ko‘rinishlari orqali jamiyatning mafkuraviy va axloqiy muammolari yoritilib, o‘zbek adabiyotidagi badiiy tasvir usullari tahlil qilinadi. Ahmad A‘zamning “Ro‘yo yohud G‘ulistonga safar” asari ramziy va falsafiy jihatlar bilan zamonaviy o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin egallaydi. Asar inson hayotining o‘tkinchiligi, orzularning amalga oshishi va ma‘naviy mukammallikka intilish masalalarini qamrab oladi.

Kalit so‘zlar: ramziylik, timsol, majoz, badiiy tasvir, zamonaviy o‘zbek adabiyoti, A.A‘zam, “Ro‘yo yohud G‘ulistonga safar”, Nazar Eshonqul, Xurshid Do‘stmuhammad, estetik tahlil, mafkura, ijtimoiy muammolar.

СИМВОЛИЗМ И ЕГО ВЫРАЖЕНИЕ В РОМАНЕ “СОН ИЛИ ПУТЕШЕСТВИЕ В СТРАНУ ЦЕПЕЙ ”

Аннотация. Данная статья посвящена анализу вопросов символизма в работе А.Аъзама “Сон или путешествие в страну цепей”. В статье рассматриваются философские и социальные интерпретации основных символических образов, мотивов снов и путешествий в произведении. Это произведение является ярким примером символизма в узбекской литературе и позволяет глубоко проанализировать общество и психику человека. В данном исследовании анализируется вопрос символизма в современной узбекской литературе. На примере рассказов Назара Ишанкула “Гроб” и Хуршида Дуст Мухаммеда “Джаджман” раскрываются смысловые слои и художественно-эстетическое значение символики. Через специфические проявления символа освещаются идеологические и нравственные проблемы общества, анализируются приёмы художественного изображения в узбекской литературе. Произведение Ахмада Аъзама “Сон или путешествие в страну цепей” занимает важное место в современной узбекской литературе, как в символическом, так и в философском аспектах. Работа затрагивает вопросы мимолётности человеческой жизни, осуществления желаний и стремления к духовному совершенству.

Ключевые слова: символика, эмблема, образ, художественный образ, современная узбекская литература, А. Аъзам, “Сон или путешествие в страну цепей”, Назар Ишанкул, Хуршид Дуст Мухаммад, эстетический анализ, идеология, социальные проблемы.

SYMBOLISM AND ITS EXPRESSION IN THE NOVEL “A DREAM OR A JOURNEY TO THE LAND OF CHAINS”

Abstract. This article is devoted to the analysis of the issues of symbolism in the work of A. Azam “A dream or a guide to the land of chains”. The article examines the philosophical and social interpretations of the main symbolic images, motifs of dreams and guidebooks in production. This phenomenon is a vivid example of symbolism in Uzbek literature and allows for a deep analysis of society and the human psyche. This study analyzes the issue of symbolism in modern Uzbek literature. Using the example of the stories by Nazar Ishankul “Coffin» and Khurshid Dust Muhammad “Jajman”, the mixed layers and the artistic and aesthetic significance of symbolism are revealed, ideological and topical problems of society pass through specific manifestations of the symbol, and the techniques of creative self-expression in Uzbek literature are analyzed. Ahmad Azam's work “A Dream or a guide to the Land of Chains” occupies an important place in

modern Uzbek literature both in symbolic and philosophical aspects. The work touches on the issues of the transience of human life, the formation of desires and the pursuit of spiritual perfection.

Keywords: *symbolism, emblem, image, artistic image, modern Uzbek literature, A. Azam, "A dream or a guide to the land of chains", Nazar Ishankul, Khurshid Dust Muhammad, aesthetic analysis, ideology, social problems.*

Kirish. Ramzlarning insoniyat hayotidagi o'rni va ahamiyati naqadar salmoqli ekanligini buyuk faylasuf Konfutsiyning "Olamni so'z va qonun emas, balki belgilar va ramzlar boshqaradi" degan iborasi orqali izohlash mumkin. Haqiqatan ham jangovar bayroqlarda aks etgan ramzlar millatlar va elatlarni birlashtirish hamda jipslashtirishga xizmat qilgan va fuqarolarning vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otib, yurti uchun jonini ham ayamay jangga kirishga chorlagan. Ramzlarning tahqirlanishi esa jiddiy etnik yoki davlatlararo mojarolarni keltirib chiqarishi tabiiy. Har ikki holat bo'yicha ham tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin.

Umuman, inson madaniyati va tafakkurining o'ziga xos ko'rinishi hisoblangan ramziylik qadimgi mifologiyada, turli dinlarda, san'atning arxaik shakllarida ko'zga tashlanadi. Qadimgi Misr, Sharq, Antik dunyo, O'rta asrlar va Uyg'onish madaniyatini ramziylikning o'ziga xos ko'rinishlarisiz tasavvur etish qiyin.

Bir-biridan uzoq bo'lgan predmetlar o'rtasidagi "muvofiqlik" tamoyili (masalan, ma'naviy va moddiy dunyo o'rtasidagi) voqea-hodisalarning transsendent aloqalari sifatida o'rta asrlar falsafasi va adabiyotida ancha jiddiy tadqiq etilgan. Bundan tashqari, majoziylik Sharq mumtoz adabiyoti, Yevropa klassitsizmi, barokko va ma'rifatparvarlik davri san'atida ham keng tarqalgan. Shundan kelib chiqib, oyna, ko'zgu, surat, portret ramzlari poetikasi tadqiqiga o'tishga avval ramz va unga yaqin bo'lgan majoz tushunchasi, ular o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlar hamda badiiy adabiyotdagi ramziylik masalasiga to'xtalish lozim, deb hisobladik¹.

Ma'lumki, biron-bir hodisa mohiyatini shartli ravishda ifodalovchi narsa va so'z simvol yoki ramz deb ataladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ramzga "biror g'oya, tushuncha, hodisa kabilarni ifodalovchi, eslatuvchi shartli belgi, ishora" [1] deb ta'rif berilsa, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da ramz – voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli va badiiy shartlilik shakllaridan ekanligi, u majozdan farq qilib, mazmun obrazli qurilish bilan bog'liq bo'lishi hamda ko'pma'noliligi bilan ajralib turishi izohlanadi [2].

Asosiy qism. "Adabiyotshunoslik lug'ati"da ramz "ko'chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko'chma ma'no kasb etuvchi so'z yoki so'z birikmasi; obrazlilik turi" deb ta'riflanadi [3]. Haqiqatan ham, ramz majoz (allegoriya)ga yaqin bo'lib, ba'zi hollarda ularni bir xil hodisa deb qarash ham mavjud. Lekin ularning farqi shuki, ramz kontekst doirasida ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda qo'llanilishi mumkin. U.Xarmon ta'kidlashicha, ramz o'zida asliga muvofiqlik va hissiy jihatlarni mavhum aspekt bilan birlashtiradi [4]. Professor H.Boltaboyev ramz va ramzlikka xos belgilarga quyidagicha ta'rif beradi: "Ramz... faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko'chma ma'no kasb etuvchi so'z yoki so'z birikmasi; obrazlilik turi. Ramzning ma'nosi kontekst doirasida va shartdan xabardorlik bo'lganda reallashadi. Cho'lpon she'riyatidagi "yulduz", "bulut", "bahor", "qish" obrazlari ramzning yorqin timsoli bo'la oladi. Jumladan, mashhur "Qalandar ishq" she'rini ishqiy mavzudagi she'r sifatida tushunaverish mumkin. Biroq undagi ramzlar qatida boshqa ma'no ham mustaqil holda mavjud bo'lib, uni o'z vaqtida shoirga ruhan yaqin kishilar yaxshi tushunishgan. Sababi ular ramzlarning ma'nosi anglashiladigan kontekstdan - shoirning hayot yo'li, orzu-intilishlari, she'r yozilgan paytdagi ruhiy holati va hokazo omillardan xabardor bo'lganlar" [5]. Demak, ramzlarning haqiqiy ma'nosi – ko'chma ma'nosini anglash uchun kontekstdan shoir yoki yozuvchining hayot yo'li, orzu-intilishlari, asar yozilishiga turtki bo'lgan vaziyat yoki ijodkorning o'sha paytdagi ruhiy holatidan xabardor bo'lishi talab etiladi. Ramziylikda so'zni tushunish, anglash barobarida ishorani ko'zda tutish taqozo qilinadi. Shu o'rinda ramz va majoz o'rtasidagi farqqa yanada aniqlik kiritish lozim bo'ladi.

Badiiy ijodda qo'llaniladigan ramz (simvol)lar o'zining xarakteri va bajaradigan vazifasi jihatidan farqlanadi. Poetik simvollar haqida fikr yuritgan A.Sharopov simvol-obraz va simvol belgi o'rtasidagi munosabatni alohida tahlil qiladi [6]. Simvollarining qo'llanish chegarasi xilma-xil bo'lib, u turli sohalarida uchraydi. Simvol tushunchasi faqat san'atdagina emas, me'morchilik, matematika, fizika, kimyo, kibernetika, tilshunoslik, falsafa kabi ijtimoiy va aniq fanlarda ham keng qo'llaniladi. Shuning uchun ham hozirda simvollar bilan bog'liq bo'lgan semiotika fani ham jadal rivojlanmoqda. Simvol keng ma'noda belgi

¹ O'zbek tilida "oyna", "ko'zgu" atamaları orqali deyarli bir xil – aks ettirish vositasiga aylanadi. "Surat" orqali har qanday tasvirni (inson, tabiat, turli jonzo'tlar), "portret" da esa o'z navbatidagi faqat inson tasviri aks ettirilgan san'at asarini tushunamiz. Shundan kelib chiqib, ishimizda oyna va ko'zgu hamda surat va portret atamalaridan sinonimlar sifatida foydalandik.

tushunchasini anglatadi. Poetik simvol badiiy shartlilik vositasida nisbatan kengroq abstrakt ma'noni ifoda etadi. Simvol – belgida mohiyat va ifoda o'rtasida ichki bog'liqlik bo'lmaydi. Fikrimizni matematika yoki fizika faniga oid simvollar misolida isbotlash mumkin. Poetik simvol yoki ramziy obrazlarda predmet bilan ma'no o'rtasida ichki, mantiqiy aloqa bo'lishi shart hisoblanadi.

Ma'lumki, ramzlar ilmiy, falsafiy, badiiy va mifologik turlarga bo'linadi. Xususan, matematikada ramzlarning mukammal shakllaridan foydalaniladi. Matematikadan umuman xabari bo'lmaganlar uchun to'g'ri chiziqning bo'lagi ma'lum sondagi bo'laklarga bo'lish mumkin bo'lgan katakni yodga solsa-da, aslida u ko'plab haqiqiy (ya'ni barcha ratsional va barcha irratsional) sonlarni hosil qilish ramzi ham hisoblanadi.

Falsafiy ramzlar ilmiylardan faqatgina xulosalarning benihoya umumlashganligi bilan farqlanadi. Qaysi bir falsafiy kategoriyani olmaylik (reallik, sabab, zarurat, ozodlik va h.k) biz o'zimizga o'zimiz savol berib, ularning ramziy mohiyatini aniq kuzata olmaymiz.

Badiiy va mifologik ramzlar haqida gap borganda, so'z san'ati bo'lgan adabiyotning o'zi ramz va ishoralardan iborat ekanligini yana bir bor ta'kidlash lozim bo'ladi. O'z navbatida, mazkur turga mansub ramzlar haqida kengroq to'xtashga to'g'ri keladi.

Har qanday san'at, hatto o'ta realistik bo'lgan taqdirda ham ramziy obrazlarsiz mavjud bo'lmaydi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida ijod qilgan simvolistlar badiiy realizmda ramzlardan foydalanganligi bilan emas (chunki ushbu ramzlardan realizmda ham foydalanganlar), balki sof g'oyaviy o'ziga xosliklari bilan farq qilganlar. Hech kim Gogolning "Revizor" idagi realizmga shubha bilan qaramaydi. Biroq ushbu asar XIX asr o'rtalaridagi islohotgacha bo'lgan Rossiya amaldorlarining ramziga aylangan. Bu ramzsiz "Revizor" o'tkir satira bo'la olmas edi. Asar so'ngidagi so'zsiz sahna daxshat va kutilmagan hodisaning ramzi bo'lib, adib uni juda puxta tayyorlagan (hatto qalam bilan ularning qanday holatda qotib qolishlarigacha chizgan). Imperator nomi bilan kirib kelgan jandarm esa komediyada tasvirlangan "kichkina odamlardan" yuqori turuvchi davlat hokimiyatining ramzi sifatida gavdalanadi.

Nemis adibi T.A.Gofman asarlari, O.Balzakning "Sag'ri teri tilsimi", Gogolning "Portret", O.Uaylidning "Dorian Greyning portreti" roman va qissalari, Eldar Poning hikoyalari, mifologik-ramziy yo'nalishdagi asarlar hisoblanadi.

Ramz va majozdan foydalanish borasida Dantening "Ilohiy komediya"si bitmas-tuganmas xazina hisoblanadi. Asarning boshlanishida ("Do'zax" 1, 2-60 b) Dante o'zini o'rmonda adashib qolganligini tasvirlaydi. Qo'rqinchli o'rmonda u uchta hayvon bilan uchrashadi, bular: yol'gon, xoinlik va shahvatparastlik ramzi qoplon; mag'rurlik va zo'ravonlik ramzi bo'lgan sher; makkorlik va manmanlik ramzi bo'lgan bo'ridir. Ularning erkin va rang-barang bo'yoqlarda berilishi badiiy obrazlar ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ular ramz va majoz ekanligi ham oydek ravshan. Xulosa qilib aytish mumkinki, asarda badiiylik, ramziylik, majoziylik va mifologiya uyg'unlashib ketgan.

Biz ramzni obrazli ifodaning bir ko'rinishi sifatida badiiy nutqda hayotiy voqea, tushuncha va narsalarni ifodalash uchun shartli ravishda ko'chma ma'noda ishlatiladigan so'z yoki so'zlar birikmasi deb bilamiz [8]. Lekin bugungi kunga kelib, ramz tor ma'nodagi so'z va so'zlar birikmasining ko'chma ma'noda qo'llanishidan chuqur falsafiy mazmuni anglatuvchi matn darajasiga ko'tarildi. Hozirda ramzni inson va jamiyatning adabiy va global muammolarini qamrab oluvchi hamda shartli ravishda ko'chma ma'nolarga tayanuvchi badiiy matn ko'rinishi, deb hisoblash mumkin.

Zamonaviy adabiyotda qo'llanilayotgan ramziy obrazlar nafaqat boy va xilma-xil, balki sirli hamda murakkab ekanligi bilan diqqatga sazovordir. Ana shu ramzlar ortida yashiringan mazmuni to'la anglash, his etish uchun kitobxondan birmuncha tayyorgarlik, turli xil bilimlardan xabardor bo'lish talab etiladi.

A.Kamyuning Ikkinchi jahon urushidan keyin (1947) yaratgan "Vabo" romanida o'lat tasviri orqali fashizmning majoziy obrazi aks ettirilgan, degan fikr adabiyotshunoslikda muhrlanib qolgan. Adabiyotshunos D.Quronov Cho'lpon nasri poetikasini tadqiq etar ekan, badiiy asar muayyan davr mahsuli bo'lgani holda, ularni faqat davr bilan bog'labgina tushunish xato ekanligi haqida yozadi. Zero, "... chinakam san'atkor ijod onlarida voqelikdan uziladi, bu ilohiy damlarda uning uchun vaqt chegaralari mavjud emas – u o'tmish, hozir va kelajakni birlashtirgan katta VAQT hukmida yashaydi" [9]. Shunga ko'ra, Kamyu "Vabo"da nafaqat fashizmning majoziy obrazini, balki hech qachon to'la chekinmaydigan, vaqti-vaqti bilan bo'y ko'rsatib, insonlarni esankiratib qo'yadigan sirli kuchni ham tasvirlaganligiga guvoh bo'lamiz. Bunday ofat loqaydlik, befarqlik avj olgan har qanday jamiyatda ro'y berishi mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

O'zbek adabiyotida ham ramziy (simvolik) asarlar ko'plab yozuvchilar va shoirlar tomonidan yaratilgan. Quyida ba'zi ramziy asarlar va ularning mualliflariga misollar keltirishni lozim topdik. Abdulla Qodiriy – "O'tkan kunlar" romani ramziylikka boy bo'lib, unda o'zbek xalqining tarixiy o'tmishi, erkinlikka intilishlari va o'sha davrda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy muammolari ramziy tasvirlangan. Chingiz Aytmatov – "Asrga tatigulik kun" (O'zbek tiliga tarjima qilingan) asarida "Manqurt" obrazi ramz sifatida ishlatilgan

bo'lib, bu xalqning tarixini unutgan, o'z ildizidan uzilgan odamlar obrazini ifodalaydi. Abdulla Qahhor – “Sarob” romani shaxsiy hayot, sevgi va ideallar bilan bog'liq ramziy obrazlarga to'la bo'lib, insonning ichki kechinmalari va ijtimoiy muhit ta'siri ramziy ravishda ochib beriladi. Erkin Vohidov – “Ruhlar isyoni” she'riy asarida insoniyatning ma'naviy qadriyatlari, ijtimoiy muammolari va inson erkinligi masalalari ramzlar orqali tasvirlangan. O'tkir Hoshimov – “Dunyoning ishlari” qissa va hikoyalarida hayotiy voqealar ramziy ma'noga ega bo'lib, oddiy odamlar hayotidagi murakkabliklar va insoniy qadriyatlarning qiymati ifodalanadi. Mirtemir – “Turon” she'rida Turon o'lkasi ramzi orqali xalqning buyuk tarixi, orzu-umidlari va o'zlikni anglash jarayonlari tasvirlangan. Ramziy asarlar odatda chuqur ma'noga ega bo'lib, ular orqali muallif o'z fikr va hissiyotlarini nozik tarzda ifoda etadi. Shu kabi asarlarni o'qish ham adabiy, ham falsafiy zavq bag'ishlaydi.

Ramziy timsollardan foydalanish zamonaviy o'zbek yozuvchilari ijodida ham muhim o'rin tutadi. Bu o'rinda Asqad Muxtorning “Chinor”, Murod Muhammad Do'stning “Lolazor”, Asad Dilmurodning “Fano dashtidagi qush”, Omon Muxtorning “Aflotun” romanlarini ta'kidlash lozim bo'ladi. Bu asarlar chuqur tagma'noga ega bo'lgan ramziy detal va obrazlarga boy. Xususan, “Aflotun” asarida yozuvchi tomonidan qo'llanilgan quduq detaliga falsafiy – tasavvuriy ma'no yuklatilgan. Ya'ni quduq dunyo ramzi. Yoki asardagi Suqrot obrazini tahlil davomida Komil inson ramzi deb talqin qildik.

Zamonaviy o'zbek adabiyotidagi o'ziga xos tasvir uslubiga ega bo'lgan adiblardan biri Nazar Eshonqul ham “Tobut” hikoyasida ramziy tagma'noga asoslangan timsolga murojaat qilganligini anglash mumkin. Shahardagi barcha uchun jumboq bo'layotgan o'lat sababi hikoya oxirida ma'lum bo'ladi: telba me'mor chizgan loyihadan ma'lum bo'lishicha, shahar tobut shaklida qurilgan ekan. Shaharning kelajagi inqiroz va zavol ekanligini oldindan bashorat qilish mumkin edi. Chunki tobutdan hech kim chiqib keta olmaydi.

Hikoya bilan tanishgach, Nazar Eshonqul tobut shaklida qurilgan makon timsolida sho'rolar tuzumi, shahar bo'ylab kezib yuruvchi badbo'y hid orqali sho'rolar mafkurasi ramzini yaratgan, degan xulosaga kelish mumkin.

“Tobut” hikoyasi singari 90-yillarda o'zbek adabiyotida yaratilgan bir qator asarlarda mavhum bir jamiyat, tuzum, mafkuraning ramziy tasviriga duch kelamiz. Ulardagi qahramonlar ko'pincha notabiiy sharoitlarda, mavhum, sirli muhitda tasvirlanadi. Mana shu absurt olamni aks ettirish ortida, asosan, sobiq Ittifoq yoxud kommunistik tuzum davridagi insonlar va ularning ruhiy, ma'naviy olami nazarda tutilayotganini ilg'ab olish qiyin emas.

Shu ma'noda, Xurshid Do'stmuhammadning “Jajman” hikoyasi ham xarakterlidir. “Jajman”da nemifologik tasvir tamoyillaridan unumli foydalanilgan. Vaqtning siklik modeli asosida bir necha ming yil avval yashagan payg'ambar Zardusht qariya – iymon, e'tiqod, doonishmandlik ramzi sifatida namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda, adabiyotshunos Q.Yo'ldoshevning ramziylikning asosiy xususiyati undan jo'yali ma'no chiqarish mumkinligi haqidagi fikriga [10] qo'shilish mumkin.

Demak, insoniyat tamaddunining ilk bosqichidayoq ramz va ramziylik hayot haqidagi tasavvurlarning ajralmas qismiga aylandi. G'orlardan topilgan qadimgi suratlardan boshlab hayotdagi har bir holat, buyum, belgi qat'iy bir tizimga solingan, texnika tili bilan aytganda, kodlangan davrni boshdan kechirdi. Lekin shunga qaramay, ramz badiiy adabiyotda insonning murakkab ichki dunyosini, olam bilan aloqasini tasvirlash uchun muhim vosita vazifasini bajaradi.

Muayyan badiiy-estetik maqsadda so'zni ko'chma ma'noda qo'llash san'ati hisoblangan ko'chimning majoz, ramz singari ko'rinishlari badiiy matnda tasviriylik va ifodaviylikni kuchaytirish vositasi sifatida keng qo'llaniladi.

Ramz va majoz tushunchalari ifoda jihatdan yaqin bo'lsa-da, ular o'rtasidagi asosiy tafovut ramzning matnda ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda qo'llanilishi, majoz esa tasvirlanayotgan narsani emas, muallif ko'zda tutgan ma'noni anglatishi bilan belgilanadi.

Yozuvchining assotsiativ fikrlashi mahsuli bo'lgan ramziy obrazlar asarning g'oyaviy-estetik ta'sirini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, ramziylik san'at va adabiyotning asosiy unsurlaridan biri sifatida qadimgi davrlardan hozirgacha taraqqiy etib, o'ziga xos ko'rinishlarga ega bo'lib kelmoqda.

Tadqiqot ishimizning asosiy obyekti A.A'zamning “Ro'yo yohud G'ulistonga safar” asari tanlab olinganligi uchun ushbu asardagi ramziylik masalalariga to'xtalib o'tamiz. Ushbu asar o'zbek adabiyotida muhim ahamiyat kasb etib, o'quvchilarni g'ayrioddiy va qiziqarli syujet bilan tanishtiradi. Asar qahramoni tush ko'rib, qadimiy G'uliston shahriga sayohat qiladi. Bu tush va sayohat orqali yozuvchi jamiyatda mavjud ijtimoiy muammolar, inson axloqi va ma'naviy qadriyatlar haqida o'z mulohazalarini bayon etadi. Yozuvchi o'ziga xos obrazlar va ramzlar orqali jamiyatdagi ba'zi kamchiliklarni tanqid qiladi, xuddi “O'tkan kunlar”

va “Mehrobdan chayon” asarlarida bo‘lgani kabi. Shu bilan birga, u o‘zbek xalqining boy madaniyati, tarixiy an‘analari va ma‘naviy qadriyatlarini ham ulug‘laydi. Asar Ahmad A‘zam ijodida alohida o‘rin tutib, o‘z davrining ilg‘or g‘oyalari va ijtimoiy adolat haqidagi o‘ylarini ifodalaydi. Asar “Boshlanma”sida yozuvchi jumladan quyidagilarni yozadi: “Yozmoqchi bo‘lganlarimning yaxlit bir syujeti yo‘qligini ham aytib qo‘yay, balki tanqidchilar iborasi bilan aytganda, obrazga prototip, ya‘ni jonli odamlardir. Men bir voqea yoki ishqiy sarguzasht to‘qib, ularni bosh yoki ikkinchi darajali qahramonlar sifatida harakatlantira olmayman. Chunki ma‘lum toifa odamlardan badiiy obraz yaratish, ularning boshidan kechgan voqealarini qalamga olish uchun, avvalo, ularning o‘zini, yashayotgan hayot muhitini ham bilishi kerak” [7].

“Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar” asarida ramziylik (simvolizm) asarning asosiy g‘oyaviy va falsafiy qatlamlarini ochib berishda muhim o‘rin tutadi. Quyida ushbu asardagi ramziy obrazlar va motivlar haqida ayrim tahlillar keltirib o‘tamiz. Ushbu asarning nomining o‘zidanoq ramziylikni topish mumkin. “G‘uliston” – bu asarda inson zanjirga hukm etilgan makon sifatida talqin qilinadi.

“Oltmishga yetdim, boshqatdan yigit bo‘lib qolmayman, qirq beshimda yoza olmagan ro‘monga endi ham kuchim yetmasa kerak, bu yog‘i sog‘liq ham hamin qadar. Shuning uchun qanaqa asar bo‘lib chiqishidan qat‘iy nazar, qissa deymanmi, ro‘monmi yo kuzatuvlarmi, balki safar taassurotlaridir, o‘qib chiqsangiz, undagi voqealardan voqif bo‘lsangiz kifoya. Ularga ishonish - ishonmasligingiz ham ikkinchi darajali masala. Eng muhimi – shunday bir mamlakatning borligi va mening o‘sha yoqqa borib kelganim”. [7] Ushbu yoziqlar asar boshlanmasidan olingan bo‘lib, u yerda muallif o‘zining yoshligi va ijodiy hayotiga oid chuqur mulohazalarini ifoda etadi. “Oltmishga yetdim, boshqatdan yigit bo‘lib qolmayman” jumlasini orqali yozuvchi o‘zining hayot yo‘lining muhim bir bosqichida ekanini anglatadi. Oltmishga yaqinlashgani, hayotining katta qismi o‘tganini va hayotning yoshlikdagi energiyasi, kuch-quvvati bilan taqqoslab, buni qayta qo‘lga kiritib bo‘lmasligini ta‘kidlaydi. Bu yerda inson umrining qimmatli vaqtlarini o‘ylab, nostalgiya bilan yodga olish hissi yaqqol seziladi. “Qirq beshimda yoza olmagan ro‘monga endi ham kuchim yetmasa kerak” jumalari esa ijodiy faoliyatga oid fikrlarini aks ettiradi. Yozuvchi o‘zining ijodiy imkoniyatlarini o‘ylab, o‘tgan yillardagi rejalari va amalga oshmagan orzulari haqida gapirib, qirq beshida yoza olmagan romani haqida qayg‘urib, endi uni yozish uchun zarur energiya va ilhom yetishmasligini, yozayotgan asarini esa kamtarlik bilan qanday chiqishidan qat‘iy nazar kitobxon shundayligicha qabul qilishidan umid qiladi.

Umuman olganda, bu so‘zlar inson hayoti, vaqt va imkoniyatlar haqida falsafiy mulohaza va o‘z-o‘ziga hisob berishdir. Yozuvchi hayotining biror davrida amalga oshirmoqchi bo‘lgan ijodiy rejalari, orzulari va ularning amalga oshmaganligidan qayg‘urishini ochiq ifodalaydi. Bu hayotning o‘tkinchiligi hamda vaqtni qadrlash zaruratini ko‘rsatadi.

“Qanaqa asar bo‘lib chiqishidan qat‘iy nazar...” so‘zlari bilan muallif o‘z asarining aniq janrga yoki shaklga sig‘masligini ta‘kidlamoqda. U asarni qissa, roman, kuzatuv, yoki safar taassurotlari sifatida belgilashga o‘zi ham shart qo‘ymaydi.

Bu orqali yozuvchi asarining ko‘p qirrali ekanini va uni o‘qirman qanday qabul qilishi muhimroq ekanligini ta‘kidlamoqda. “Ularga ishonish ishonmasligingiz ham ikkinchi darajali masala”. Bu jumla asar mazmuni va undagi voqealar qanchalik haqiqatga yaqin yoki fantastik bo‘lishidan qat‘iy nazar, o‘quvchi uchun asosiy e‘tibor mazmunga, voqealarning mohiyatiga qaratilishi kerakligini anglatadi. Muallif voqealarning ishonchligini emas, balki ulardagi fikr va g‘oyalarning ahamiyatini birinchi o‘ringa qo‘yadi.

Endi biz asosiy e‘tiborni tadqiqotimiz obyekti, aslida mavjud bo‘lmagan ramziy istiloh hisoblangan joy nomi “G‘uliston”ga qaratamiz. Yuqorida aytib o‘tilgan “Shunday bir mamlakatning borligi va mening o‘sha yoqqa borib kelganim” jumalari bilan muallif asarning asosiy motiviga ishora qilmoqda. “Shunday bir mamlakat” degan jumla G‘ulistonni ramziy bir joy sifatida tasvirlaydi. Bu mamlakat real hayotda mavjud bo‘lishi yoki yo‘qligidan qat‘iy nazar, uning ramziyligi muhim. Muallifning “borib kelganim” degan so‘zlari esa bu joyni shunchaki tasavvur emas, balki o‘z tajribasidan kelib chiqqan bir voqelik sifatida ko‘rsatishga urinayotganini anglatadi. Ahmad A‘zam ushbu jumlar orqali asarni mutlaqo o‘ziga xos va erkin shaklda yaratganini bildiradi. U o‘quvchidan voqealarga faqat haqiqat yoki fantastika nuqtayi nazridan emas, balki mazmun va xulosaga e‘tibor qaratishni so‘raydi. Bu so‘zlar asarning ramziy va falsafiy jihatlari kuchli ekaniga ishora qiladi. O‘quvchi bu asarni fikrlash va tushunish vositasida qabul qilishi kerak.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, A.A‘zamning “Ro‘yo yohud G‘ulistonga safar” asari ramziylik tamoyillariga asoslangan holda insonning ichki dunyosi, ma‘naviy izlanishlari va jamiyat muammolarini yoritadi. Asar ramziy obrazlari, falsafiy qatlamlari va tush motivi orqali o‘zbek adabiyotida ma‘naviy yuksalish va ijtimoiy tanqidni ifodalashda alohida o‘rin tutadi. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida ramziylik o‘ziga xos uslub va badiiy-estetik tamoyillar bilan namoyon bo‘lmoqda. Nazar Eshonqulning “Tobut” va Xurshid Do‘stmuhammadning “Jajman” hikoyalari ramziylikning yorqin namunalarini hisoblanadi. Ushbu asarlarda sobiq Ittifoq mafkurasi va insonning ruhiy-ma‘naviy dunyosi mavhum va timsoliy tasvirlar orqali ochib berilgan. Ramziylik o‘quvchini chuqur falsafiy mulohazaga chorlab, voqelikni ko‘chma va

LITERARY CRITICISM

timsoliy ma'nolar orqali idrok qilishga undaydi. Badiiy matnda ramziy obrazlar g'oyaviy-estetik ta'sirni kuchaytirib, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni tanqid qilish va inson ma'naviyatini ulug'lashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ahmad A'zamning "Ro'yo yohud G'ulistonga safar" asari o'zbek adabiyotidagi ramziylik va falsafiy mulohazalarning yorqin namunasidir. Yozuvchi o'z hayoti, ijodiy faoliyati va inson umrining o'tkinchiligi haqida chuqur mulohazalarini asar boshlanishidayoq ochiq-oydin ifodalaydi. Ahmad A'zam ramziy va falsafiy tushunchalar yordamida inson hayotining mazmuni, vaqtning qadr-qimmatini hamda amalga oshmagan orzular haqida o'ylashga chorlaydi. Ahmad A'zam o'ziga xos uslubda yozgan ushbu asar bilan o'quvchini ijtimoiy hayot va inson ma'naviyatiga oid chuqur xulosalar chiqarishga undaydi.

ADABIYOTLAR:

1. *O'zbek tilining izohli lug'ati. 6-tom. – T: Ga'fur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi , 2022. – B 384.*
2. *O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 7- tom. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – B 247.*
3. *Quronov.D. Mamjonov.Z . Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2010. – B 244.*
4. *Harmon.W.A Handbook to literature.<https://www.ebookworking.net>*
5. *Boltaboyev H. Adabiyot ensiklopediyasi. – T.: Mumtoz so'z, 2014. – B. 290*
6. *Sharopov A. Olamlar ichra olamlar. – T.: Adabiyot va san'at, 1978. – B. 22-41*
7. *Ahmad A'zam "Ro'yo yohud G'ulistonga safar" romani, Toshkent -B.6*
8. *Hotamov N, Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1979. – B. 279.*
9. *Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. – T.: Sharq,2004. – B 283*
10. *Yo'ldoshev Q. Postmodernizm: mohiyat, ildizlar va belgilar // Jahon adabiyoti. 2015. – B. 124*

“MUHAMMAD HAYOTI” ROMANIDA BADIYLIK TASVIRI

*Fayziyeva Komila Axrorovna,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti v.b.
komila.fayziyeva.85@bk.ru*

Annotatsiya. *Johiliya davri arablarining hayotida dushman qabilalar o'rtasida doimo urush–janjal, qonli to'qnashuvlar bo'lib turganini Vashington Irving tarixchi sifatida to'g'ri ko'rsatadi. Savdo karvonlariga tuyalar va otlarini ijaraga berib turishgan, o'zlari yo'l ko'rsatib borgan, qaroqchilarning hujumiga uchasalar, karvonni himoya qilgan. Lekin, V.Irving yozishicha, badaviylar sahro arablari boy-badavlat, hashamatli yashovchi, odamlarni emas, oltinlarni, dur, gavharlarni yaxshi ko'radigan, qizg'anchiq, xasis savdogarlarni yomon ko'rgan va karvonlarini talashni, qo'shni qabilalarning tuyalarini o'g'irlashni, qizlarini olib qochishni jasurlik, qahramonlik deb hisoblagan.*

Kalit so'zlar: *ajoyib-g'aroyib voqealar, arablar-badaviylarning tabiati, mayin yungli qo'ylar, ziravorlar, mushk anbar, shifobaxsh giyohlar, kamon, nayza, she'riyat, sobiylar-yulduzparastlar dini va zardushtiylikning ilk paydo bo'lgan vaqtlari.*

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ОБРАЗ В РОМАНЕ «ЖИЗНЬ МУХАММЕДА»

Аннотация. *Как историк, Вашингтон Ирвинг правильно показывает, что в жизни арабов периода невежества постоянно происходили войны и кровопролитные столкновения между враждующими племенами. Они сдавали в аренду верблюдов и лошадей для торговых караванов, сами указывали дорогу и защищали караваны, если они подвергались нападению разбойников. Однако, как пишет В. Ирвинг, бедуины, арабы пустыни, ненавидели богатых, роскошных людей, которые любили не людей, а золото, жемчуг и драгоценности, завистливых и скупых торговцев, и считали грабёж их караванов, кражу верблюдов у соседних племён и похищение их дочерей мужеством и героизмом.*

Ключевые слова: *удивительные события, природа арабов-бедуинов, тонкорунные овцы, специи, мускус, амбра, лекарственные травы, лук, копье, поэзия, сабии - зороастрийская религия и раннее появление зороастризма.*

ARTISTIC IMAGERY IN THE NOVEL “THE LIFE OF MUHAMMAD”.

Abstract. *As a historian, Washington Irving rightly shows that in the life of the Arabs of the Jahiliyya era, there were always wars, quarrels and bloody conflicts between the enemy tribes. They rented camels and horses to trade caravans, guided them, and protected the caravan if it was attacked by robbers. However, according to W. Irving, the Bedouins hated the wealthy, luxurious desert Arabs, who loved gold, diamonds, and gems rather than people, and who were greedy merchants. They considered it bravery and heroism to rob their caravans, steal the camels of neighboring tribes, and abduct their daughters.*

Keywords: *amazing events, Arab-Bedouin nature, woolly sheep, spices, musk storage, medicinal herbs, bow, spear, poetry, Sabian-astrologer religion and the first appearance of Zoroastrianism times.*

Kirish. *Xalqaro munosabatlarda o'ttiz yillik urushda Rim papasi va gersog Gizlar yetakchi bo'lgan Katoliklar Ligasi bir tarafda, Daniya, Shvetsiya, Gollandiya, Germaniyalik ko'pchilik kichik protestant davlatlari ikkinchi tarafda urush maydonlaridagi qishloqlarni va shaharlarni vayron qilgan. I.V.Gyotening “G'arb–u Sharq devoni”ni eslaylik, [1] omon qolgan olimlar va shoirlar Sharq islom madaniyatining ilmiy va badiiy yodgorliklarini o'rganishga ko'proq qiziq boshladi.*

Agar Volter islom dini payg'ambarini masxaralab yozgan bo'lsa, Vashington Irving Ispaniyada elchixonada ishlagan vaqtida ispan-mavr urushlari tarixiga qiziqib, “Al-Hamro” (“Qizil saroy”) turkumidagi novellalarida sirlil ajoyib-g'aroyib voqealarni va xarakterlarni tasvirlab, Amerika romantizm adabiyotining boshlovchilaridan biri bo'ldi. Uning “Arab munajjimi afsonasi” asaridan ilhomlanib, A.S.Pushkin shoh Dedon va sehrgar arab haqida “Oltin xo'roz” ertagini yozdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. *Vashington Irving Andaluziyada (Seviliya, Kordova, Grenada) yashagan yillarda “Al-Hamro” saroyining sirlil tarixiga doir fantastik novellalarini yozib, romantik yozuvchi sifatida shuhrat qozondi. Ayni vaqtda V.Irving islomshunos tarixchi sifatida ham tanildi. Qur'oni Karimni*

yaxshi biluvchilar u yozgan “Muhammad hayoti” kitobi mashhur dinshunos Ernest Renanning “Iso-Masih hayoti” asariga nisbatan arablar davlatchiligi, islom tarixi ancha chuqur yozilganini tushunadi.

V.Irving “Muhammad hayoti” asarida ham tarixchi, ham yozuvchi sifatida ish ko‘radi. O‘sha vaqtlarda “Qur‘on” va olti sahih hadis to‘plamlari (Imom Muhammad al-Buxoriy, Imom Muslim ibn Hajjoj, Imom Ahmad Xanbal, at-Termiziy, Doromiy-Samarqandiy, Sijistoniyy) Tabariy, Navoiy yozgan “Payg‘ambarlar tarixlari” ingliz,[2] fransuz, olmon tillariga tarjima qilingan.

Qadimgi arablar, Som avlodlaridan eng mashhurlari deb, Vashington Irving Od va Samud qabilalarini eslab, Qur‘onda ular zolimligi sababli yo‘q qilingan, ba‘zi qabilalar boshqalariga qo‘shilib, nomi o‘zgargan, deydi. U Ibrohimning o‘g‘li Ismoil 12 o‘g‘il farzand ko‘rib, arablar shundan so‘ng ko‘payganligini ta‘kidlaydi. Arabiston yarim oroli janubidagi o‘troq arablar o‘tovlarda emas, uy va saroylarda yashagan va bog‘larda, dalalarda yetishgan ziravorlarni, nahang ovlovchilar topgan mushk-anbarlarni dengizchi savdogarlardan olib, jahon bozorlariga yetkazib, boy-badavlat bo‘lib ketgan.

Tadqiqot obyekti va metodologiyasi. Janubiy Arabistonda mustaqil Him‘yariylar davlati, keyinroq Eron va Bobil saltanatiga vassal, tobe bo‘lgan davlat rahbari, Eron shahzodasi Bahromga tarbiyachi bo‘lib, unga yetti gumbazni Xovarnaq qasrini qurib bergan Nu‘mon ibn Munzir haqida Firdavsiy “Shohnoma”sida, “Ayyoomul-arab” kitobida, Abul-Faraj Isfaxoniyyning “Kitob Al-og‘oniy” (“Qo‘shiqdar kitobi”) asarida, Alisher Navoiyning “Sabb‘ayi sayyor” va “Tarixi anbiyo va hukamo” asarlarida qimmatli ma‘lumotlar mavjud.

Vashington Irving “Muhammad hayoti” kitobida yozishicha, islom payg‘ambari bolalik chog‘laridan aql-farosati, [3] Ka‘ba tarixini, o‘tgan nabiyilarni yaxshi bilishi, savdo-sotiq va odamlarning o‘zaro munosabatlarida yuksak axloq me‘yorlarini yaxshi bilishi bilan o‘z qabiladoshlarini hamda nasroniy ba‘zi olimlarni hayron qoldirgan.

Vashington Irving tarixiy manbalar asosida yozishicha, o‘z kuch-qudrati bilan maqtalغان Od va Samud qabilalarini Xudo halok etgandan so‘ng yarimorol janubida qahtoniylar Yamanda davlat qurgan. Bu yerda Sabo (Yevropacha – Sava) saltanatida Afsonaviy Sabo malikasi Bilqis parini Bani Isroil podshohi Dovud sevib qolgani haqida juda ko‘p mualliflar yozadi [4]. V.Irving manbalar asosida yozishicha, Kaxtonning Arab ismli bir o‘g‘li Yaman davlatini quradi. Barcha arablar Kaxtonning shu o‘g‘lidan tarqalgan bo‘lib, Kaxtonning yana bir o‘g‘li Jurham (yoki Jurhum) Ka‘ba quriladigan Hijozda yashadi.

Tahlillar va natijalar. Bibi Soraning talabi bilan Ibrohim yosh xotini Xojarni va o‘g‘li Ismoilni (Yevropacha – Izmail) Jurhum arab qabilalari yaxshi kutib oldilar. Haq taolo mana shu chaqaloq Ismoil sababli Zam-zam bulog‘ini chiqaradi [6]. Ismoil yoshi yetgach, arab qabila boshliqlaridan birining qiziga uylandi. Ismoil 12 o‘g‘il farzand ko‘rdi. Ibrohim o‘g‘li Ismoil bilan birga Ka‘ba binosini qurdi. V.Irving bu ma‘lumotni Angliya va AQSh xristianlik mafkurasi talabi bilan yozmay ketadi.

Bu ma‘lumot islomiy manbalarda berilgan. XIII asr muallifi Nosiriddin ibn Burxoniddin Rabg‘uziy “Qisas ul-anbiyoy turkiy”[7] kitobida Ibrohim va Haq taolo farmoni bilan Ka‘ba binosini ilk musulmonlar bilan birgalikda qurishini va Ibrohim ilk musulmonlarni birinchi marta haj ibodatga chaqirishini ajoyib tafsilotlari bilan tasvirlaydi.

Vashington Irving “Muhammad hayoti” kitobida sahroyi arablarning karvonlarini “cho‘ldagi kemalar” deb ataydi. Badaviylarning asosiy kasbi o‘z tuyalaridan karvonlar tuzib, savdogarlarni va ularning mollarini aytgan joylariga yetkazish, (mayin yungli qo‘ylar, ziravorlar, mushk anbar, shifobaxsh giyohlar, kamon, nayza, qilich ... yaxshi baholanar edi). Sahroyi arablar karvon yo‘llarini yaxshi bilar, kechasi yulduzlarga qarab yo‘l topar edilar.

Vashington Irving sayyoh va tarixchi olim, Sharq tillari va adabiyotini yaxshi bilguvchi Burkxardtning “Badaviylar” asariga suyanib, yozishicha, badaviylar doimiy harakatda, xavf-xatarga tayyor yashagani uchun o‘z jangovorligini saqlab qolgan, Yamanda o‘troq bo‘lib, bog‘larda, qasrlarda yashovchi arablar esa, jangovorligini yo‘qotgan, shu sababli, Yaman Xabashiston (Efiopiya) tomonidan oson bosib olingan. Bu fikr – (Yamanning oson bosib olinishi) unchalik to‘g‘ri emas. Chunki, Yaman ko‘p asrlar davomida Eron va Bobilda hukm surgan somoniylar (Xusrav, Shopur, Bahrom va boshqa shahanshohlar) protektoratida (himoyasida) bo‘lgan. Eron – Vizantiya urushlarida ham Yaman doimo Eron tarafida bo‘lgan. Lekin, Vashington Irving sahroyi arablar-badaviylarning tabiatidagi jangovorlik, ephillik, jasurlik, so‘zga chechanlik, she‘riyatga ixlos, kamon otishga ustalik kabi xislatlarni sharqshunos Burkxardt asari asosida to‘g‘ri ta‘riflaydi. Burkxardt bu asarini yozishda X asr muallifi Abul-Faraj Isfaxoniyyning “Kitob-al-og‘oniy” asaridan foydalangan. “Kitob-al-og‘oniy” asarida muallif johiliyat davrida shuhrat qozongan Antara, Imrul-Qays, Labid, Bashshar ibn Burd, Tabbata Sharran, Farazdaq, Zuxayl, Tarafa kabi yuz shoirning qo‘shiqdarga aylanib, mashhur bo‘lib ketgan she‘rlarining yozilish tarixini, g‘oyaviy mazmunini tadqiq etgan.

Qizig‘i shundaki, johiliya davri shoirlarining bu she‘rlarida ularning qilgan yomonliklari, aldovi, qabiladan qiz olib qochishi, jinoyatlari ko‘kka ko‘tarib maqtaladi (ba‘zi qayg‘uli she‘rlar bundan mustasno)

[8]. O'zbek adabiyotshunoslari, sharqshunoslari Ahad Hasanov, Hamidulla Boltaboyev, Mahkam Mahmudov va boshqalar johiliya davri arab she'riyati haqida yozganida bu she'riyatning badiiy nafosatini ham, antigumanistik harakatlarini ham e'tiborga olgan.

Vashington Irving "Muhammad hayoti" kitobida tarixchi sifatida sahro arablari-badaviylarning johiliya davridan buyon yo'qolmay kelayotgan ijtimoiy tuzumi, yashash tarzi haqida ilmiy manbalar asosida ma'lumot beradi. Badaviylar bir necha qabila va urug'larga bo'linadi.

Badiiy asarlar kompozitsiyasini tahlil qilib tadqiqotda "fabula" termini ham qo'llanganligini ta'kidlash o'rinlidir. Fabula lotincha fabula masal, hikoya qilish demakdir. Tadqiq etilayotgan asar fabulasi, asar uchun asos bo'lgan hayotiy material nazarda tutmoqda. "Fabula – asar voqealarining mantiqiy jihatdan uzviy bog'liqlikdagi yaxlit silsilasi" ekanligi ham, hodisalarning ma'lum manzarasi gavdalantirilib, fikrni ma'lum qilish uchun hodisalarning, shunchaki, oddiy nusxasini ko'rsatmaganini, o'z qarashlarini ta'sirchanroq tarzda kishilarga yetkazish uchun ko'plab hodisalarni, kechinma-holatlariga "qayta ishlov" berib,[9] ularga o'zining hayotiy tajribasi, kuzatishlari asosida ijodiy yondashganligida oydinlashib boravergan.

Har bir qabilaning amiri va urug'ning shayxi bo'ladi. Bunday rahbarlik ota, bobolardan meros bo'lib o'tadi. Gohida vaziyat talab qilganida boshqa amir yo shayx saylanishi mumkin. Bunday rahbar o'z qabilasida (va yo qabilalar ittifoqida) o'zining donoligi, jasurligi va Muhammad Abu Nasr Forobiy aytgan 12 xislatga ega bo'lib, hurmatli odam bo'lishi kerak. Amir yo shayx urush va tinchlik, dushman qabilalarga munosabat, yaxshi niyatli, hurmatli mehmonni kutib olish kabi masalalarni hal etish huquqiga ega edi".

Johiliya davri arablarining hayotida dushman qabilalar o'rtasida doimo urush-janjal, qonli to'qnashuvlar bo'lib turganini Vashington Irving tarixchi sifatida to'g'ri ko'rsatadi. Savdo karvonlariga tuyalar va otlarini ijaraga berib turishgan, o'zlari yo'l ko'rsatib borgan, qaroqchilarning hujumiga uchrasalar, karvonni himoya qilgan. Lekin V.Irving yozishicha, badaviylar sahro arablari boy-badavlat, hashamatli yashovchi, odamlarni emas, oltinlarni, dur, gavharlarni yaxshi ko'radigan, qizg'anchiq, xasis savdogarlarni yomon ko'rgan va karvonlarini talashni, qo'shni qabilalarning tuyalarini o'g'irlashni, qizlarini olib qochishni jasurlik, qahramonlik deb hisoblagan.

Vashington Irving o'z kitobida Ibrohim hali payg'ambar bo'lmasidan, yoshligida butlarga va butparastlarga qarshi kurashgani haqida Qur'on asosida yozadi: "Eslanglar, ey Muhammad, Ibrohim otasi Ozarga: Butlarni xudo qilib olyapsanmi? Men seni va qavmingni zalolatda deb bilaman". – degan edi.

Payg'ambarlar tarixiga doir kitoblarda Ibrohim otasi Ozar yasagan butlarni bolta bilan sindirib tashlab, boltani bir butning yelkasiga tashlab qo'ygan, otasi bayramdan qaytganida: "Butlarni kim sindirdi"? – deb so'rasa [10], Ibrohim boltali butni ko'rsatgani, otasi "Butlar qo'lini qimirlata olmaydi" deganida Ibrohim otasiga "Shunday o'jiz narsani xudo deb sig'inasanmi"? – deb, butparastlikdan qaytarishga urinadi. Otasi haq yo'liga kirmaydi.

Vashington Irving "Muhammad hayoti" kitobida Ibrohimning yakka xudolik diniga kelishini ham Qur'onga asoslanib yozadi: (7 b.) "Bas, qachonki chiqayotgan Oyni ko'rgach, Mana shu parvardigorim" dedi. U ham botib ketgach, "Quyoshni parvardigorim" dedi. U ham botib ketgach, "Ey qavmim, men sizning shirkingizdan pokman (79 b.). Men Haq yo'lga moyil bo'lgan holimda yuzimni osmonlar va Yerni yaratgan zotga qaratdim va men mushriklardan emasman," dedi (80 b.).[10] Qavmi u bilan tortishgan edi, men sizlar Ollohga sherik qilgan butlaringizdan qo'rqmayman ("Faqat parvardigorim xohlagan narsagina bo'lur ...") dedi.

Vashington Irving yozishicha, Arabistonda johiliya davrida butparastlik hukm surgan vaqtda Bobilda, As-Siriyada, Misrda quyoshparastlik, Eron va Hindistonda olovparastlik-zardushtiylik hukm surgan edi. Misr piramidalarida Quyosh ma'budi Ra sharafiga ibodat so'zlari kabi yozuvlar to'liq saqlanib qolgan:

"Buyuk Tangri, ikki dunyo egasiga salom!
Men sening jamolingni ko'rishga keldim.
Men odamlarga yomonlik qilmadim.
Mol-holga, jonivorlarga yomonlik qilmadim.
Haqiqat o'rniga gunoh ish qilmadim.
Axloqsiz ishlar qilmadim ...
Zaiflarga, ojizlarga qo'l ko'tarmadim.
Birovlarni yig'latmadim.
Men hech kimni o'ldirmadim,
Hech kimni o'ldirishga buyurmadim.
Hech kimga alam, azob yetkazmadim
Buzuq, fahsh ishlar qilmadim.
Hech kimni haqorat qilmadim.
Qurbonlik olovini o'chirmadim

Men halol, pok yashadim (uch marta).

Misr ehromlarining ichki devorlariga iyerogliflar bilan bitilgan bu yozuvlardan ko‘rinadiki, qadimgi davrlarda barcha Fir‘avnlr ham Ibrohim payg‘ambarni olovga otgan Namrud kabi, Muso payg‘ambar qavmini qul qilib ishlatgan fir‘avn kabi zolim bo‘lmagan, shekilli [12]. Quyosh ma‘budi Ra qadimgi Gretsiyada Zevs, rimliklarda Yupiter, Bobil va Shumer davridagi sevgi ma‘budasi Ishtar (Astarta,) greklarda Afrodita, rimliklarda Venera, ilm-fan ma‘budasi Afina, greklarning urush ma‘budi Ares rimliklarda Mars, diniy e‘tiqod obyektiga aylangan edi. Mashhur donishmand, faylasuf Suqrot (Sokrat) bu ma‘budlarga sig‘inmay, ularni tabiatning qudratli hodisalari degani uchun o‘limga hukm qilindi. Bularga ma‘bud deb sig‘inmagan avvalgi masihiylar, xristianlar ham guruh-guruh bo‘lib, qatl etildi.

Vashington Irving fikricha, xristianlikdan ham avval ikkita kuchli ta‘sirga ega bo‘lgan diniy e‘tiqod-sobiylar, yulduzparastlar va muhrlar-zardushtiylik mavjud edi. Yozuvchi va tarixchi V.Irving zardushtiylikni muxtasar qilib ta‘riflaydi. Xudo ikki qudratli kuchni-yaxshilik timsoli Xurmuzdni (Axuramazdani) va yomonlik timsoli-Axrimanni yaratganiga, nur bilan zulmatning dunyo oxirigacha doimiy kurashi bo‘lishicha zardushtiylikga ishonadi [3]. Zoroastr, Zardusht bu dinning axkomlarini, qoidalarini tartibga soldi. Vashington Irving fikricha, sobiylar-yulduzparastlar dini va zardushtiylik ilk paydo bo‘lgan vaqtlarida buzilmagan, pok din edi. Ming yillar davomida bu dinlar o‘zgarishga uchrab, Sobiylar yulduzlardan emas, balki o‘sha yulduzning egasi bo‘lgan zotdan madad so‘ragan. Sobiylar, yulduzparastlarning e‘tiqodicha, Xudo yagona, U bu dunyoda yomonlik qilganlarga oxiratda jazo beradi, bu dunyoda yaxshilik, adolat qilganlarga mukofot beriladi kabi tushunchalar mavjud bo‘lgan.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Romantizm adabiyotining muhim xususiyatlaridan biri asar syujetida fantaziya, ajoyib-g‘aroyib voqealarning real voqealarga aralashib ketishidir. Antik adabiyotda Aristotel bu qoidani barcha badiiy asarlarga taalluqli deb keltiradi. Aslida, romantizm yo‘nalishida ijod qilgan yozuvchi va shoir tarixchi kabi haqiqatdan bo‘lib o‘tganini yozmaydi, ular bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqea haqida so‘zlaydi. Shu o‘rinda qisqa xulosa qilib aytganda, bo‘lishi taxmin etilgan yo bo‘lishi zarur bo‘lgan voqea haqida so‘zlash yoki yozish uchun g‘oya davr muhitidan kelib chiqib tanlanadi.

ADABIYOTLAR:

1. И.В.Гёте. *Фарбу-Шарқ девони. С.Салим таржимаси.* – Т., 2010. – Б. 164.
2. Пушкин А.С. “Олтин хўроз” ҳақида эртак. // *Танланган асарлар. Тўрт томлик. 2-том.* – Т.: Ўздавнашр, 1954.
3. Ирвинг В. «Жизнь Мухаммеда». – Алма-Ата, «Жазушы», – Москва, 1990. – С. 2.
4. Firdavsiy. *Shohnoma.* – Т., О‘zb. Milliy entsiklopediyasi. Т.Mirtemir tahriri ostida. *Qayta nashrga tayyorlagan М.Махмудов.* 2018. – В. 622–630.
5. *Аравийская и старина.* – М.: «Наука», 1983. «Дни арабов». – С. 84.
6. *Абул-Фараж Исфогани. «Книга песен».* – М.: «Наука», 1980. – С. 45–240
7. *Alisher Navoiy. Sabb‘ayi sayyor. Tarixi anbiyo va hukamo.* <https://zarnews.uz/uz/post/alisher-navoiyning-tarixi-anbiyo-va-hukamo-asari-nima-haqda-sozlaydi>. – В. 72
8. *Rabg‘uziy N. Qisasi Rabg‘uziy.* – Т.: “Yozuvchi”, 1990. – В. 81–82.
9. *Boltaboyev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi.* – Т.: “Mumtoz so‘z”, 2016. – В. 69–85.
10. *Qur‘oni Karim. “Ibrohim” surasi, Alaiddin Mansur tarjimasi-izohi.* – Т. “Sharq”, 1993. 74–oyat.
11. *Лосев А.Ф. «История античной эстетики». Софисты. Сократ. Платон.* – Т.: «Искусство», 1969. – С. 77.
12. *Qisasi Rabg‘uziy. 1-kitob.* – Т.: “Yozuvchi”, 1990. – В. 79.

CHINGIZ AYTMATOV ASARLARIDA AYOL QISMATI TAHLILI (“Alvido, gulsari”, “Birinchi muallim” qissalari asosida)

Bekova Nazzora Jo'rayevna,
Buxoro davlat universiteti professori, f.f.d. (DSc)
Faxriyeva Dilrux To'lqin qizi,
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti magistranti
bekzodgaybullayev50@gmail.com

Annotatsiya. Chingiz Aytmatov asarlarida xotin-qizlar obrazi o'ziga xos xarakteri, insoniy fazilatlari, ma'naviy olami va boshqa ko'plab xususiyatlari bilan boshqa asarlardan tubdan farq qiladi. Adib ayol obrazini yuksak mahorat ila asarning “yuragi”ga aylantirdi va uni qahramon darajasiga ko'tardi. Ushbu maqolada “Alvido, Gulsari” va “Birinchi muallim” asaridagi ayollar obrazining aynan shu jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ayol, sadoqat, sabr, matonat, sobiq Ittifoq, totalitar tuzum, jamoa xo'jaligi, yilqichi, sovliq, changovuz, o'tov, chodir, ta'lim-tarbiya, to'qol.

АНАЛИЗ ЖЕНСКОЙ СУДЬБЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА (на основе рассказов “Прощай, Гульсары”, “Первый учитель”)

Аннотация. Образ женщины в произведениях Чингиза Айтматова совершенно отличается от других произведений своим неповторимым характером, человеческими качествами, духовным миром и многими другими особенностями. Писатель умело превратил образ женщины в “сердце” произведения и возвысил её до уровня героя. В данной статье освещены данные аспекты образа женщины в произведениях “Прощай, Гульсары” и “Первый учитель”.

Ключевые слова: женщина, верность, терпение, настойчивость, бывший Союз, тоталитарный режим, коллективное хозяйство, йилкычи, совлык, чанговуз, трава, палатка, образование, токол.

ANALYSIS OF THE FATE OF WOMEN IN THE WORKS OF CHINGIS AITMATOV (based on the short stories “Goodbye, Gulsari”, “The first teacher”)

Abstract. The image of women in the works of Chingis Aitmatov is completely different from other works with its unique character, human qualities, spiritual world and many other features. The writer skillfully turned the character of the woman into the “heart” of the work and raised her to the level of a hero. In this article, these aspects of the image of women in “Alvido, Gulsari” and “The first teacher” are highlighted.

Keywords: woman, loyalty, patience, perseverance, former Union, totalitarian regime, collective economy, yilkychi, sovlik, changovuz, otov, tent, education, tokol.

Kirish. XX asr jahon adabiyotining yirik vakillaridan bo'lgan Ch. Aytmatovning “Alvido, Gulsari” va “Birinchi muallim” nomli qissalari ham boshqa ko'plab asarlari kabi juda mashhur bo'ldi. Deyarli bir vaqt mobaynida yaratilgan ushbu asarlar real hayot haqiqatiga asoslanganligi, betakror obrazlari, pafosi, inson ruhiy olami va hissiy kechinmalarini haqqoniy ifodalay olganligi sabab o'quvchi qalbidan chuqur o'rin egallab, butun dunyo tomonidan sevib o'qilmoqda.

Asosiy qism. “Alvido, Gulsari” asari 1966-yilda avval rus tilida yozilib, keyin qirg'iz tilida qayta yozilgan. Qissada II jahon urushidan keyingi og'ir yillarda qirg'iz cho'ponlari hayoti tasvirlangan. Asar yuzaki qaraganda, Gulsari nomli ot va uning egasi Tanaboyning o'zaro do'stlik va sadoqatiga asoslanganday ko'rinadi, lekin asarni chuqurroq o'qiganingiz sayin Sobiq Ittifoq totalitar tuzumi, hatto, siyosatdan narida yuradigan odamlarning ham hayotini bulg'aganiga guvoh bo'lasiz.

Asarning bosh qahramoni Tanaboy o'sha davr xunrezliklariga bo'yin egmasdan o'z maslagida sobit qolgan obraz sifatida tasvirlanadi, lekin qissada yana bir obraz borki, Tanaboy obrazini usiz tasavvur qilish qiyin. Bu, shubhasiz, Tanaboyning ayoli – JAYDAR obrazidir. Jamoa xo'jaligida yuqori lavozimda ishlaydigan, Tanaboyning eng yaqin do'sti Choroning Jaydar haqidagi “...U aqlli ayol tushunadi. U

yoningda bo'lmaganida edi, allaqachon biron yerda bo'yni uzilardi..." [2, 96], deya qilgan hazili bejiz emas edi, albatta.

Tanaboy yilqichilikdan cho'ponlikka o'tganda falokatga yo'liqadi. Sovliqlarni qo'zilatish uchun qo'yxonaga kelganda u yerdagi dahshatli ahvolni ko'rib es-hushidan ayriladi. Vujudini alam, nafrat, cheksiz g'azab qamrab olgan Tanaboy o'sha zahoti yuqoridagilardan o'ch olish uchun o'tlanayotganda, Jaydar uni fikridan qaytarib, hattoki, o'z tadbirkorligi, uddaburonligi, harakatchanligi bilan ahvolning ancha o'nnglanishiga sababchi bo'ladi:

"- Ushlama meni, axir, ko'rmayapsanmi bu yerdagi ahvolni? Huv anavi qo'zichoqlar bilan turgan sovliqlarni ko'rmayapsanmi, axir? Ertaga biz ularni qayoqqa qo'yamiz, tom qani? Yem-xashak qani? Hammasi harom o'ladi. Kim javob beradi? Qo'yvor!

- He, to'xtasang-chi, to'xta. Xo'sh, mayli, bording ham deylik, baqirib-chaqirib janjal-to'polon qilding ham deylik. Xo'sh bundan nima chiqadi? Agar ular shu kunga qadar hech narsa qilishmagan bo'lsa, demak, ularning bunga kuchlari yetmabdi-da. Agar iloji bo'lganda jamoa xo'jaligi yangi og'ilxona qurgan bo'lmasmidi?

- Tomini yopish mumkin edi-ku! Eshiklari qani? Derazalari qani? Hamma yoq vayrona, qo'yxonada qor, o'n yillik qiy chiqarilmagan. Buni qara, bu chirik xashak qancha vaqtga yetadi? Axir, qo'zichoqlarga shunaqa pichan beriladimi? Qo'y-qo'zilar tagiga nima to'shaymiz? Qo'zichoqlar balchiqqa botib o'laverishsinmi, a? Shundaymi seningcha? Qoch, yo'limni to'sma!

- Bo'ldi, Tanaboy, o'zingni bos. Nima sen hammadan ortiqmisan? Ko'pchilik nima bo'lsa, biz ham shu-da. Tag'in seni erkak deyishadi-ya! – Uyaltirdi xotini. – Yaxshisi, nima qilish mumkinligini o'ylab ko'r hali ham kech emas. "Tuf" de ularga. Biz javobgarmiz, biz shu ishni qilishimiz kerak. Men huv anavi jarlikka tushaverishda qalin o'sgan na'mataklarni ko'rdim, to'g'ri, tikanli-yu, lekin ularni chopib tomni berkitsa bo'ladi, ustidan go'ng tashlaymiz. Qo'y-qo'zilar tagiga esa quvray o'rishga to'g'ri keladi. Agar havo aynib qolmasa, bir amallab qishdan chiqib olamiz..." [2, 116]

Asarni o'qir ekanmiz, Jaydar obrazining o'ziga xos xususiyatlarini yanada teran anglay boshlaymiz. Jaydar changovuzni yaxshi chalardi. Uni qizlik chog'ida shu chalishi uchun sevib qolgan Tanaboy, afsuski, o'z ayoliga xiyonat qiladi. Juftiga butun umrini bag'ishlagan, urushdan kelishini sabr-toqat, sadoqat, intizorlik bilan kutib, barcha qiynchiliklarni yengib o'tgan Jaydar xiyonatni osonlikcha kechirdi, nafaqat kechirdi, balki, erini sharmandalikdan ham asrab qoldi! "...Istasang, hozir ham ketishing mumkin. Ketaver. U mendan yaxshiroq, chiroyliroq, yoshroq. Yaxshi juvon. Men ham beva qolishim mumkin edi, lekin sen qaytib kelding. Qancha kutdim seni! Mayli, bu to'g'rida gapirib o'tirmaylik ham. Sening uch bolang bor. Ularni nima qilasan? Keyinchalik nima deysan ularga? Ular nima deyishadi? Men nima deyman ularga? O'zing hal qil..." [2, 74] Alam, iztirob bilan aytilgan bu gaplar birgina ojizaning qanchalar oqila, oilaparvar, jonkuyar, jafodiyda ekanining yorqin dalilidir. Hattoki, shiftdan qulab tushgan to'sin yog'och ostida qolib belini shikastlagan ayol bir nafas bo'lsa ham o'zini o'ylamaydi, aksincha, "... endi hollaring nima kechadi?" [2, 134] deya kuyunadi.

"Ey, Xudo! – dedi Tanaboy xayolan. – Tirik qolganiga shukur qilsachi, bu bo'lsa? Qurib ketmaydimi bu ish! Faqat sog'-omon bo'lsak bo'lgani, boyoqishim..." [2, 134] Ha, bu "boyoqish"ga shunchalik kuch, matonat, temir iroda ato qilingan ediki, ba'zan, urushning olovli yo'llaridan omon qaytgan, tabiatan qaysar, qiziqqon, jizzaki bo'lib, doimo o'zini haq deb hisoblaydigan, hech kimga bo'yin egmaydigan Tanaboy ham uning oldida ojiz qolardi.

Tanaboy eng yaqin do'sti, maslakdoshi, o'lim to'shagida yotgan Choroning so'nggi chaqirig'iga qaramay uning oldiga borishdan bosh tortadi. Mana shu paytda ayolning erini to'g'ri yo'lga solishdagi harakatlari tahsinga sazovordir: "– O'rningdan tur! – G'azab bilan baqirdi Jaydar. Tanaboy xuddi komandirning buyrug'ini bajargan askardek o'rnidan sakrab turganini sezmay qoldi. Jaydar yaqin kelib fonarning xira shu'lasida g'am cho'kkan g'azabli ko'zlarini eriga tikdi. – Agar sen erkak bo'lmasang, inson bo'lmasang, mushtipar bir ojiza bo'lsang, sen uchun men boraman, sen esa lab-lunjingni osiltirib o'tiraver! Hoziroq jo' nayman. Bor, otni darhol egarla.

Tanaboy xotiniining farmoniga bo'ysunib, otni egarlagani ketdi..." [2, 165]

Yozuvchi Tanaboy obraziga to'xtalar ekan, uning xarakteridagi bir kamchilikni Choro obrazi tilidan keltirib o'tadi: "– Nega omading kelmaydi, bilasanmi, Tanaboy? – derdi u, – besabrligingdan. Xudo haqqi. Senga qolsa, hamma narsa tezroq, darrov bo'la qolsa. Jahon inqilobi darhol bo'la qolsa!..." [2, 3] Shu o'rinda, adib Jaydar obrazini unga qarama-qarshi qo'yadi: "... Endi u qari To'rg'aydan qolgan ilma-teshik, is bosgan o'tovda yashardi. O'tov juda eski edi, faqat Jaydar benihoya sabr-toqatlik bo'lgani uchun undan foydalanib kelayotgan edilar. U bir necha kunlab o'tovni yamab-yasqar, yashab bo'ladigan holga keltirar, bir-ikki haftadan so'ng esa chirik kigiz yana sitilib ketar, yana teshiklar ko'rinib qolar, shamol g'uvullab kirar, qor kirar, yomg'ir o'tar edi. Tag'in ayol tikish-yamashga kirishardi, bu ishning poyoni ko'rinmasdi."

[2, 81] Darhaqiqat, Jaydar Tanaboyga atalgan taqdirning bir tuhfası ediki, juftining ayb, nuqsonlarini berkitib, uning kemptik qalbiga huzur-halovat bag'ishlardı. Tanaboy o'z vijdoni qarshisida qolganda, xotining azob-uqubatlar ichida o'tgan umriga achinar, uning dard, iztiroblarini ich-ichidan his qilar, aybdorlik hissi uning ich-ichini tirdi: *“Jaydar changovuzni oldi, uni lablariga tutdi.....ko'chmanchilarning qadimiy kuyi quyilib oqa boshladi.... Tanaboy boshini quyi solib tinglardi va yana boshini ko'tarib qaramasa ham, hamma narsani ko'rib turardi. Issiq va sovuqdagi ko'p yillik mehnatdan uning dag'allashib ketgan qo'llari, oppoq oqargan sochlari va bo'ynida, lablarida, ko'z yonlarida paydo bo'lgan ajinlar... Xotini hozir uni sezmayotganligini Tanaboy bilardi, u o'z kuyiga, o'z xayollariga g'arq bo'lgandi. O'sha damda u yana o'z kulfatlari va azob-uqubatlarining yarmini xotining hayotida, taqdirida ko'rardi. Jaydar bu kulfat va uqubatlarni o'z ustiga olgan edi.”* [2, 75]

Adibning “Birinci muallim” qissasi ham o'zining badiiy saviyasi, ta'sir kuchi, qahramonlar taqdirining o'ziga xosligi bilan kitobxon qalbidan chuqur o'rin egallaydi. Ushbu qissa ilk bora 1961-yilda “Ala-Too” jurnalida qirg'iz tilida e'lon qilingan. Asarni o'zbek tiliga Zaynab va Asil Rashidovlar tarjima qilgan. Qissada ta'lim-tarbiyaning Qirg'izistonning olis qishloqlariga yetib borishi haqida so'z yuritiladi. Asarning bosh qahramoni Duyshen o'quvchilarning ta'lim olishida haqiqiy jonbozlik ko'rsatib, ota-onasidan yetim qolib zolim kelinoyisi qo'lida tarbiyalanayotgan, endigina o'n to'rt yosh bo'lishiga qaramay hayot qiyinchiliklari va xo'rliklarini o'z taqdirida ko'rib bo'lgan Oltinoy ismli qizni razolat botqog'idan olib chiqib ma'naviyat sari yetaklaydi. Oltinoy Duyshenning qo'llab-quvvatlashi, unga ko'rsatgan mehr-muhabbati ko'magida hattoki akademik Oltinoy Sulaymonova darajasiga ko'tariladi.

Biz yuqorida tahlil qilgan “Alvido, Gulsari” asarida ayolning erkak taqdirida nechog'lik muhim o'rin egallaganiga amin bo'lsak, bu qissada, aksincha, oddiy, kambag'al, yetimlikda o'sgan yosh yigitning jaholatda qolgan qiz taqdirida tubdan burilish yasaganiga guvoh bo'lamiz. Bu o'rinda, Ch. Aytmatov dahosining obraz yaratish mahoratiga qoyil qolmaslikning iloji yo'q!

Oltinoy hayotida hech kimdan ko'rmagan mehr-muhabbatni Duyshendan ko'rdi, hech kimdan eshitmagan shirin so'zlarni undan eshitdi. Shuning uchun bo'lsa kerak, uni o'zining tug'ishgan akasi bo'lib qolishini Xudodan so'rab iltijo qilardi: *“E xudo, o'qituvchim koshkiydi mening tug'ishgan akam bo'laqolsayu, bo'yniga osilib, qattiq quchsam-da, ko'zlarimni chirt yumib, bisotimdagi eng yaxshi so'zlarni uning qulog'iga shivirlab aytsam...”* [3, 30] Aslida, bu katta hayotga endigina qadam qo'yib kelayotgan, o'smir qizning guldek pokiza qalbida paydo bo'layotgan ilk muhabbat kurtaklari edi. Ming afsuski, Duyshenning ko'rsatgan qarshiliklariga qaramay, Oltinoy zolim, tuban, razil kimsalar tomonidan o'n besh yoshida zo'ravonlikka uchradi. Hayotning beshafqat zarbasiga uchragan ayol qalbida, jism-u jonida adolatsizlikka qarshi shunday bir g'oyibona kuch paydo bo'ldiki, u butun vujudi bilan ozodlikka intildi. *“...Miyamda faqat birgina fikr charx urardi – yo o'lish, yo qolish – bu zulmat qafasidan qutulsam-u, ana u to'ng'izning pishillashi-yu xurillashini eshitmasam, erk uchun taslim bo'lishdan ko'ra kurashib o'lmoq afzal! – degan tushuncha butun vujudimni qamrab olgan edi. To'qol – ikkinchi xotin! Eh, oting o'chgur bu so'zni jinimdan battar yomon ko'raman! Uni kim, qaysi zamonda o'ylab topgan ekan-a? Ham jismi, ham qalbi menchalik qullikka giriftor etilgan odam zoti bormikin bu olamda? Tur, g'aflatdan, baxti qaro g'ofil bandalar, insoniy haq-huquqlardan mahrum etilgan jafokash ayollar. Zulmat dunyosini larzaga keltir! Buni men, orangizdan ushbu taqdirni so'nggi bor hatlab o'tayotgan ayol aytyapti!...”* [3, 47]

Afsuski, bunday ayanchli taqdir egasi faqatgina Oltinoy emasdi. Asarda nomi ham keltirilmagan *“... yuzlari qizarib bo'rtib ketgan, go'yo to'nkani eslatuvchi beso'naqay odam...”* [3, 38] deya ta'riflangan bu battol yana bir ayolning umriga zomin bo'lib, o'zining chirkin nafsi yo'lida qurbon qilgandi. Shuning uchun bo'lsa kerak, *“... Uning sovib qolgan kulni eslatuvchi nursiz ko'zlari, kaltak yegan itning dumi qisiq keladi deganlaridek, hali kichkinaligidanoq nokas kishilarning hadeb urib-haydayverganliklaridan bezib qolgan va bunga asta-sekin ko'nikib qolgan itning termilib turishini eslatardi...”* [3, 46] Ne-ne yillar davomida ko'rgan azob-uqubatlari, chekkan iztiroblari ayolni shu holga solib qo'ygan edi. “Qizil yuzli kishi” ni militsionerlar olib ketayotganda esa uning “soqov” tili kalimaga kelib, gul umrini xazon qilgan zolimga qarshi yuragining tubida yotgan alamli nola-yu faryodlari o'q singari yog'ildi: *“ – Qonimni zulukdek so'rib, umrimni xazon qilding, odamxo'r! Sen qo'limdan tiriklayin qutula olmayсан! – deya zor qaqqash baqirardi u. Qirq yildan buyon qalbida yig'ilib qolgan sabr-bardosh-u, dard-alamlar endi tug'yon ura boshlagandi... U goh u tomon, goh bu tomon yelib-yugurar, qo'rquvdan hadiksirab bukchayib qolgan erining ustiga go'ng, tuproq sochib, tosh, kesak... ulotqirib dod-faryod ko'targancha la'natlardı. – Bosgan yeringda o'tlar unmasin! Ilohim, suyaklaring dala-dashtlarda chirib, ko'zlarini qarg'a-quzg'unlar cho'qisin, boshimga ne kunlar solmading. Xudo ursin seni, yo'qol ko'zimdan yo'qol, odam qiyofasidagi maxluq...! – deya qichqirdi-yu birdan jimib qoldi...”* [3, 50] Shu o'rinda, “Alvido, Gulsari” asaridagi To'rg'ay cholning gaplari o'z-o'zidan yodimizga keladi: *“...Qiz taqdiri shundayki, yaxshi odamga tushsa, ochilib ketadi, ko'z ko'rib quvonadi,*

LITERARY CRITICISM

biror ahmoqning qo'liga tushsa, qizni ko'rib xafa bo'lib ketasan. Hech yordam ham bera olmaysan..." [2, 19]

Duyshen Oltinoyga qo'shib bu sho'rlikni ham bandasining jahannamidan qutqargan va hayotiga nur olib kirgan edi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Alloh tomonidan yaratilgan ikki jins vakili – erkak va ayolni bir-biridan ayri tasavvur qilib bo'lmaydi. Har qanday omadli erkakning ortida unga har tomonlama suyanchiq bo'ladigan, turmushning achchiq-chuchugiga sabr qilib mashaqqatli hayot yo'llarida yelkadosh bo'la oladigan AYOL turadi degan ibratli fikr nechog'li haqiqat ekanligini biz yuqorida tahlil qilgan Jaydar obrazi misolida ko'rgan bo'lsak, "Birinchi muallim" qissasidagi ayollar obrazi orqali esa erkakning ayol qismatidagi o'rni nechog'lik muhim ahamiyatga ega ekanligining guvohi bo'ldik.

ADABIYOTLAR:

1. Aytmatov Ch. *Tanlangan asarlar: qissalar*. T.: "Sharq", 2016. – 656 b.
2. Aytmatov Ch. *Alvido, Gulsari*. – T.: "Ilm-ziyo-zakovat", 2020. – 192 b.
3. Aytmatov Ch. *Birinchi muallim*. – T.: "Yoshlar matbuoti", 2023. – 96 b.
4. Aytmatov Ch., Shoxonov M. *Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori*. – T.: "Sharq", 1998. – 225 b.
5. Hakim Sattoriy. *Tushga kirgan Chingiz Aytmatov*. www.xabar.uz. 2024.
6. Meliboyev A. *Chingiz – dengiz demak. // "Tafakkur" jurnali*, 2018. 3-son.
7. Tuxtazarova Gulnoz. *"Birinchi muallim" Chingiz Aytmatov*. // *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(10), 358-359. - 2022.
8. Umurov H. *Adabiyotshunoslik nazariyasi*. – T.: "A. Qodiriy nomidagi xalq merosi", 2004. – 264 b.

FITRATNING ADABIY TUR VA JANRLARGA MUNOSABATI

*Xudayberdiyeva Mohichehra Alisher qizi,
Buxoro davlat universiteti Tarix-Yuridik fakulteti
Yurisprudensiya yo'nalishi 3-kurs 5/2 guruh talabasi*

Annotatsiya. *Insoniyat tarixida shunday daho san'atkorlar bo'lganki, ular o'z hayoti, ijodi, fikr-u zakovatini, xalqning bugungi turmushini yaxshilashga, ertangi kunini charag'on qilishga bag'ishlaganlar. Darhaqiqat, bir qancha millatparvar adiblar qatag'on tufayli ma'naviyatimiz tarixidan olib tashlashga harakat qilinganiga qaramay, ularning merosini o'rganish, asarlarida ko'tarilgan ma'naviy-axloqiy muammolarini tadqiq etish bugungi istiqloq davrida yanada dolzarflik kasb etadi, deyish mumkin. Zero, bu ulug' adiblar ijodining mohiyati jamiyat va millatni yuksaltirishga xizmat qilgan. Is'hoqxon Ibrat, Abdulla Avloniy, Mahbudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi fidoiy adiblar qatorida, ularning oldingi safida Abdurauf Fitrat ham qo'yish mumkin.*

Kalit so'zlar: *Mijmar, Hurriyat, Chig'atoy adabiyoti, Chig'atoy gurungi, Mezon ul-avzon, Mahmudxo'ja Behbudiy, Rivoya, Roman, G'azal, fors-arab aruzi.*

ОТНОШЕНИЕ ФИТРАТА К ТИПАМ И ЖАНРАМ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация. *В истории человечества были такие гениальные писатели, которые посвятили свою жизнь, творчество, мысли и интеллект улучшению сегодняшней жизни людей и освещению их завтрашнего дня. Действительно, несмотря на то, что многие писатели-патриоты нации пытались исключить репрессии из истории нашей духовности, можно сказать, что изучение их наследия, исследование духовно-нравственных проблем, поднятых в их произведениях, приобретает ещё большую актуальность в сегодняшнюю эпоху независимости. Ведь суть творчества этих великих писателей служила возвышению общества и нации. Наряду с такими самоотверженными писателями, как Исхакхан Ибрат, Абдулла Авлони, Махмудходжа Бехбуди, Абдулла Кадыри, Абдулхамид Чулпан, Усман Насыр, в первых рядах можно поставить Абдурауфа Фитрата.*

Ключевые слова: *Миджмар, Хуррият, чигатайская литература, чигатайская группа, мезон уль-Аузан, Махмудходжа Бехбуди, притча, роман, газель, персидско-арабский аруз.*

FITRAT'S RELATIONSHIP TO LITERARY TYPES AND GENRES

Abstract. *In the history of mankind, there have been such brilliant artists who devoted their lives, creativity, thought and intelligence to improve the current life of the people and to create a bright future. Indeed, despite the fact that a number of nationalist writers were uprooted from the history of our spiritual heritage due to repression, studying their heritage and examining the spiritual and moral problems raised in their works has not lost its relevance even in today's conditions of independence. After all, the essence of the work of these great writers served to elevate society and the nation. Along with such selfless writers as Is'hoqkhon Ibrat, Abdulla Avloniy, Mahmudkhoy Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cholpon, Usman Nasir, perhaps in their forefront, Abdurauf Fitrat also became the mind and heart of this country.*

Keywords: *Mijmar, Hurriyat, Chigatay literature, Chigatay group, Mezon ul-Awzan, Mahmudkhoy Behbudiy, Rivaya, Novel, Ghazal, Persian-Arabic aruz.*

Kirish. Abdurauf Fitrat 1886-yili islomiy madaniyatning markazlaridan biri Buxoroda tavallud topgan. Otasi Abdurahimboy zamonasining ma'rifatli boylaridan, onasi Bibijon esa o'qimishli, o'z bolasi taqdirida muhim rol o'ynagan ayollardan bo'lgan. Darvoqe, Fitrat yuqorida tilga olingan anketada onasining ismini Bibijon sifatida tilga olgan. Adibning boshqa qarindosh -avlodlari ham uning to'la ismi Mustafibibi bo'lganini unutib, Bibijon ismi bilan yodlab yurishadi. Abdurahimboy ko'proq savdo ishlari bilan band bo'lgani sababli yosh Abduraufning tarbiyasi ziyrak va zukko onasi Mustafbibining qo'lida bo'lgan. Abdurauf dastlab eski maktabda, so'ngra Buxorodagi mashhur "Mir Arab" madrasasida tahsil ko'rgan bo'lsada, ilmga chanqoqligi, "kitob shaydosi" bo'lganligi bois, mustaqil mutolaa orqasida aksar madrasadoshlaridan ancha ilg'orlab ketgan edi.

Fitrat 1909-1913- yillarda Turkiyada o'qib ijod etgan. U Turkiyada "Munozara", "Sayha", "Yurt qayg'usi" nomli kitoblarini chop ettirgan.

Fitrat 1912-yil 11-martda Buxorolik yoshlar Kogondagi maktab egasi Liviy(yaxudiy)ning moddiy yordamida “Buxoroyi sharif”, o’sha yilning 14-iyulida esa turkiy tilda “Turon” gazetasini nashr etishga muvaffaq bo’ldi.

Buxoro amirining 1917-yil 7-aprel farmoni (Manifesti)dan keyin Fitrat Samarqandga ko’chib borib, “Hurriyat” gazetasiga muharrirlik qiladi. Gazeta moddiy jihatdan og’ir ahvolda qolgach, muharrirlik lavozimini Muhammadqul O’rinboy o’g’liga topshiradi.

Fitrat hayoti va faoliyatining Toshkent davrida ro’y bergan eng muhim voqea “Chig’atoy gurungi”ning O’zbekistondagi birinchi adabiy uyushma sifatida tuzilishidir. O’tgan asrning 20-yillarida yaratilgan adabiyotshunoslik va tilshunoslikka oid asarlarida “Chig’atoy adabiyoti”, “Chig’atoy tili” atamaları ko’p uchraydi. Fitrat “Chig’atoy adabiyoti” degan maqolasida O’rta Osiyodagi turkiy tillarida yaratilgan adabiyotning “Chig’atoy adabiyoti”- deb atalishi Chingizxonning o’g’li Chig’atoy nomi bilan bog’liqligini e’tirof etgan.

“Chigatoy gurungi” nomining “u qadar ilmiy” bo’lmaganiga qaramay, 1918-yil noyabr oyidan 1921-yilning 10-yanvariga qadar kechgan davrda Toshkentda yashagan shoir va yozuvchilar, ilm-fan, maktab va maorif xodimlari hamda sa’natkorlarning adabiy-ma’rifiy uyushmasi sifatida faoliyat olib bordi.

Fitratning bu uyushmani tuzishdan maqsadi, birinchidan, tarqoq holda yashayotgan ilm va ijod ahlini birlashtirish, ikkinchidan, shoir va yozuvchilarning yangi asarlarini tinglab, muhokama qilish, uchinchisidan, davrning adabiy- ma’rifiy hayotida faol ijod etish, to’rtinchisidan, musiqa va teatr ishlarini jonlantirish, beshinchidan, lug’at tarkibi va grammatik tuzilishi murakkab bo’lgan o’zbek adabiy tilini isloh qilish, arab va fors so’zlarini qadimiy turkiy so’zlar bilan almashtirish, rus tilidan kirib kelishi mumkin bo’lgan so’zlarning o’zbekcha muqobilini ishlash, xullas, yangi, zamonaviy o’zbek adabiy tilini mustahkamlash edi.

Fitrat so’zi tug’ma iste’dod, yaratuvchilik ma’nolarini anglatadi. Zamondoshlarining guvohlik berishicha, talabalik yillari **Mijmar** (Cho’g’don, xushbo’y narsalar solib tutatiladigan idish ma’nosida) taxallusi bilan ham g’azallar bitgan¹.

1909-yil “Jamayti xayriya” ning ko’magi bilan Istanbulga o’qishga borgan. Fitratning singlisi Mahbuba Rahim qizining eslashicha, uning ukasi Abdurahnon (o’sha paytda Kogon bosmaxonasida harf teruvchi bo’lib, ishlagan) akasiga moddiy jihatdan yordam berib turgan. Fitrat Istanbul universitetida o’qish bilan birga u yerdagi “Doru-l-voizin” (Voizlar- ma’ruza qiluvchilar) madrasasida ham dars bergan. Bu madrasa Buxoro va Turkistondan o’qishga borgan yoshlarni universitet ta’limiga tayyorlash bilan ham mashg’ul bo’lgan. B.Qosimov ishlarida G’ozi Olim Yunusov bilan Hamza ham bir muddat Istanbuldagi “Doru-l- voizin” madrasasida o’qiganligi haqida xabar beriladi².

Asosiy qism. Fitrat deyarli 17 yoshidan boshlab badiiy ijod va ilmiy tadqiqot ishi bilan jiddiy shug’ullanadi.

Fitrat talabalik yillaridayoq “bir devon bo’lishga arziri” (S.Ayniy) she’rlar yozib ulgurgan. Fitrat she’rlarning o’z yurtida nashr etilishiga Sayid Olimxon ruxsat bermagach, bu to’plam 1911-yilda Istanbulda “Sayha” (“Bong so’z”, ayrim manbalarda “Na’ra”, “Chaqiriq” deb tarjima qilingan) nomli ostida talaba-shoirning o’z hisobidan bosilgan edi. “Vatanparvarlik she’rlari to’plami bo’lgan “Sayha” ni o’qigan kishilarni Buxoro hukumati ta’qib qila boshladi”. Sababi, “bu she’rlarda Vatan mustaqilligi g’oyasi birinchi marta yorqin shaklda ifodalab berdi.” (F.Xo’jayev fikri). Bu asarlar ta’qiqab qo’yilganiga qaramay, Qrim va Qozon turklari, G’arbiy Turkiston, Eron va Olmoniya kabi mamlakatlarda keng tarqaldi, jamiyatning hamma tabaqalari orasida qiziqish bilan o’qildi.

Fitrat lirikasi nafis va buyuk Sharq she’riyatining bor go’zalliklaridan to’yingan, uni o’ziga xos suratda ichdan yangilashga kamarbasta she’rlardan tarkib topganini sezmaslik mumkin emas. Fitrat adabiyotshunos olim sifatida Sharq she’riyatining jozib xislatlarini aksariyat ilmiy asarlarida o’sha jozibaning o’z zamonidagi nozik tovlanishlarini ko’rsata bildi:

Cholg’i qili sening nozli tirnog’ing-la titrarkan,

Umidimni qoplab turgan qora bulut yirtilsun!

Fitratning poetik merosida “**Sharq**”deb nomlangan kichik doston salmoqli mavqega ega. Unda shoir o’tli Sharqning “darqli, og’ir yaralarini yorib” ko’rsatadi:

Biroq, bu kun ezilar kim bu o’lka,

Har tomondan talanmishdir yo’lsizcha.

Shoir “o’tni” ni “o’txona” dagidek tasvirlash barobarida “nega bo’yla?” (nega bunday?) deb ajabsinadi, bu yaralarning ijtimoiy ildizlarini axtaradi:

Kim bergan bu og’irli o’lkaga buncha o’tni?

Kim to’kkan bu muqaddas ishga buncha qonini?!

Shoir she’riyatidagi yarali Sharq mavzusi birgina bu she’riyatidagi yarali **Sharq** mavzusi birgina bu she’rida emas, ko’plab badiiy asarlarida, jumladan, nafis lirikasida ham aks etgan. “Bu muqaddas ishda

qonini to'kkan", yurt hurligi uchun kurashganlar qurbon berildi. Bunga sabab zamona zulmiga emas, balki avomning o'z vatandoshlari va o'g'lonlari taqdiriga loqaydligi hamdir. Shoirning "Ovunchoq(Mirmuhsinga bag'ishladim)", **Behbudiyning sag'anasin izladim**" she'riy yodnomalarida ham

Qop-qora, eski titrak

Oldimizni to'sib turgan bulut parchasi

Kuchli bir yel ko'rgach turmas, yirtilar,-deb umid qiladi. Biroq umidning o'zi tanho najot yo'li emas, shuning- chun o'sha "kuchli yel"ni tashqaridan emas, elning o'z farzandlaridan kutadi.

Adabiy tur va janrlar masalasi, unga doir tahlillar Fitrat ilmiy maqola va risolalarning asosini tashkil etadi. Olimning "Adabiyot qoidalari" asarida badiiy adabiyot, uning shakllari, adabiy tur va janrlariga umumiy qarash yetakchilik qilsa, "Navoiyning forsiy shoirlig'i ham uning forsiy devoni to'g'risida", "Qutadg'u bilig'", "Chig'atoy adabiyoti", "XVI asr so'ngra o'zbek adabiyotig'a umumiy bir qarash", "O'zbek shoir Turdi", "Muhammad Solih", "Mashrab", "Fors shoiri Umar Xayyom", "Farhod va Shirin dostoni haqida", "She'r va shoirluk", "Ahmad Yassaviy maktabi shoirlar to'g'risida tekshirishlar" kabi maqolalarida lirik janrlarning poetik tahliliga oid ilmiy- nazariy qarashlar asosiy o'rinni egalaydi.

Fitrat badiiy adabiyot tushunchasi va unda yozma va el adabiyotining o'z o'rni borligini "Adabiyot qoidalari" asarida atroflicha tahlilga tortgan. Olim e'tiborga torgan dastabki masala: yozma va el adabiyotining faqli jihatlari nimalarda ko'rinadi? Bu ikki turdagi adabiyotni shakliga ko'ra ajratish qay darajada to'g'ri bo'ladi? Bu borada Fitrat Vadud Mahmud fikrlarini o'rtaga tashaydi. Vadud Mahmud "Navoiygacha bo'lgan turk adabiyoti" maqolasi⁴da el adabiyotining xususiyatlari to'g'risida fikrlari keltirilgan bo'lib, Fitrat tomonidan ahamiyatli deb topilgan bu yondashuv "Adabiyot qoidalari"da tahlilga tortilgan. Unga ko'ra ikki olim ham el adabiyotning qay shaklda (og'zaki, yozma) yaratilganligi bu ikki turga ajratilishiga asos bo'la olmasligini ta'kidlaydilar. Deylik, bir asar yozma shaklda yaratilib, yo'qolsa, keyinchalik uning parchalari og'izdan-og'izga ko'chib, muallifi unutilishi va el adabiyotiga aylanishi mumkin. Yoki aksincha maqol, matal, dostonlar keyingi avlodga yozma shaklda yetib kelishi tabiiy jarayon. Shu sabab bilan Fitrat el adabiyotining asosiy xususiyati yozish yoki yozilmaganligi, muallifi ma'lum yoki ma'lum emaslikda deb belgilash noto'ri ekanligini ta'kidlab, fikrining isboti sifatida Muqumiy, Furqat, Haziniy kabi ijodkorlarning bir qancha she'riy parchalari ommalashib, el adabiyotiga aylanib ketganini keltiradi. Shu asosida el adabiyotining maxsus janrlari va ularning tahliliy natijalari asosida ilmiy xulosalarini taqdim etadi.

Abdurauf Fitrat "Adabiyot qoidalari"da rivoya adabiy turiga masal, doston, hikoya, roman janrlarini namuna tarzida keltiradiki, olim janrlar taqdimotini asarlarining yozilish shakliga qarab emas, voqealarini adib tomonidan tasvir etilishiga asoslanishiga ko'ra ajratganiga guvoh bolamiz, xususan, masal janri xususida to'xtalganida Alisher Navoiyning "Lison ut tayr" va Gulxanining "Zarbulmasal", Elbekning "Ikki tulki" masallarini namuna sifatida keltiradi. Fitrat bu adabiy turining muhim janrlaridan biri hikoyaning imkoniyatlarini o'z davrida yaratilgan hikoyalarning va mohiyatidan kelib chiqib izohlaydi, "Tirikchiligimizda bo'lub turg'on ko'p voqealarning qorong'u pushmoqlarini oydinlatib ko'rsatadir"-deya ta'rif beradi. Cho'lponing "Qor qo'ynida lola", "Oydin kechalarda" kabi hikoyalarni muhim, Abdulla Qodiriyning "Tinch ishi", "Uloqda" hikoyalarni go'zal shoir Elbekning "Qo'shchi turg'un" hikoyasini uzun hikoya sifatida ta'riflaydi.

Fitrat roman rivoya asarlarida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, roman yozish mushkul ish ekanligini aytadi, roman janrining yagona namunasi sifatida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarini keltiradi. Chunki ayni davrlarda bundan boshqa roman yaratilmagan edi.

Abdurauf Fitrat nasriy va dramatik asarlarini alohida sarlavhalar ostida taqdim qiladi, lirika janrlari borasida esa o'ziga xos uslubni qo'llaydi. Olim lirik janrlar vazn bilan bog'liq ekanligini yaxshi anglaydi va mumtoz lirik janrlarini "fors-arab aruzida tizim shakllari" sarlavhasi ostida taqdim etadi. Barmoq vazni uchun maxsus lirik janrlar keltirilmaydi. Buning asosiy sabablari sifatida XX asr boshlaridagi adabiy jarayon: aruz va barmoq vazni elementlarining bir biriga o'tgan holatdagi she'riy shakllarining yaratilishi va barmoq vazniga oid yangi janrlarning shakllanmaganligini ko'rsatish mumkin. Shu sabab Fitrat faqat mumtoz lirik janrlarning izohi bilan cheklangan. "Adabiyot qoidalari" da lirik janrlardan o'ntasi haqida malumot keltiriladi.

"Adabiyot qoidalari" risolasida dastlabki janr sifatida g'azal izohlanadi. Matlaning o'zaro qofiyadosh bo'lishi 12 baytdan oshmasligi borasidagi xususiyatlari keltirilib, Alisher Navoiyning "Ko'rmadim" radifli g'azalini namuna sifatida keltiriladi⁵. Olimning fikriga ko'ra g'azal fors adabiyoti uchun yangi emas, fors shoirlari masnaviy va qasida yozish barobarida g'azal ham yozganlar. Demakki, bu uch janr fors adabiyotida parallel ravishda rivojlangan. Olim "Fors shoiri Umar Xayyom" maqolasida g'azalchilik qasida "mo'dadan chiqq'anidan" keyin yaxshiroq ko'tarilganini qayd etadi⁶. Turkiy adabiyotida uning takomili Navoiy ijodida ko'zga tashlanadi.

Fitrat 12 baytdan ortiq she'r shaklini qasida deb nomlaydi. Ayni o'rinda Fitrat negadir adabiyot tarixida bir qancha qasidalar mavjud bo'lishiga qaramay, "bizning o'zbek chig'atoy adabiyotimizda qasida yo'li juda ham kengaymagani, chiroylik namuna o'rnaklari oz" ligini ta'kidlaydi⁷. Olim "Fors shoiri Umar Xayyom" maqolasida qasida janrining tarixiga to'xtaladi. Qasida arab adabiyotining qadimiy janrlaridan biri ekanini ta'kidlab, adabiyot tarixida "Qasidayi lomiya" nomi bilan mashhur qasidaning yaratilish tarixi va mazmuni bilan tanishtiradi.

Lirik janrlar orasida masnaviy olim tomonidan juda ko'p tadqiq etilgan janrlardan biri sanaladi. Olimning "Qutadg'u bilig", "Hibbat ul-haqoyiq", "Muhammad Solih", "Farhod va Shirin" dostoni to'g'risida, "Fors shoiri Umar Xayyom" maqolalarida masnaviyning keng imkoniyatlari yoritilgan, masnaviy doston va maktublar yoziladigan janr sifatida izohlangan. Olimning "Fors shoiri Umar Xayyom" maqolasida "Fors adabiyotig'a umumiy bir qarash" sarlavhasi ostida fors adabiyotining muhim janrlari sifatida masnaviy, qasida, g'azal, ruboiy janrlari tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Ayni maqolada Fitrat masnaviyning eng qadimgi janrlardan biri sifatida baholaydi.

Fitrat lirik janrlar tahlilida Navoiy asarlariga ko'p bora murojaat qiladi. Xususan, ruboiy janri haqida to'xtalganda, Navoiyning ruboiy hazaj bahrining 24 vaznida yoziladi, degan fikriga o'z munosabatini bildiradi. Olimning fikriga ko'ra bu 24 vazn bir-biriga shunchalar yaqinki, hatto, Navoiyning o'zi ham namuna keltirayotganda ularni aralashtirib yuborgan. Shuning uchun ham Fitrat "Aruz haqida" risolasida ruboiyning 24 vaznini 15 tasini keltiradi. Olimning forsiy ruboiylari borasida fikrlari "Fors shoiri Umar Xayyom" maqolasida keltirilgan bo'lib, olim maqolada ruboiy va masnaviy janri forslarga arab adabiyotidan emas, eski milliy adabiyotlardan kirib kelganligini asoslaydi.

Xulosa. Fitrat "Adabiyot qoidalari" da musammat janriga keng o'rin ajratadi, musammatning misralar miqdoriga va yaratilishiga ko'ra turlari xususida ma'lumotlar keltiradi. Namuna sifatida Husayniyning Alisher Navoiyning "Netay" radifli g'azaliga bog'langan taxmis muhammasini keltiradi.

Fitrat murakkab janr sifatida tarji'band va tarkibband xususida ham to'xtaladi bu ikki janrning o'ziga xos va farqli jihatlari, qofiya tizimi va vosila bayt misolida Navoiy tarji'band asosida tushuntirib beradi.

Fitrat "Ahmad Yassaviy" "Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida tekshirishlar" maqolalarida hikmat janri xususida to'xtaladi. Olim Ahmad Yassaviy she'rlariga bir parchasiga "Hikmat" unvoni berilganini ta'kidlab, hikmatlarning shakli va uslubiga qarab ularning muallifligi masalalariga e'tibor qaratadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Fitrat badiiy adabiyot, uning shakllari, adabiy tur va janrlar masalasiga jiddiy e'tibor qaratgan. Badiiy asar tahlilini amalga oshirishda ularning janriy imkoniyatlarini inobatga olgan va shu orqali janriy o'zgarishlar ko'rsatib bera olgan.

ADABIYOTLAR:

1. Fitrat. A. Adabiyot qoidalari. Adabiyot muallimlari va havaslilari uchun qo'llanma/ Nashrga tayyorlovchi H. Boltaboev.-Toshkent: O'qituvchi, 1995.
2. Fitrat. A. Adabiyot qoidalari. Adabiyot muallimlari va havaslilari uchun qo'llanma. - Toshkent, 1926.
3. Fitrat. A. Adabiyot meros va chig'atoy adabiyoti (O. Hoshimov bilan hammualliflikda)// Qizil O'zbekiston. 1929 yil 16,17 iyul
4. Fitrat. A. Adabiyot qoidalari [kitobdan ayrim parchalar] nashrga tayyorlovchi Sh. Turdiyev// fan va turmush.1989.
5. Fitrat Fors shoiri Umar Xayyom. Tanlangan asarlar.2-jild. -T.: Ma'naviyat. 2000.-B.141
6. Ahmad Taroziy. Funun ul-balog'a-T.: Xazina,1996.
7. Fitrat. Adabiyot qoidalari. Tanlangan asarlar. 4-jild. (Nashrga tayyorl. H.Boltaboyev)-T.:Ma'naviyat,2006.-B.80.
8. Fitrat. Fors shoiri Umar Xayyom. Tanlangan asarlar.2-jild.-T.: Ma'naviyat.2000.-B.135
9. Fitrat. Aruz haqida. Tanlangan asarlar. 5-jild (Nashrga tayyorl. H.Boltaboyev.)-T.: Ma'naviyat, 2010.-B.259.
10. Fitrat. Adabiyot qoidalari.Tanlangan asarlar. 4-jild. (Nashrga tayyorl. H. Boltaboyev.)-T.: Ma'naviyat, 2006.-B.39

ADABIY TANQIDCHILIKDA DAVR USLUBI MASALASI (Jadid tanqidchiligi misolida)

Qodirova Nasima Saidburxonovna,
Buxoro davlat universiteti doktoranti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
n.s.qodirova@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tanqidchiligida uslub, uning davr bilan aloqadorligi va shundan kelib chiqqan holda davr uslubi masalasi muhokama qilinadi. Mazkur nazariy muammo jadid tanqidchiligi misolida yoritiladi. O'zbek tanqidchiligining shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan ijodkor-munaqqidlar: Behbudiy, Hoji Muin, Fitrat kabilarning adabiy-tanqidiy maqolalari tahlil etilgan va ularning davr uslubini shakllantirishdagi o'rni, uslubidagi o'ziga xosliklar yuzasidan mulohazalar bildirilgan. Davr uslubi munaqqidlarni bir nuqtaga birlashtiruvchi omil ekanligi, ammo ayni vaqtda ularni bir-biridan farqlovchi xususiyliklarni ham yuzaga chiqarishi asoslangan. Davr uslubi uchun muhim bo'lgan umumiy hayot tarzi, davr talabi, mazkur hayot tasvirilaydigan badiiy ijod, bu ijod tahlili va talqini kabilarga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: tanqid, munaqqid, uslub, davr uslubi, o'ziga xoslik, ilmiy tafakkur, badiiy tafakkur, ilmiy-badiiy tafakkur, Behbudiy, Hoji Muin, Fitrat.

ПРОБЛЕМА СТИЛЯ ПЕРИОДА В ЛИТЕРАТУРНОЙ КРИТИКЕ (на примере критики джадидов)

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос стиля в узбекской критике, его взаимосвязи со временем, а следовательно, и стилем того периода. Эта теоретическая проблема проиллюстрирована на примере джадидской критики. Анализируются литературно-критические статьи авторов, сыгравших важную роль в становлении и развитии узбекской критики: Бехбуди, Хаджи Муина, Фитрата, выражена их роль в формировании стиля того периода и особенности их стиля. Обосновано, что стиль эпохи является тем фактором, который объединяет дебаты в единую точку, но в то же время выявляет особенности, отличающие их друг от друга. Особое внимание уделяется общему образу жизни, требованию времени, художественному творчеству, которое эта жизнь изображает, анализу и интерпретации этого творчества, которые важны для стиля того периода.

Ключевые слова: критика, стиль, стиль эпохи, своеобразие, научное мышление, художественное мышление, научно-художественное мышление, Бехбуди, Хаджи Муин, Фитрат.

THE ISSUE OF PERIODIC STYLE IN LITERARY CRITICISM (on the example of Jadid criticism)

Abstract. This article discusses the issue of style in Uzbek criticism, its connection with the era, and, consequently, the style of the period. This theoretical problem is illustrated by the example of Jadid criticism. The literary and critical articles of such creative critics as Behbudiy, Haji Muin, Fitrat, who played an important role in the formation and development of Uzbek criticism, are analyzed, and their role in forming the style of the period and the peculiarities of their style are commented on. It is based on the fact that the style of the period is a factor that unites critics at one point, but at the same time it also reveals the peculiarities that distinguish them from each other. Special attention is paid to the general lifestyle, the demands of the period, the artistic creation that depicts this life, the analysis and interpretation of this creation, which are important for the style of the period.

Keywords: criticism, critic, style, period style, originality, scientific thinking, artistic thinking, scientific-artistic thinking, Behbudiy, Haji Muin, Fitrat.

Kirish. Uslub murakkab tizim bo'lib, uning bir qancha o'ziga xos turlari mavjud. Davr uslubi tushunchasi ham mazkur tizimning bir qismi hisoblanadi va munaqqidlar asarlarini tadqiq etishda davr uslubiga ahamiyat qaratish tanqidchilarning umumiy va individual uslubiga xos jihatlarni yoritishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Uslubni keng ma'noda tushunish, unda ma'lum davrga xos umumiy belgi va tamoyillarni ko'rishga intilish «davr uslubi» tushunchasini yuzaga keltiradi. Bunga ko'ra uslubni ma'lum davr yuzaga keltiradi va ijodkorlar davr talabiga ko'ra bir-biriga uslubiy muvofiqlashadi. Davr uslubi haqida bir qator adabiyotshunoslar mulohaza bildirganlar, masalan, rus olimi L. N. Sakulin davr uslubiga quyidagicha ta'rif beradi: «Sinflar o'rtasida nafaqat kurash, balki doimiy o'zaro ta'sir ham mavjud va hayot eng so'nggida bir madaniy jarayonga qo'shiladi. Natijada xalq hayotining har bir davri o'z madaniyati uslubi, o'z madaniy shaxsiga ega bo'ladi. Badiiy adabiyot alohida sinflarning madaniy hayotini ham, yaxlit davrning madaniy uslubini ham ijodiy aks ettiradi»[10, 174.]. Ko'chirmadagi bu qarashlar bir oz eskirgan, sho'ro davri mafkurasi bilan bog'liq, ammo bu fikr o'sha davrda uslub bir xil bo'lganini va mafkuraga xizmat qilganini ko'rsatadi.

Ko'rinadiki, olim davr uslubini ijtimoiy hayot kontekstida baholashga harakat qiladi. Mazkur ta'rif badiiy uslub haqida aytilgan esa-da, adabiy tanqididagi davr uslubining ham bir qator jihatlarini ifodalaydi. Xususan, munaqqidlarining qarashlari orasida doimo tafakkur kurashi mavjud va bu kurash davr tanqidchi oldiga qo'ygan talablardan kelib chiqadi. O'z o'rnida mazkur davr qo'ygan talab va tamoyillar tanqidchilarni ma'lum guruhlarga birlashtiradi, natijaga tafakkur va dunyoqarashda umumiylik yuzaga keladi va bu ma'lum davrga xos uslubiy yaxlitlik sifatida bo'y ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Aslida, davrning qandaydir umumiy belgilari, zamonning umumiy xususiyatlari bo'lishi va ularning tanqidda ma'lum darajada aks etishi tabiiy. Chunki 1) umumiy hayot tarzi, 2) davr talabi, 3) mazkur hayot tasvirlaydigan badiiy ijod, 4) bu ijod tahlili va talqiniga bag'ishlangan adabiy muhitning o'xshash belgilari bo'lishi tabiiy hol edi. Ammo davr uslubi faqatgina bunday umumiyliklardan iborat emas. Agar uni faqatgina umumiylikdan iborat tushuncha deb qarash, ayni davrda yashab ijod etgan ko'plab munaqqidlarining ijodiy individualligi va dunyoqarash, bayon uslubidagi o'ziga xoslik kabilarni inkor etgan bo'lamiz. Holbuki, uslub – eng avvalo, ijodiy individuallik va uning ifodasi bilan bog'liq. Birgina jadid tanqidchiligi misolida oladigan bo'lsak, bu davr munaqqidlari tafakkuridagi g'oyaviy qarama-qarshiliklar, mavjud ijtimoiy vaziyatni turlicha tahlil etish, adabiyot va adabiyotshunoslik oldiga qo'yilgan talablarga turlicha munosabatda bo'lganliklari va vazifalarni o'ziga xos hal etishga harakat qilganliklarini ko'rishimiz mumkin. Masalan, o'sha davr yozuvchilarini proletar yozuvchisi, poputchik, burjua yozuvchisi kabi guruhlarga ajratilgan kabi munaqqidlar bir necha guruhlarga ham bo'lingan. Xolis fikr yurituvchi tanqidchilar, vulgar sotsiologizm yo'ldan boruvchi tanqidchilar[12.]... Bu alohidalik, asosan, davr uslubidan shaxsiyat, dunyoqarash, milliy xususiyatlar, iqtidor, ilmiy-adabiy tafakkur saviyasiga ko'ra belgilanadi. Shunga ko'ra har bir davrning takrorlanmas uslublari bo'ladi. Mazkur umumiylik va individuallikni ayrim jadid munaqqidlari faoliyati misolida ko'rib chiqamiz.

Davr uslubi masalasini tahlil qilganda umumiydan xususiyaqarab boriladi. Xususiyaqarab borilganda qaysidir munaqqidga borib taqaladi. Mahmudxo'ja Behbudiy jadid davrining shunday tanqidchilaridan biri edi. Uning adabiy-tanqidiy maqolalari oz bo'lsa-da, o'zbek tanqidchiligida muhim ahamiyat kasb etadi. Behbudiy "Tanqid saralamoqdur" maqolasi orqali tanqidning nima ekanligi, maqsadi, vazifasini birinchilardan bo'lib ko'rsatib berdi. Uning munaqqid sifatidagi maqolalari o'zidan keyingi ishlarga namuna va o'rnak bo'ldi deyish mumkin.

Natijalar va uning muhokamasi. Munaqqid uslubining yetakchi xususiyatlaridan biri – muammoning aniq qo'yilishi va unga jamiyatning turli qatlamlarini inobatga olgan holda, tushunarli javob izlashidir. Tanqid so'zini eshitganda odatda ko'pchilikning xayoliga birinchi bo'lib qandaydir salbiy fikrlar majmui keladi. Munaqqid aynan shuni inobatga olib, maqolani "tanqid – xosiyatli" (gazetalarning xosiyati tanqid, deyilsa-da, bu xosiyat tanqidga ham tegishli – N.S.) ekanligi aytish bilan boshlaydi. Ilk jumladanoq kitobxonning tanqidga bo'lgan munosabatini to'g'ri shakllantirish va oldinda turgan qator fikrlarni kitobxon to'g'ri qabul qilishi uchun zamin hozirlaydi. Maqola keltirilgan misollarning hech biri shunchaki emas, har birining ostida ma'lum maqsad ko'zlanadi: "...yangi maktab va muallimlari va anda o'qulaturgon kitoblarni ma'nan taftish etib, andagi nuqsonlarni bayon etmoq tanqidur"[6, 172.]. Nima uchun munaqqid aynan yangi maktab va unda o'qitiladigan kitoblarni misol keltirmoqda? Maqola 1914-yilda yozilgan. Bu yangi maktablar va ular uchun darsliklar yaratish kun tartibiga qo'yilgan muhim davr edi. Behbudiy masalaga zamonning eng muhim nuqtasidan kirib boradi. Endi mazkur eng dolzarb va muhim bo'lgan maktablar uchun darsliklarni saralash – tanqid qilish ham naqadar ahamiyatli ekanligi ko'rinadi. Mazkur davr tanqidchiligida qorishqlik hukmron bo'lgani sababli muallif darslik va maktabda o'qitiladigan kitoblarni nazarda tutmoqda. Maqolada uning ahamiyati ta'kidlangandan so'ng tanqidning ko'pchilik o'ylaganidek dushmanlik emasligi izohlanadi. Mazkur izohda munaqqid tanqidning eng muhim sifatlarini ko'rsatadi: shaxsiyatga tegmaslik, isloh qilish. Maqolaning kompozitsion ixchamligi va izchilligi Behbudiy uslubidagi yorqin belgidip.

- Tanqid foydali ekanligi
- Tanqidning jamiyat uchun ahamiyati

- Dushmanlik emas, isloh uchunligi
- Tanqidni to'g'ri qabul qilmoq darkorligi

Bular maqolaning mavzu mohiyatining asosi bo'lib, barcha izoh va misollar shu 4 asosga birlashadi. Va bundagi mazmuniy izchillik ham maqolaning fazilatidir.

Kompozitsion va mazmuniy ixchamlik maqola sarlavhasida ham aniq ko'rinadi. Behbudiy maqolasining nomini "Tanqid – saralamoqdur" deb qo'yadi. Muammo ham, muammoning yechimi ham sarlavhaning o'zida, bor yo'g'i ikki so'zda aks etgan.

Mazkur maqolada Behbudiy tanqidchiligiga doir yana bir xususiyat ko'zga tashlanadi. Bu munaqqid madaniyati. Ifoda uslubidagi, nutqdagi muomala odobi. "Yozganlarimizni buzuqligi va fikrimizni xatoligi, ishimizni noqisligini biror kishi ko'rsatsa, achchig'imiz kelur. Va ul odamni dushman ko'rub, shaxsidan nafrat va fikrig'a norozilik bayon etarmizki, bul bizni yangidan ishg'a boshlaganimizdan, boshqa til nla noqisligimizdandur"[6, 172.], - deydi tanqidchi. Bunda aytilayotgan gaplar, noqislik Behbudiyning o'ziga tegishli emasligi ayon, ammo munaqqid "biz" tilidan gapiradi. Mazkur kamchiliklari bo'lgan kishilarga chiroyli muomala bilan munosabat qiladi. Zero tanqidda kitobxon va munaqqidning munosabati nihoyatda muhim. Qolaversa, bu Behbudiyning shaxsiy fazilatlarini bilan ham bog'liq bo'lib, shogirdi Hoji Muinning yozishicha: "Behbudiy afandi shaxsiy dushmanliqni xohlamas va hech kimning shaxsig'a va shaxsiy ishlarig'a til yetkuzmas edi"[11, 17.]. Bu shaxsiy sifat munaqqid uslubiini belgilashda muhimdir. Uslubda munaqqid shaxsining namoyon bo'lishi mazkur parchada ham ayon bo'ladi.

Behbudiyning "Munozara" haqida"gi taqrizi Fitratning mazkur asari Hoji Muin tomonidan o'zbekchaga tarjima qilinishi va gazetada nashr etilishi munosabati bilan yozilgan. Mazkur maqolaning o'ziga xosligi shundaki, muallif "Munozara" asari bahonasida boshqa ijtimoiy masala yuzasidan o'z mulohazalarini bildiradi. Mazkur maqolada ham kirish qismida yangi asarning foydali ekanligi aytilib, muallifga tashakkur bildiriladi. Shu o'rinda maqolaning kirish kismida muallifga minnatdorlik bildirish keyingi ko'plab maqolalarda an'anaga aylangani aytish joiz. So'ng munaqqid mazkur asar buxoroliklarning uyg'onishiga sabab bo'lishi, asar muallifini rahmat ila yod etishlariga umid bildiradi.

"Munozara"da muallif jamiyat uchun muhim bo'lgan ko'plab muammolarni yoritgan. Tanqidchi mana shu muammolar orasida eng muhim bo'lgan biri – buxoriylarning ruscha o'rganishi yozuvchi diqqatidan chetda qolganini ta'kidlaydi. Munaqqid ta'kidicha, buxorolik ijodkorning Buxoroga tegishli bo'lgan muammoni chetlab o'tishi to'g'ri emas. Bu birinchidan, asardagi ijtimoiy muammolarning to'la-to'kis yoritilishi kerakligi jihatidan bo'lsa, ikkinchidan asarning milliy ruhini kuchaytirish lozimligini ifodalaydi. Aslida, mazkur maqolaning yozilishi ham mana shu muammo yuzasidandir. Tanqidchi Buxoro xalqini rus tilini o'rganishga da'vat etadi. Buxoro Rossiyaga turli sohalarda tobe bo'lib turgan bir vaqtda hech kimning rus tilini bilmasligi yomon oqibatlariga olib kelishini munaqqid teran anglaydi. Shu sabab, asar bahonasida mazkur masalani atroflicha, ko'plab dalil va mulohazalar orqali tahlil qiladi. Shunisi e'tiborliki, tanqidchi tahlil va mulohaza bildirishda xalqning dunyoqarashi, e'tiqodidan kelib chiqadi. Buxoro islom dinining markazi va xalqning ham dinga bo'lgan munosabati jiddiy bo'lgani uchun rus tilini o'rganishni va bolalariga o'rgatishni istamasliklari mumkinligini bilgan munaqqid bu masalaga alohida to'xtaladi. Til o'rganishning dinga aloqasi yo'qligi, rus tilini o'rgangan kishining dini o'zgarib qolmasligini[6, 250.] misollar orqali izohlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Behbudiyning munaqqidlik uslubida uning yorqin shaxsiyati – millatparvarligi yaqqol namoyon bo'ladi. U har bir masalaga millat manfaatiga xizmat qilishi nuqtai nazaridan yondashadi. Shu sabab uning maqolalarida ijtimoiy ruhning ustunligini ko'ramiz. Ixchamlik, izchillik, milliy dunyoqarashni inobatga olib mulohaza yuritish ham Behbudiy uslubiga xos xususiyatlardir.

Behbudiyga har jabhada shogird bo'lgan va ergashgan, o'z umrini millat taraqqiysi uchun baxsh etgan jadid ma'rifatparvarlaridan biri Hoji Muin bo'lib, uning ijodi serqirradir. "O'sha davr vaqtli matbuotida faol ishtirok etgan Hoji Muin o'z kundaligida yozishicha, 1907-37 yillar davomida 23 xil gazeta va jurnallarda 200 tacha maqola, 400 tacha xabar hamda o'zbek va tojik tillaridagi 1500 misraga yaqin she'rlari bilan qatnashgan" [7, 3.]. Mazkur maqolalar orasida adabiy-tanqidiy maqolalar oz bo'lsa-da mavjud. Ularning uslubiga xos ayrim jihatlarini ko'rib o'tamiz. Munaqqidning tanqidchilikdagi muhim ishlaridan biri ustoz Behbudiy va do'sti Vasliy haqidagi portret-maqolalaridir. Uning Mahmudxo'ja Behbudiy haqidagi maqolalari bir turkumni tashkil etadi, maqolalar mazmunan bir-birini to'ldiradi va unda Behbudiyning hayoti, faoliyati, tahsili, boshqalar bilan munosabati, vafoti bilan bog'liq ma'lumotlar ko'plab surishtuvlar va xotiralar asosida jonli gavdalanitiriladi. Hoji Muin o'zi ta'kidlaganidek, mazkur maqolalar o'zidan keyingi behbudiyshunoslik uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilgan.

Hoji Muinning "Mahmudxo'ja Behbudiy" portret-maqolasi dastlab 1923-yilning boshida «Uchqun» jurnalida, shu yilning 25-martida "Zarafshon" gazetasida qayta e'lon qilingan. Maqolaning jurnaldagi nashri ancha keng va batafsil, unda munaqqid Behbudiy haqidagi ma'lumotlarni kengroq, izohlar bilan, ma'lum

voqealarga o'z munosabatini bildirgan holda yozadi. Jurnaldagi maqolada muallif uning yakunlanmaganligini yozadi. Munaqqid gazetada maqolani biroz ixchamlashtirgan, chunki gazeta jurnalga qaraganda ixcham uslubda yozishni talab etadi.

“Mahmudxo‘ja Behbudiy” portretida munaqqidning ustози Behbudiyga bo‘lgan cheksiz muhabbati o‘z ifodasini topgan. Hoji Muin ustози oldida har jabhada o‘zini qarzdor deb his etadi. Maqola kompozitsiyasi o‘ziga xos, xronologik tarzda bir nechta qismlarga ajratilgan. So‘zboshi deb berilgan qismda, an’anaviy debocha uslubiga xos jihatni ko‘ramiz, ya’ni bunda munaqqid mazkur portretni yozish maqsadi va zaruratini ham bayon etadi. Maqolaning boshidan oxirigacha munaqqidning ulkan dardini his qilish mumkin. Behbudiyning nohaq va fojeali o‘limidan qattiq iztirob chekkan shogirdning qayg‘usi maqolaning har bir satrida seziladi. Bu qayg‘u “Buyuk ustozimiz Behbudiy afandi” maqolasida yanada quyulashadi. Mazkur maqolalar Behbudiy haqida bo‘lsa-da, unda Hoji Muinning ham ma’lum shaxsiyati, ichki dunyosi ko‘rinib turadi. Har bir masalada ustози bilan hamfikir, hammaslak ekanligi, fikrni bayon etish uslubida ham ustoziga ergashganligi sezilib turadi. Masalan, munaqqidning Behbudiyga murojaat etganda “Behbudiy afandi”, “Behbudiy hazratlari” birikmalarini qo‘llashida ham Behbudiyning Ismoil Gaspirali haqida yozganda unga “Ismoilbek hazratlari”, “xodimul millat” murojaatlariga yaqin uslubni ko‘rish mumkin. Yoki, Behbudiy Gaspiralinig fazilatlarini bir-bir ta’kid bilan sanaydi: “Usuli savtiya maktablarini Rusiyada boniyyi muassisi Ismoilbek hazratlaridur. Birinchi yangi usul alifboni murattib va noshiri yana Ismoilbek hazratlaridur. Taraqqiyoti zamoniyag‘a yalg‘uz da’vat emas, fa’lan harakatda bo‘lub, jamiyati xayriya, qiroatxona, taraqqiyuni islom, taovun jamiyatlari va bularg‘a o‘xshash asoslarg‘a taalluq nizomnomalar tuzatib, xalq arosinda nashr etib, bu kun adadi yuzlar ila Rusiyada mavjud ilmiy va madaniy jamiyatlarni barpo etdurgandurlar”[6, 182.]. Shu kabi uslubni Hoji Muinda ham ko‘ramiz: “Behbudiy afandi Turkistonda boshlab qo‘lig‘a qalam olib, xalqning taraqqiy va tolesi uchun foydali maqolalar yozg‘on buyuk rahbarimiz edi. Behbudiy afandi Turkistonda yangi maktablar uchun boshlab alifbo va jug‘rofiya kitoblari yozg‘on ulug‘ ustoz va murshidimiz edi. Behbudiy afandi Turkiston taraqqiyparvarlari ichinda eng avval mutaassib ulamoning haqsiz hujum va takfirlarig‘a uchrag‘on va shunday takfirlar ila ruhini tushurmay, o‘z maslakindan qilcha ayrilmay, yigirma yil mutamaddian Vatan va xalqg‘a xidmat etgan birdan bir faol yo‘lboshchimiz edi”[6, 16.].

Hoji Muin Behbudiy haqida yozar ekan, unga doir fikr-mulozalarini dalillash uchun Behbudiyning o‘z so‘zlaridan foydalanadi. Bu maqolaning ishonchlilik darajasini ko‘taradi.

Munaqqidning Behbudiyning «Padarkush yoki o‘qumag‘on bolaning holi» asarining nashr etilishi munosabati bilan yozgan “Yangi asar” deb nomlangan xabar-taqrizi ham tanqidchi uslubiga doir ayrim jihatlarni oydinlashtiradi. Xabar-taqrizdan maqsad, yangi asar bilan xalqni tanishtirish va asarni o‘qishga da’vat etish. Shu sabab kitobxonni qiziqtirish uchun asarning qisqacha fabulasi aytib beriladi. Hikoya tarzida bayon qilish Hoji Muin uslubiga xos jihat bo‘lib, bu aksariyat maqolalarida ko‘zga tashlanadi. Maqolada asarni qayta bayon qilish ijobiy hodisa bo‘lmas-da, o‘zbek tanqidchiligining shakllanish va rivojlanish bosqichida yozilgan mazkur taqriz nihoyatda ahamiyatli va janr rivoji uchun hissa qo‘sha olgan. Shuningdek, tanqidchi yangi asarning bahosini ham taqrizda yozib qo‘yadi. Bu kichik bir unsur bo‘lsa-da, tanqidchi uslubiga xos jihatdir. Bu kabi xususiyatni boshqa tanqidchilar ijodida uchratmaymiz.

Hoji Muinning yana bir portret-maqolasi do‘sti va yaqini Sayidahmad Vasliy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan. Maqolada Vasliy hayoti va faoliyatiga doir muhim sanalar, ayrim voqealar keltiriladi. Munaqqid statistik metod asosida ijodkor asarlari ro‘yxatini shakllantiradi va nashr etilgan va nashr etilmaganligi jihatidan 2 guruhga ajratadi. Shuningdek, chala qolgan asarlari borasida ham ma’lumot beradi. She’ridan namuna keltiradi, biroq uning tahlili va badiiyatiga to‘xtalmaydi. Chunki maqolaning asosiy maqsadi ijodkorning umumiy tarjimai holi bilan kitobxonni tanishtirishdan iborat. Va bu maqsad qisqa va aniq ma’lumotlarga tayanilgan holda amalga oshirilgan.

Hoji Muin maqolalarida so‘zlarning o‘ziga xos qo‘llanilishi ham diqqatni tortadi. O‘rni bilan fors-tojikcha, sheva so‘zlardan qo‘llaniladi: modarzod, ko‘bisini...

Bundan tashqari so‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash orqali chiroyli birikmalar tuzadi: “xalqni oqarturishqa”kabi

Hoji Muinning keskin ruhda yozilgan tanqidiy maqolalari ham bir qancha. Uning “Muhtaram shuaronimizga” deb nomlangan maqolasi davr shoirlariga qarata aytilgan jiddiy tanqidiy ishlardandir. Maqolada epigraf tanlanishining o‘zidan uning yangicha bir uslubi ko‘zga tashlanadi. Bunga qadar yozilgan tanqidiy ishlarda bu xususiyatni deyarli uchratmaymiz. “To‘g‘ri so‘zlar so‘zlaram mumkin qadar, Xoh onam ranjisun, xohi padar”[6, 39.] – mazkur jumladanoq tanqidning muhim sharti – ob’ektivlik, haqiqatni to‘g‘ri bayon etish xususiyati maqola uchun asos bo‘lganligi ko‘rinadi.

Dastlab maqolani yozish maqsadi mavzudan boshqa bir hayotiy misol orqali yoritiladi. Bunda qiyosdan qo‘llanilganligini ham ko‘rish mumkin: “Uxlab qolgan kishilarni boshlab muloyim ovoz ila

uyg‘otmoq odobdandur. Sado kifoyat etmaganda mutlaqo turtib uyg‘otmoqg‘a majburiyat ko‘rilur”[6, 39.] – der ekan, muallif davr shoirlarini uxlagan kishilarga qiyoslaydi. Va ularni uyg‘otishni maqsad qiladi. Davr va muhitga mos tarzda she‘riyatning shakli va mazmuni ham o‘zgarib borishi, adabiyot o‘z ijtimoiy vazifasini ham bajarishi lozim deb hisoblagan Hoji Muin shoirlardan mavzu yangilanishlarini talab etadi: “...oshiqona she‘r va hajvomuz nazm inshod etmakdan voz kechub, zamonag‘a muvofiq fanniy, milliy va axloqiy she‘rlar inshod etarga kirishsunlar”[6, 40.] – deya ta‘kidlaydi. Bundan tashqari tanqidchi milliy adabiyotga, milliy she‘riyatga ahamiyat qaratadi. Munaqqidning milliy she‘riyatga urg‘u berishi davr adabiy muhiti va u keltirib chiqargan uslubi bilan bog‘liq, Behbudiy, Hoji Muin, Fitrat, ... kabi qator tanqidchilar adabiyotimizning milliy ildizlariga alohida ahamiyat bergan edilar va bu darv uslubi bilan izohlanadi, tanqidchilarning bir-birlariga g‘oyaviy ta‘sir etganliklari va bir maqsad atrofida birlashganlari natijasida ular uslubida ayrim masalalarda yaqinlik yuzaga kelgan.

Hoji Muin adabiy-tanqidiy maqolalarining o‘ziga xos umumiy kompozitsiyasi mavjud: Epigraf – maqsad – dalil – taklif – xulosa. Bu formula Hoji Muinning barcha asarlarida emas, faqat adabiy-tanqidiy asarlarining aksariyatiga xos jihat hisoblanadi.

Qo‘yilayotgan muammo yuzasidan munaqqidning yechim uchun takliflar taqdim etishi tanqidchilikda ijobiy hodisa hisoblanadi va Hoji Muin uslubining xarakterli jihatini ko‘rsatadi. Munaqqid ustoz Behbudiy kabi tanqidiy maqolalarida asarning badiiy jihatlaridan ko‘ra ularning ijtimoiy jihatlariga ko‘proq ahamiyat qaratadi. Bu ham bevosita jadid tanqidchiligida umumiy uslubiy hodisa bo‘lib, davr uslubi tushunchasiga borib taqaladi.

Jadid tanqidchiligining yana bir yo‘lboshchisi Abdurauf Fitrat o‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan yirik olim sifatida turli janrlarda ijod qildi. Biroq uning adabiy tanqidga doir asarlarining barchasi bizgacha yetib kelmagan. Shunday bo‘lsa-da, uslubning, matnning minimal maydonlaridan namoyon bo‘la boshlashini hisobga olsak, uning mavjud maqolalari misolida tanqidchilikdagi uslubiga doir bir qator xulosalarga kelish mumkin. Fitratning adabiy-tanqidiy qarashlari adabiyotshunos olim H.Boltaboyev tomonidan keng tadqiq etilgan va uning adabiyotshunos sifatidagi qiyofasi, uslubiy o‘ziga xosligi ko‘rsatib berilgan[5.]. Biz mazkur ishda Fitratning tanqidchilikdagi uslubi, xususan, adabiy-tanqidiy maktub janriga mansub J.Boybo‘latovga yozgan ochiq xati «Yopishmagan gajaklar» atrofida mulohaza yuritimiz. Fitratning mazkur ochiq xati o‘sha davr tanqidchiligi uchun katta ahamiyatga ega[8, 72.].

Aslida ochiq xat istilohi matbuot orqali jamoatchilikka murojaat qilish vositasi sifatida 19- asrning o‘rtalarida nemis matbuotida paydo bo‘lgan edi[9, 26.]. Ochiq xat janr sifatida yozuvchi va jurnalistlar ijodida shakllandi va rivojlandi. Ochiq xatlarda muallifning o‘ziga xosligi, muomala madaniyati, e‘tiqodi, adabiyot haqidagi qarashlari, talqin etilayotgan asarlarga, yozuvchi tutgan yo‘lga, uning uslubiga munosabati asosiy o‘rinda turadi.

Ochiq xatlarda, asosan, xalq manfaatlariga doir ijtimoiy muammolarda doir mulohazalarga ahamiyat qaratiladi. Adabiy-tanqidiy ochiq xatlarda esa xalq va uning hayotini aks ettiruvchi adabiyot manfaatlariga oid tanqidiy muammolar muhokama etiladi. Biroq muallif shaxsiyati talqin etilayotgan adabiy muammoga nisbatan shaklan shaxsiy-munosabat tarzida namoyon bo‘lsa-da, unda umummanfaati asosiy o‘rinda turadi. Bu, albatta, uslubning janr bilan aloqasini ham ko‘rsatadi, ya‘ni ochiq xat janrida muallifning ichki o‘z-o‘zini ifodalashi, o‘ziga bo‘lgan munosabatga javobi, o‘zini, shaxsiyati va mulohazalarini dadil himoya qilish kabilar yanada yorqinroq ko‘rinadi. Va bularning qay darajada amalga oshirila olinganligi tanqidchi uslubini belgilaydi.

Fitratning adabiyotshunos sifatidagi muhim ishlaridan biri “Chig‘atoy gurungi”ni yo‘lga qo‘ygani edi. O‘tmish merosini o‘rganish va undan xalqni bahramand etish, avlodlarni ajdodlarining o‘lmas ruhiyati bilan bog‘lashda bu jamiyat juda katta xizmat qilganligi ma‘lum. “Chig‘atoy gurungi” madaniy-adabiy tashkilot bo‘lib, uning faoliyati asosida islohotchilik g‘oyasi yotar edi. Fitrat madaniyat taraqqiyotining yuksak cho‘qqisi - Navoiy davrini ko‘p jihatdan ibrat qilib olgan edi[3, 63.].

“Gurungchi”lar millatning hayot va istiqboli uchun 500 yil davomida uzilib qolgan tarix bilan milliy-madaniy ulanish shart ekanligini teran his etdilar. 20-yillarning ikkinchi yarmidan e‘tiboran bunday harakatlarga siyosiy baho berishlar boshlandi. 1922-yili “Chig‘atoy gurungi” tarqatib yuborilganiga qaramay, gurungning a‘zolari o‘z faoliyatlarini turli yo‘nalishlarda davom ettirdilar. Fitrat boshchilik qilgan “Chig‘atoy gurungi” Turkiston milliy madaniyatini barpo etish uchun kurashdi.

20-yillarning oxiri va 30-yillarning boshlariga kelib, “Chig‘atoychi”larni panturkizm, panislomizmda ayblovchilar soni orta bordi. 1929-yilda J.Boybo‘latovning “O‘zbek adabiyotida chig‘atoychilik” maqolasi bosildi. Fitratning “O‘zbek adabiyoti namunalari” majmuasi munosabati bilan yozilgan bu maqola boshdan oxirigacha uning muallifini “osh etish”ga qaratilgan edi. Chunonchi, u marksizmni inkor qilishda, o‘tmishni ideallashtirishda, burjua millatchiligi g‘oyalarini targ‘ib va tashviq etishda ayblangan edi. Shu zaylda ko‘p

asrlik adabiy merosimiz chiqitga chiqarilgan edi. J.Boybo‘latov chig‘atoy shoirlaridan hozirgi proletar adabiyoti uchun bir narsa ola bilishga shubha bilan qaradi. Kitobga so‘zboshi yozgan Otajon Hoshimni ham haqorat qilishdan qaytmaydi.

Ko‘p o‘tmay matbuotda unga javoban maqolalar paydo bo‘ldi. Otajon Hoshim “Adabiy meros va chig‘atoy adabiyoti” maqolasida J.Boybo‘latov maqolasini feleton deb atarkan, adabiy meros va chig‘atoy adabiyoti kabi muhim masalalarni Boybo‘latov kabi hal qilish mumkin emasligini ta’kidladi[3, 65.]. “Chig‘atoy adabiyoti ko‘p badiiy namunalari bergandir, bu adabiyotning bir qancha san’atkor namunalari bor”, - deya e’tirof qiladi.

O‘zbek mumtoz adabiyotiga tosh otilgan mazkur munosabatga qalbi va ruhi uyg‘oq munaqqid Fitrat jim turmadi. J.Boybo‘latovga javoban “Yopishmagan gajaklar” ochiq xati bilan chiqdi. “Jalil Boybo‘latovga ochiq xat” deb atalgan bu maktub shunchaki nohaq tanqidga javobgina emas, balki “go‘zallikni, chinakam adabiyotni anglash, idrok etishdan uzoq nuqtayi nazarning - olmadan qurt qidirishning” (Asqad Muxtor) jamiyat hayotida tobora kuchayotganligini teran his qilish va unga qarshi isyon ruhiga yo‘g‘rilgan edi. Gap shundaki, J.Boybo‘latov Fitratning o‘tmish adabiyot namunalari bittama-bitta yig‘ib, tozalab, saralab, izohlab o‘quvchiga taqdim etishdek og‘ir va sharafli ishini dushmanlik, zararkundalik hisoblagan va buni adibning butun faoliyati misolida “isbot” qilishga uringan edi[2, 386.].

Fitrat maqolani “do‘stim” degan murojaat bilan boshlaydi. Bunda muallif uslubidagi so‘zning ma‘no qirralarini terang anglash ko‘zga tashlanadi. Birinchidan, to‘g‘ri ma‘noda Fitrat Boybo‘latovni o‘ziga do‘st – maqolalari, chiqishlarini kuzatib boruvchi va unga munosabat bildiruvchi kishi deb qarasa, ikkinchidan, maqola bahonasida Fitratga o‘zining salbiy shaxsiy munosabatlarini bildirib qo‘ygan “do‘st” sifatida unga shunday murojaat qiladi.

Fitrat bolalar orasida “Ko‘zim ko‘rmaydir” o‘yini bo‘lganligi haqida gapirib, ko‘zini qattiq bog‘lab olgan bolaning atrofdagilarga hujum qilishini Boybo‘latovga qiyoslaydi. “Maqolani yozganda, sizning qalamingiz ham shul ko‘zi ko‘rmas bolaning tayog‘iga o‘xshagan: aylangan, aylangan, kimga to‘g‘ri kelsa, shunga tekkan, orada mening kitobim unutilgan, juda oz o‘rin olgan”[2, 386.]. Albatta, bu o‘xshatish bejizga emas, unda munaqqid uslubidagi matn ma‘no qatlamlarining kengligini ko‘rishimiz mumkin. Bolalar o‘yinini aytish bilan u Boybo‘latovga bu ish, bolalarcha, o‘ylamay qilingan ish ekanligini, bundan tashqari bolalar har qancha yomon ish qilsalar-da, kattalar tomonidan jiddiy qabul qilinmasligi jihatidan bu maqola Fitratni u qadar bezovta qilmagani, bolalarning xatosini bag‘rikenglik bilan tushuntirish lozimligi va shu sabab mazkur xatni yozayotganiga ishora edi. Boshqa tomondan bu o‘yinning eslanishi Boybo‘latov maqolasining asossiz va noto‘g‘ri ekanligini ta’kidlovchi juda chiroyli o‘xshatish, hamjamiyat oldida Boybo‘latovni kulgiga qoldiradigan topilma deyish mumkin.

Maqola davomida tanqidchi Boybo‘latovning bu “bolarcha” qilingan ishi uchun sabablar qidiradi va topadi, qaysidir ma‘noda uni oqlashga, shuning bilan birga o‘ziga qo‘yilgan ayblarning asossizligini dalillashga harakat qiladi: “Siz adabiyot tarixining odami emassiz, maqolangiz esa tasodifiy bir hodisadir”[2, 387.], - deydi. Bu esa Fitrat usubida muloqot etikasining o‘ziga xos namoyon bo‘lishi, munaqqid madaniyatiga xos vazminlik va bosiqlikning belgisidir. Shuni ham aytib o‘tish lozimki, jadid tanqidchilarining barchasida bu tarzda muomala odobini ko‘rmaymiz. Boybo‘latov maqolada Fitratni har qancha no‘rin qoralagan bo‘lsa-da, ochiq xatda munaqqidning unga salbiy munosabatni ko‘rmaymiz. Maqolani o‘qigani, munosabat bildirgani uchun uning mehnatini qadrlaydi. “O‘zbek adabiyoti namunalari” asari haqida yozilgan fikrlardan mamnun ekanligini bildirib, Boybo‘latovga tashakkur xam bildiradi.

Ochiq xatning janriy belgilaridan biri bo‘lgan o‘ziga xos murojaat shakllaridan foydalanishda ham Fitrat uslubiga xos bag‘rikenglikni ko‘ramiz. Munaqqid Boybo‘latovga “Do‘stim”, “Azizim”, “Siz” deya murojaat etadi. Bu bir tomondan muomala odobiga kirsas, ikkinchi tomondan bosiqlik bilan nohaq fikrlarga zarba berishning fitratona uslubidir.

Kirish. Mifopeya so'zi ellinistik yunoncha μυθοποιία ya'ni "afsona yaratish" [9] degan ma'noni anglatib, Ingliz adabiyotida XX asrning birinchi choragida alohida janr sifatida kirib keldi. Ushbu atama dastlab J.R.R. Tolkien tomonidan 1930-yillarda ishlatililib, uning bir qancha fantastik hamda ilmiy ommabop janrdagi asarlarining asosiy janr xususiyatini qamrab olgani ma'lum [10]. Ushbu janrning mifologiya janridan ajralib turuvchi farqi: unda qadimiy, xalq og'zaki ijodida shakllangan ko'plab xalqlar tarixi hamda diniga taalluqli ko'pxudolikka asoslangan afsonalar emas, balki originallik sifatleri bilan yo'g'irilgan miflarning nusxalari kabi ularning an'anaviy mifologik syujet, mavzu, arxetipik xosliklari saqlangan holdagi formati yangi, zamonaviy shaklda kasb etishida voqelanadi. Demak, mifopeya texnikasining sur'atlashishi ma'lum bir nasr namunasidagi asarda folklor ijodi mahsulini to'laqonli yoki qisqa mazmunan keltirish bilan emas, balki undagi qaysidir bir fazilatni saqlagan holda umuman struktur yoki semiotik bog'liqliklaridan birining yangi formatda namoyon bo'lishi misol bo'la oladi. Ilm ahli namoyondalarining janr xususiyatlarida kelib chiqib unga berilgan ta'riflariga yuzlansak, Aristotel mifopeyani g'orga o'xshatishi qayta yaratilgan afsona esa voqelikning chegarasi sifatida tasavvur qilinadi. Ular uchun boshqa dunyo yo'q. Kant g'ordan tashqarida nima bo'lishidan qat'iy nazar, g'orning o'zi shunchaki ma'lum bir muhit emas, balki inson qurilishi ekanligini tushundi. Biz inson tomonidan qurilgan binoda yashaymiz va Kant uchun bu butun insoniyat yashaydigan katta uy edi. Modernistik mifopeya - bu inson dunyosining bu inshooti yerda yotgan bino emas, balki qayiq ekanligini tan olish; agar hamma odamlar bir joyda yashasa, bu bir xil bo'lishi shart emas. Mumkin bo'lgan insoniy dunyolarning ko'pligi mavjud. Bundan tashqari, agar qayiq uydan ko'ra nozikroq bo'lsa va uni suvda ushlab turish uchun ma'lum ichki tartiblarga bog'liq bo'lsa, u bitta ufqda

mustahkamlanmaslik afzalligiga ega. Uning nisbiy mo'rtligini yo'qotishdan ko'ra ko'proq foyda keltirishi mumkin. Shu bilan birga, suzib yurish va navigatsiya yuqori darajadagi ichki intizom va e'tiborni talab qiladigan maxsus san'atdir, xuddi o'z-o'zini anglaydigan mifopeyada yashash doimiy o'z-o'zini tanqid qilishni talab qiladi. Bu ichki talab o'z navbatida tashqi dunyo bilan munosabatlarga ta'sir qiladi. Dengizchining Odissean hayoti an'anaviy ravishda jasorat va tajribani talab qiladi. Agar qayiq yaxshi qurilmagan va parvarish qilinmasa, cho'kish xavfidan tashqari, tubdan yangi va begona narsalarga duch kelish ehtimoli mavjud. Yigirmanchi asrning eng yaxshi adabiyotining ko'pchiligi vaqtinchalik va o'zgaruvchan ufq sifatida begona bilan uchrashish va o'z madaniyatida yashash uchun ekvivalent qobiliyatni rivojlantirdi, uning shakli ko'p jihatdan juda o'zboshimchalik bilan o'zining ichki uyg'unligi bilan birga osilib turadi. To'g'ri, asr davomida diqqatning asta-sekin mifning metafizik jihatidan siyosiy jihatiga o'tishi kuzatilmogda, chunki mif shunchaki subyektiv proyeksiya yoki "ichki izchillik nazariyasi" emas, balki u haqiqatga erishish yo'lidir [1,38].

Tadqiqot metodologiyasi. Shuningdek, ushbu modern voqelanish epik mif bilan boyitilgan hozirgi zamonaviy borliq to'g'risidagi afsonani yangi adabiyot janr namunasi doirasida keng tadqiq qilish hamda qahramonga ayni hozirgi vaziyatni eslatishni ta'minlaydi. Misol uchun Salman Rushdining "Midnight's children" romanidagi turli g'alati xislat egalari – 581 nafar bolalar obrazining turli qadimiy hind xudolari sirli va afsonaviy qobiliyatlari bilan tasvirlanilishi bu mifopeyaning bir ko'rinishidir. Ya'ni ijodkor afsonaning sirlilik (xudolarda mujassamlashgan xislat) xususiyatini modern yo'nalishida jo qilish bilan birga o'zining yangi real hayotdagi afsonasini yaratishga urinadi. Bu o'rindagi sirlilik xususiyati sexrli realizmga ham o'xshab ketishi, ammo asardagi mifopeyaning boshqa texnikalardan noodatiy sifat ko'rsatkichi bu birinchi o'rinda sirlilik xosligining o'ta g'ayri shaklda namoyonligi, undan tashqari, katta son ko'rsatkichini (581 ta) tashkil etganligi, eng muhimi ushbu obrazlarning romandagi voqealar rivoji, hind davlati yangi tarixiga ta'siri shuningdek, yozuvchi bolalar misolida hind boshqaruv apparati, siyosiy o'zgarishlar prognozini vobastalashtirgani mif yaratish xosliklaridan dalolat beradi. *The only problems were that our Keralan member (who could, you remember, travel through mirrors) accidentally ended up emerging through a restaurant mirror in the smarter part of New Delhi, and had to make a hurried retreat; while the blue-eyed member for Kashmir fell into a lake and accidentally changed sex, entering as a girl and emerging as a beautiful boy.* [8,245]

Ushbu parchada ijodkor yarim tun bolalaridan birining yuqorida ta'kidlaganimizdek, g'alati sifat egasi- *Keralaning* oynalar orqali sayohat qila olishi, qadimgi hind mifologik manbalarida Podshoh Kakudmi va Revati obrazlarining aynan xuddi shu fazilat ila turli olam va o'lchamlar portalidan foydalana olishlaridagi umumiylikda ayni texnika sifatining namoyon bo'lishini kuzatishimiz mumkin [11]. Shuningdek, Yarim tun bolalar jamoasining yana bir vakili *the blue-eyed member* jins o'zgartirish xususiyatiga egaligi hind xudosi Vishnu va Shivaga tenglashtirilgan [12]. Umumiy qilib aytganda, S. Rushdi o'z afsonasini yaratarkan, unda Tolkin an'anasidagi yangi geografik dunyo hozirgi va qadimgi hind mamlakati hududidagi lokatsiya o'zgartirilmagan bo'lsada, ammo yozuvchi o'z hikoyasini *once upon a time...* iborasi orqali qayta yaratdi. Ushbu qayta yaratilgan afsonaviy davlatni ichki hamda tashqi muhitini tasvirlash maqsadida 581 nafar o'smirlar sirlilik sifatleri mujassamligi bu yangi olam rivoyatiga taaluqli bo'lgan sifat xosligi ekanligini bildiradi. Ya'ni bolalardagi bu fazilat – hind qadimiy xudolariga taqlid qilishlik – hozirgi ba'zi davlat boshqaruv palatalarini tanqid ostiga olinishiga va ayni jarayonda mifopeya texnikasi sifatlashishiga xizmat qilmoqda.

Natijalar va ularni muhokama qilish. Mifopeya janrida ko'pincha, afsona nafaqat dunyoni boyitish, voqeot sodir bo'layotgan muhit va siyosiy-ijtimoiy voqelikni tasvirlash, balki qahramonning hozirgi va ayni zamon asri holatini eslatish uchun aytiladi. Yoki, ehtimol, afsonalar haqiqat bo'lgan taqdirda, ular aslida hikoyaning asosiy harakatlantiruvchi nuqtasiga aylanadi. Demak, bu janrning markaziy va asosiy qismi afsona bo'lib, uning baza birligini shakllantiradi. Ma'lum bir asarda afsona va rivoyatlar shunchaki chiroyli ko'rinish va ertaklarni gullar bilan bezash uchun, ya'ni dekor funksiyasini tashkil qilish maqsadida emas, balki qahramonlarni o'zlarining kurashlariga qaramay harakat qilishda davom etishga majbur qilish yoki ushbu kurashlarning oxiri uchun muhim maslahat berish uchun foydalaniladi. Shuningdek, afsonalardan janr voqelanishi uchun erishishda muallif xohishiga qarab, hamda rivoyatlarning miqdori xuddi shu sabab bilan belgilanadi. Shu o'rinda S. Rushdining "Midnight's children" romanida juda katta massadagi yangi rivoyatlar yaratilishi muallif salohiyati hamda qalami o'tkirligidan dalolat. Shu bilan birga, janr falsafiy va metafizik tushunchalarni o'rganishi bu kabi romanlar salohiyatini yanada oshiradi. O'zi tomonidan yaratilgan afsona ya'ni zamonamizga mos va yangi afsonalar - insoniyatni o'z dunyomiz haqidagi miflarni keng qamrovli tadqiq etishi, ularni o'zi uchun maqbul deb hisoblangan narsaga shakllantirish va birlashtirish - bizning hozirgi ruhiy holatimizning aksi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, muallifning mif yaratish uslubida uning o'tmish chizgilari, diniy e'tiqodi, nazariy hamda amaliy bilim jamlanmasini ko'rish mumkin. Ayni fikrimiz isboti sifatida ikki yozuvchi uslubiga nazar solsak, S. Rushdi asari har tomonlama yetuk, ko'p qirrali va o'ta kuchli tag ma'noli voqelanilganligi ijodkorning uch din e'tiqodidan voqifligini, romanning dast avval tushunish qiyin bo'lgan sahnalarini, ko'plab ma'lum shaxs egalariga tanish bo'lgan frazalar foydalanilganligining sababini tushunish mumkin. Diniy xilma-xillikdagi o'ziga xosligini ushbu parcha orqali anglash mumkin: *Major Zulfikar would be! Breaking her oath, my aunt arrived at his office. Zulfikar is a famous name amongst Muslims. It was the name of the twopronged sword carried by Ali, the nephew of the prophet Muhammad. It was a weapon such as the world had never seen. [8,70]*

Salman Rushdining yana bir ijodkorlik uslublaridan biri bu uning qo'shimcha ma'lumot berishida bo'lib, u ma'lum bir shaxs, joy nomlari yoki an'anaviy marosimlarning kitobxonga tushunarli va oson bo'lishi uchun qavslarda faktlar qoldiradi. Shuningdek, u ham hind, ham musulmon dunyosidan voqif bo'lganligi sabab o'zi bayon qilayotgan turli (diniy) voqealarga qo'shimcha tushuntirishlar yoki hikoyalar bilan to'ldirib, asarning milliy va ma'naviy koloritini boyitishga xizmat qiladi. Yuqoridagi misralarda ham vaqt chizig'ining ikki turli davr XX hamda VII asrlardagi umumiylik bog'lamoqda. Bu o'rinda avtor turli din bilimlari egasi ekanligini ko'rsatib, roman voqealarining o'z xosligi bo'yicha islom dini tarixiga yondashdi va roman qahramonlaridan biri Zulfiqor ismli ofitserning ismiga tavsif berib, bu ism ikki tomoni ham o'tkir tishli qilich ma'nosini anglatishi va Islom dini tarixida u qilich faqatgina Muhammad payg'ambarimizning jiyani Alida bo'lganligi haqidagi rivoyat orqali Lixachov fikridagi tavsifiy cheklanishni ta'minlashni amalga oshirilmoqda. Shuningdek, vaqt hozirdan o'tmishga tomon harakatlanib retrospeksiya usuli orqali inversiyalashmoqda. Xuddi shu misolga monand holatni romanning yana bir qismida uchratish mumkin: ... *While at the Old Fort, Ahmed Sinai waits for Ravana. My father in the sunset: standing in the darkened doorway of what was once a room in the ruined walls of the fort, lower lip protruding fleshily, hands clasped behind his back, head full of money worries. He was never a happy man. He smelled faintly of future failure; he mistreated servants; perhaps he wished that, instead of following his late father into the leathercloth business, he had had the strength to pursue his original ambition, the re-arrangement of the Quran in accurately chronological order. (He once told me: 'When Muhammed prophesied, people wrote down what he said on palm leaves, which were kept any old how in a box. After he died, Abubakr and the others tried to remember the correct sequence; but they didn't have very good memories.' Another wrong turning: instead of rewriting a sacred book, my father lurked in a ruin, awaiting demons. It's no wonder he wasn't happy; [8,97]*

Ushbu misolda hikoyadagi uzilish (narrative interruption) texnikasi ishlatilgan bo'lib, roman ichida ma'lum bir voqea yoritilayotib, unga qo'shimcha tavsif, falsafiy chekinish yoki umumiylik sifatlarini kitobxonga yetkazish maqsadida qo'shimcha hikoya bayon qilinadi va o'quvchi diqqatining uzilishi, disorientatsiya holatini keltirib chiqaradi va bu jarayon orqali avtor faqatgina bir ketma-ketlikka doir holatni emas, balki bir qancha xronologik bo'lmagan vaqt davrli voqealarga yuzlanishi mumkin. Bizning misolimizda ham, Salimning otasi haqidagi faktlarni ko'rsatish bilan birga, unga falsafiy chekinish beruvchi Muhammad payg'ambarimizning davrlari bilan taqqoslaydi. Avtor uzilish texnikasi va hikoya orqali vaqtni VII asr bilan o'zgartirdi hamda retrospeksiya usulini namoyon etdi. Bu holat qisqa vaqtdan chekinishni keltirib chiqaradi, kitobxonni bir necha soniyalarda bo'lsa-da, chalg'itib sodir bo'layotgan voqeadan chekintirish va ma'lum boshqa davr tafsilotlaridan voqif bo'lishlikka undaydi.

Yuqorida musulmon diniy fazilatlarini bilan yo'g'irilgan xususiyatlarni ko'rib o'tgan bo'lsak, quyida xristian dini xususiyatlari ila boyitilgan mifopeik sifatlanishlarni kuzatamiz. D. Mitchellning "Cloud Atlas" romanida buddizm va hinduizm dinlaridagi qayta tug'ilish – karma konsepsiyasi bilan asoslashtirilgan qayta afsonalashtirish texnikasini kuzatishimiz mumkin: *I watched clouds awobbly from the floor o' that kayak. Souls cross ages like clouds cross skies, an' tho' a cloud's shape nor hue nor size don't stay the same, it's still a cloud an' so is a soul. Who can say where the cloud's blowed from or who the soul'll be 'morrow? Only Sonmi the east an' the west an' the compass an' the atlas, yay, only the atlas o' clouds. [13,275]*

Ushbu asardan parcha uning qahramonlaridan biri Zahriyning nutqi bo'lib, muallif o'z fikrlari orqali asar nomi va reenarnasyon g'oyasini ta'kidlaydi. Ya'ni, hikoya so'ngida nutq muallifi Zahri bulutlar haqida fikr yuritib, ularni ruhlarga qiyoslaydi. Uning fikricha, har bir bulut o'tkinchi (efemer) va vaqtinchalik xususiyatga ega. Tanadagi har bir jon asrlar davomida sayohat qilganidek, osmondagi bulutlar ham o'z shakli, rangi va hajmini o'zgartiradi. Demak, asarning bosh qahramonlari (materiya va energiya aylanish jarayoniga o'tganda yuzaga keladigan cheksiz takrorlanish sikli, hinduizm va buddizmdagi kabi vaqt g'ildiragi) bo'limidagi Nittshecha ijodkor tushunchasi har tomonlama isbotlangan. bulut va ruh misolida bulutning o'tkinchiligi yaqqol ko'rinadi. Baxtin ta'limoti bilan solishtirganda ma'lum ma'noda zamonning illyuziya, xayoliy, g'ayrireal tabiatiga tenglashtirilib, o'tmish, hozir va kelajak g'ayrioddiy tarzda o'zgarib, xarakterdagi xronos qonunining o'ziga xos poetik obrazlari. o'zaro nomutanosiblik tadqiqotimiz markazida

joylashgan. Bu o'zgarishlarni asarda muallifning vaqtni hozirgi holatdan kelajakka yoki o'tmishga efemer soniyalarda ko'chirishga intilishi, shuningdek, turli texnika va usullardan foydalangan holda parallel davrlar tasvirlari orqali bir necha hikoyalarda vaqtning harakatini ko'rish mumkin. Bunday holda, vaqtning bu shaklda o'zgarishi tarixiy inversiya hodisasining amaliy qo'llanilishidir. Shu tariqa, zamonning "inversiyasi", "joylar almashinuvi" insoniyat taraqqiyotining turli davrlariga xos mifologik-badiiy tafakkurga xosdir. "Bulutli atlas" romanida tub tusda aks etgan mifologik xarakterning bu turi. tipologiya va bu xususiyatlar mifopoeik janrning Nopok Masihiga mos keladigan dunyoviy kosmologiya qabul qilingan: Nitsshening abadiy takrorlanishi.

Mifopeya janri XX asrda o'z rivojlanish darajasiga erishilish bosqichida bo'lsa-da, retrospektiv tasvir ila uni asrlar osha ta'riflash mumkin. Ya'ni grek faylasufi Platon modern mifopeyani nemis faylasufi ilgari surgan fenomenal dunyoga qarama-qarshi turuvchi nominal dunyo xususiyatlari bilan kesishadi degan fikrni ilgari surgan holda, asl haqiqat insoniyat fenomenal dunyo [2,586] g'oridan tashqarida joylashganligini ta'kidlab o'tgan. Ya'ni, mifopeya janrida ijod qilgan yozuvchi ma'lum davrni nominal olam sifatida tasavvur qilgan holda unda o'z haqiqatini qayta afsona yaratgandek joylab tasvirlashga urinadi. Ushbu yaratilish chog'ida tarixiy sana va hodisalardagi reallik ijodkor xohishiga ko'ra o'zgarishi ayni janr xususiyatlarining namoyon bo'lishi hisoblanadi. S. Rushdining *Midnight's children* romanidagi asar bosh qahramoni hamda hikoyachi romanda markaziy o'rinda turgan o'z oila tarixini ba'zi hind davlati tarixiy voqealar bilan bog'liqlikda tasvirlashi yoki ba'zi siyosiy-ijtimoiy voqealarni ta'kidlab, boshqalarini e'tiborsiz qoldirishi aslida roman tarixning ko'pincha hokimiyatdagilar tomonidan qanday yozilishini tanqid qiladi, bu muqobil istiqbollari va tajribalarning cheklanishiga olib keladi. Demak, ijodkor mifopeya texnikasidan shuningdek, nominal dunyo tasviridan foydalanishidan asosiy maqsad – bu tanqidiy qarash. Ya'ni bu kabi yondashuv orqali yozuvchi boshqaruv organining barcha jabhalarni nazorat ostiga olishi garchi tarixiy haqiqat bo'lishiga qaramasdan degan mantiqni keltirib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Ayni holatda bu texnika orqali S.Rushdi tarixning bo'laklarga bo'linishiga, uni eslab qolish va qayta hikoya qilishning subyektiv usuliga erisha oldi: *Nose and knees and knees and nose... the rivalry that began that night would never be ended, until two knives slashed, down-down-down... whether the spirits of Mian Abdullah, whom knives killed years before, had leaked into me, imbuing me with the notion of loose federalism and making me vulnerable to knives, I cannot say; but at that point I found a measure of courage and told Shiva, 'You can't run the Conference; without me, they won't even be able to listen to you!'*[8,128]

Yuqoridagi parcha orqali yozuvchi asar markaziy obrazlaridan Salim hamda Shiva ayni Hindiston mustaqillikka erishgan kunning ilk daqiqalarida dunyoga kelganliklari sabab boshqa bolalardan o'z g'alati qobiliyati va kuchi bilan ajralib turuvchi ikki qahramonga metafora stilistik vositasi yordamida *Nose and knees and knees and nose* iborasini ishlatgan holda ishora qilinmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bu obrazlarni yozuvchi hind siyosiy hayotini namoyon etish uchun va aynan ozodlik maqsadida kurashgan *Mian Abdullah* ruhini misol sifatida keltirishi va bolalar orasidagi konferensiyaning Salimsiz amalga oshmasligi satrlari bejiz keltirilmagan desak adashmaymiz. Chunki tom ma'noda hind siyosiy olamining asl qiyofasi shu ikki qahramon ortida mifopeya texnikasi vositasidan kerakli nuqtada foydalanilishi Rushdiga xos uslub yo'nalishini tashkil etadi. Salim nutqidan keltirilgan konferensiyaning uning ishtirokisiz amalga oshmasligi iborasida ham o'zgacha ma'no yashirin ekanligini anglash mumkin. Ya'ni kitobxon davlat siyosiy iqlimi pozitsiyasini 1975-77-yillardagi Hind davlatida amalga oshirilgan favqulotdagi holatni nechog'lik ta'sirli ekanligini his eta olishi mumkin.

Xulosa. Qo'shimcha o'rnida, janr sifatlashishi borasida Platon ta'riflagan yangi va zamonaviy olamning nafaqat tarix jabhasi, balki geografiya, madaniyat nuqtalaridagi umumiylikda ham kuzatish mumkin. Yozuvchining madaniyat borasidagi uquvi mavjudligi sababli u romanda hind xalqining ko'p millatli xalq ekanligini isbotlab bera oldi. Qayta afsona yaratish texnikasi sifatini uning ham hind, musulmon va xristian diniga taalluqli bo'lgan ko'plab urf-odatlar birma-bir ta'riflanilishi, qo'shimcha xususiyatlarga alohida to'xtalib o'tishini ta'kidlashimiz mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Bell Mitchel. *Literature modernism and myth. Great Britain. Cambridge university press, 1997. – P. 220.*
2. Immanuel Kant. *The critique of pure reason. London. George Bell and Sons, York Street, Covent Garden, 1890. – P.856.*
3. Naimova, A. (2020). *The main peculiarities of herbert wells and hojiakbar shaykhov's famous science fiction works. // Theoretical & Applied Science, (3), 417-420. <http://www.t-science.org/axivDOI/2020/03-83/PDF/03-83-78.pdf>*

LITERARY CRITICISM

4. Naimova, A. (2020). *Historical inversion on the example of the great uzbek writer isajon sulton's work—boqiy darbadar*. // *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 10(9). [//journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2297](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2297)
5. Naimova, A. (2020). *Yetuk ozbek adibi isajon sultonning ,boqiy darbadar' asari misolida tarixiy inversiya*. // *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 1(1). [//journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2297](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2297)
6. Naimova, A. (2020). *Ozbek adabiy nasrida tarixiy inversiyaning tutgan orni*. // *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 1(1). [/journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2304](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2304)
7. Naimova, A. (2020). *Tarixiy inversiyaning adabiyotdagi orni va uning turlari*. // *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 1(1). [//journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2295](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2295)
8. Rushdie Salman. *Midnight's children*. – L.: Penguin books, 1991. – P.128.
9. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/mythopoeia>
10. <https://en.wikipedia.org/wiki/Mythopoeia>
11. <https://www.hinduamerican.org/blog/hindu-cosmology-and-time-travel-ancient-wisdom-meets-modern-science>
12. <https://shashankrao-84497.medium.com/the-theology-of-ardhanar%C4%AB%C5%9Bvara-the-queer-god-dd2a6aa3eda5>
13. David Mitchell. *Cloud Atlas*. – L.: Sceptre, 2004.– P. 449.

“BOBURNOMA” DAGI IZOFIY BIRIKMALI HAYVONOT VA NABOBOT NOMLARINING INGLIZCHA TARJIMALARI TAHLILI

*Zayniyeva Yulduz Faxriddinovna,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti
zayniyevayulduz1@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqola Bobur Mirzo tomonidan yozilgan “Boburnoma” asaridagi izofiy birikmalar orqali ifodalangan hayvonot va nabobot olamiga oid joy nomlarining ingliz tiliga tarjimasini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot davomida asarda uchraydigan hayvonlar va o'simliklarning tasvirlash uslubi, ularning badiiy xususiyatlari hamda tarjima jarayonida uchraydigan leksik va semantik muammolar o'rganiladi. Maqola J. Leyden-Erskin, Susanna Beverij va V. Tekston tomonidan amalga oshirilgan “Boburnoma” tarjimalariga tayangan holda izofiy birikmalarni ingliz tiliga o'girishdagi badiiy va mazmuniy masalalariga e'tibor qaratilgan. Tadqiqotda aslyat va tarjimalar o'rtasidagi farqlar, Bobur uslubining saqlanishi hamda zamonaviy o'quvchiga aslyat mazmunini yetkazish xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Boburnoma, izofiy birikmalar, shery obiy, xukiy obiy, yabruhussanam, tarjima, Jon Leyden va Vilyam Erskin, Annetta Beveridge va Vilyer Tekston.

АНАЛИЗ АНГЛИЙСКИХ ПЕРЕВОДОВ НАЗВАНИЙ ЖИВОТНЫХ И РАСТЕНИЙ С ИЗОФЕТНЫМИ КОНСТРУКЦИЯМИ В “БАБУР-НАМЕ”

Аннотация. Данная статья посвящена анализу перевода на английский язык названий мест, связанных с миром животных и растений, выраженных через изафетные конструкции в произведении «Бабур-наме», написанном Бабуром Мирзой. В ходе исследования изучаются способы описания животных и растений, их художественные особенности, а также лексические и семантические проблемы, возникающие в процессе перевода. Статья основана на переводах «Бабур-наме», выполненных Дж. Лейден-Эрскином, С. Беверидж и В. Текстоном, и акцентирует внимание на художественных и содержательных аспектах передачи изафетных конструкций на английский язык. В работе анализируются различия между оригиналом и переводами, сохранение стиля Бобура, а также особенности донесения содержания оригинала до современного читателя.

Ключевые слова: «Бабур-наме», изафетные сочетания, аллигатор, дельфин, мандрагора, перевод, Джон Лейден и Уильям Эрскин, Аннетта Беверидж и Вильер Текстон.

THE ANALYSIS OF THE ENGLISH TRANSLATIONS OF ANIMAL AND PLANT NAMES WITH IZAFAT CONSTRUCTIONS IN “BOBURNOMA”

Abstract. This article is dedicated to the analysis of the English translations of animal and plant names expressed in Babur Mirza's work “Boburnoma”. The study explores the descriptive style used for flora and fauna in the text, focusing on their artistic features and the challenges encountered during translation. The research relies on the translations of “Baburnama” translated by J. Leyden-Erskine, Susannah Beveridge, and Wheeler Thackston to search the lexical and semantic correspondences to the izafas in English. The article provides a comparative analysis of the original text and its' translations, highlighting the preservation of Bobur's style and the adaptations for today's readers.

Keywords: “Boburnoma”, izafas, alligator, water-hog, mandrake, translation, J.Leyden-V.Erskine, Annette Beveridge, Wheeler Thackston.

Kirish. Zahiriddin Muhammad Bobur, nafaqat o'zining tarixiy va siyosiy faoliyati, qolaversa, adabiy merosi bilan ham tanilgan buyuk shaxsdir. Uning eng mashhur asari “Boburnoma” o'zining boy tarixiy ma'lumotlari bilan birga, tabiatga bo'lgan hurmat va qiziqishni aks ettirgan asar sifatida ham alohida e'tiborga loyiq. “Boburnoma”da hayvonot va nabobot dunyosining tasvirlanishi, nafaqat estetik go'zallikni ko'rish, balki ular haqida ilmiy aniq ma'lumotlarni ham taqdim etganini ko'ramiz.

Biologiya fanlari doktori, Karimjon Toyjonov hamda, biologiya fanlari nomzodi Marhamat Matvafaevaning tadqiqotlarida, “Boburnoma” asarida, Farg'ona vodiysi, Samarqand, Kobul va Hindistonda

LITERARY CRITICISM

tarqalgan 150 dan ziyod o‘simlikning nomi, ta’rifi, tarqalishi va yana o‘zbekcha, arabcha va hindcha nomlari ham batafsil berilgan. Bundan tashqari, asarda hayvonlarning 180ga yaqin turi qayd etilgan bo‘lib, ularning ayrimlari hozirgi kunda ham respublikamizda mavjuddir. Jumladan, sutemizuvchilarning 15 turi, qushlarning 33 turi, suv va quruqlikda yashovchi jonzotlarning bir necha turi uchraydi deb ma’lumot berib o‘tadi.

Tadqiqot obyekti. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori M. Amonov tadqiqotlarida esa “Boburnoma” asarida Hindistondagi juda ko‘p hayvon, o‘simlik va mevali daraxtlar, ularning xususiyatlari haqida ma’lumot berilganligini ta’kidlab, jumladan, hayvonlardan: fil, kark, sahroyi govmish, nilagov, ko‘tahpoy, jayran, maymun, sichqon, tovuq, to‘ti, lo‘cha, durroj, kanjal, pul-pakor, sahroyi tovuq, bo‘dana, xarchal, soras, manik, laklak, bo‘zak, zumaj kabilar yozilganini, o‘simlik va mevalardan: kayla (banan), anbuli(xurmoyi hindi), mahva, kirni, joman, kamrak, kadhil, badhal, biyr, karunda, panyola, gular, omila va boshqalar. Bobur o‘zi tasvirlab bergan o‘simlik, meva va hayvonlarning fors, arab tillaridagi nomlari va izohlarini batafsil bayon qilganligini yozadi. U tasvirlab bergan ayrim o‘simlik va hayvonlar nomi fors-tojikcha izofali birikma shaklida uchraydi deb izohlaydi olim o‘z tadqiqotida; sheri obiy-alligator, xuki obiy-tyullen’, dengiz cho‘chqasi, qo‘tosi bahriy-begemot, mushi mushkin-sichqonning bir turi, ro‘bai parron-uchuvchi tulki, tulkining bir turi, daraxti ko‘hiy-tog‘ daraxti, chirunchi.

Bu tog‘ elidin mato' nofa, mushk va qo‘tosi bahriy va za‘faron va surb va misdur (BN:250-bet).

Yana chirunchidur, daraxti ko‘hiy emish. Bizning bog‘larda uch-to‘rt tup bor ekandur, so‘ngra bildim (BN:261-bet) deb misollar bilan tahlil qilib beradi.

Qo‘llanilgan metodlar. Ushbu ma’lumotlardan ilhomlanib, izofiy birikmali ba’zi hayvon nomlari va o‘simlik nomlarining inglizcha tarjimalari bilan qiziqib qoldik va bevosita ularni tahlilga tortdik.

1-jadval.

Asliyat	Tabdil	J.Leyden- W.Erskine	Susannah Beveridge	Wh.Thackston
шери обий [203]	сув шери [211]	the alligator [323]	the water-tiger (crocodile) [501]	the alligator (This is a ghariyal, a different type of alligator.) [342]
хуки обий [203]	сув чўчқаси[211]	The water-hog [323]	The water-hog (the porpoise) [502]	the dolphin [342]
муши мушкин [111]	мушкин сичқон [110]	the musk-rat [145]	the musk-rat [214]	a muskrat [177]
қўтоси бахрий [197]	денгиз қўтоси [204]	the mountain-cow [313]	b:hri-qutas [either yak or the tassels of the yak] [485]	yak-tails [332]
рўбайи паррон [111]	учар тулки [110]	the flying-fox [145]	The flying-squirrel [213]	the flying-foxes [176]
дарахти қўхий [205]	тоғ дарахти [213]	...the chirunji. This tree grows on the hills. [327]	The chirunji (Buchanania latifolia) This tree had been understood to grow in the hills,..[508]	The chironjia nut tree is said to grow in the mountains. [345]
Ябрухуссанам [36]	Ябрух ус-санам [31]	The Yabruj-ussannam is the plant called the mandragora or mandrake [6]	the mandrake [11]	Belladonna [39]
олуйи бухорий [61]	Бухоро қаролиси [57]	The pruin or plum of Bokhara [53]	The Bukhara plum [82]	Bukhara plums [87]
себи Самарқанд [35]	Самарқанд олмаси [30]	the apples of Samarkand [4]	a Samarkand apple [8]	Apples of Samarkand [38]

Olingan natijalar va ularning tahlili. Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinadiki, izofa tarjimada hech qanday qiyinchilik tug‘dirmayotgandek va asliyatdagi nomlar tarjimasining ekvivalentlari orqali berilishi yana-da biz uchun juda muhim sanaladi.

Boburnoma asaridagi “sheri obiy” (water tiger) izofiy birikmasining tarjimalarini tahlil qilishda uch tarjimonlarning yondashuvlarini ko‘rib chiqamiz. Bu yerda Boburning asl matnidan foydalanib, uning turli tarjimalarini qanday ifodalashlari va izofiy birikmalarni aks etish masalasi ko‘riladi.

Asliyatda shunday berilgan: *Сув ҳайвоноти: бир шеру обийдур, қора сувларда бўладур, гиласга мушобаҳати бор. Дерларким, кишини ва балки говмишни олур эмиш.* [203]

Bu yerda Bobur suv hayvonini “sheri obiy” deb ataydi, ya’ni bu izofiy birikma orqali “sher” va “obiy” (suv) orasidagi bog‘lanishni ko‘rsatadi. Bu joyda “i” izofa tarzida keladi.

Asliyat matni J. Leyden-W.Erskin tarjimasida quyidagicha aks etadi: “Of the aquatic animals, one of is **the alligator**. It dwells in standing waters, and resembles the crocodile. They say that it carries off men, and even buffaloes.”

Tarjimonlar “alligator” va “crocodile” so‘zlarini *sheri obiy* ornida qo‘llaydilar. O‘ylaymizki, ushbu ekvivalentni qo‘llab asliyat ma‘nosiga yaqin, tushunarli uzatishga erishganlar.

Susanna Beverij esa quyidagicha o‘giradi: “One of **the water-tiger (crocodile)**. This is in the standing-waters. It is like a lizard” [501].

Agar tarjimalar xususida so‘z borganda Beverij tarjimasida “water-tiger” (suv sheri) tasvirlanishi ham yomon emas. Uning tarjima-dagi “like a lizard” (kaltakesakka o‘xshashligi bor) iborasi asl matndagi “kalsg‘a mushobahati bor” (kaltakesakka o‘xshashligi bor) iborasi bilan parallel, ammo “crocodile” deb ko‘rsatilgan hayvon biroz noaniq bo‘lib qoladi. Bu tarjima hayvonning o‘ziga xos xususiyatini aniq ifodalaydi, ammo “sheri obiy” iborasining badiiy ma‘nosini to‘liq tushuntirish uchun kengroq izoh talab etadigan jarayondir.

V.Tekston esa shunday tarjima qilinadi: “One is **the alligator**, (This is a ghariyal, a different type of alligator.) which lives in still waters and resembles a lizard. They say it carries off not only men but also oxen.” [342]

V.Tekston tarjimasida yanada aniqroq. U “ghariyal” (g‘ariyal) deb nomlangan maxsus turdagi alligatori kiritadi. “Still waters” (suvda yashirilib yotadi) va “resembles a lizard” iboralari asl matnga juda yaqin bo‘lib, “carries off not only men but also oxen” (kishini va govmi-shni olib ketadi) qismida hayvonning kuchi va xavfini ifodalaydi. Ushbu tarjima, nafaqat “water-tiger”ni, balki “g‘ariyal”ni aniq tasvirlash orqali o‘quvchiga to‘liq tushuncha bermoqda.

Asliyat matnidagi “sheri obiy” (water tiger) iborasi, J.Leyden-Erskin va Beverij tarjimalarida “alligator” yoki “water-tiger” sifatida ko‘rsatilgan. Bu yerda “sheri obiy” atamasi o‘zbek tilida “sher” va “obiy” (suv sheri) so‘zlarining birlashmasi bo‘lib, o‘sha hayvonning tabiiy xususiyatlarini – kuchli va yovvoyi ekanligini, suvda yashashini ifodalaydi. Beverij va Tekston tarjimalari “resembles a lizard” (kaltakesakka o‘xshash) deb kiritilgan, bu “kalsg‘a mushobahati bor” iborasi bilan mos tushadi.

“Boburnoma” asaridagi “huki obiy”ning tarjimalaridagi farqlarni tahlil qilish, tarjimonlarning o‘z yondashuvlarini va ularning ma‘no anglashdagi farqlarini o‘rganishga yordam beradi. Bobur tomonidan tasvirlangan hayvon, ko‘rinishidan suvda yashovchi hayvon bo‘lib, turli tarjimonlar tomonidan “water-hog”, “porpoise”, va “dolphin” kabi nomlar bilan tarjima qilingan. Fikrning isboti sifatida har bir tarjima-dagi farqlarni batafsil ko‘rib chiqamiz.

Asliyatda: *Яна хуки обийдур, бу ҳам тамом Ҳиндустон дарёларида бўлур. Сувдан баякбор чиқар, боши кўрунур-кўрунмас яна сувга чўмар, қўйруғи кўрунуб қолур, Мунинг тумшуги ҳам сесор тумшугидек узундур ва ушоқ қатор тишлари бордур* [203].

Ushbu matnda Bobur Hindiston daryolarida yashovchi “huki obiy” (suv hayvoni)ni tasvirlaydi. Hayvon suvdan chiqib, bir muddat boshini ko‘rsatadi va yana suvga cho‘kadi, faqat quyruq qismi ko‘rinadi. Shuningdek, uning tumshug‘i uzun va krokodilnikiga o‘xshash ekanligi, tishlarining esa qator bo‘lib, o‘tkirlikini ta’kidlaydi.

J.Leyden-Erskin tarjimasida: “Another is **the water-hog**, which is also found in all the rivers of Hindustan. It springs up from the water with a jerk, puts up its head and plunges it down again, leaving no part of its body visible but the tail.” [323]

Tarjimada “huki obiy”ni “water-hog” (suv cho‘chqasi) deb atagan. Bu atama asl matnning mazmuniga to‘liq mos kelmaydi, chunki cho‘chqa va suv hayvoni o‘rtasida sezilarli farq mavjud. J.Leyden hayvonning suvdagi harakatini “springs up from the water with a jerk” (suvdan ziqillab chiqadi) deb tasvirlaydi, bu aniq va tasavvurga oson bo‘lgan ifoda. Shuningdek, hayvonning “head” (bosh) va “tail” (quyruq) qismlari haqida ham to‘g‘ri tasvirlaydi.

Susanna Beverij tarjimasida esa quyidagicha beriladi: “*The water-hog (the porpoise)* is another. This also is in all Hindustan rivers. It comes up suddenly out of the water; its head appears and disappears; it dives again and stays below, showing its tail.” [502]

S.Beverij tarjimasi J.Leyden-Erskin tarjimasi bilan o‘xshash, ammo u “water-hog”ni “porpoise” (delfin turiga o‘xshash boshqa suv hayvoni) deb ataydi. Undagi ushbu aniqlik, hayvonning suvdagi harakati va tashqi ko‘rinishini tushuntirishda aniqroq bo‘lishi mumkin. S.Beverij, hayvonning “head appears and disappears” (boshining ko‘rinishi va yo‘qolishi) va “it dives again and stays below” (yana cho‘kib, pastga borishi) iboralari orqali, hayvonning harakati va tasvirini yaxshiroq tushuntirgan.

V.Tekston tarjimasida esa mana bunday beriladi: “Another is *the dolphin*. It too is found in all the rivers of Hindustan. It pops up all at once out of the water. Its head appears and disappears, and then it dives into the water and its tail can still be seen. Its snout is long like a crocodile’s, and it has rows of little teeth.” [342]

V.Tekston tarjimasi eng yaqin va eng to‘liq tarjima sifatida, hayvonni “dolphin” (delfin) deb ataydi. Delfin atamasi asar matnida aytilgan hayvonga eng mos keladigan nom bo‘lishi mumkin, chunki bu hayvon suvlarda tez-tez ko‘rinib, qaytib cho‘kadi. “Its snout is long like a crocodile’s” (tumshug‘i krokodilnikiga o‘xshash) iborasi esa hayvonning o‘ziga xos jismoniy xususiyatlarini aniq ta’kidlaydi.

Har uchala tarjimon ham hayvonning suvdagi harakatlarini to‘g‘ri tasvirlashga harakat qilganlar: “springs up”, “comes up suddenly”, va “pops up” kabi iboralar hayvonning tez-tez suvdan chiqishini o‘ziga xos, jarayonni aniq tasvirlaydi.

Bobur ba’zi o‘simliklar ta’rifini yanglish ma’lumot berib qo‘ymaslik uchun el og‘zidan eshitganini, lekin o‘zi ko‘rmaganini yozadi. Bu chinakam olimlarga xos xususiyatdir. Masalan, bir giyoh (Mehrigiyoh nazarda tutilgan) nomini eshitgani, uni el lafzida “ayiq o‘ti” deb nomlanishi, bu o‘tning arabcha nomi “yabruh us-sanam”, deyilishi, o‘simlik Yettikent tog‘larida o‘sishi, lekin o‘zi esa uni ko‘rmaganini “vale bu muddatta eshitilmadi”, deb haq gapni aytadi. Vaholanki, haqiqiy mehrigiyoh (ilmiy nomi “mandragora”) O‘rtayer dengizi atroflarida o‘sadi. O‘rta Osiyoda esa faqat Turkmanistonning Kopetdog‘ tog‘laridagina uchraydi. Ba’zilar uning ildizi jenshenga o‘xshagani uchunmi “Sharq jensheni”, deb ham atashadi. Uning mevasi mayda pamildori yoki ituzumga o‘xshaydi deb yozadi biologiya fanlari doktori, Karimjon Toyjonov hamda, biologiya fanlari nomzodi Marhamat Matvafaeva “Boburnoma” o‘simlik va hayvonot olami haqida”gi maqolasida.

Berilgan jadvaldan foydalanib *Yabruh-us-sanam* o‘simlik nomining inglizcha tarjimalarini ko‘rib chiqamiz va har bir tarjimadagi farqlar va o‘xshashliklarni aniqlaymiz.

Asliyatta shunday beriladi: *Баъзи китобларда битибтурларким, “ябрухуссанам” бу тоғлардадур, вале бу мудартта ҳеч эшитилмади.* [36] Tarjimalarga e’tibor qarataylik.

J.Leyden-Erskin tarjimasida quyidagicha beriladi: In many books it is related that the *Yabruh-us-sannam* grows on these hills; but now it is quite unknown. (The Yabruh-ussannam is the plant called the mandragora or mandrake.) [6] “Ko‘plab kitoblarga ko‘ra, Yabruh-us-sannam bu tog‘larda o‘sadi; lekin hozirda u haqida hech narsa ma’lum emas.” Tarjimonlar ushbu o‘simlikni mandragora yoki mandrake deb ham ataydi, lekin u hozirgi kunda aniqlanmaganligini ta’kidlaydi.

Susanna Beverijda bunday berilgan: Some books write that *the mandrake* is found in these mountains but for this long time past nothing has been heard of it.[11] Susannah tarjimasida Yabruh-us-sannam to‘g‘ridan-to‘g‘ri mandrake deb tarjima qilingan. U hozirgi vaqtda bu o‘simlikning yo‘qolganini qayd etadi.

V.Tekston tarjimasida bunday berilgan: In some books it is written that there is **belladonna** in the mountains, although it has not been heard of in these times. A plant in the Yeti Kent mountains, which the people there call **ayiq oti**; is claimed to have **the properties of mandrake**. It most likely is the mandrake, but they call it by the other name.[39] “Ba’zi kitoblarga ko‘ra, bu tog‘larda belladonna bor, ammo hozirgi kunda u haqida hech narsa aytilmagan. Yeti Kent tog‘larida, odamlar ayiq o‘ti deb ataydigan o‘simlik mandrake xususiyatlariga ega deb takidlanadi. Bu, ehtimol, mandrake bo‘lishi mumkin, lekin uni boshqa nom bilan atashadi”.

V.Tekston tarjimasi Yabruh-us-sanamni belladonna sifatida tarjima qiladi, bu esa boshqa bir o‘simlik turini anglatadi. Shuningdek, ayiq o‘ti nomi bilan ataladigan o‘simlik haqida ham gapiradi, bu o‘simlikning mandrake xususiyatlariga ega ekanligini ta’kidlaydi.

Xulosa. Darhaqiqat, Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyati va hayot yo‘li, izlanishlari har jihatdan o‘rganishga arziydi. Boburning birgina “Boburnoma”sini chinakam ensiklopedik asar deyish mumkin. Chunki, unda nafaqat, adabiyot, san’at, tarix, geografiya, balki nabotot va hayvonot olami haqida ham aniq ma’lumotlar keltirilgan. Ularning tarjimalari o‘rtasidagi farqlar, asosan, o‘simliklarning o‘ziga xos nomlanishlari va mahalliy talqinlarga bog‘liq bo‘lib, ularning tarixiy va madaniy kontekstga mos kelishi muhim.

ADABIYOTLAR:

1. Amonov M. “Boburnoma”dagi izofiy birikmalarning lisoniy tadqiqi”. *Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD): Farg‘ona*. –2020.
2. “Boburnoma” o‘simlik va hayvonot olami haqida . Karimjon Toyjonov, *biologiya fanlari doktori, Marhamat Matvafayeva, biologiya fanlari nomzodi 2017*
3. Bazarbayev Sharap Tadjiboyevich “Sohibqiron Amir Temur barpo qilgan firdavsmonand bog‘lar” 99-103 bet. www.uzresearchers.com
4. Beveridge, Anette Susannah. *The Babur-nama in English. Emperor of Hindustan Babur*. – London, 1921. – 880 p.
5. *Dictionary of contemporary English*. – Longman., 2000. – 864 p.
6. Leyden John. *Memoirs of Zehir-Ed-Din Muhammed Baber: Babur Emperor of Hindustan*. – London., 1826. – 432 p.
7. Teshaboyeva Z. “Boburnoma”dagi frazeologik birliklarning inglizcha tarjimalari qiyosiy tahlili. *Tafakkur. Toshkent*. – 2018.
8. Teshaboyeva Z. “Boburnoma”ning lisoniy jozibasi ingliz tarjimonlari talqinida. *Nodirabegim. Toshkent*. –2021.
9. Thackston Wh.M. *The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor*. New York, 1996. – 554 p.
10. Qambarov N. *Tarjima transformatsiyalarining lingvokulturologik va kognitiv xususiyatlari. Toshkent*. – 2019.
11. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. *Бобурнома*. 2002. Тошкент: Шарқ НМАК, 336 б.
12. Заҳириддин Муҳаммад Бобур *энциклопедияси. Шарқ. Тошкент*. –2014. 74
13. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. *Бобурнома*. Т.: “Шарқ” НМАК, 2008, 336 б.
14. Заҳириддин Муҳаммад Бобур *энциклопедияси. Шарқ. Тошкент*. –2014.
15. <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english>
16. <https://www.amazon.com/Baburnama-Memoir-Babur/dp/8129141752>
17. <https://archive.org/details/baburnamainengli01babuuoft>

SHARQ VA G'ARB MADANIYATLARIDA "YAXSHILIK" TUSHUNCHASI

Gadoeva Mavlyuda Ibragimovna,
Buxoro davlat universiteti professori, DSc
Rahmonova Jasmina Matyoqubovna,
Buxoro davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq va G'arb madaniyatlarida "yaxshilik" tushunchasi tahlil qilinadi. Sharq madaniyatida yaxshilik ko'pincha jamoaviy qadriyatlar, insonparvarlik va ma'naviyatga asoslangan bo'lsa, G'arb madaniyatida individualizm, erkinlik va huquqiy tushunchalar orqali ifodalanadi. Madaniy kontekst va tarixiy omillar yaxshilik tushunchasining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Maqolada har ikkala madaniyatning yaxshilikka bo'lgan yondashuvi qiyosiy tahlil qilinib, ularning o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: yaxshilik, Sharq madaniyati, G'arb madaniyat, ma'naviyat, individualizm, jamoaviylik, madaniy tahlil, qiyosiy yondashuv.

КОНЦЕПЦИЯ «ДОБРОТЫ» В ВОСТОЧНОЙ И ЗАПАДНОЙ КУЛЬТУРЕ

Аннотация. В данной статье анализируется понятие «доброта» в культурах Востока и Запада. В восточной культуре доброта чаще всего основывается на коллективных ценностях, гуманизме и духовности, тогда как в западной культуре она выражается через индивидуализм, свободу и правовые концепции. Культурный контекст и исторические факторы играют важную роль в формировании этого понятия. В статье проводится сравнительный анализ подходов двух культур к доброте, и выявляются их уникальные особенности.

Ключевые слова: доброта, восточная культура, западная культура, духовность, индивидуализм, коллективизм, культурный анализ, сравнительный подход.

THE CONCEPT OF «GOODNESS» IN EASTERN AND WESTERN CULTURES

Abstract. This article analyzes the concept of "goodness" in Eastern and Western cultures. In Eastern culture, goodness is often rooted in collective values, humanism, and spirituality, while in Western culture, it is expressed through individualism, freedom, and legal concepts. Cultural context and historical factors play a significant role in shaping this concept. The article provides a comparative analysis of both cultures' approaches to goodness, highlighting their unique characteristics.

Keywords: goodness, Eastern culture, Western culture, spirituality, individualism, collectivism, cultural analysis, comparative approach.

Kirish. Yaxshilik insoniyatning ma'naviy va axloqiy tamoyillarini belgilovchi asosiy tushunchalardan biri bo'lib, turli madaniyat va falsafiy maktablarda markaziy o'rinni egallaydi. Bu tushuncha nafaqat shaxsiy hayotga, balki ijtimoiy munosabatlarga ham chuqur ta'sir ko'rsatadi. Sharq va G'arb madaniyatlari yaxshilik tushunchasini turlicha talqin qilgan: Sharqda yaxshilik ko'pincha jamoaviylik, insonparvarlik va ruhiy taraqqiyotga asoslangan bo'lsa [1. 135-b], G'arbda individualizm, shaxsiy huquqlar va erkinlik orqali namoyon bo'ladi [1. 31-89-b]. Ushbu farqlarni tushunish madaniyatlararo muloqotni mustahkamlash va global masalalarda yaxshilik tushunchasining o'rni haqida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun muhimdir. Sharq va G'arb madaniyatlarida yaxshilik tushunchasiga bo'lgan yondashuvlar orasida sezilarli farqlar mavjud bo'lib, bu tushuncha madaniy va tarixiy kontekstda turli ma'nolarga ega. Masalan, Sharqda yaxshilik ma'naviy mukammallikka intilish orqali ifodalansa, G'arbda u ko'pincha shaxsiy manfaat va huquqlarni ta'minlash bilan bog'lanadi [3]. Ushbu farqlarni o'rganish madaniyatlarning umumiy axloqiy tamoyillarini aniqlashga yordam beradi. Mazkur maqola Sharq va G'arb madaniyatlarida yaxshilik tushunchasining talqinini o'rganish va ularning umumiyliklari hamda farqlarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot orqali madaniy va falsafiy nuqtai nazardan yaxshilik tushunchasining semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Bugungi globallashuv davrida turli madaniyatlararo muloqot va hamkorlikni rivojlantirish uchun yaxshilik tushunchasining madaniy talqinlarini chuqur tushunish zarur. Ushbu tadqiqot, bu borada nazariy va amaliy yo'nalishda yangi fikrlarni ochib berishga xizmat qiladi.

Metodologiya. Ushbu maqolada Sharq va G'arb madaniyatlaridagi yaxshilik tushunchasini o'rganish va qiyosiy tahlil qilish uchun adabiyot tahlili asosiy tadqiqot metodlari sifatida tanlangan. Tadqiqot jarayonida muayyan manbalar, falsafiy va diniy asarlar tahlil qilinib, yaxshilik tushunchasining mazmuni va ularning madaniy kontekstdagi o'rni o'rganiladi. Ushbu tadqiqot adabiyot tahlili, ma'lumotlar to'plash, va taqqoslash usullariga asoslangan. Adabiyot tahlili madaniy va diniy manbalarni chuqur tahlil qilish orqali Sharq va G'arb madaniyatlaridagi yaxshilik tushunchalarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot turi sifatida tanlangan yondashuv muayyan g'oyalar va tushunchalarni turli madaniy kontekstlarda chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Tadqiqot uchun muhim bo'lgan madaniy va diniy manbalar ikki asosiy guruhga bo'linadi:

1. Sharq madaniy manbalari:

- Al-G'azoli - Ihya Ulum al-Din (Din ilmlarining tirilishi): Islom falsafasi va axloqiy ta'limotlar orqali yaxshilik tushunchasi tahlil qilinadi.

- Jaloliddin Rumiy - Masnaviy: Yaxshilik va insoniy fazilatlar haqida falsafiy qarashlar keltiriladi.

- Konfutsiy - The Analects: Sharq madaniyatidagi axloqiy qadriyatlar va yaxshilik tushunchasining ahamiyati ko'rsatilgan.

- Buddha - Dhammapada: Buddizm falsafasida yaxshilik va insonning o'z-o'zini rivojlantirish orqali yuksalishi haqida ma'lumot beriladi.

2. G'arb madaniy manbalari:

- Platon - The Republic (Davlat): Antik yunon falsafasida yaxshilik tushunchasi va uning ijtimoiy adolat bilan bog'liqligi tahlil qilinadi.

- Aristotel - Nicomachean Ethics (Nikomax etikasi): Aristotel yaxshilik va axloqiy fazilatlarining ma'nosini tushuntiradi.

- Thomas Aquinas - Summa Theologica: Xristianlik ta'limotida yaxshilik va insoniy maqsadlar haqida tushuncha beradi.

- Immanuel Kant - Critique of Practical Reason (Amaliy aql tanqidi): Yaxshilik tushunchasining ahloqiy asoslari haqida G'arb falsafiy qarashlari keltirilgan.

- John Stuart Mill - Utilitarianism (Foydalilik): Yaxshilik va foydalilik o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi.

Tadqiqotda muqobil madaniy taqqoslash yondashuvi qo'llaniladi. Ushbu yondashuv orqali ikki xil madaniyatning asosiy qarashlari va tushunchalari o'rganilib, ular orasidagi o'xshashliklar va farqlar aniqlanadi. Bu yondashuv madaniyatlararo o'xshashliklarni ko'rsatib berish, shuningdek, ularning tarixiy va falsafiy asoslarini tushuntirish imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish uchun quyidagi usullar qo'llaniladi:

1. Matn tahlili: Tadqiqotning asosiy qismi matn tahliliga asoslanadi. Sharq va G'arb madaniyatiga oid diniy va falsafiy asarlar, klassik adabiyotlar, va zamonaviy falsafiy manbalar tahlil qilinadi. Bu usul yordamida har bir manbadagi yaxshilik tushunchasi va uning asosiy xususiyatlari aniqlanadi.

2. Muqobil tadqiqot metodlari: Ikkala madaniyatdagi manbalar qiyosiy tahlil qilinib, muqobil tadqiqot metodlari yordamida Sharq va G'arb madaniyatlaridagi yaxshilik tushunchasining o'xshashliklari va farqlari o'rganiladi. Bu metod orqali turli madaniy kontekstlarda yaxshilik tushunchasining o'ziga xosligi aniqlanadi.

3. Ma'lumotlarni taqqoslash: Sharq va G'arb madaniyatlaridagi yaxshilik tushunchalarini taqqoslash orqali ularning tarixiy rivojlanish yo'nalishlari aniqlanadi. Bu metodologik yondashuv madaniy kontekstlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi va har ikki madaniyatdagi asosiy qarashlarni qiyoslash imkonini beradi. Ushbu metodologiya yordamida tadqiqotda Sharq va G'arb madaniyatlaridagi yaxshilik tushunchasining asosiy tamoyillari, ularning o'xshashliklari va farqlari aniqlanadi. Bu yondashuv tadqiqotning maqsadlariga erishish va madaniy almashuv jarayonlarini kengroq o'rganish imkonini beradi.

Natijalar. Sharq va G'arb madaniyatlaridagi yaxshilik tushunchalarining o'xshashliklari va farqlari quyidagicha aniqlangan.

O'xshashliklar: Ikkala madaniyatda ham yaxshilik tushunchasi ahloqiy fazilatlar, ma'naviy rivojlanish, va insonlarning bir-biriga nisbatan bo'lgan hurmatiga asoslanadi. Yaxshilikni boshqalarga yordam berish, hamdardlik ko'rsatish va insoniyatga xizmat qilish orqali ifodalash ham Sharq, ham G'arb falsafalarida uchraydi. Sharqning islomiy qarashlari va G'arbnining xristianlik ta'limotida yaxshilikning diniy asoslari mavjud bo'lib, ikkalasida ham ma'naviy yuksalish asosiy ahamiyatga ega. Bu, har ikki madaniyatning asosi sifatida yaxshilikni insonni yuksaltirish, uning ruhiy va ma'naviy holatini yaxshilash, va unga o'zligini to'liq anglash imkonini yaratish deb qarashlariga olib keladi [4. 50-54]. Yaxshilikning bu umumiy qadriyatlari, insonlarning bir-biriga bo'lgan mas'uliyatini oshirib, jamiyatda tinchlik va ahillikni ta'minlashga qaratilgan [5. 105-123-b]. Bu yerda yaxshilikning yuksalishiga yo'naltirilgan amallar ko'proq ruhiy va ma'naviy o'sish bilan bog'liqdir [6. 56-88-b]. Buddizm, masalan, yaxshilikning asosi bo'lgan

“karuna” (hamdardlik) [7] va “metta” (do’sstlik) kabi fazilatlar ruhiy tozalikka erishish va ichki tinchlikni saqlashga qaratilgan [8. 70-75-b]. G’arb falsafasida esa yaxshilik ko’pincha jamiyatdagi adolat va axloqiy qonunlar asosida baholanadi. Bu yerda asosiy e’tibor jamiyatning rivojlanishiga, qonunlarning adolatli bo’lishiga qaratiladi [9. 89-97-b]. G’arbda axloqiy qarashlar, odatda, individual huquqlar va erkinliklarni ta’kidlashga moyil, va yaxshilik ko’pincha utilitaristik nuqtayi nazardan, jamiyatga foyda keltirishga yo’naltirilgan faoliyatlar orqali baholanadi. Sharq madaniyatida yaxshilikni ruhiy va diniy tamoyillarga asoslash ko’proq uchrasa, G’arb madaniyatida yaxshilik axloqiy qarashlar va axloqiy normativlarga asoslangan. G’arbda zamonaviy qarashlar yaxshilik tushunchasini pragmatik va utilitaristik nuqtai nazardan ko’rib chiqadi, ya’ni amalning qiymati va foydasiga qarab baholaydi. Bu yerda, yaxshilik ko’pincha samarali natijalar va amaliy foyda orqali o’lchanadi [10]. Masalan, jamiyatdagi harakatlarning umumiy foydasi, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta’minlash uchun amalga oshirilgan harakatlar qiymati asosiy o’lchov sifatida qaraladi. Sharq falsafasi esa ruhiy yuksalish va koinot bilan uyg’unlik orqali yaxshilikka erishishni ta’kidlaydi [11. 215-230-b], bu yerda yaxshilik, asosan, tashqi dunyo bilan ichki uyg’unlikni yaratish orqali amalga oshiriladi. Sharq madaniyatlarida yaxshilikning asosiy yo’nalishi o’z ichki tinchligini va ruhiy barqarorligini topish, jamiyat bilan uyg’unlikni ta’minlashdir [12].

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, Sharq va G’arb madaniyatlarida yaxshilik tushunchasining asoslari farqli bo’lishiga qaramasdan, ularning maqsadlari — insonlarni ma’naviy yuksalishga undash va jamiyatda adolatni ta’minlash — umumiydir [13/ 102-120- b]. Bu esa yaxshilikning insoniyat madaniyatida eng muhim tamoyillardan biri ekanligini tasdiqlaydi va madaniyatlararo yaxshilik tushunchalarining o’zaro aloqadorligini namoyon etadi [14. 56-73-b]. Yaxshilik, shu tarzda, nafaqat diniy va falsafiy qadriyatlar, balki jamiyatdagi axloqiy tizim va insonning ichki dunyosi bilan ham chambarchas bog’liqdir [15]. Madaniyatlararo farqlarni hisobga olgan holda, yaxshilikning global qadriyat sifatida tan olinishi va uning insoniyat taraqqiyotidagi o’rni yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va muhokama. Globalizatsiya va madaniy almashinuv jarayonlari natijasida Sharq va G’arb madaniyatlaridagi yaxshilik tushunchalari o’rtasida umumiy jihatlar shakllanmoqda. So’nggi yillarda globalizatsiya tufayli Sharq va G’arb madaniyatlari bir-biridan o’rganib, yangi yaxshilik tushunchalarini qabul qilmoqda. Sharq falsafalarida individual huquqlar va erkinliklarga e’tibor ortib borayotgan bo’lsa, G’arbda esa kollektiv mas’uliyat va ijtimoiy yordam g’oyalari keng tarqalmoqda [16. 56-78-b]. Bu jarayonlar ikki madaniyat o’rtasida almashish va o’zaro ta’sir ko’rsatishni ta’minlab, yaxshilik tushunchalarining muayyan universallashtirishini olib kelmoqda. Shu bilan birga, bu o’zgarishlar madaniyatlararo muloqotni rivojlantiradi va global miqyosda yangi axloqiy me’yorlarni shakllantiradi. Xususan, Sharq madaniyatida o’z-o’zini rivojlantirish va ruhiy o’sish, G’arbda esa ijtimoiy hamkorlik va adolatga e’tibor berilmoqda. Bu farqlarni yanada chuqurroq tahlil qilish uchun Alasdair MacIntyre ning “After Virtue” asaridan foydalanish mumkin, unda u axloqiy fazilatlarining rivojlanishini madaniy kontekstda ko’rib chiqadi va har ikki madaniyatda o’zgarishlarni o’zaro ta’sir sifatida baholaydi [17. 188-189-b].

• Universal axloqiy tamoyillar: Sharq va G’arb madaniyatlarida shakllangan umumiy axloqiy tamoyillar, masalan, rahm-shafqat, adolat, va hurmat, bugungi kunda xalqaro huquq va inson huquqlarining asosiy tarkibiy qismlaridan biriga aylangan. Bir nechta tadqiqotlar, jumladan, Martha Nussbaumning “Creating Capabilities” kitobida ta’kidlanishicha, bu axloqiy qadriyatlar jahon miqyosida madaniyatlararo muvofiqlikni ta’minlash uchun muhim rol o’ynaydi [18. 40-43-b]. Sharq madaniyatlarida rahm-shafqat, ya’ni boshqalarga bo’lgan mehr-muruvvat, ko’plab diniy va falsafiy oqimlarda asosiy ahamiyatga ega bo’lsa, G’arbda bu tushuncha inson huquqlari va tenglik tamoyillari bilan bog’lanadi. Shu bilan birga, adolat va hurmat tushunchalari, G’arbda ko’proq ijtimoiy qonunlar va huquqiy tizimlar orqali ifodalangan bo’lsa, Sharq madaniyatida bu tushunchalar ko’proq individual va ruhiy o’sish jarayonlari bilan bog’lanadi. Bu o’xshashliklar va farqlar, axloqiy me’yorlarning global birlashuvi jarayonida jahon miqyosida adolat va tinchlikni ta’minlashga yordam beradi.

• Axloqiy me’yorlarning birlashuvi: Sharq va G’arb madaniyatlaridagi axloqiy tushunchalar, jumladan, yaxshilik, global masalalar, masalan, inson huquqlari, ekologik barqarorlik, va ijtimoiy adolatni hal qilishda bir-biriga ta’sir ko’rsatmoqda. Bu jarayon ikki madaniyatning yaxshilik tushunchalarini o’zaro birlashtiradi va ularni zamonaviy global qadriyatlarga moslashtiradi. Shuningdek, bu jarayonlarning bir-biriga ta’sirini ko’rishda Emmanuel Levinasning axloqiy mas’uliyat haqidagi qarashlari o’z ahamiyatini yo’qotmaydi. Uning fikricha, insonning axloqiy vazifasi, boshqa insonning ehtiyojlariga javob berish orqali amalga oshiriladi. G’arbda inson huquqlari va ekologik barqarorlik kabi masalalar ko’proq davlatlararo bitimlar va global muassasalar orqali hal qilinadi, Sharq madaniyatlarida esa bu masalalar ko’proq jamiyatning ruhiy va ma’naviy asoslariga tayanadi. Shunday qilib, global axloqiy me’yorlarning birlashuvi va yaxshilik tushunchalarining universallashtirishini, butun dunyoda ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Sharq va G'arb madaniyatlaridagi yaxshilik tushunchalari farqli falsafiy va diniy asoslarga ega bo'lsa-da, bugungi global sharoitda ularning umumiyliklari ortib bormoqda. Bu esa yaxshilik tushunchasining universallashtirishi va insoniyatning ahloqiy birligi g'oyalariga asos bo'ladi. Bu jarayon, o'z navbatida, madaniyatlararo o'zaro hurmat va muloqotning rivojlanishiga olib keladi, bu esa global miqyosda yangi axloqiy tamoyillarni shakllantiradi. Madaniyatlararo yaxshilik tushunchasining uyg'unlashuvi, dunyoning turli burchaklaridagi odamlar o'rtasida umumiy axloqiy qadriyatlarni yaratadi, bu esa global tinchlik va barqarorlikka olib kelishi mumkin.

Xulosa. Ushbu maqolada Sharq va G'arb madaniyatlaridagi yaxshilik tushunchalari falsafiy va diniy asoslari, rivojlanishi hamda amaliyotdagi o'rni tahlil qildik. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, har ikki madaniyatda yaxshilik tushunchasi ahloqiy me'yorlar va qadriyatlarning markaziy qismidir. Sharqda yaxshilik tushunchasi diniy ta'limotlar (islom, buddizm, Konfutsiy falsafasi) orqali ifodalangan bo'lsa, G'arbda antik yunon falsafasi, xristianlik va zamonaviy falsafiy yondashuvlar asosida shakllangan. Sharqda jamoaviy mas'uliyat va ijtimoiy uyg'unlik tamoyillari ustun bo'lsa, G'arbda esa individual huquqlar va shaxsiy axloqiy qarorlar muhim rol o'ynaydi. Yaxshilik tushunchasi bugungi zamonaviy jamiyatlarda global madaniy almashinuv va xalqaro munosabatlar uchun katta ahamiyatga ega. Turli madaniyatlardagi yaxshilik tushunchalarini o'rganish orqali xalqlar o'rtasidagi hamjihatlikni kuchaytirish, ijtimoiy adolat, rahm-shafqat va inson huquqlariga e'tibor qaratish mumkin. Sharq va G'arb madaniyatlari o'rtasidagi yaxshilik tushunchalarining uyg'unlashuvi insoniyatning umumiy qadriyatlarini shakllantirishga yordam beradi va bu zamonaviy jamiyatlarda barqaror rivojlanish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning cheklovlari asosan foydalanilgan manbalarning cheklanganligi va qamrovining torligi bilan bog'liq. Ushbu maqolada faqatgina ayrim diniy va falsafiy manbalar ko'rib chiqilgan bo'lib, ularning barchasini qamrab olish imkoni yo'q edi. Kelgusidagi tadqiqotlarda boshqa diniy ta'limotlar (masalan, hinduizm yoki taoizm) va zamonaviy falsafiy oqimlarni ham qo'shish, shuningdek, antropologik va sotsiologik yondashuvlar orqali yaxshilik tushunchasini chuqurroq o'rganish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, yaxshilik tushunchasining amaliy qo'llanilishiga e'tibor qaratish, uning zamonaviy muammolar (masalan, ekologik muvozanat, global ijtimoiy tenglik) doirasida qanday namoyon bo'lishini tahlil qilish kelajakdagi tadqiqotlar uchun muhim yo'nalish bo'lishi mumkin. Shunday qilib, Sharq va G'arb madaniyatlaridagi yaxshilik tushunchasini chuqurroq o'rganish, bu tushunchalarning jamiyatdagi rolini yanada kengaytirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Aristotle//*Nicomachean Ethics* (W.D. Ross tarjimasi) //Oxford University Press//1998//313–315-betlar.
2. Plato//*The Republic* (Trans. Benjamin Jowett)//Cambridge: Cambridge University Press//2006//31–89-betlar.
3. *Stanford Encyclopedia of Philosophy*// “Goodness.” //2023//<https://plato.stanford.edu/entries/goodness/>
4. Kant, Immanuel// *Groundwork for the Metaphysics of Morals*. Harper Torchbooks//1785//50–54-betlar.
5. *Moral Judgments and Language: Pragmatic Functions*// *Cambridge Journal of Philosophy and Linguistics*, 12(3)//2019// 105–123-betlar.
6. Lakoff, George// *Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal About the Mind*//Chicago: University of Chicago Press//1987//56–88-bet.
7. *Internet Encyclopedia of Philosophy*//“Eastern and Western Ethics.” //<https://iep.utm.edu/east-west-ethics/>
8. Mill, John Stuart// *Utilitarianism*// London: Parker, Son, and Bourn//1863//70–75-betlar.
9. Yaxshilikning semantik talqini: Sharq va G'arb falsafasi nuqtayi nazaridan// *O'zbek tilshunosligi va falsafasi jurnali*, 25(4)//2023//89–97.
10. *Cambridge Core*//“Semantic Theories of Goodness in Linguistics.”//2019//<https://www.cambridge.org/core/journals/linguistics>
11. *Goodness in Cognitive Linguistics*//*Linguistic Inquiry*, MIT Press//2020//34(5), 215–230.
12. *ResearchGate*. “Cross-Cultural Perspectives on Moral Semantics.”//https://www.researchgate.net/publication/34567890_Cultural_Semantics
13. *Sharq falsafasi va jamoaviylik tamoyillari*//Tashkent: Ma'naviyat nashriyoti//2022//102–120-betlar.

LITERARY CRITICISM

14. *Goodness as a Moral Value in Western Thought*//*Oxford Journal of Ethics* 21(2)//2017// 56–73-
betlar.
15. *Academia.edu*. “*Goodness in Language and Culture: Comparative Analysis.*”//
https://www.academia.edu/goodness_analysis
16. *Cultural Perspectives on Goodness: An Anthropological Study*//*Journal of Cross-Cultural Studies*//2018//45(7)//56–78-
betlar
17. *Martha Nussbaum*//*Creating Capabilities: The human development approach*//*Harvard University press*//2011//188-189-
betlar.
18. *Alasdair MacIntyre*//*After Virtue: A study in moral theory*// *University of Notre dame press*//1981//40-43-
betlar.

RASHOD NURI GUNTEKIN ROMANLARIDA O'QITUVCHILAR OBRAZI

Sa'dullayeva Shahlo Anvarovna,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
shahlo.sadulla@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola turk adabiyoti eng mashhur namoyandalaridan biri Rashod Nuri Guntekinning "o'qituvchilar yozuvchisi" deb atalishi sababiga to'xtalib o'tilgan. O'qituvchilar bosh obraz sifatida tanlangan to'rt nasriy asari: "Choliqushi", "Achinish", "Yashil kecha" va "Qon da'vosi" romanlarining umumiy xususiyatlari haqida va bosh qahramonlari haqida qisqacha bayon qilingan.

Kalit so'zlar: roman, o'qituvchi, muallim, jumhuriyat davri, "o'qituvchilar yozuvchisi", ijtimoiy muammo.

ОБРАЗ УЧИТЕЛЕЙ В РОМАНАХ РАШОДА НУРИ ГУНТЕКИНА

Аннотация. Данная статья посвящена тому, почему Рашава Нури Гунтекина, одного из самых известных деятелей турецкой литературы, называют «писателем-учителем». Кратко описаны общая характеристика и характеры четырёх прозаических произведений, выбранных педагогами в качестве главных героев: «Королёк — птичка певчая», «Страдание», «Зелёная ночь» и «Кровавый иск».

Ключевые слова: роман, учитель, учительница, республиканский период, «учитель-писатель», социальная проблема.

IMAGE OF TEACHERS IN THE NOVELS OF RASHOD NURI GUNTEKIN

Abstract. This article focuses on the reason why Rashad Nuri Guntekin, one of the most famous figures of Turkish literature, is called a "teacher's writer". The general characteristics and main characters of four prose works chosen by the teachers as main characters: "The Wren", "Suffering", "Green Night" and "Blood Claim" were briefly described.

Keywords: novel, teacher, educator, republican period, "teacher's writer", social problem.

Kirish. Ustoz-muallimlar turk xalqining ma'nan yangilanishi va Turkiya Respublikasi askarlari sifatida qabul qilindi. Ulargina jamiyatga sivilizatsiya olib kira olishlariga ishonishgan. Yangi madaniy islohotlarni amalga tatbiq etish, kelajakdagi rejalarini amalga oshirishda ular yetakchilar sifatida safarbar etilgan. Ayniqsa, qishloq joylarda o'sha hududning eng ma'rifatli shaxsi o'qituvchilar bo'lgan. Xalq ham o'qituvchilarga katta hurmat ko'rsatdi. Shunday muhitda o'qituvchi xalq tilida so'zlash orqali rivojlanish va o'zgarishni xalqqa yetkazardi. Natijada, xalq bilan birgalikda jamiyatni o'zgartirishlari lozim edi. Aynan shunday vaziyatda o'qituvchilarning jamiyatdagi mavqeyini oshirish, hurmat-e'tiborini yuksaltirish ijodkorlarga yuklandi. Badiiy adabiyotda o'qituvchi obrazi ko'pgina asarlarda yoritila boshlandi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ushbu maqola uchun tadqiqot obyekti sifatida turk yozuvchisi Rashod Nuri Guntekinning to'rt romanidagi: "Choliqushi", "Achinish", "Yashil kecha" va "Qon da'vosi" romanlari bosh qahramoni hisoblanmish o'qituvchilar obrazi olindi. Tadqiqotda biografik metod ustuvor hisoblanib, bundan tashqari ijtimoiy-sotsiologik metoddan ham foydalanildi. Rashod Nuri Guntekin asarlari bo'yicha turk adabiyotshunosligida juda ko'p ishlar amalga oshirilgan. Oljay O'nertoyning "Rashod Nuri Guntekin va Onado'li" (1974), Jahid Kavjarning "Bir o'qituvchining romani. Yashil kecha" (1972), Konur Ertopning "Jumhuriyat davrida turk roman" (2017), Birol Emilning 2 qismdan iborat "O'qituvchilar romannavisi Rashod Nuri Guntekin" (1990, 1991), Nihad Sami Banarlining "Rashod Nuri Guntekin" (1983), Yahya Aydinning "Rashod Nuri Guntekinning romanlarida ta'limda kuch ishlatish holatining g'oyaviy ishlamlari" (2017) kabi asarlari adib adabiy merosi bo'yicha qilingan salmoqli ishlar sanaladi. O'zbek adabiyotshunosligida o'zbek adabiyotidagi asarlarda o'qituvchi obrazi haqidagi ishlar mavjud bo'lsa-da, turk adabiyotshunosligidagi kabi keng va ko'p deya olmaymiz.

Natijalar va muhokama. Jumhuriyat boshlig'i Otaturk Turkiya Buyuk Millat Majlisining 1922-yil 1-martdagi Uchinchi chaqirig'ining ochilish nutqida o'qituvchilarga alohida urg'u bergani va o'qituvchilik kasbiga hurmat ko'rsatgani aytiladi: "Geografik jihatdan barcha qishloq aholisini o'qish, yozish va o'z vatani, millati, dini va dunyosini tanishtirishga o'rgatish uchun yetarli tarixiy, diniy va axloqiy ma'lumotlar

berish va yaxshi amallarni o'rgatish (to'rt amal) dasturimizning birinchi maqsadidir. Bu maqsadga erishish ta'lim tariximizda muqaddas bosqich bo'lib qoladi [1. 342]. Otaturk o'qituvchilar jamiyat taraqqiyotida katalizator bo'lishi kerakligini ta'kidlagan. Chunki yangi tashkil etilgan respublikada islohotlarni o'qituvchilar olib boradilar. O'qituvchining vazifasi nafaqat moddiy va rasmiy bilimlarni uzatish, balki xalqning ma'naviy qadriyatlarini himoya qilish va rivojlantirish bo'lishi kerak. Rivojlanish faqat shu tarzdagina vujudga keladi. O'qituvchilar nafaqat shaxslarning ijtimoiy rivojlanishiga imkon beradi, balki iqtisodiy rivojlanishni yo'naltiradi va qo'llab-quvvatlaydi. Milliy madaniyatni avloddan avlodga yetkazuvchi birlik, hamjihatlikni mustahkamlovchi, jamiyatni yangilaydigan o'qituvchilar hisoblanadi. Mamlakatning qishloqlarida rivojlanish va modernizatsiyadan yiroqlik ijtimoiy taraqqiyotga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli o'qituvchilar jamiyat bilan integratsiyalashuvi kerak bo'ladi. O'qituvchilar odamlarni dunyo bilan bog'laydigan "eng buyuk madaniyat uzatuvchilardan biri" sifatida ko'riladi. O'qituvchilardan ijtimoiy aloqalarni o'rnatish, ijtimoiy notenglikni tuzatish va sinfsiz, teng huquqli jamiyatni yaratishi kutilgan edi. Ayni paytda o'qituvchilarning kelajak avlodni shakllantirishi ularning burchini yanada muqaddas qildi.

Turkiya Respublikasi tashkil topgan birinchi davrdan boshlab o'zining adabiy o'zligini saqlab qoldi. Bu o'zlikni yosh avlod shuuriga singdirish uchun adabiyot muhim ahamiyat kasb etgan. Asli g'arb janri bo'lgan roman turk adabiyotida salmoqli o'rin tutadi. Roman janrining turk adabiyotiga kirib kelishi, manzur bo'lishida uch ijodkor ismlari sanash mumkin. Bular: Yakub Kadri Karaosmanog'lu, Halide Edip Adivar va Rashod Nuri Guntekinlardir. Turk adabiyotida romanning shakllanishi turk tilining rivojlanishida ham muhim o'rin tutgan.

"O'qituvchilar romanchisi" sifatida tanilgan Rashod Nuri Guntekin o'z asarlarida o'qituvchining o'rnini tasvirlab, uning faoliyatini romanlarining mavzusiga aylantirdi. 1892-1956-yillar orasida yashagan Rashod Nuri Guntekin Universitetning adabiyot fakultetini tamomlagan. "Shoir", "Nedim" va "Buyuk jurnali" kabi jurnallarda uning hikoyalari chop etilgan. Adabiyot olamiga yoshligidan qadam qo'ygan Rashod Nuri Guntekin turli kasblarda ishlagan. O'qituvchi, direktor, bosh inspektor kabi lavozimlarda faoliyat yuritish sababi bilan Onado'liga yuboriladi va Onado'lini yaqindan kuzatish imkoniga ega bo'ladi. U jurnalist va hazil-mutoyiba asarlar muallifi bo'lib ishlagan va teatrqa qiziqqan, hikoya, roman, memuar va pyesalar kabi turli janrlarda asarlar yozgan. U o'zining aniq va ravon uslubi bilan adabiyot olamida muhim o'rin tutadi. Adib asarlari ko'pgina mutaxassislar tarafidan ikki davrga ajratilib tavsiflanadi. 1928-yilgacha yozilgan asarlarida romantik, hissiy va shaxsiy mavzular yetakchilik qilsa, 1928-yildan so'ng yozilgan asarlarida ijtimoiy muammolarni yoritish ustuvorlik qila boshlaydi. Har ikki davrda yozilgan asarlarini faqatgina bir yoqlama, ya'ni faqatgina shaxsiy kechinmalar, his-tuyg'ular yoritilgan asar yoki ijtimoiy muammolar yoritilgan asar deya olmaymiz. Asarlarida har bir obrazni shaxs sifatida yoritib, ichki kechinmalarini ochib berar ekan, ayni paytda jamiyatning qator qatlamlaridagi salbiy jihatlari ham tanqid qilanadi. Bu o'z navbatida yozuvchi mahoratiga dalolatdir. Adibning "o'qituvchilar yozuvchisi" deb atalishiga ikki sabab ko'rsatish mumkin. Birinchisi, u o'qituvchilar haqida yoki bosh personaji o'qituvchi bo'lgan ko'plab asarlar yozgan. Ikkinchisi esa u o'qituvchilar hayoti, faoliyati bilan juda yaqindan tanish bo'lgan, o'zi ham ta'lim tizimidagi turli sohalarda ishlagan, jumladan, muallimlik ham unga begona kasb emas edi.

Rashod Nuri Guntekinning kitobxonlar tomonidan bunchalik sevilishi va adabiyot dunyosida shon-shuhrat qozonishining asosiy sababi asarlarda badiiy to'qimadan ko'ra real hayotni boricha tasvirlashidir. Guntekinning sevimlilik sabablaridan yana biri asarlarini o'z yurti kitobxonlari uchun sodda, tushunarli tilda yozgani ekanini turk adabiyotshunoslari ta'kidlashadi [4. 440-442]. Demak, oddiy uslub va tushunarli tilda yoza olish uning badiiy mahorati bo'lsa, asarlaridagi voqealarni haqqoniy tasvirlashi uning hayotiy tajribalari mevasidir, xususan, Milliy ta'lim vazirligida inspektor lavozimida ishlagan kezlari Onado'lining turli yerlarini kezib chiqadi va ko'rgan-kechirganlarini doimo yon daftariga qayd etib boradigan odati bor edi. Shu yon daftariga qayd etgan ma'lumotlar yozajak asarlari uchun material vazifasini o'tagan bo'lishi tabiiy. Xalqni xalqqa xalqning tili bilan tushuntirgan va jumhuriyat davrining (o'sha davrda yangi tuzumni xalqning qabul qilishi, moslashishi muhim masalalardan edi) yangiliklarini xalqqa o'z tilidagi insonlarni, asar personajlarini gapirtirish orqali anglata olgan endi.

Guntekinning "Choliqushi", "Yashil kecha", "Achinish", "Qon da'vosi" nomli to'rt romanining har birida bosh qahramon o'qituvchidir, bularni shartli ravishda "o'qituvchi markazli romanlar" deyishimiz mumkin. "Choliqushi"da Feride, "Yashil kecha"da Ali Shahin, "Achinish"da Zehra, "Qon da'vosi"da esa Umarlar bosh qahramon hisoblanib va ularning barchasining umumiy jihati muallim ekanligidir. Adibning 1928-yilga qadar yozilgan asarlarida romantizm ustuvor bo'lsa, 1928-yildan boshlab asarlarida ijtimoiy muammolar va ularning yechimini yoritish yetakchi mavzuga aylandi.

Demak, bosh qahramoni o'qituvchi bo'lgan, yuqorida sanab o'tilgan, to'rt romandan birinchisi, ya'ni "Choliqushi" romantik tasvirlar, his-tuyg'u yetakchi bo'lgan asarlar sirasiga kirsam, qolgan uch romani turk

tilida aytganda “tezli roman”, ya’ni his-tuyg‘udan ko‘ra davr voqealarini ro‘yi-rost yoritgan romanlardan sanaladi. Boshqacha aytganda, bu turli asarlarda jamiyatda mavjud bo‘lgan muammolarning aniq yechimiga urg‘u beriladi, bu turli romanlarning muammolar yechimiga qaratilgan o‘z funksiyasi bor. Guntekinning “Istanbul qizi” nomli to‘rt pardali pyesasi turli sabablarga ko‘ra sahnalashtirish mumkin bo‘lmagani uchun u romanga aylantirildi va natijada “Choliqushi” romani paydo bo‘ldi. U ilk bor 1922-yilda “Vakit” gazetasida chop etilgan. Keyinchalik kitob holiga keltirilib nashr etilgan bu asar ham Rashod Nuri Guntekinning ko‘pgina qishloqlar hayoti aks etgan kitoblaridan biridir. Rashod Nuri Guntekinning ushbu asari Istanbuldagi ta’lim, Onado‘lining turli qishloq va shaharlarida dars bergan Feride o‘qituvchining kurashi haqida. Bu Guntekinning eng ko‘p o‘qilgan asarlaridan biriga aylangan. “Rashod Nuribeyning eng yorqin asari “Choliqushi”dagi Feride misoli ham bugungi hayotning oynasidir” [2. 177]. Bugungi kunda ham Feride eng mashhur roman qahramonlaridan biridir. Shuning uchun ham Feride muallim ibrat bo‘la oladigan o‘qituvchidir.

Rashod Nuri Guntekinning 1928-yilda yozilgan “Achinish” romanida achinish hissi bo‘lmagan o‘qituvchi Zehra va uning oilasi haqida hikoya qilinadi [3. 121]. Bu romanda faqat Zehra ismli muallimning sarguzashtlari haqida so‘z bormaydi, bir muallimning shu kasbning chin vakili bo‘lishi uchun shafqat eng muhim xususiyatlardan biri ekani kitobxonga uqtiriladi. Chunki o‘z kasbining ustasi bo‘lgan, o‘z sohasida juda katta yutuqlarga erishgan Zehrada faqatgina shafqat, achinish hissi yo‘q edi, shu sababdan ham o‘quvchilarning hech bir aybini kechira olmasdi. Asar so‘ngida esa o‘z otasiga bo‘lgan nafratidan xalos bo‘lib, o‘zida shafqat hissini paydo qila oladi. Asarni mutolaa qilish davomida yana shuni anglash mumkinki, insonning hayoti davomida uchragan qiyinchilik, azob-uqubatlari uning kelajakda bu salbiy holatlarni o‘zida va boshqalarda aks etishiga sabab bo‘la olmaydi. Boshqa aytganda, inson har qancha yomonliklarga bardosh bergan bo‘lsa-da, bu sababli boshqalarni ayblashga, alamini boshqalardan olishga yoinki o‘zidagi salbiy jihatlarga o‘sha yashagan yomon muhitini sabab qilib ko‘rsatishga haqli emas.

Guntekinning “Yashil kecha” romani 1928-yilda nashr etilgan. Ushbu romanida adib ijodiy yo‘nalishini o‘zgartirishi natijasida ijtimoiy voqealarni markaziy o‘ringa qo‘ygan. “Yashil kecha”da muallif jamiyat muammolari va o‘z nuqtai nazarini muhokama qiladi. Rashod Nuri Guntekin turkcha aytganda “tez roman”, ya’ni tezisli, real tarixiy voqealar to‘qima obrazlar orqali bayon etilgan roman yozishi bilan boshqa romanlaridan ajralib turadi. “Choliqushi”, “Achinish” yoki “Qon da’vosi” romanlaridan farqli o‘laroq, “Yashil kecha”da ta’lim mavzusi orqa fonda qolmadi, balki asosiy mavzu sifatida romanning markazida edi. “Yashil tun” – Respublika davridagi ta’lim mojarolarining eng shaffof aksidir. “Johil va qoloq” deb ta’riflangan madrasa talabalari “ziyoli va uzoqni ko‘ra oluvchi” o‘qituvchilar bilan kechgan ijtimoiy va intellektual ziddiyatlari romanning asosini tashkil etadi. Rashod Nuri Guntekinning ta’lim va muallimlik masalalari eng asosiy planga chiqqan asari “Yashil kecha” desak, adashmagan bo‘lamiz. Shu sababdan ham ushbu asar turk adabiyotshunosligida “tez roman”, ya’ni tezis roman nomini olgan [5]. “Yashil kecha” - Rashod Nuri Guntekinning qorong‘i tushgan va faqat yashil chiroq bilan yoritilgan onglarga yangicha fikrlovchi ustoz nigohidan hikoya qiluvchi romani bo‘lib, unda istiqloq urushi va respublikaning ilk yillari tasvirlangan. Romanning bosh qahramoni - o‘qituvchi Shahin. Voqealar shu ustoz atrofida sodir bo‘ladi. Zamonaviy ta’limning reaksionerlarga qarshi kurashi tasvirlangan. O‘qituvchilar tayyorlash maktabini tugatgandan so‘ng, Shahinbey Istanbulga tayinlangan bo‘lsa ham, viloyat shaharchasiga borishni xohlaydi. Anadoluda xizmat qilmoqchi bo‘lgan bu yigit hokimiyat bilan gaplashadi va uzoqroq, chetraq viloyatga tayinlanishini istashini bildiradi.

Guntekinning bosh qahramoni o‘qituvchi bo‘lgan to‘rtinchi romani “Qon da’vosi”dir. Rashod Nuri Guntekinning ushbu romaniga o‘z nomini bergan ijtimoiy muammo “Qon da’vosi” romanning asosiy mavzusini tashkil qiladi. Bu 1955-yilda nashr etilgan. Romandagi voqealar ustoz Umar atrofida rivojlanadi. Romandagi Quyi Sazan qishlog‘i bilan Yuqori Sazan qishlog‘i o‘rtasida ko‘p yillardan buyon davom etayotgan qonli janjal bor edi. Janjal ko‘p yillardan beri davom etmoqda edi. Bu har ikki qishloq aholisiga talofat keltirardi. Umar muallim o‘z ixtiyori bilan shu hududga ishga ketadi. Umar muallim ikki qishloqni yarashtirish uchun ko‘p mehnat qiladi. Davlat hal qila olmagan, yordam bera olmagan bu muammo bilan Umar muallim kurashadi. Ushbu roman, demak, o‘qituvchilar jamiyatdagi turli xil illatlarni yo‘q qilishda eng muhim insonlar ekanlar degan xulosaga olib keladi.

Xulosa. Rashod Nuri Guntekinning muallimlar hayoti tasvirlangan, muallimlar bosh obraz qilib olingan har to‘rt roman turli mavzular yoritilgan bo‘lsa-da, ularning har birida ta’lim-tarbiya masalasi tilga olingan, xususan, “Choliqushi” romanida asosiy, bosh mavzu bir insanning hayotda olgan zarbalari, ko‘rgan xiyonatlari uni qay darajada jarohatlashi mumkinligidir, ammo ta’lim-tarbiya, o‘qituvchilik, o‘quvchilar bilan munosabat asarda salmoqli o‘rin egallagan. “Yashil kecha” romanini esa chin ma’noda ta’lim sohasidagi mafkuraviy kurashga bag‘ishlangan deyish mumkin. “Achinish” romanida bosh g‘oya kechirimli, shafqatli bo‘lish, inson hayotda qanchalik nohaqlikka uchrasa ham, insoniyligini yo‘qotmasligi lozimligi

LITERARY CRITICISM

sanaladi, ta'bir joizki, insoniylikning eng asosiy belgilaridan biri bu shafqatdir. Roman bosh qahramoni Zehra ideal muallim deb hisoblanishi uchun unga birgiga xususiyat – kechirimlilik va shafqat yetishmaydi. “Qon da’vosi”da bo’lsa, asar nomidan anglashilib turgan yomon odat qoralansa, ta’lim, ilm orqali bu kabi illatlarni tag tomiri bilan yo‘q qilish mumkinligi nazarda tutiladi. Shunday bo’lsa-da romanlarga bosh qahramon sifatida o‘qituvchilarni tanlashining, albatta, o‘z adabiy-g‘oyaviy funksiyasi bor. Chunki o‘qituvchilar jamiyatdagi eng muhim insonlardir. Buni boshqacha qilib turk millati dohiysi Mustafo Kamol Otaturkning quyidagi jumlasini bilan yakunlash mumkin: “Kelajak yoshlarning, yoshlar esa o‘qituvchilarning asaridir”.

ADABIYOTLAR:

1. *Akyüz Yahya. Türk Eğitim Tarihi – M.Ö. 1000-M.S. Ankara: Pegem Akademi Yayıncılık. 2007.*
2. *Gökalp Ziya. Makaleler IX. hzl. Şevket Beysanoğlu. İstanbul: Kültür Bakanlığı Yayınları. 1980.*
3. *Püsküllüoğlu Ali. Türk Romanları Kısa Kronolojisi. Türk Dili Aylık Dil ve Edebiyat Dergisi – Roman Özel Sayısı I-II. Ankara: Türk Dil Kurumu:119-124. 2017.*
4. *Tanpınar Ahmet Hamdi. Edebiyat Üzerine Makaleler, Dergah Yayınları, İstanbul. 1998.*
5. *tr.m.wikipedia.org*

OTA TIMSOLINING OILAVIY VA IJTIMOY KONTEKSTDAGI AHAMIYATI

Sabirova Gulasal Babajanovna,

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Fransuz tili nazariy fanlar kafedrasida o'qituvchisi
gulasals@mail.ru*

Annotatsiya. Fransuz va o'zbek madaniyatlarida ota timsoli o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar ko'plab adabiy asarlarda o'z ifodasini topgan. Fransuz adabiyotida ota - oilaning boshlig'i sifatida ko'rsatilsa-da, ota va bola o'rtasidagi tenglik va o'zaro hurmat masalalari ko'proq namoyon bo'ladi. O'zbek adabiyotida esa, ota timsoli ko'pincha mustahkam oilaning asosiy himoyachisi sifatida tasvirlanadi. Ota-bola o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, farzandning o'zini anglashi va ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishda ota obrazining roli yanada kengaymoqda. Tadqiqot ota timsolining zamonaviy jamiyatdagi rolini, uning o'zgargan ma'nolarini va ota-ona o'rtasidagi tenglikni ilgari surishda muhimligini ko'rsatadi. Maqola, ota timsolining jamiyat va oiladagi o'rni haqida chuqur tushuncha hosil qilishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: tarbiya, adabiyot, psixologik ta'sir, madaniy qadriyatlar, ota va bola munosabatlari, fransuz madaniyati, o'zbek madaniyati.

ЗНАЧЕНИЕ ОБРАЗА ОТЦА В СЕМЕЙНОМ И СОЦИАЛЬНОМ КОНТЕКСТЕ

Аннотация. Различия и сходства образа отца во французской и узбекской культурах отражены во многих литературных произведениях. Хотя во французской литературе отец показан как глава семьи, более заметны вопросы равенства и взаимного уважения между отцом и сыном. В узбекской литературе фигура отца часто изображается как главный защитник крепкой семьи. Расширяется роль образа отца в поддержании баланса между отцом и ребёнком, развитии у ребёнка самосознания и социальной ответственности. Исследование подчёркивает роль фигуры отца в современном обществе, её изменяющиеся значения и важность в продвижении равенства между родителями. Статья помогает сформировать глубокое понимание роли отца в обществе и семье.

Ключевые слова: воспитание, литература, психологическое воздействие, культурные ценности, отношения отца и ребёнка, французская культура, узбекская культура.

THE IMPORTANCE OF THE FATHER FIGURE IN THE FAMILY AND SOCIAL CONTEXT

Abstract. The differences and similarities between the image of the father in French and Uzbek cultures are expressed in many literary works. Although the father is shown as the head of the family in French literature, issues of equality and mutual respect between father and son are more prominent. In Uzbek literature, the figure of the father is often depicted as the main defender of a strong family. The role of the father's image in maintaining the balance between the father and the child, developing the child's self-awareness and social responsibility is expanding. The research highlights the role of the father figure in modern society, its evolving meanings, and its importance in promoting equality between parents. The article helps to develop a deeper understanding of the father figure's position in society and the family.

Keywords: upbringing, literature, psychological influence, cultural values, father-child relationships, French culture, Uzbek culture.

Ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi. Ushbu maqolada ota timsolining oilaviy va ijtimoiy hayotdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Ota obrazining oiladagi roli, farzand tarbiyasidagi mas'uliyati, jamiyatda ota va bola o'rtasidagi aloqalar va ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liq jihatlari o'rganiladi. Maqola ota timsolining psixologik, axloqiy va madaniy ahamiyatini, uning oilaviy va ijtimoiy mas'uliyatlaridagi o'zgarishlarini tahlil qiladi. Ushbu tahlillar Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani hamda fransuz yozuvchisi Marcel Pagnolning "La Gloire de mon père" asarlari asosida bo'ladi. Fransuz va o'zbek madaniyatlarida ota obrazining shakllanishi va uning adabiyotdagi ifodasi, ijtimoiy me'yorlarga qanday ta'sir qilishi muhokama qilinadi.

Ishning tadqiqot metodlari. Tadqiqot ota timsolining zamonaviy jamiyatdagi rolini, uning o'zgargan ma'nolarini va ota-ona o'rtasidagi tenglikni ilgari surishda muhimligini ko'rsatadi. Pagnolning va Qodiriyning asarlaridagi ota timsolining umumiy jihati shundaki, ular oilaning asosiy qo'llab-quvvatlovchilaridir. Ota obrazlari oilaning tarbiyasida hal qiluvchi rolni o'ynaydi va oilaning ma'naviy barqarorligi va ijtimoiy hurmatini ta'minlaydi. Shuningdek, ikkala asarda ota obrazining farzandlarga ko'rsatgan yo'l-yo'riqlari, o'rgatgan qadriyatlarini va dunyoqarashlari jamiyatda ham ulkan ahamiyat kasb etadi. Ushbu ishimizda buyuk yozuvchilarning mashhur asarlaridagi ota obrazi, uning tahlilijihatlarini, har ikki xalq hayot tarzida otaning roli ko'rib chiqiladi, qiyoslanadi.

Kirish. Adabiyotda, san'atda va umuman madaniyatda ota timsoli qadimdan muhim o'rin tutib kelgan va oilaning asosiy ustuni sifatida tasvirlangan. Ota obrazining oilaviy va ijtimoiy hayotdagi ahamiyati juda katta. U nafaqat oilaning boshlig'i, balki jamiyatning asosiy qadriyatlarini, axloqiy me'yorlarini aks ettiruvchi obraz sifatida ham qaraladi. Ota timsoli ko'pincha bolaga ma'naviy yetakchilik qilish, tarbiya berish, himoya qilish va oilaning farovonligini ta'minlash vazifasini bajaradi. Biroq, zamon o'tishi bilan ota timsolining ijtimoiy va oilaviy ahamiyati o'zgarib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, ota timsolining oilaviy va ijtimoiy kontekstdagi ahamiyatini chuqur tahlil qilish, ota obrazining ijtimoiy va madaniy roli, uning farzandlar bilan munosabati va jamiyatdagi mas'uliyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. [Rakhimov, U. 2013]

Asosiy qism. Ota timsolining asosiy vazifalaridan biri – oilaning farovonligini ta'minlashdir. U nafaqat moddiy ehtiyojlarni qondirish, balki oilaning ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini ham shakllantiradi va mustahkam ustun sifatida qaraladi. Ota va bola o'rtasidagi munosabatlar oiladagi barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ota, bola uchun nafaqat himoya qilish, balki ruhan yuksalish va axloqiy yetakchilik xususiyatini shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. [Rakhimov, U. 2013]

Farzand uchun ota obrazining muhimligini o'rganish uning kelajakdagi hayotida qanday ahamiyatga ega bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Ota, ayniqsa, o'g'il farzandlar uchun, ijtimoiy rollarni o'zlashtirishda, jamiyatda qanday erishish kerakligini ko'rsatadi. Farzandlar ota-ona tomonidan berilgan tarbiya asosida o'z dunyoqarashlarini rivojlantiradilar. Ota, o'zining xulq-atvori va ijtimoiy mas'uliyatlarini farzandlariga namuna qilib, ularga ijtimoiy me'yorlarga rioya qilishni o'rgatadi. [Schor, E. 2003]

Ota tarbiyasi faqatgina mehnat va moddiy farovonlikni ta'minlashdan iborat emas, balki farzandga to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatish, uning axloqiy qadr-qimmatlarini shakllantirish, ijtimoiy mas'uliyatni tushunish va o'zini jamiyatda to'g'ri tutishni o'rgatishdir. Ota farzandiga nafaqat hayotdagi maqsadlarni amalga oshirishni, balki to'g'ri axloqiy qarorlar qabul qilishni, haqiqiy do'stlik va oilaviy qadriyatlarni tushunishni o'rgatadi. [Schor, E. 2003]

Ota, shuningdek, farzandining hissiy rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi. Hissiy tarbiya ota va bola o'rtasidagi yaqin aloqalar va muloqotga asoslanadi. Ota farzandiga ichki his-tuyg'ularini boshqarishni, ularni ifodalashni o'rgatadi. Bu, ayniqsa, farzandning o'smirlik davrida muhimdir, chunki bu davrda bola o'zini anglashni boshlaydi va his-tuyg'ularni boshqarish, ular bilan to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rganish kerak bo'ladi. Ota farzandi bilan mustahkam munosabatlar o'rnatishi, uning tarbiyasining samarali, barqaror bo'lishida muhim ahamiyatga ega. Farzand ota bilan ishonchli va ochiq aloqaga ega bo'lsa, u o'z hissiy va ijtimoiy ehtiyojlarini ota bilan bo'lishi osonlashadi. Ota va bola o'rtasidagi muloqot va samimiy aloqalar, farzandga o'zini hurmat qilganini va u tomonidan qadr-qimmatli ekanligini his qilish imkonini beradi bu esa farzandni o'ziga bo'lgan ishonchi va hurmatini oshiradi. [Zilberman, R. 2011]

Har bir madaniyatda ota obrazining shakllanishi va unga bo'lgan munosabat turlicha bo'lishi mumkin. Misol uchun, O'rta Osiyo madaniyatida ota ko'pincha oilaning yuksalishi, farzandlarning muvaffaqiyatli o'sishi uchun javobgar deb hisoblansa, Yevropada xususan Fransuz madaniyatida esa ota va bola o'rtasidagi munosabatlar ko'proq tenglik va muloqotga asoslangan. [Zilberman, R. 2011]

Badiiy adabiyotda ota timsoli ko'plab asarlarda ijtimoiy va oilaviy mas'uliyatlarning tasviri sifatida keng qo'llaniladi. Masalan, mashhur fransuz yozuvchisi Marsel Pagnolning "La Gloire de mon père" va va o'zbek romanchiligining buyuk asoschilaridan bo'lmish Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarlarida ota obrazlari oilaning ma'naviy va ruhiy qo'llab-quvvatlovchisi sifatida namoyon bo'ladi. Har ikki asarda ota timsoli bolalarining tarbiyasidagi asosiy va muhim shaxs sifatida ko'rsatilgan, lekin ularning obrazlari jamiyatdagi oilaning ijtimoiy ahamiyatini ham aks ettiradi.

Pagnol asarlarida ota timsoli oilaviy birligi va ma'naviy yuksalishini ta'minlashda markaziy figura sifatida ishlatilgan. Ota va bola o'rtasidagi aloqalar, oilaning qadriyatlarini saqlash, ma'naviy nuqtayi nazardan o'zgarimas bo'lishi kerakligini ifodalaydi. Qodiriy asarlarida esa, ota timsoli an'anaviy o'zbek oilasidagi rahbarlik roli bilan birga, oilaning ijtimoiy va axloqiy mas'uliyatlarini ham o'z ichiga oladi. Marsel Pagnolning "La Gloire de mon père" (Otamning shon-shuhrati) va Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarlarida ota timsoli o'zining farzandlariga o'rgatadigan qadriyatlar, dunyoqarash va tarbiya orqali

oilaning asosiy ma'naviy qo'llab-quvvatlovchisi sifatida namoyon bo'ladi. Bu ota obrazlari oilaning barqarorligini ta'minlash, oilaviy aloqalar va farzandlarning axloqiy rivojlanishini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Marsel Pagnolning "La Gloire de mon père" asarida Pagnolning otasi, ishlashdan tashqari, o'z farzandlariga tabiatga bo'lgan muhabbatni, o'qish va ta'limga bo'lgan qiziqishni o'rgatadi. Ota timsoli oilaning ma'naviy asoslarini shakllantiradi, uning boshqaruvchisi bo'lish bilan birga, farzandlariga o'z dunyoqarashlarini, mehnatning qadrini va o'zini o'zgaralar bilan to'g'ri tutishni o'rgatadi.

Qodiriy asarida ota obrazining ma'naviy roli farzandlarining ongida haqiqiy qadriyatlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Ota, oilaning tarixiy va madaniy qadriyatlarini saqlashga intiladi va farzandlariga bu qadriyatlarini o'rgatadi. Farzandlar, otalarining xulq-atvori va ta'limotlari asosida, oilaning ruhiy va axloqiy barqarorligini saqlashda o'z mas'uliyatlarini anglaydilar. [Muminov, K. 2016]. Marcel Pagnolning "Otamning shon-shuhrati" ("La Gloire de mon Père") asarida muallifning bolalik xotiralarini aks ettiradi va unda ota va o'g'il o'rtasidagi munosabatlar samimiy va ta'sirchan tarzda tasvirlangan.

Quyida asardan olingan aniq iqtiboslar va ularning tahlilini keltirib o'tamiz:

1. Ota — O'qituvchi va Ma'rifatparvar

Iqtibos: "Men besh yoshga yaqinlashayotgan edim va maktabga borishga tayyorlanayotgan edim. Otam menga o'qishni o'rgatdi va men bir necha sahifalarni qiyinchiliksiz o'qidim. O'sha kuni u hayotidagi eng katta quvonchni his qilgan bo'lsa kerak." ["La Gloire de mon Père", 1957, p.16]

Tahlil : Bu iqtibosda otaning o'g'liga bo'lgan mehr-muhabbati va uni olishiga bo'lgan intilishi aks etadi. Ota sifatida u o'g'lining bilim olishiga katta ahamiyat beradi va uning yutuqlaridan faxrlanadi.

2. Ota — Oilaning Rahbari va Himoyachisi

Iqtibos : "Otamning yoshi meniki ustiga yigirma besh yil qo'shilgandi va bu hech qachon o'zgarasdi." ["La Gloire de mon Père", 1957, p.18]

Tahlil : Bu iqtibosda muallif otasining uning uchun doimiy va barqaror bo'lib qolishini ta'kidlashga urinadi. Ota oilaning tayanchi bo'lib, uning yoshi va tajribasi o'g'li uchun yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi omil sifatida qabul qilinadi.

Asarda Marcelning otasi Jozef Pagnol o'qituvchi bo'lib, o'z kasbiga bo'lgan sadoqati, yuksak hurmati va mehribonligi bilan tasvirlanadi. Uning o'quvchilarga bo'lgan munosabati va o'g'liga bilim berishga intilishi ota va o'g'il o'rtasidagi intellektual aloqani kuchaytiradi. Otaning o'quvchilarga bo'lgan mehribonligi va sabr-toqati metaforalar orqali ifodalanadi, bu esa uning insonparvarligini ta'kidlaydi. Asarda Marcel va otasi birgalikda ovga chiqishadi. Bu jarayonda otasi unga ov qilishni o'rgatadi va bu orqali ular o'rtasidagi ishonch va hurmat mustahkamlanadi. Ota va o'g'il o'rtasidagi suhbatlar soddaligi va samimiyligi bilan ajralib turadi, bu esa ularning yaqinligini aks ettiradi. [O'zimizning tahlil]

Marcelning biror yutuqqa erishganida otasining faxrlanishi va quvonchi asarda yorqin tasvirlanadi. Bu holatlar ota va o'g'il o'rtasidagi hissiy bog'liqlikni kuchaytiradi. Otaning quvonchi va faxrlanishi hissiy so'zlar orqali ifodalanadi, bu esa o'quvchiga otaning ichki kechinmalarini his qilish imkonini beradi. Qisqa va ta'sirchan gaplar otaning his-tuyg'ularini kuchaytiradi va o'quvchiga uning ichki dunyosini ochib beradi. Asarda otalik timsoli mehribon, bilimdon va oilasiga sodiq shaxs sifatida tasvirlangan. Bu asar orqali muallif o'z otasiga bo'lgan hurmat va sevgisini ifoda etadi.

Abdulla Qodiriy asarlaridagi ota timsoli tahliliga o'tsak:

"Otabek, Hasanalining maqsadig'a tushunolmay majhul unga nazar tashladi: - Sizmi ? - deb kulimsiradi. Otam bo'lmasangiz ham meni otaliq muhabbati bilan suygan sodiq va mehribon bir kishimsiz-yani ma'naviy otamsiz.

- Barakalla o'g'lim-dedi Hasanali, - javobingiz o'z o'ylag'animchadir. Endi sizdan shuni ham so'rayin: xo'jasiga sodiq bir qul, sizning ta'biringizcha, ma'naviy bir padar o'z og'liga yomonlik sog'inarmi, bu to'g'rida javob beringizchi ?"

[O'tkan kunlar, 2005, b.12]

"O'tkan kunlar" asaridagi ushbu ota-bola muloqoti Abdulla Qodiriy qalamiga xos bo'lgan chuqur ma'noli, ifodaviy va estetik uslubning yorqin namunasi hisoblanadi, Otabek va Hasanali o'rtasidagi suhbat faqat oddiy gaplashuv emas, balki murakkab ma'naviy-madaniy muloqotdir. Otabek Hasanali bilan suhbatda unga faqatgina "biologik ota" deb emas, balki "ma'naviy ota" sifatida hurmat ko'rsatadi. Bu esa insoniy qadriyatlar, mehr-muhabbat va sadoqatni tarannum etadi. Otabekning nutqi samimiy va hurmatga boy, u Hasanali shaxsini yuqori qadrlaydi. "Sizmi ?" so'zida shubha emas, balki minnatdorlik va tan olish ifodalanadi. Hasanali nutqi o'zida dono, tarbiyaviy mazmuni mujassam etgan. "Barakalla o'g'lim" iborasi o'zaro samimiyatni oshirib, keyingi savol orqali muloqotni davom ettiradi. "Ma'naviy otamsiz" iborasi orqali Otabek Hasanali shaxsiga bo'lgan chuqur hurmat va e'tiborini kuchli hissiyot bilan bildiradi. Hasanali esa nutqida ramziy ifodalarni ("xo'jasiga sodiq bir qul") ishlatib, ma'naviy mas'uliyat va insoniylikka urg'u

beradi. Bu tasvir ramziy bo'lib, uning sadoqati va vijdonlilik hissini anglatadi. Otabek esa "ma'naviy otalik" degan qiyos bilan javob beradi, bu esa Hasanali bilan o'zining ichki yaqinligini ifodalaydi. Hasanali "...o'z o'g'liga yomonlik sog'inarmi?" deb ritorik savol bilan murojaat qiladi. Suhbat davomida nutqning ohangi mulohazakor, samimiy va ta'sirchan bo'lib, bu o'quvchida ijobiy hissiyotlar uyg'otadi. Hasanali bilan Otabek o'rtasidagi mehr-muhabbat va hurmat har bir jumlada seziladi. [O'zimizning tahlil]

"- Anchagina so'zsiz o'lturg'andan so'ng hoji muloyimona so'z ochdi.

- O'g'lim, hali sen eshitdingmi yo'qmi haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo'ydiq...

Otabek ma'lumki, ularning "qilib qo'ygan yoki qilmoqchi bo'lg'an ishlarini" albatta bilar edi. Shundoq ham bo'lsa bilmaganga solindi:

-Aqlli kishilarning o'g'illari ustidan qilg'an ishlari albatta noma'qul bo'lmas, - dedi. Hoji o'g'lining bu javobidan yerga qaradi va nima deb davom qilishni bilmay qoldi. Istehzo aralash xotiniga qarab oldi." [O'tkan kunlar,2005, b.71]

Ushbu parcha ota-o'g'il munosabatlaridagi ziddiyatli, lekin o'ziga xos samimiyligni aks ettiradi. Parcha Otabek va uning otasi Hoji muftiy o'rtasidagi ruhiy masofani, qarashlar farqini va o'zaro murakkab munosabatlarni ifodalashda stilistik jihatdan boy tasvir usulidan foydalanilgan. Hoji muftiyning "bir ish qilib qo'ydiq" degan e'tirofi orqali ota sifatida o'g'li uchun qilgan ishlariga ishonch bildirilsa-da, Otabekning istehzoli javobi otaning bunday qarorlariga shubha bilan qarayotganini ko'rsatadi. Bu muloqotda ota va o'g'il o'rtasida hissiy va ma'naviy yaqinlikning yetishmasligi namoyon bo'ladi.

Yusufbek Hoji muloyimona so'z boshlaydi, bu uning ota sifatida yumshoqlik va mehrni saqlashga urinayotganini ko'rsatadi. "Biz saning ustingdan bir ish qilib qo'ydiq" iborasi esa ota hukmronlik qiluvchi mavqega ega ekanligini bildiradi, chunki o'g'li bilan maslahatlashish o'rniga qarorni mustaqil ravishda qabul qilgan. Javobdan keyin "yerga qaradi va nima deb davom qilishni bilmay qoldi" tasviri uning ichki noqulaylik va o'zligini ochib beradi. [O'zimizning tahlil]

Otabek otasining qarorini allaqachon biladi, lekin "bilmag'anga solindi" degan tasvir orqali u ichki noroziligini yashirishga harakat qiladi. "Aqlli kishilarning o'g'illari ustidan qilg'an ishlari albatta noma'qul bo'lmas" javobi istehzoga boy bo'lib, bu so'zlar uning ichki noroziligi va otasiga qarshi muloqot yo'nalishini bildiradi. U otasining qarorini ochiqchasiga tanqid qilmasa-da, o'z munosabatini nozik ifoda bilan yetkazadi.

Muloqotda dramatik zo'riqish mavjud. Ota yumshoq tarzda gap boshlagan bo'lsa-da, o'g'ilning istehzoli javobi bu zo'riqishni kuchaytiradi. Hoji muftiyning "yerga qaradi va nima deb davom qilishni bilmay qoldi" harakati uning ichki ruhiy holatini aks ettiradi. Otabekning javobi ("noma'qul bo'lmas") orqali yashirin istehzo seziladi. Bu nutq, otaga nisbatan bevosita tanqid emas, balki mulohazakor, lekin tanqidiy munosabatni bildiradi. "Haytovur", "qilib qo'ydiq" kabi so'zlar orqali o'zbek milliy ruhiyati va otalikka xos donishmandona nutq ifodalangan.

- "O'g'lim, san onangni gapiga achchig'lanma. Ul har narsa desa faqat Marg'ilondan uylanganingga qarshilig'idan aytadir. Ammo mendan so'rasang, Marg'ilondag'i na qudamiz va na kelinimiz hech bir vajah bilan kamsita olmayman, balki bizga quda bo'lmoqqa eng muvofiq kishilar edi, balli o'g'lim, deyman, Saning tinib-tinchishing, o'sib-unishing uchun quvonmag'an ota-ona sog'qa hisoblanmaydir. San bunga ishon." [O'tkan kunlar, 2005, b.72]

Ushbu parcha ota-o'g'il o'rtasidagi murakkab, lekin samimiy munosabatlarni yoritadi. Yusufbek hojining o'g'liga qilgan murojaati orqali ota sifatidagi donolik, mehr va tushunishga intilish namoyon bo'ladi.

Parcha oila ichidagi muhim masala — Otabekning turmush qurishi haqidagi o'ylarga bag'ishlangan. Otaning o'z farzandiga bo'lgan samimiy hissiyotlari va uning farovon hayotini istashi, onaning esa qarorlar bilan bog'liq ichki noroziligi ifodalanadi. Bu yerda ota o'g'li bilan ochiq, mehribon va bag'rikeng ohangda suhbatlashishga intiladi. Mehribonlik va donolik: Hoji muftiyning "o'g'lim, san onangni gapiga achchig'lanma" so'zlari uning o'g'lini onasining gap-so'zlaridan himoya qilishga va vaziyatni yumshatishga intilayotganini ko'rsatadi. Adolat va bag'rikenglik: "Marg'ilondagi na qudamiz va na kelinimiz hech bir vajah bilan kamsita olmayman" degan jumla orqali otaning quda va kelinni yuksak hurmat qilishini, ularning ahamiyatini anglatayotganini bilib olamiz. "Saning tinib-tinchishing, o'sib-unishing uchun quvonmag'an ota-ona sog'qa hisoblanmaydir" so'zlari orqali u ota-onaning farzandga bo'lgan haqiqiy sevgisini aks ettiradi. [O'zimizning tahlil]

Ushbu parcha asosan otaning nutqiga asoslangan bo'lsa-da, Otabekning jimligi uning otasini diqqat bilan tinglayotganini, otaning so'zlariga hurmat bilan qarayotganini ko'rsatadi. Otaning o'z o'g'liga "o'g'lim" deb murojaat qilishi va unga nasihatlarini samimiy ohangda bildirishidan ota-ona sevgisi va mehribonligi seziladi. Hoji muftiy o'g'liga nisbatan tushunishni, shuningdek, onaning o'ziga xos fikrlarini ham inobatga olishni o'rgatadi. Bu oilaviy muvozanatni saqlashga intilish belgisidir.

Ota-ona mas'uliyati: "Saning tinib-tinchishing, o'sib-unishing uchun quvonmagan ota-ona sog'qa hisoblanmaydir" degan jumlada ota-ona mas'uliyatining yuksakligi va o'z farzandining baxtiga bo'lgan

intilishlari aniq aks etgan. Dialogning samimiyligi: Otaning yumshoq va samimiy ohangda gapirishi, masalan, “balli o‘g‘lim, deyman,” jumlasida ota-o‘g‘il munosabatlarining iliqligini aks ettiradi. “San bunga yaxshi ishon” so‘zi orqali ota o‘g‘ilining ishonchini mustahkamlashga harakat qiladi. Bu ota so‘zining ta‘sirchanligini oshiradi. Hoji muftiy sodda, ammo mazmunli til orqali o‘z fikrlarini ifodalaydi. “O‘sib-unishing uchun quvonmag‘an ota-ona sog‘qa hisoblanmaydir” kabi iboralarda ota-ona sevgisining umumiy va cheksizligi ifodalanadi. “Balli o‘g‘lim” kabi iboralar oilaviy munosabatlardagi iliqlikni kuchaytiradi. [O‘zimizning tahlil]

“Yusufbek hojining yuqorida o‘tkan gaplarni quruq va asossiz so‘zlamag‘an, balki shu turmushning rukn asosini bir darajada aytib o‘tkan, Otabek esa buni shu muhitning bir o‘g‘li bo‘lib eshitkan edi. To‘g‘risi ham ul dadasi tomonidan so‘zlagan haligi qonung‘a qarshi chiqish uchun lozim bo‘lg‘an kuchka molik emas; bas, kuchsizlikning natijasi esa sukut edi.” [O‘tkan kunlar, 2005, b.73]

Asaridagi bu parcha Yusufbek hoji va Otabek o‘rtasidagi ota-bola munosabatlarining murakkabligini ochib beradi. Ushbu tahlilda ota-ona nazariyasi, an‘anaviy qadriyatlar va o‘g‘ilning ichki kurashlari asosiy diqqat markazida bo‘ladi. Parcha Otabekning ota e‘tiqodlari va hayotiy tamoyillariga nisbatan munosabatini tasvirlaydi. Yusufbek hoji, o‘z fikr-mulohazalarini otalarcha qat‘iyat bilan aytgan bo‘lsa-da, Otabekning ichki noroziligi va kuchsizlikdan kelib chiqqan sukut parchaning markaziy nuqtasidir. Ushbu sahna ota-bola o‘rtasidagi an‘anaviy va ma‘naviy ziddiyatlarni aks ettiradi. Yusufbek hoji an‘anaviy qadriyatlar va axloqiy tamoyillarga qat‘iy rioya qiladigan ota sifatida tasvirlanadi. U o‘z so‘zlarini “turmushning rukn asosini” ifodalovchi, hayotiy haqiqatlarga asoslangan fikrlar bilan aytadi. Bu ota sifatida uning jamiyatdagi roli va o‘g‘liga nisbatan ta‘sirini ko‘rsatadi. U quruq so‘z emas, balki hayotiy tajriba va dono maslahat bilan o‘g‘liga yo‘l ko‘rsatadi, bu esa uning otalarcha mas‘uliyatini yuksak darajada ifodalaydi. [O‘zimizning tahlil]

Otabek o‘z otasining gaplarini “shu muhitning bir o‘g‘li bo‘lib” qabul qiladi, bu esa uning o‘sha davrdagi an‘anaviy qadriyatlar va jamiyat me‘yorlariga bog‘liqligini bildiradi. Otabekning ichki kuchsizligi va “haligi qonung‘a qarshi chiqish uchun lozim bo‘lg‘an kuchka molik emas” ekanligi o‘g‘ilning ichki ziddiyatini ko‘rsatadi. Bu o‘z-o‘zini anglash va otasining ta‘siriga bo‘ysunish holatini tasvirlaydi. Uning sukuti kuchsizlikning ramzi bo‘lib, otasining hayot tamoyillariga nisbatan norozilik va taslimiyat holatini aks ettiradi.

Yusufbek hoji o‘z qarashlarida an‘anaviy va qat‘iy bo‘lsa, Otabek bu qadriyatlarni tan olishga majbur bo‘ladi, lekin ichki kurashlarini yashirin saqlaydi. Yusufbek hojining gaplari turmushning asosiy tamoyillarini belgilasa, Otabek jamiyatning yangi sharoitlariga moslashishga harakat qiladi. Bu avlodlar o‘rtasidagi ma‘naviy va ijtimoiy tafovutni yoritadi. Yusufbek hojining so‘zlari “quruq va asossiz” emasligi bilan tavsiflanadi, bu ularning donolik va tajribaga asoslanganligini ko‘rsatadi. Ushbu leksik vosita ota nutqining ma‘nodorligini ta‘kidlaydi. “Haligi qonun” iborasi otaning qadriyatlarini ifodalaydi va ularning o‘z davriga xos normativligini aks ettiradi. Qat‘iy, ma‘noli va uzoq gaplar ota gapining muhimligini va murakkabligini ifodalaydi. Otabekning ichki kurashini ko‘rsatuvchi qisqa va ta‘sirchan jumlar o‘g‘ilning ichki noqulayligini kuchaytiradi. [Muminov, K. 2016]

Metaforalar va tasviriy vositalar: “Kuchsizlikning natijasi esa sukut edi” jumlasida sukut kuchsizlik bilan tenglashtiriladi, bu esa o‘g‘ilning holatini metaforik tasvirlaydi. Yusufbek hoji so‘zlarini “rukn asosini” deb tasvirlash o‘g‘il uchun bu so‘zlarning hayotiy ahamiyatini kuchaytiradi. O‘g‘il otasining so‘zlariga e‘tibor va hurmat bilan yondashgan bo‘lsa-da, ichki kurashi va qarshi chiqish istagi uning ziddiyatli pozitsiyasini namoyish etadi. Yusufbek hojining yuqorida o‘tkan gaplarni quruq va asossiz so‘zlamag‘an, balki shu turmushning rukn asosini bir darajada aytib o‘tkan, Otabek esa buni shu muhitning bir o‘g‘li bo‘lib eshitkan edi. To‘g‘risi ham ul otasi tomonidan so‘zlagan haligi qonung‘a qarshi chiqish uchun lozim bo‘lg‘an kuchka molik emas; bas, kuchsizlikning natijasi esa sukut edi.

Tahlil va natijalar. Maqola, ota timsolining jamiyat va oiladagi o‘rni haqida chuqur tushuncha hosil qilishga yordam beradi. Marcel Pagnolning asarida ota obrazi oilaviy hayotni sevib yashaydigan va farzandlari uchun eng muhim qadriyatlar – halollik, o‘zining mehnatiga hurmat, tabiiy dunyoni qadrlashni o‘rgatuvchi timsol sifatida namoyon bo‘ladi. Ota obrazining ma‘naviy ahamiyati farzandlarida haqiqiy baxtni topishga, hayotning go‘zalligini anglashga yordam beradi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarida Yusufbek hoji timsolida ota obrazini oilaning ma‘naviy qo‘llab-quvvatlovchisi, tayanchi sifatida ko‘rsatiladi. Bu asarda ota, oilaning boshqaruvchisi bo‘lish bilan birga, farzandlariga axloqiy qadriyatlar, oilaviy an‘analar va hayotdagi to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatadi. Ota timsoli Qodiriy asarida faqat iqtisodiy qo‘llab-quvvatlovchi emas, balki ruhiy- ma‘naviy qo‘llab-quvvatlovchi sifatida ham o‘zini ko‘rsatadi. [Tashkent, T. 2015]

Xulosa. Ota timsolining oilaviy va ijtimoiy kontekstdagi ahamiyati, uning jamiyatdagi o‘rni va mas‘uliyatlari haqida tushuncha hosil qilish uchun uning tarixiy, madaniy va psixologik jihatlarini tahlil

LITERARY CRITICISM

qilish muhimdir. Ota obrazining oiladagi roli, farzandlar tarbiyasidagi ahamiyati va ijtimoiy mas'uliyatlari jamiyatdagi axloqiy qadriyatlar va normativlar bilan bog'liqdir. Ota timsoli, oiladagi rahbar sifatidagi roli bilan birga, jamiyatda barqarorlik, adolat va tenglikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Zamonaviy jamiyatda ota timsolining roli o'zgarib bormoqda, ammo uning oilaviy va ijtimoiy ahamiyati hali ham yuqori darajada saqlanib qolgan. Madaniyatlararo farqlar ota timsolining roli va unga bo'lgan munosabatlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ota va bola o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarishi, jamiyatning umumiy qadriyatlariga, iqtisodiy sharoitlarga, psixologik ehtiyojlarga va oilaviy tuzilmaga bog'liq holda shakllanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Muminov, K. (2016). *Ota va bola o'rtasidagi munosabatlar: Ijtimoiy va madaniy kontekstda tahlil*. Tashkent : Adabiyot va san'at nashriyoti.
2. Pagnol, M. (1957). *La Gloire de mon père*. Paris : Éditions Grasset.
3. Qodiriy, A. (2005). *O'tkan kunlar*. Tashkent: Sharq Publishing House.
4. Rakhimov, U. (2013). *O'zbek adabiyotida ota timsolining tasvirlanishi*. Tashkent: Fan Publishing House.
5. Schor, E. (2003). *Fatherhood and Family Life in Contemporary Literature*. *American Journal of Cultural Studies*, 32(1), 12-25.
6. Tashkent, T. (2015). *Ota timsolining o'zbek adabiyotidagi ahamiyati*. Tashkent: Adabiyot nashriyoti.
7. Zilberman, R. (2011). *The Role of the Father in Contemporary Society*. *Journal of Family Studies*, 25(2), 25-40.

AMERIKA IMMIGRANT JANRI TARIXI

*Nazarova Gulbahor Pirmanovna,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi, PhD
Sirojeva Nafisa Sodiqjon qizi,
Buxoro davlat universiteti magistranti
n.s.sirojeva@buxdu.uz*

Annotatsiya. *Qo'shma Shtatlar uzoq vaqtdan beri uning madaniy, ijtimoiy va siyosiy manzaralariga chuqur ta'sir ko'rsatgan yangi kelganlar to'liqlari tomonidan shakllangan muhojirlar davlati sifatida tavsiflanadi. Amerikalik immigrant janri - adabiyot, film va hikoyaning boshqa shakllarini o'z ichiga olgan keng toifa - immigrantrlarning o'ziga xosligi, tegishliligi va yangi mamlakatda assimilyatsiya qilish qiyinchiliklarini o'rganishdagi turli tajribalarini o'rganadi. Ushbu maqola amerikalik muhojirlar janrining tarixiy evolyutsiyasini o'rganadi, uning ildizlarini, asosiy mavzularini va vaqt o'tishi bilan madaniy ta'sirini kuzatadi.*

Kalit so'zlar: *immigrant janr, amerika immigrant janri, tarix, adabiyot, film, hikoya, immigrant janr evolyutsiyasi, madaniy ta'siri.*

HISTORY OF AMERICAN IMMIGRANT GENRE

Abstract. *The United States has long been characterized as a nation of immigrants, shaped by waves of newcomers who have profoundly influenced its cultural, social, and political landscapes. The American immigrant genre—a broad category encompassing literature, film, and other forms of storytelling—explores the diverse experiences of immigrants as they navigate identity, belonging, and the challenges of assimilation in a new land. This article delves into the historical evolution of the American immigrant genre, tracing its roots, major themes, and cultural impact over time.*

Keywords: *immigrant genre, American immigrant genre, history, literature, film, story, immigrant genre evolution, cultural impact.*

ИСТОРИЯ АМЕРИКАНСКОГО ИММИГРАНТСКОГО ЖАНРА

Абстракт. *Соединённые Штаты уже давно характеризуются как нация иммигрантов, сформированная волнами новичков, которые глубоко повлияли на их культурный, социальный и политический ландшафт. Жанр американских иммигрантов — широкая категория, охватывающая литературу, кино и другие формы повествования — исследует разнообразный опыт иммигрантов, когда они ориентируются в идентичности, принадлежности и проблемах ассимиляции на новой земле. Эта статья углубляется в историческую эволюцию жанра американских иммигрантов, прослеживает его корни, основные темы и культурное влияние с течением времени.*

Ключевые слова: *иммиграционный жанр, американский иммиграционный жанр, история, литература, эволюция иммиграционного жанра, культурное влияние.*

Kirish. *Amerikalik immigrant janrining asosi mamlakatning mustamlakachilik va migratsiya tarixida yotadi. Dastlabki immigrantrlar haqidagi hikoyalar mustamlakachilik davrida paydo bo'lib, ko'pincha ko'chmanchilarning Yangi Dunyoning og'ir haqiqatlariga moslashish uchun kurashiga qaratilgan. Uilyam Bredfordning "Plimut plantatsiyasi" kabi bu hikoyalar, birinchi navbatda, diniy erkinlik yoki iqtisodiy imkoniyatlarga intilayotgan yevropalik ko'chmanchilarga qaratilgan.*

Amerika Qo'shma Shtatlari o'sishi bilan bu janr 19-asrda kelgan muhojirlarning tajribalarini o'z ichiga olgan holda kengaydi. Sanoat inqilobi va g'arbiy kengayish millionlab irlandlar, nemislar, skandinavialiklar va xitoylik muhojirlarni o'ziga jalb qildi. Ularning Meri Antinning "Va'da qilingan yurt" kabi hikoyalari eski dunyo an'analari va Amerika madaniyatiga moslashish bosimi o'rtasidagi ziddiyatni ta'kidlay boshladi.[1]

1. Tarixiy asoslarga asoslangan hikoyalar.

Ellis oroli davri: XIX asr oxiri va XX asr boshida Ellis oroliga kirgan millionlab immigrantrlarning tajribalari bu janr uchun boy manba bo'ldi. Abraham Cahanning "The Rise of David Levinsky" yoki Mary Antinning "The Promised Land" kabi asarlari bu davrni aks ettiradi.

Klassik milliy ertaklar: Immigrantlar tez-tez Amerika orzusining (American Dream) idealini o'rganadilar va bu jarayon muvaffaqiyat va kurashni ham o'z ichiga oladi.

2. Zamonaviy yondashuvlar

Postkolonial va globalist nuqtayi nazar: Zamonaviy immigrant janri milliy chegaralardan chiqib, globallashuv va transmilliy identifikatsiyani o'rganadi. Jhumpa Lahiri yoki Viet Thanh Nguyen kabi mualliflar yangi dunyoqarashlarni ochib berishadi.

Noqonuniy immigratsiya: Zamonaviy asarlar, masalan, Reyna Grande yoki Valeria Luiselli kabi mualliflarning kitoblari noqonuniy immigratsiya bilan bog'liq xavf-xatarlarni yoritadi.

19-asr oxiri va 20-asr boshlari amerikalik immigrantlar janri uchun muhim davr bo'ldi. Bu vaqt ichida Ellis oroli millionlab yevropalik muhojirlar uchun darvozaga aylandi. Bu davrdagi muhojirlar tajribasi ko'pincha umid va qiyinchiliklardan biri edi. "Non beruvchilar" kabi asarlari bilan mashhur bo'lgan Anzia Yezierska kabi yozuvchilar Nyu-Yorkdagi uylarda yahudiy muhojirlarning kurashlarini tasvirlagan bo'lsa, Jeykob Riisning "Qanday yarmi yashaydi" nomli kitobida shahardagi muhojirlar hayotining og'ir haqiqatlari tasvirlangan.[2]

Ushbu davrdagi janr "Amerika orzusi" g'oyasini - mashaqqatli mehnat va qat'iyat muvaffaqiyatga olib kelishi mumkinligiga ishonchni ta'kidlay boshladi. Shu bilan birga, u bu orzuning qashshoqlik, kamsitish va madaniy begonalashuv kabi to'siqlarini ham tanqidiy ko'rib chiqdi.[3]

20-asr o'rtalarida Osiyo, Lotin Amerikasi va Karib havzasidan kelgan muhojirlarning yangi to'lqinlari tufayli amerikalik immigrantlar janri turlicha bo'ldi. Bu davrda yevropalik muhojirlardan boshqa etnik guruhlar tajribasiga e'tibor o'zgardi.

Asosiy qism. Maksin Xong Kingstonning "Jangchi ayol" va Emi Tanning "Baxt klubi" xitoy-amerikalik hikoyalarini birinchi o'ringa olib chiqdi, ular oila, o'ziga xoslik va avlodlar mojarosi mavzularini o'rganib chiqdi.[4] Xuddi shunday, Sandra Sisnerosning "Mango ko'chasi" asari meksikalik amerikaliklarning kurashlarini yoritib berdi. jamiyatlar, she'riy tilni jamiyatdagi tengsizliklarni keskin tanqid qilish bilan aralashirib yubordi.[5]

Immigratsion hikoya, shuningdek, Amerika kinosining asosiy qismi bo'lib kelgan, filmlar immigrantlar tajribasining murakkabliklarini o'rganish uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qilgan. Charli Chaplinning "Muhojir" (1917) kabi ilk filmlarida migratsiyaning hazil va pafosi tasvirlangan.[6] Keyinchalik "Cho'qintirgan ota" (1972) kabi filmlar italyan-amerika jamoalari duch keladigan assimilyatsiya va dilemma axloqini o'rganib chiqdi.[7]

So'nggi o'n yilliklarda "The Namesake" (2006) va "Minari" (2020) kabi filmlar mos ravishda hind va koreys muhojirlarining kurashlarini aks ettiruvchi janrga yangi istiqbollarni olib keldi. Ushbu filmlar madaniy o'ziga xoslikni nishonlash bilan birga immigrantlar tajribasining universalligini ta'kidlaydi.[8]

Amerikalik immigrantlar janri vaqt va madaniyatlarda aks-sado beradigan takrorlanuvchi mavzularga boy:

O'ziga xoslik va mansublik: Muhojirlar ko'pincha Amerika jamiyatiga singib ketish vaqtida o'zlarining madaniy merosini saqlab qolish ikki tomonlama muammo bilan kurashadilar. Bu taranglik Jhumpa Lahirining "Maladies tarjimoni" kabi asarlarda markaziy mavzudir.[9]

Amerika orzusi: farovonlik va erkinlikka intilish immigratsion rivoyatlarning o'ziga xos belgisidir, ammo hikoyalar ko'pincha marginal guruhlar uchun unga erishish mumkinligini tanqid qiladi.[10]

Oila va avlodlar mojarosi: Ko'plab immigrantlar haqidagi hikoyalar birinchi avlod muhojirlari va ularning Amerikada tug'ilgan farzandlari o'rtasidagi kelishmovchilikni ta'kidlaydi, ular ko'pincha turli qadriyatlar va umidlarni yarashtirish uchun kurashadilar.[11]

Moslashuvchanlik va moslashish: Moslashish va omon qolish sayohati, xoh iqtisodiy qiyinchilik yoki madaniy dislokatsiya orqali, immigrant jamoalarining chidamliligini ta'kidlaydi.[12]

Zamonaviy tendentsiyalar va global istiqbollarni

21-asrda amerikalik immigrantlar janri rivojlanishda davom etmoqda, bu o'zgaruvchan demografiya va immigratsiya siyosatini aks ettiradi. Viet Txan Nguyenning "Sempatizan" va Chimamanda Ngozi Adichining "Americanah" kabi so'nggi asarlari migratsiya hikoyalarining o'zaro bog'liqligini ta'kidlab, janrga global istiqbollarni olib keladi.

Texnologiya va ijtimoiy media, shuningdek, immigrantlarga o'z tajribalarini bloglar, podkastlar va raqamli platformalar orqali baham ko'rish imkonini beruvchi hikoya qilishning yangi shakllarini keltirib chiqardi. Ushbu rivoyatlar janrni o'zgartirib, uni yanada inklyuziv va dinamik qiladi.

Immigratsion janrning madaniy ta'siri

Amerikalik immigrantlar janri xalqning madaniy o'ziga xosligiga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Turli jamoalarning ovozi kuchaytirish orqali u empatiya va tushunishni rivojlantiradi, stereotiplarga qarshi

kurashadi va ijtimoiy hamjihatlikni rag'batlantiradi. Bu janr, shuningdek, immigratsiyaning o'zgaruvchan tabiati va uning Amerika jamiyatiga ta'sirini hujjatlashtiradigan tarixiy yozuv bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, immigrantlar haqidagi hikoyalar o'quvchilarga madaniy o'ziga xoslikning murakkabligi va millatni shakllantirishdagi xilma-xillikning ahamiyati haqida tushuncha beradigan ta'lim o'quv dasturining muhim qismiga aylandi.

Qiyinchiliklar va qarama-qarshiliklar.

Uning hissalariga qaramay, amerikalik immigrant janri qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Vakillik va haqiqiylik masalalari muhojirlar haqida hikoya qilishga kim haqli ekanligi haqidagi munozaralar bilan davom etmoqda. Bundan tashqari, janr immigratsiyaning siyosiylashuvi bilan kurashishi kerak, bu esa jamoatchilikning tasavvurlari va hikoyalarini shakllantirishi mumkin.

Amerika immigrant janri faqat adabiyot yoki san'at bilan cheklanmaydi. Bu janr Amerika jamiyatining umumiy tarixiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonlarida muhim rol o'ynadi. Immigrantlarning o'z tajribalarini hikoya qilish orqali ular nafaqat o'zlarining ovozlari eshittirgan, balki yangi hayotga moslashish jarayonida qiyinchiliklarga bardosh berishga yordam beradigan umumiy tajribani o'rtoqlashgan.

Immigrant janrida ko'p uchraydigan mavzulardan biri — yangi jamiyatga moslashish va eski madaniyatni saqlab qolish o'rtasidagi kurashdir. Ko'pgina immigrant hikoyalarida bosh qahramonlar yangi madaniyatga moslashish uchun o'z ildizlari va an'alaridan voz kechishlariga to'g'ri kelgani aks etadi. Bu, ayniqsa, birinchi avlod muhojirlar uchun jiddiy hissiy va madaniy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Masalan, birinchi avlod muhojirlarning hayoti va madaniyati ko'pincha qashshoq va cheklangan sharoitlarda kechgan bo'lsa, ikkinchi avlod ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lgan, ammo ota-onalarining qadriyatlarini va amerikaliklikni qabul qilish o'rtasida ichki to'qnashuvlarni boshdan kechirgan. Immigrant janri bunday ichki va tashqi konfliktlarni ochib beradi.

Immigrant janri muhojirlarning tajribasini turli tarixiy davrlarga mos ravishda o'zgartirib ko'rsatadi:

19-asr oxiri va 20-asr boshida: Yevropadan kelgan muhojirlar, ayniqsa, Irlandiyaliklar, italyanlar va yahudiylarning hikoyalari janrning asosini tashkil qildi. Ular ko'pincha shaharlarning industrial qashshoq mahallalarida hayot kechirishgan.

20-asr o'rtalarida: Lotin Amerikasi, Osiyo va Karib dengizi davlatlaridan kelgan muhojirlarning ovozlari janrni boyitdi. Bu davrda muhojirlik faqat iqtisodiy imkoniyatlar haqida emas, balki siyosiy qochqinlik va urush sababli kelganlarni ham o'z ichiga olgan.

21-asrda: Globalizatsiya sharoitida immigrant janri yanada xilma-xil tus oldi. Yangi muhojirlar hikoyalari faqatgina AQShga moslashish haqida emas, balki dunyodagi ijtimoiy va siyosiy sharoitlar bilan bog'liq global tajribalar haqida ham bo'lib qoldi.

Amerika immigrant janri jamiyatga immigratsiyaning insoniy qiyofasini ko'rsatadi. Bu janr muhojirlarning shaxsiy hikoyalari orqali stereotiplarni bartaraf etishga yordam beradi. Ayniqsa, Khaled Hosseini kabi yozuvchilar o'z asarlarida immigratsiyaning hissiy, ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirini yoritib, o'quvchilarga muhojirlarning hayoti haqida chuqurroq tushuncha beradi.

Hozirgi kunda immigrant janri nafaqat badiiy adabiyot, balki kino, drama, va hujjatli filmlar orqali ham keng rivojlanmoqda. Bu janr Amerika madaniy tarixining ajralmas qismi bo'lib qolmoqda va yangi avlod yozuvchilari va san'atkorlari orqali rivojlanishda davom etmoqda.

Immigrant janrining zamonaviy ovozlari

Bugungi kunda bu janr yangi texnologiyalar va platformalar orqali yanada rivojlanmoqda. Immigrant yozuvchilar va san'atkorlar podkastlar, veb-seriyalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z ovozlari ommaga etkazmoqdalar.

Roxane Gay, Chimamanda Ngozi Adichie, Ocean Vuong: Bu zamonaviy mualliflar immigratsiya, o'zlik va irq masalalarini o'rganishda yetakchi sanaladi.

Grafik romanlar: Gene Luen Yangning "American Born Chinese" asari Osiyolik-amerikaliklarning madaniy moslashuvini badiiy yondashuvda tasvirlaydi.

Janrning kelajagi

Immigrant janri kelgusida yanada xilma-xil bo'lishi kutilmoqda. Global migratsiya, ekologik qochqinlik va texnologik rivojlanish bu janrda yangi hikoyalar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ko'p ovoqli Amerika madaniyati bu janrni boyitishda davom etadi.

Qo'shimcha sifatida, bu janrning xalqaro ahamiyati ham ortib bormoqda, chunki immigratsiya hikoyalari dunyodagi har bir insonning muhim qismi bo'lib qoldi.

1. Grafik roman va vizual hikoyalar:

Gene Luen Yangning "American Born Chinese" yoki Thi Bui'ning "The Best We Could Do" kabi asarlar immigrant tajribalarini grafik roman formatida kuchli vizual va emotsional tasvir orqali yoritadi.

Bu format yangi avlodlar orasida immigrant tajribasini yanada ommalashtirishga yordam beradi.

2. Ijtimoiy tarmoqlar va digital platformalar:

Immigrantlarning shaxsiy hikoyalari endi ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va veb-seriyalar orqali ommaga taqdim etiladi. Masalan, Humans of New York loyihasi immigratsiya haqidagi qisqa, ta'sirchan hikoyalarni keng auditoriyaga etkazadi.

3. Immigrant janrining podkastlari:

Zamonaviy immigrantlar tajribalarini tushuntiruvchi podkastlar janrni kengaytirmoqda. "Code Switch" yoki "Tell Them, I Am" kabi loyihalar kross-madaniy tajribalarni yoritadi.

Madaniy integratsiya va janrning yoritilishi

1. Avlodlararo hikoyalar:

Immigrant janr ko'pincha ikki avlod o'rtasidagi madaniy va dunyoqarash farqlarini o'rganadi:

Birinchi avlod o'z ildizlarini saqlashga intiladi, ikkinchi avlod esa yangi madaniyatga moslashishga urinishda o'z madaniy ildizlarini qayta ko'rib chiqadi.

Amy Tanning "The Joy Luck Club" yoki Min Jin Leening "Pachinko" romanlari bu mavzuni chuqurroq o'rganadi.

2. Immigrantlar va irq masalasi:

Immigrant janri nafaqat madaniy moslashuvni, balki irqiy ziddiyatlarni ham o'rganadi. Chimamanda Ngozi Adichiening "Americanah" asari immigrantlarning irqiy masalalar bilan qanday to'qnashishini ko'rsatadi.

Immigrant janrining boshqa san'at sohalariga ta'siri

1. Musiqada:

Hip-hop va rap musiqasi immigrant tajribalarini ifoda qilishda yetakchi o'rinni egallaydi. Misol uchun, Lin-Manuel Mirandaning "Hamilton" musiqiy spektakli immigratsiya va milliy o'zlik masalasini hip-hop musiqasi orqali yoritadi.

Lotin Amerikasi musiqasi (Salsa, Bachata) yoki Osiyo pop madaniyati (K-pop) orqali immigratsiyaning musiqadagi hissi aniq seziladi.

2. Rassomlikda:

Diego Rivera va Frida Kahlo kabi rassomlar immigrant mehnatining og'irliklarini san'at orqali tasvirlashgan.

Zamonaviy rassomlar qochqinlik va global immigratsiya masalalariga e'tibor qaratmoqdalar.

Immigrant janrining ijtimoiy ahamiyati

Empatiya uyg'otish: Bu janr yangi immigratsiya siyosati va muhojirlar haqidagi stereotiplarga qarshi kurashishda muhim rol o'ynaydi.

Xilma-xillikni nishonlash: Immigrant janri Amerika madaniyati uchun muhim bo'lgan xilma-xillikni ta'kidlaydi va buni boylik sifatida ko'rsatadi.

Xulosa. Immigratsiya Qo'shma Shtatlarni o'zgartirishda davom etar ekan, immigratsiya janri, shubhasiz, yangi voqealarni aks ettirishga moslashadi. Kam vakili bo'lgan jamoalardan paydo bo'ladigan ovozlari yangi istiqbollarni olib keladi, bu janrning jonli va dolzarb bo'lishini ta'minlaydi.

Amerikalik immigrantlar janri Qo'shma Shtatlarni shakllantirganlarning chidamliligi, ijodkorligi va xilma-xilligidan dalolat beradi. Mustamlaka rivoyatlaridagi dastlabki ildizlaridan tortib, zamonaviy iteratsiyalarigacha, bu janr insoniyat tajribasini yoritishda davom etib, yangi mamlakatda hayot qurishning qiyinchiliklari va g'alabalari haqida kuchli tushunchalarni taqdim etadi. Amerikaning immigrantlar soni ortib borayotgani va xilma-xilligi bilan ushbu janrdagi hikoyalar mamlakatning o'tmishi, buguni va kelajagini tushunish uchun muhim bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR:

1. *Antin, Meri. Va'da qilingan yer. Houghton Mifflin, 1912 yil.*
2. *Cisneros, Sandra. Mango ko'chasidagi uy. Arte Publico Press, 1984 yil.*
3. *Kingston, Maksin Xong. Jangchi ayol: arvoqlar orasidagi qizlik xotiralari. Knopf, 1976 yil.*
4. *Lahiri, Jumpa. Maladies tarjimoni. Houghton Mifflin, 1999 yil.*
5. *Nguyen, Viet Than. Simpatik. Grove Press, 2015 yil.*
6. *Riis, Yoqub. Boshqa yarmi qanday yashaydi. Charlz Skribnerning o'g'illari, 1890 yil.*
7. *Tan, Emi. Quvonchli omad klubi. Putnam, 1989 yil.*
8. *Yeziarska, Anziya. Non beruvchilar. Doubleday, 1925 yil.*
9. *Jalilova L.J. "XX asr amerika adabiyotining xususiyatlari" Zamonaviy fan nazariyasi va amaliyoti, no. 3 (33), 2018, bet. 198-203.*

LITERARY CRITICISM

10. G'aniyeva O.K. *Amerika realist adabiyotinda inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning tasviri* //Namangan Davlat universiteti ilmiy xabarnomasi. – 2020. – T. 2. – Yo'q. 8. – 215-220-betlar.
11. Daniels, Rojer. *Amerikaga kelish: Amerika hayotida immigratsiya va etnik kelib chiqish tarixi*. XarperKollins, 1990 yil.
12. Foner, Nensi. *Ellis orolidan JFKgacha: Nyu-Yorkning ikkita katta immigratsiya to'lqini*. Yel universiteti nashriyoti, 2000 yil.
13. Ngai, Mae M. *Mumkin bo'lmagan mavzular: noqonuniy musofirlar va zamonaviy Amerikaning yaratilishi*. Prinston universiteti matbuoti, 2004 yil.
14. Takaki, Ronald. *Turli ko'zgu: Ko'p madaniyatli Amerika tarixi*. Kichkina, Braun, 1993 yil.
15. Chaplin, Charli. *Immigrant*. Mutual film korporatsiyasi, 1917 yil.
16. Koppola, Frensis Ford. *Cho'qintirgan ota*. Paramount Pictures, 1972 yil.
17. Li, Ishoq. *Minari*. A24, 2020.
18. Nair, Mira. *Ismlar*. Fox Searchlight Pictures, 2006 yil.
19. *Amerika tarixi milliy muzeyi*. "Immigratsiya hikoyalari: Amerikaning erish qozoni." <https://americanhistory.si.edu>
20. *Pew tadqiqot markazi*. "AQSh immigrantlari haqidagi asosiy topilmalar". <https://www.pewresearch.org>

TEZ AYTISH TURLARI (fransuz tez aytishlari misolida)

*Usmonova Nilufar Suvon qizi,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Roman-german filologiyasi fakulteti
Fransuz tili nazariy fanlar kafedrasida stajyor-o'qituvchisi,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi
usmonovanilufar313@gmail.com*

Annotatsiya. Tez aytish – xalq og'zaki ijodining bir turi hisoblanadi. Tez aytishda yanglishib ketish mumkin bo'lgan qofiyadosh so'zlardan tuzilgan jumlar qo'llanadi. U muayyan tovushlar, ayniqsa, jarangli undoshlar takrorlanishiga asoslanadi va so'zlar ritm, urg'ular bilan tez aytiladi. Tez aytishda har bir tovush o'z o'rnida to'g'ri, ravon talaffuz qilinishi shart. Tovushlar talaffuzida yanglishgan tomon yengilgan hisoblanadi.

Tez aytishlar bolalarning fikrlash qobiliyatini, so'z boyligini oshirishga va nutqining ravon bo'lishiga xizmat qiladi. Tez aytishlar odatda tilni rivojlantirish va talaffuzni yaxshilash uchun ishlatiladi. Ular har bir tilda mavjud bo'lib, go'zallashtirish uchun mustahkamlash uchun foydalidir.

Kalit so'zlar: ritm, fikr, tovush, alliteratsiya, assonans, aralash tez aytish, tezkorlik, talaffuz, nutq.

ВИДЫ СКОРОГОВОРКИ (на примере французской скороговорки)

Аннотация. Скороговорка – это вид народного творчества. Используются предложения, составленные из рифмующихся слов, в которых при быстром произношении можно ошибиться. Он основан на повторении определённых звуков, особенно звонких согласных, а слова произносятся быстро, с ритмом и акцентами. При быстрой речи каждый звук необходимо произносить правильно и бегло. Проигравшим считается тот участник, который допустит ошибку в произнесении звуков.

Скороговорка служат для увеличения мыслительных способностей детей, словарного запаса и беглости речи. Быстрые высказывания обычно используются для развития речи и улучшения произношения. Они доступны на всех языках и полезны для укрепления и благоустройства.

Ключевые слова: ритм, мысль, звук, аллитерация, ассонанс, смешанная быстрота, быстрота, произношение, речь.

TYPES OF TONGUE TWISTERS (example of french tongue twisters)

Abstract. Tongue twister is a type of folk art. Sentences made up of rhyming words, which can be mistaken when spoken quickly, are used. It is based on the repetition of certain sounds, especially resonant consonants, and words are spoken quickly with rhythm and accents. When speaking quickly, each sound must be pronounced correctly and fluently. The party that makes a mistake in pronouncing the sounds is the loser.

Tongue twisters serve to increase children's thinking ability, vocabulary and fluency of speech. Rapid utterances are usually used to develop language and improve pronunciation. They are available in every language and are useful for reinforcement for beautification.

Keywords: rhythm, thought, sound, alliteration, assonance, mixed rapidity, rapidity, pronunciation, speech.

Ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi. Tilshunoslikda kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat murakkab butunlik bo'lgan mikromatnlarning eng keng tarqalgan turlari maqol, matal, tez aytish va topishmoq hisoblanadi. Maqol va matallar xalq og'zaki ijodining keng tarqalgan janridir. Tez aytish barcha tillarda ham bir xil mohiyatni kasb etadi.

Ushbu ishda tez aytish janrini atroflicha o'rganishga harakat qildik, tez aytish turlarini aniqladik, tez aytishning foydalari, fonetik jihatdan ko'rinishlari, tez aytishlarni mashq qilish usullarini atroflicha o'rganib yoritib berishga harakat qildik.

Asosiy qism. Tez aytish haqida ilmiy izlanishlar olib borgan fransuz olimlari keng qamrovli til va fonetika sohalarida izlanishlar olib borganlar. Til o'yinlari va fonetik jihatlarga oid izlanishlar bir necha

LITERARY CRITICISM

fransuz olimlari tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, ular orasida Ferdinand de Saussure va André Martinet kabi taniqli tilshunoslar til strukturasi va tovush tizimlarini o‘rganishda katta hissa qo‘shgan.

Tez aytish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan fransuz olimlari sanoqli hisoblanadi. Mashhur fransuz olimlaridan Ferdinand de Saussure tilshunoslikning asosiy tamoyillarini ishlab chiqqan bo‘lib, uning “Cours de linguistique générale” (“Umumiy tilshunoslik kursi”) asari strukturalizm asosida tilning ichki tuzilishini o‘rganishga yo‘naltirilgan. Garchi u tez aytish haqida maxsus ish olib bormagan bo‘lsa-da, uning fonetika va fonologiya bo‘yicha fikrlari tilning tovush tizimlarini tushunishda asosiy o‘rin tutadi.

Yana bir mashhur fransuz olimi André Martinet Fonologiya va morfologiya sohasida chuqur izlanishlar olib borgan. U o‘zining “Éléments de linguistique générale” (Umumiy tilshunoslik elementlari) asarida tilning kommunikativ vazifalari va til birliklarining fonetik jihatlarini o‘rganishga katta e‘tibor bergan. Martinet tilning iqtisodiyligi va tovush tizimining sodda strukturalarga asoslangan holda rivojlanishini o‘rganishda til o‘yinlari va tez aytish uslublarini o‘rganish uchun imkoniyat yaratgan.

Hozirgi kungacha tez aytishlar (“virelangues”) bo‘yicha maxsus ilmiy izlanish olib borgan fransuz olimlarining aniq ro‘yxati cheklangan, ammo ayrim zamonaviy tadqiqotlar fonetika, talaffuz va lingvistika sohasida ushbu mavzuga alohida e‘tibor qaratgan.

Senem Seda Sahenk Erkan – 2015-yilda chop etilgan “Evaluation of Learning French as a Foreign Language with Tongue Twisters Scale” nomli tadqiqotida fransuz tilini chet tili sifatida o‘rgatishda tez aytishlarning ta‘sirini o‘rgangan. Uning bu asari tez aytishlar yordamida talabalarni talaffuzini yaxshilash usullarini baholash uchun maxsus o‘lchov tizimi yaratishga asoslangan.

Yana bir fransuz olimi Didier Démolin – 2001-yilda nashr etilgan “French Phonology and Tongue Twisters” asarida tez aytishlarni fransuz fonologiyasi bilan bog‘liq holda o‘rganishga qaratilgan. Demolin o‘z tadqiqotida fransuz tilidagi tovushlarni takrorlash orqali talaffuz qiyinchiliklari va ularni o‘rganish jarayonini osonlashtirishga intilgan.

Kristofer Bouchard va Edward Chang esa – 2024-yilda “The Oxford Scientist” jurnalida chop etilgan maqolasida tez aytishlar talaffuzdagi qiyinchiliklarni qanday keltirib chiqarishi, tovushlarning neural (ong) darajadagi o‘zaro bog‘lanishini o‘rganganlar. Ularning izlanishlari nutq xatolarini tahlil qilish va neyrolingvistikani yaxshilashda qo‘llaniladi.

Tez aytishlar turli jihatlariga ko‘ra farqlanadi.

- Ayrim tez aytishlarga e‘tibor beradigan bo‘lsak, ularda ma‘no yo‘q. Lekin ular yordamida nutqni o‘stirish, tezkorlikka, ephillikka, nutq ravonligiga o‘rganish mumkin:

Par exemple: Il fait noir ce soir sur le trottoir, bonsoir.

[Sarah-Rose la rosophile = Gulsevar Gulsara: 2005, p-15]

- Tez aytishlarning she‘riy tarzda berilishi aqliy tezkorlik qobiliyatining takomillashishiga olib keladi. Tez aytishlar bir-biri bilan o‘zaro mazmunan bog‘langan bo‘lishi mumkin:

*Par exemple: Il était une fois,
un homme de foi
qui vendait du foie
dans la ville de Foix.
Il dit : “Ma foi,
C’est la dernière fois
que je vends du foie
dans la ville de Foix.”*

- Qiziqarli va mantiqiy savol tarzidagi tez aytishlar ham mavjud :

*Ex: À qui est acquis quoi? Quoi est acquis qui?
Qui a acquis quoi? Qui a quoi d’acquis?*

[Paul Sherwood 2012, p-30]

- Tez aytishning yana bir xususiyati borki ularning ko‘p xonali sonlarga asoslanganlari xotirani mustahkamlashda yordam beradi:

Ex: J’ai vu six sots suçant six cent six saucisses, six en sauce et six cents sans sauce.

-Tez aytishlarning yana o‘ziga xos jihatlaridan biri tez yodlashga yordam beradigan qofiyali ritmning mavjudligi:

Ex: L’harmonica de Monique est en harmonie avec l’harmonium de Monique, car l’harmonium de Monique est harmonieux.

[Paul Sherwood 2012, p-30]

- Boshlanishi faqat bitta harf yoki tovushning takorlanishiga asoslangan topishmoqlar ham mavjud:

Ex: Une meule moude mille moules molles.

[Sarah-Rose la rosophile=Gulsevar Gulsara:2005, p15]

Ex: Pauvre petit pêcheur, prends patience pour pouvoir prendre plusieurs petits poissons.

LITERARY CRITICISM

- Anʼanaviy tez aytishlar ham mavjud : Bu turdagi tez aytishlar koʻpincha xalq orasida keng tarqalgan boʻlib, avloddan avlodga oʻtib keladi. Ular oddiy va maʼnodor boʻlishi mumkin.

Ex: - *Un chasseur sachant chasser doit savoir chasser sans son chien.*

- Yangi yaratilgan tez aytishlar: Zamonaviy ijodkorlar tomonidan yaratilgan yangi tez aytishlar. Bu turdagi tez aytishlar koʻpincha hozirgi davrning hodisalari yoki mavzulariga asoslangan boʻladi.

Ex: *Sept citrons secs sur six socles sales.*

Quatre gros rats gris dans quatre gros trous ronds.

[Paul Sherwood 2012, p-32]

- Hajviy tez aytishlar: Bu turdagi tez aytishlar kulgili va hazilomuz mazmunga ega boʻladi.

Ex: - *Si mon tonton tond ton tonton, ton tonton sera tondu.*

[Paul Sherwood 2012, p-35]

- Qiyin talaffuzli tez aytishlar ham bor:

Bu turdagi tez aytishlar talaffuz qilinishi qiyin boʻlgan soʻzlarni birlashtiradi.

Par exemple: *Ces miches, quiches et biches en broche m'allèchent.*

[Sarah-Rose la rosophile = Gulsevar Gulsara: 2005, p-15]

- Oʻxshash tovushli tez aytishlar

Bu turdagi tez aytishlar oʻxshash tovushlarga ega soʻzlarni birlashtiradi.

Par exemple: *Les vers verts levèrent le verre vert vers le ver vert.*

[Paul Sherwood 2012, p-33]

Tez aytishlarning foydalari:

1. Nutqni yaxshilash - Tez aytishlar talaffuzni yaxshilashda juda yaxshi foyda beradi. Ular ogʻiz, til va lab mushaklarini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa nutqni aniq va ravon boʻlishini taʼminlaydi.

2. Til oʻrganish - Tez aytishlar yangi yangi bir tilni oʻrganishda ham foydali boʻlishi mumkin. Ular talaffuzni yaxshilash va yangi soʻzlarni yodlashda yordam beradi.

3. Qiziqarli oʻyin va mashgʻulotlar sifatida - Tez aytishlar bolalar oʻyinlarida va kattalar uchun mashgʻulotlarda qiziqarli boʻlishi mumkin. Ular guruh oʻyinlari va musobaqalar uchun ajoyib vosita hisoblanadi. [Nurmonov A.,2012 – B.171]

Tez aytishlarni mashq qilish usullari:

- *Sekin va aniq talaffuz* - Dastlab, tez aytishlarni sekin va aniq talaffuz qilish orqali mashq qilish kerak. Bu jarayon boshidan soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilishga yordam beradi.

- *Tezlikni oshirish* - Soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qila boshlagandan soʻng, ularni tezroq aytishga harakat qilish zarur. Bu nutqni tezlashtirishga yordam beradi.

- *Yagona nafasda aytish* - Bir necha bor mashq qilingandan soʻng, butun tez aytishni bir nafasda aytishga harakat qilinadi. Bu nafas olishni boshqarishni va nutqni mustahkamlashni osonlashtiradi.

[www.dref.mb.ca]

Tez aytishlar doimiy shugʻullanuvchilarga quyidagi jarayonlarni yaxshilanishiga koʻmak beradi:

1. Tezlikni : Biror narsani yoki voqeani tez, shoshilinch aytish. Masalan, xabar yoki maʼlumotni darhol yetkazish.

2. Qisqa va loʻnda soʻzlashni : Muayyan fikrni yoki maʼnoni aniq, ravon va loʻnda ifodalash. Masalan, uzundan-uzun gapirish oʻrniga, kerakli maʼlumotlarni qisqa va aniq yetkazish.

3. Tushuntirishni: Tez aytish orqali murakkab fikr yoki gʻoyani oson-yengil tushunarli tarzda ifodalash.

4. Emotsional holatni: Tez aytish usuli bilan suhbat jarayonida hissiyotlarni yoki ruhiy holatni aniq ifodalash. Bu koʻpincha kuchli taassurot qoldiradi.

5. Satira hissini: Tez va oʻziga xos tarzda, kulgili yoki tanqidiy ohangda biror fikrni aytish.

Bu turlar tez aytishning turli jihatlaridan foydalanishga imkon beradi va ularni kontekstga qarab qoʻllash mumkin.[Topishmoq va tez aytishlar - saviya.uz]

Tez aytishlar maʼlum bir tovush, harf yoki soʻzlarni takrorlash orqali talaffuzni murakkablashtirish maqsadida yaratiladi. Ular fonetik jihatdan oʻyinli va talaffuz texnikasini rivojlantirish uchun moʻljallangan. [Topishmoq va tez aytishlar - saviya.uz]

- Fonetik (tovush) asosidagi tez aytishlar:

Bu turdagi tez aytishlar bir xil yoki bir-biriga oʻxshash tovushlarni takrorlash orqali talaffuzni qiyinlashtiradi. Maqsad-tovushlarning talaffuzi va ogʻiz harakatlarini murakkablashtirish orqali ravon nutqqa erishish.

Par exemple: *“Si six scies scient six cyprès, six cents scies scient six cents cyprès.”*

(Maʼnosi: *“Agar olti arra olti sadr daraxtini arra qilsa, olti yuz arra olti yuz sadr daraxtini arra qiladi.”*)

- Oʻxshash soʻzlarga asoslangan tez aytishlar:

LITERARY CRITICISM

Bu turdagi tez aytishlar o'xshash ko'rinishdagi yoki talaffuzdagi so'zlar yordamida tuziladi, bu esa ularni tez aytganda chalkashlikka olib keladi.

Par exemple: "Un chasseur sachant chasser doit savoir chasser sans son chien."

[Paul Sherwood 2012, p-30]

(Ma'nosi: "Ov qilishni biladigan ovchi o'z itisiz ov qilishni bilishi kerak.")

- Ritm va ritmik naqsh asosidagi tez aytishlar: Bu turdagi tez aytishlar ma'lum ritm yoki talaffuz naqshi orqali tuziladi. Talaffuz qilinayotganda ritmga e'tibor qaratish talab etiladi.

Par exemple: "Les chaussettes de l'archiduchesse, sont-elles sèches ou archi-sèches ?"

(Ma'nosi: "Arxigersoginyaning paypoqlari quruqmi yoki juda quruqmi?")

- Ma'no va mazmun jihatdan bog'liq bo'lgan tez aytishlar: Bu turdagi tez aytishlarda so'zlar va iboralar ma'no jihatidan o'zaro bog'lanib, shoirona yoki kulgili ma'no hosil qiladi.

Par exemple: "Je veux et j'exige du jasmin jaune." (Ma'nosi: "Men sariq yasmini xohlayman va talab qilaman.")

[Paul Sherwood 2012, p-30]

- Alliteratsiya va assonansga asoslangan tez aytishlar: Bu turdagi tez aytishlar bir xil undosh tovushlarning (alliteratsiya) yoki bir xil unli tovushlarning (assonans) takrorlanishi asosida tuziladi.

Par exemple: "Didon dîna, dit-on, du dos d'un dodu dindon."

[Paul Sherwood 2012, p-31]

Ma'nosi: "Aytishlaricha, Didon qasrdagi kurkani yemoqda."

- Morfofonetik tez aytishlar: Morfemalar va tovushlar uyg'unligini ta'kidlaydi.

Exemple: "Je suis ce que je suis, et si je suis ce que je suis, qu'est-ce que je suis ?"

Ma'nosi: "Men kim ekanimni bilaman va agar men kimligimni bilsam, men kimman?"

- Ritm va intonatsiyaga asoslangan tez aytishlar: Ma'lum bir ritm va intonatsiyani talab qiladi. Bu turdagi tez aytishlarda tovushlar va so'zlar soni va tartibi talaffuzning ohangdorligini belgilaydi.

Par exemple: Petits pois font petit appétit. Petit à petit, petit appétit fait petit poids

- Aralash tez aytishlar: bu tur fonetik va morfofonetik xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, bular murakkab va xilma-xil tovushlarni uyg'unlashtirgan tez aytishlardir. Yuqoridagi har bir tur talaffuz mahoratini oshirish va nutqning tiniqligini, nafis va jozibadorligini ta'minlash uchun mo'ljallangan.

Par exemple: "Un dragon gradé dégrade un gradé dragon."

[Paul Sherwood 2012, p-30]

Ma'nosi: "Martabali ajdarhoning boshqa martabali ajdarhoni martabasini pasaytirishdi."

Tez aytishlarda **alliteratsiya** (she'rda, jumlada, bandda va qisman nasriy asarlarda ham bir xil undosh tovushlarning takrorlanishi, tovushlar ohangdorligi, asosan bir xil tovushlarning takrorlanishidan hosil bo'lgan ohangdorlik) badiiy san'at turidan unumli foydalaniladi. Bu esa tez aytishlarning ohangdorligini ta'minlabgina qolmay, uning badiiy qimmatini ham oshiradi. [Topishmoq va tez aytishlar - saviya.uz]

*Ex: Dans la gendarmerie,
quand un gendarme rit,
tous les gendarmes rient
dans la gendarmerie*

Tadqiqot metodlari. Chet tilini xususan fransuz tilini o'rganayotganda va nutq texnikasini takomillashtirish ustida ishlayotganda, til materiallari mustaqil ish uchun ham, darsda ishlash uchun ham mos bo'lgan tez aytishlarga alohida o'rin beriladi. Tinglashini va tushunishni o'rganish uchun gapirishni organish kerak, ammo buning uchun nutq kamchiliklari ustida ishlash kerak. Bu borada fransuz tilidagi tez aytishlar yordamida mashq qilish juda samarali va foydali. Ushbu ishda xalq o'zaki janri hisoblanadigan fransuz va o'zbek xalqining an'anaviy hamda zamonaviy tez aytishlari chog'ishtirish va qiyoslash usullari orqali yoritib berilgan. Avvalo tez aytishga ta'rif berilib, ushbu xalq og'zaki janrining ma'no va fonetik jihatdan turlari atroflicha ochib berilgan.

Exemple: Ces six chauds chocolats-ci sont-ils aussi chauds quand ces six chocolats-là font leurs shows? .

[Sarah-Rose la rosophile = Gulsevar Gulsara: 2005, p-17]

Maqolaning tadqiqot janri taqqoslash va tavsif. Tez aytishlarnig mavzu doirasi ham xilma-xil va cheklanmagan. Yuqoridagi misollar fransuz tilidagi tez aytishlarning turli ma'no va tovush jihatidan tuzilishini ko'rsatadi. Bu turdagi mashqlar nafaqat talaffuzni rivojlantiradi, balki mantiqiy fikrlash va eslab qolish qobiliyatini ham mustahkamlaydi.

Exemple: Jeanne est trop bonne pour être la femme d'un tel jeune homme.

Fransuz tez aytishlarini o'rganish uchun tadqiqot metodlari bir necha usullardan iborat bo'lishi mumkin. Bu metodlar til o'rganuvchilarning talaffuzi, fonetik qobiliyatlarini va nutq qiyinchiliklarini chuqur tahlil qilish uchun qo'llaniladi.

LITERARY CRITICISM

1. Eksperimental metod:

Maqsad: Talaffuzni yaxshilash va ogʻzaki nutqdagi xatolarni oʻrganish.

Natija: Talaffuzdagi oʻzgarishlar va tovushlarni talaffuz qilishdagi muammolar tahlil qilinadi.

2. Akustik tahlil:

Maqsad: Nutq tovushlarining akustik xususiyatlarini aniqlash.

Natija: Talaffuz paytida hosil boʻladigan tovushlarning chastotasi, ohang oʻzgarishi va fonetik farqlarni oʻrganish.

3. Psixolingvistik metod:

Maqsad: Tez aytishlarni oʻqish va eshitish jarayonida aqliy jarayonlar qanday kechishini tahlil qilish.

Natija: Nutq qiyinchiliklari va talaffuz xatolarining kelib chiqish sabablari aniqlanadi.

4. Fonologik tahlil:

Maqsad: Fransuzcha tez aytishlarning fonologik tuzilishi va talaffuz qoidalarini oʻrganish.

Natija: Turli tovushlarning birikishi, ularning talaffuzga taʼsiri va til oʻrganuvchilarda qanday talaffuz muammolari paydo boʻlishi tushuntiriladi.

5. Taqqoslash metodi (Kontrastiv tahlil):

Maqsad: Turli tillarda tez aytishlar orqali talaffuz oʻrganishni qiyoslash.

Natija: Til oʻrganuvchilarning qaysi tovushlar bilan bogʻliq qiyinchiliklari borligi va bu muammolarni qanday yengish mumkinligi aniqlanadi.

6. Audio va video monitoring metodi:

Maqsad: Ishtirokchilarning talaffuzdagi oʻzgarishlarini kuzatish va tahlil qilish.

Natija: Til harakati va lablar, tilning holatlari aniqlanib, talaffuzni rivojlantirish boʻyicha maʼlum bir strategiyalar ishlab chiqiladi.

Ushbu metodlar birgalikda qoʻllanilganda fransuz tez aytishlarini oʻrganishning qiyinchiliklarini chuqur oʻrganish va oʻrganuvchilarning talaffuz qobiliyatlarini yaxshilashda samarali boʻlishi mumkin.

[www.dref.mb.ca]

Tahlil va natijalar. Tez aytishlar oʻrganish tilning tovushlarini tez va aniq talaffuz qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Ushbu jarayon bir nechta foydali natijalarni keltirib chiqaradi:

1. Nutqning aniq va ravon boʻlishi: Tez aytishlarni takrorlash ogʻzaki nutqning aniqligini oshiradi. Talaffuz va nutqni yaxshilaydi.

Exemple: Écartons ton carton car ton carton nous gene.

[Sarah-Rose la rosophile = Gulsevar Gulsara: 2005, p-15]

2. Tilning harakatchanligini oshirish: Tez aytishlar til va lab mushaklarining moslashuvchanligini oshiradi. Mushaklarning koordinatsiyasi yaxshilanib, turli tovushlarni aniqroq chiqa boshlaydi.

Exemple: Mon père est maire, mon frère est masseur.

3. Diqqat va konsentratsiyani kuchaytirish: Tez aytishlarni takrorlash diqqat va tez fikrlashni talab qiladi. Xatolarni kamroq qilishingiz va konsentratsiyani oshirishingizga yordam beradi.

Exemple: Macha la vache mâcha la mâche et se tacha. Macha la vache à tâches lava la tache.

4. Soʻz boyligini kengaytirish: Turli xil tez aytishlar orqali yangi soʻzlar va iboralar oʻrganiladi. Talaffuz qilish qiyin boʻlgan tovushlar bilan ishlash qobiliyatingiz rivojlanadi.

5. Yod olish qobiliyatini kuchaytirish: Tez aytishlar matnini yod olish xotirani mustahkamlashga yordam beradi. Bu miya faoliyatini ragʻbatlantiradi va eslab qolish koʻnikmalarini yaxshilaydi.

6. Ijodiy fikrlashni ragʻbatlantirish: Turli xil tez aytishlar sizni ijodiy yondashishga undaydi.

Shu sababli soʻzlar bilan ijodiy oʻyinlar oʻynash qobiliyatini rivojlantiradi.

[www.dref.mb.ca]

Umuman olganda, tez aytishlarni oʻrganish nutq qobiliyatlarini rivojlantirib, shaxsning oʻz fikrlarini aniq va ravon ifodalashiga, diqqat va eʼtiborini jamlashiga yordam beradi.

Xulosa. Tez aytishlar oʻyin va mashgʻulot sifatida foydali boʻlib, tilni rivojlantirish va nutqni yaxshilash uchun ajoyib vosita hisoblanadi. Ularni muntazam ravishda mashq qilish orqali siz talaffuz va nutq qobiliyatingizni sezilarli darajada yaxshilash mumkin. Tez aytishlarning bir nechta turlari mavjud va ularning har biri tilni rivojlantirish, talaffuzni yaxshilash va nutq apparatini mustahkamlash uchun moʻljallangan. Tez aytishlar – bu soʻzlarni tez va aniq talaffuz qilish mahoratini oʻrgatuvchi xalq ogʻzaki ijodining bir turi. Ular odatda oʻxshash tovushlar yoki soʻzlar ketma-ketligidan iborat boʻladi va talaffuz qilishda qiyinchilik tugʻdiradi. Ular ayrim nutq tovushlarining koʻp takrorlanishi yoki tovushlarning soʻz va iboralar tarkibida talaffuzni qiyinlashtiradigan darajada murakkab joylashishiga asoslanadi. Bu iboralarning tez aytish deb nomlanishi ham shundan kelib chiqqan.

ADABIYOTLAR:

1. Nabijon Ermatov. "99 topishmoq va tez aytishlar". – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi, Toshkent- 2013
2. Nurmonov A. Tanlangan asarlar II jild. – Toshkent. Akadernashr 2012 – B.171
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti: Toshkent,2020.222-bet
5. Sarah-Rose la rosophile = Gulsevar Gulsara: virelangues d'Ouzbékistan, choisis, présentés et traduits de l'ouzbek et du qaraqalpaq par Rémy Dor, Paris: L'Asiathèque – IFEAC, 2005, 15p.
6. Suggestions et compilation par Paul Sherwood (DREF, 2012)
7. Topishmoq va tez aytishlar - saviya.uz
8. www.dref.mb.ca

РОЛЬ РЕЧЕВОГО ЭТИКЕТА В РОМАНЕ М. БУЛГАКОВА «МАСТЕР И МАРГАРИТА»

Шодиева Матлуба Солеевна,
ассистент кафедры Русского языка и литературы
Узбекско-Финского педагогического института
Садуллаева Махлиё,
студентка 4 курса факультета языков
Узбекско-Финского педагогического института

Аннотация. В статье рассматривается роль речевого этикета в романе М.А. Булгакова «Мастер и Маргарита» как структурного элемента, определяющего коммуникацию персонажей и их связь с социальными и философскими пластами текста. Исследование направлено на выявление особенностей использования речевого этикета, таких как формы обращений, приветствия, выражения вежливости и стилистические приёмы, отражающие социальный статус, моральные установки и культурную принадлежность героев. Особое внимание уделено анализу двух миров произведения — советской действительности и мистической реальности — через призму речевого поведения персонажей. Делается вывод о значимости речевого этикета как средства характеристики персонажей и инструмента передачи аксиологических доминант произведения.

Ключевые слова: «Мастер и Маргарита», речевой этикет, коммуникативное поведение, аксиология, языковая личность, речевая характеристика, М.А. Булгаков.

THE ROLE OF SPEECH ETIQUETTE IN M. BULGAKOV'S NOVEL «THE MASTER AND MARGARITA»

Abstract. This article examines the role of speech etiquette in M.A. Bulgakov's novel *The Master and Margarita* as a structural element that determines the characters' communication and their connection to the social and philosophical layers of the text. The study aims to identify the peculiarities of using speech etiquette, such as forms of address, greetings, expressions of politeness, and stylistic devices reflecting the characters' social status, moral principles, and cultural affiliations. Special attention is paid to analyzing the two worlds of the novel — the Soviet reality and the mystical realm — through the prism of the characters' speech behavior. The conclusion highlights the significance of speech etiquette as a means of character portrayal and a tool for conveying the axiological dominants of the work.

Keywords: «The Master and Margarita», speech etiquette, communicative behavior, axiology, linguistic personality, speech characterization, M.A. Bulgakov.

M.A. BULGAKOVNING «USTA VA MARGARITA» ROMANIDA NUTQ ODOBI ROLI

Annotatsiya. Maqolada M.A. Bulgakovning *Usta va Margarita* romanida nutq odobining tuzilma elementi sifatidagi roli, qahramonlar o'rtasidagi muloqotni belgilovchi va matnning ijtimoiy hamda falsafiy qatlamlari bilan bog'laydigan omil sifatidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda murojaat shakllari, salomlashuvlar, xushmuomalalik ifodalari hamda qahramonlarning ijtimoiy maqomi, axloqiy qarashlari va madaniy mansubligini aks ettiruvchi uslubiy vositalar kabi nutq odobi xususiyatlari o'rganiladi. Roman qahramonlarining nutqiy xatti-harakatlari prizmasida asardagi ikki olam — sovet voqeligi va mistik haqiqat — tahliliga alohida e'tibor qaratiladi. Nutq odobining qahramonlarni xarakterlash vositasi va asarning aksiologik dominantlarini yetkazish instrumenti sifatidagi ahamiyati haqida xulosalar qilinadi.

Kalit so'zlar: *Usta va Margarita*, nutq odobi, kommunikativ xatti-harakat, aksiologiya, lingvistik shaxs, nutqiy tavsif, M.A. Bulgakov.

Введение. В романе М.А. Булгакова «Мастер и Маргарита» речевой этикет выступает важным компонентом, обеспечивающим коммуникативное взаимодействие персонажей, отражающим их социально-культурную идентичность и мировоззренческие позиции. Языковая структура произведения демонстрирует разнообразие средств речевого этикета, интегрированных в сюжетные линии, что делает его анализ значимым для выявления художественных и аксиологических особенностей текста.

Речевой этикет в романе выполняет не только коммуникативную функцию, но и служит инструментом формирования образов персонажей, их психологической характеристики и принадлежности к различным социальным, историческим и культурным контекстам. Его использование в произведении подчёркивает символический дуализм повествования, противопоставляющий советскую действительность и мифологическое пространство.

Настоящее исследование направлено на выявление форм и функций речевого этикета в тексте романа, изучение его роли в создании языковых портретов персонажей, а также его взаимодействия с аксиологическими доминантами произведения. Анализ речевого поведения героев позволит уточнить, каким образом Булгаков использует речевой этикет как художественное средство для выражения ключевых философских и социальных идей.

Литературный обзор. Речевой этикет в романе М.А. Булгакова «Мастер и Маргарита» представляет собой неотъемлемую часть языковой структуры произведения и выполняет ключевую роль в характеристике персонажей. Исследования показывают, что речевой этикет героев определяет их социальный статус, культурную идентичность, а также принадлежность к различным идеологическим и мировоззренческим системам [1]. В романе языковое поведение персонажей реализуется через сложную систему коммуникативных стратегий, включающих элементы стилистического многообразия, тональные и аксиологические оттенки речи [2].

Анализ речевого поведения Воланда демонстрирует сочетание архаичных элементов, книжной лексики и разговорных оборотов, что подчёркивает его амбивалентную природу как представителя высшей справедливости и насмешливого наблюдателя над миром. Его речь характеризуется изысканным синтаксисом, что контрастирует с просторечием и клише советских персонажей, таких как Берлиоз и Лиходеев [3]. Эти контрасты создают яркую языковую дифференциацию, служащую художественным инструментом для противопоставления советской реальности и мистического мира [4].

Особенности речевого этикета Иешуа Га-Ноцри заключаются в использовании литературной, чистой речи с акцентом на философские и этические аспекты. Постоянное употребление эпитетов с позитивной коннотацией, таких как «добрый», отражает его аксиологическую приверженность идеалам добра и истины. Взаимодействие Иешуа с Понтием Пилатом, напротив, демонстрирует противоположные речевые стратегии: речь Пилата содержит элементы властной манипуляции и стилистической жесткости, что подчёркивает его моральные и социальные сомнения [5].

Shellining "*Hellasga muqaddima*" asari Islom va musulmonlarni masxara qiluvchi davrning yana bir she'riy dramasi sifatida qaraladi. Shoirga o'sha davrdagi ba'zi shoirlar va noshirlar Turkiya va Gretsiya o'rtasida davom etayotgan urush haqida she'r yozishni tavsiya qilishgan edi. Shu tavsiyalar natijasida Shelli ushbu asarni yaratdi. She'r 1821-yilda Italiyaning Piza shahrida yozilib, 1822-yilda Angliyaga nashr etish uchun yuborildi. Shoir o'zi ajablanib, she'r nashr etilishi bilan katta tanqidga uchraganini ta'kidladi va "[u] yagona 'echki qo'shig'i" sifatida baholandi.[2;38]

Shoir she'r so'zida yunonlar "turk zolim"ga qarshi urushda ko'rsatgan jasorat va qo'rqmaslik haqida fikr yuritib, bu urushda Yunonistonni qo'llab-quvvatlash butun Yevropaning burchi ekanligini ta'kidlaydi; u salib yurishlari paytida da'vo qilinganiga o'xshash "muqaddas ittifoq" ga chaqiradi. U hatto "Biz hammamiz yunonlarmiz. Bizning qonunlarimiz, adabiyotimiz, dinimiz va san'atimiz Yunonistonda ildiz otgan" deya ta'kidlaydi. Shoirning ta'kidlashicha, u yoki bu tarzda turklarga hamdard bo'lish vatanga xiyonat va jinoyatdir, "bir davlat o'z nomiga dog' tushiradigan o'chmas dog'", chunki u "umumiy dushman" deb atagan turklar "xalqning dushmani"dir.

Yarim oy islomni anglatadi; Musulmonlar oy taqvimiga amal qilishadi. Yarim oyni to'ldirish, dunyoni zabt etish va butun yer yuzida islom dinini yoyish demakdir, shunda yarim oy to'lin oyga aylanadi. Bu, shoirning fikricha, islomning dunyodagi umumiy hukmronligini ifodalaydi. Shoir ta'kidlaganidek, musulmonlar nasroniylarni mushrik bo'lganliklari uchun mag'lub etishga va ularni tor-mor etishga da'vat etadilar:

Wake, thou Word
Of God, and from the throne of Destiny
Even to the utmost limit of thy way
May Triumph

... ..

Be thou a curse on them whose creed
Divides and multiplies the most high God (Frowde 550-1).

Shelli Islom va musulmonlarning nasroniylik va nasroniylar haqidagi tushunchalarini agressiv dushman sifatida ochib berishga harakat qiladi.

Ushbu maqolada muhokama qilingan she'rlarning aksariyati 1801-1822 yillar oralig'ida nashr etilgan. O'sha davr ingliz adabiyotida bir-biriga o'xshash ayrim umumiy jihatlar mavjudligi tashqi tomondan seziladi. Darhaqiqat, ingliz shoirlari o'zaro o'xshash tarzda Sharq haqidagi she'rlarni yozish intilishgan va bu jarayonning natijasida Islom va musulmonlarga nisbatan ko'plab buzilgan tasavvurlar paydo bo'lgan. Ingliz sharqshunos she'riyatining shakllanishi, asosan, islom va musulmonlar haqidagi noto'g'ri ma'lumotlar, asossiz ayblovlar va stereotiplarga asoslanadi. Bu o'z navbatida Sharq va G'arb o'rtasida hal etib bo'lmaydigan tafovutlar yaratishga hissa qo'shgan. XIX asrda, ko'plab ingliz kitobxonlari, o'sha davr shoirlarining ko'zlari orqali Islom madaniyatini talqin qishdi. Ularning aksariyati Islom haqidagi tasavvurlarini, haqiqiy tajribaga ega bo'lmasdan, o'qish yoki boshqa adabiyot namunalardan, masalan, Marlning "Buyuk Tamburlaine" asaridan olingan ma'lumotlar asosida shakllantirgan.

Xulosa va takliflar. Sauti, Bayron, Shelli, Kolerij va boshqa davr shoirlarining sharqshunos she'riyatida bir qator umumiy xususiyatlar mavjud. Bu xususiyatlar, asosan, musulmon erkaklar va ayollarning kamsituvchi tarzda tasvirlanishi, nasroniy evropaliklar esa, qahramon sifatida, mazlum ayollarni ozod qilish va yovuz musulmonlarni mag'lub etish uchun kurashishga tayyor, olijanob shaxslar sifatida

LITERARY CRITICISM

tasvirlanadi. Islom esa ko‘pincha xurofotga asoslangan din sifatida taqdim etilib, musulmonlar aqlsiz odamlar, yolg‘onchilar sifatida ko‘rsatilgan.

Shunday qilib, XIX asr ingliz adabiyotida Islomning xurofiy va yolg‘on aqidalariga asoslangan, musulmonlarni esa madaniyati past va jaholatga botgan xalq sifatida tasvirlash tendensiyasi kuchaygan. Bu esa, Sharq haqidagi umumiy tasavvurlarni yanada buzib, uning haqiqiy mohiyatini noto‘g‘ri ko‘rsatishga olib kelgan.

ADABIYOTLAR:

1. Byron, G. (1813). *The Giaour and Other Poems*. London: Thomas Davison.
2. Delphi Classics. *Percy Bysshe Shelley: Complete Works*. Sussex, 2013.
3. Galt, John. *The Complete Works of Lord Byron*. Paris: Baudry’s European Library, 1973.
4. “*Giaour*.” *The American Heritage College Dictionary. Third Edition*. New York: Houghton Mifflin Company, 1993.
5. Shelley, P. B. (1818). *Alastor, or The Spirit of Solitude*. London: Baldwin, Cradock, and Joy.
6. Said, E. (1978). *Orientalism*. New York: Pantheon Books.
7. Stevenson, Allan H. *A Study of the Roderick Legend in English Poetry by Scott, Landor and Southey*. 1926. Texas: Houston. M. A. Dissertation.

AYRIM MAQOLLAR EVOLYUTSIYASIDA “ZARBULMASAL” MAQOLLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Kodirova Saodat Abduraximovna,

Navoiy davlat universiteti dotsenti, f.f.f.d (PhD)

s.a.qodirova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Zarbulmasal”dagi maqollar bugungi kunda qo‘llanayotgan maqollar evolyutsiyasiga ham xizmat qilishi, muallif tomonidan shakliy o‘zgarish kiritilgan maqollar hamda o‘zgartirishsiz – qo‘shirnoqqa olingan holda qo‘llangan xalq maqollari tahlili ochib berilgan. Asarning yozilishidan kelib chiqadigan maqsad ko‘p hollarda maqollarni aynan qo‘llash yondashuvini qo‘llab-quvvatlash, ayrim o‘rinlarda hali maqol sifatida shakllanmagan, ammo xalq orasida uning tajribasi, donoligi namunasi sifatida turli ko‘rinishda ishlatilib kelinayotgan birliklar muallifning fikri sifatida keltirilgan. Shunday birliklar bugungi kundagi qator maqollarning shakllanishiga asos ekanligi o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: asar, maqol, syujet, mazmun, fikr, xarakter, hikoya, dialog.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПОСЛОВИЦ «ЗАРБУЛМАСАЛ» В ЭВОЛЮЦИИ НЕКОТОРЫХ ПОСЛОВИЦ

Аннотация. В данной статье раскрывается, как пословицы из «Зарбулмасал» способствуют эволюции пословиц, используемых в наши дни. Анализируются пословицы с формальными изменениями, внесёнными автором, а также народные пословицы, используемые без изменений - в кавычках. Цель, вытекающая из написания произведения, во многих случаях поддерживает подход точного использования пословиц. Однако в некоторых местах единицы, ещё не сформировавшиеся как пословицы, но используемые в различных формах среди народа как пример его опыта и мудрости, представлены как мнение автора. Показано, что такие единицы служат основой для формирования ряда современных пословиц.

Ключевые слова: произведение, пословица, сюжет, содержание, мысль, характер, рассказ, диалог.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE PROVERBS OF «ZARBULMASAL» IN THE EVOLUTION OF CERTAIN PROVERBS

Abstract. This article reveals that the proverbs in “Zarbulmasal” serve the evolution of proverbs used today, the analysis of proverbs changed by the author, and folk proverbs used without change - in quotation marks. If the purpose of writing the work supports in many cases the approach of using proverbs, then in some places there are units that have not yet been formed as proverbs, but are used by the people in various forms as examples of their experience and wisdom, and are presented as the opinion of the author. Such units today are the basis for the formation of a number of proverbs.

Keywords: work (written work), proverb, plot (subject), content (meaning), idea, character (manner), hero, moral story, dialogue.

Kirish. Ta’kidlash joizki, hadislar maqollarning paydo bo’lishi va taraqqiyotida ma’lum darajada ta’sir ko’rsatgan. Aniqrog‘i, hadislar jonli so‘zlashuv jarayonida qayta ishlanib, yanada ixchamlashib, obrazlilik kasb etgan holda xilma-xil maqollar shaklida faolroq qo‘llana boshlagan. Masalan, Abdulloh ibn Umardan rivoyat qilinadigan “Alloh Taoloning rozi bo’lishi otaning rozi bo’lishiga va uning g‘azabi ham otaning g‘azabiga bog‘liqdir” hadisi mavjud. U xalq ijodida “Ota rozi-xudo rozi”, “Ota oldida kek urma, odobingga chek urma”, “Ota oldidan o‘tma, odob oldidan ketma”, “Ota o‘g‘li bo‘lsang – ota nomini baland tut” singari o‘nlab maqollarning yuzaga kelishiga turtki bo‘lgan.

Xalqimizda “Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo‘lar chiroylik”. Qur’oni Karimda Baqara surasining 172-oyatida “Ey iymon keltirganlar! Allohgagina ibodat qiluvchi bo‘lsangiz, sizlarga Biz rizq qilib bergan pokiza narsalardan yeb, Unga shukr qilingiz” deb yozilgan. Demak, mehnatimiz halollik asosida bo‘lishi, pokizalik mezonida o‘lchanishi kerak.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. “Zarbulmasal”ning qo'lyozma va nashr nusxalari va asardagi maqollarning tadrijiy takomilini ilmiy tadqiq etishdan iborat. Tadqiqot mavzusini yoritishda analitik, qiyosiy-tipologik, tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. B.Jo'rayeva o'zbek xalq maqollarini intralingvistik birliklar yordamida shakllangan 6 ta guruhga ajratgan:

- a) iboralar asosida shakllangan maqollar: sanamay sakkiz demaslik – sanamay sakkiz dema;
- b) folklor janrlari asosida shakllangan maqollar;
- d) e'tiqodiy tushunchalar asosida shakllangan maqollar;
- f) xalq umidlari asosida shakllangan maqollar;
- s) xalq o'yinlari asosida shakllangan maqollar;
- e) hadislar asosida shakllangan maqollar [4; b. 17-20].

Imom Buxoriy rivoyat qilgan hadisda Payg'ambarimiz (s.a.v.) shunday deganlar: “Kimki tilanchilik qilishdan saqlanish, oilasini boqish va qo'ni-qo'shnilariga muruvvat qilish maqsadida halol yo'l bilan rizq topish bilan mashg'ul bo'lsa, qiyomat kumida u Alloh taolaga yuzi to'lin oydek yorug' bo'lgan holda boradi”.

Aytish mumkinki, “Zarbulmasal”dagi mehnatsevarlik haqida maqollarning shakllanishi Qur'oni karim va hadisi sharifga borib taqaladi.

Maqollar evolyutsiyasida yozma adabiyotning o'rni haqidagi tadqiqotida Y.Rahmatov shunday yozadi: “Maqollar – inson tafakkurini asrdan asrga olib o'tuvchi mukammal nodir axborot vositasi. Shunday bo'lsa-da, ular ham zamon va makon ta'sirida evolyutsion tadrijni boshdan kechiradi. Maqollar bir kunda yoki bir necha oyda shakllanib qolmaydi. Ommaning ibratli so'zi maqol darajasiga yetishi uchun kattagina davrni o'tamog'i, xalq tafakkurida yetilmog'i, ham shaklan, ham ma'nan takomillashmog'i lozim. Xalq maqollari davrlar o'tishi bilan shakli va mazmunini qisman o'zgartirib, yangi davr til xususiyatiga moslashadi va takomillasha boradi. Xalq maqollarining shakllangan davri noaniq, biroq ular ijtimoiy-ruhiy hodisa: til, tafakkurning paydo bo'lishi bilan teppa-tengdir. Negaki inson olam va borliq haqida fikr yuritish qobiliyatiga ega bo'lishi bilanoq, o'z hayotiy tajribasi bilan o'rtoqlashgan”[2; b. 137-138] Bundan kelib chiqadiki, yozma adabiyot ayrim maqollar evolyutsiyasida muhim rol o'ynaydi.

“Folklorshunoslarning sa'y-harakati bilan o'zbek xalq maqollarining to'plangan miqdori o'ttiz mingdan ortiq. Ularning har biri o'z tarixi, o'z tadriji va takomiliga ega. Og'zaki tarzda yaratilgan hikmat durdonalari – maqollarning tarixiy ildizini aniqlashda esa bizga yozma adabiyot muhim manba sanaladi. Og'zaki ijod namunalari turli davrlarda turli sabablar bilan yozma asarlar tarkibiga kirgani barchaga ma'lum. Ayniqsa, xalq tafakkurining ixcham ifodasi sanalgan maqollar mumtoz adabiyot vakillarini doimiy ravishda ohanrabodek o'ziga jalb qilib kelgan”[4]. Mutaxassislarning ta'kidlaganidek, har bir maqolning kelib chiqish tarixi va tadriji (evolyutsiyasi) mavjud. Bu masala qisman o'zbek xalq maqollari izohi orasida ham uchraydi. Ma'lum bir maqolning kelib chiqishida qaysi afsona yoki rivoyat asos bo'lgan, yoki qaysi yozma yodgorlikda shu maqolning dastlabki ko'rinishi mavjud bo'lganligi maqollarning izohida yozilganligiga guvoh bo'lamiz.

Y.Rahmatov to'g'ri ta'kidlaganidek, “... turkiy xalqlarning eng qadimgi yozma yodgorliklari V-VIII asrga mansub toshbitiklar sanaladi. Demak, biz xalq maqollarining dastlabki namunalari izlashda shu yodgorliklar matniga tayanamiz. Biroq bu manbalarda qo'llangan maqollar individual ijodkorning badiiy tafakkurida qayta ishlangan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, toshbitiklarda qo'llangan ibratomuz fikrlarning o'sha davrda maqol sifatida qo'llanganiga ham aniq isbot mavjud emas. Shu bois toshbitiklardagi didaktik xarakterga ega ixcham fikrlarni maqollarning dastlabki namunasi sifatida qabul qilamiz”[1; b. 139] Y.Rahmatovning fikrini to'la qo'llab-quvvatlaymiz. Chunki tadqiqotchining ushbu fikrining tasdig'i boshqa monografik ishlarda ham kuzatiladi.

Iqbol Mirzo “Devonu lug'otit turk”ni monografik planda tadqiq qilar ekan [5], undagi ayrim maqollarning bugun amalda bo'lgan shaklini ko'rsatadi. Buning uchun fikrini quyidagicha dalillaydi: “Mahmud Koshg'ariy devonidan keyin adabiyotimiz tarixida, ayniqsa, badiiy adabiyotlarda ko'plab maqollardan foydalanilgan. Xususan, Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig», Adib Ahmad Yugnakiy «Hibatul-haqoyiq» asarlarida o'rni bilan maqollar singdirilgan baytlarni uchratamiz. Bu hol o'rta asr ijodkorlari asarlarida ham ko'p uchraydi.

Professor Q.Sodiqov esa qadimgi turkiy maqollarning paydo bo'lishi to'g'risida quyidagilarni aytib o'tadi: «Qadimgi turkiy maqollarning yaratilgan davri aniq emas. Mashhur allomalarimiz ularni ming yil burun qog'ozga tushirgan bo'lsa-da, ushbu maqollar asrlar qa'riga ildiz otgan. Ularning ba'zilarida yaratilgan davrining izlarini ham sezamiz. Jumladan, «Savobli ishlar qiluvchi kishi burxon bilan barobar, Diyonatsiz kishi mis tanga bilan barobar» maqoli buddizm muhitida yaratilgani tayin. Maqolda kelgan *burxon* – buddizm dinida buddadir. Ushbu maqolda «xayrli ishlar qiluvchi inson budda bilan barobardir,

diyonsiz kishining esa qadri yo'qdir», degan ma'no mujassamlashgan. Yoki «Fazilatli kishi javohirga tengdir, fazilsiz kishi etik ichidagi patakka tengdir» maqoli ham ayni muhitning hosili. Buning sababi, buddizm uchlik: budda, uning ta'limoti va jamoa muqaddas sanalgan» [1; b. 78].

Iqbol Mirzo o'z tadqiq obyektida maqollarning evolyutsiyasini quyidagicha izohlaydi: «Devonu lug'atit turk» asarida keltirilgan maqollardan katta bir qismining bugungi kunda ishlatiladigan ekvivalentlari, ya'ni muqobil variantlari bor. Masalan, *Alp yağida, alçaq çoğida*. – «Botir yov bilan to'qnashganda (olishganda), yuvosh tirishishda sinaladi» maqolini olsak, u hozirgi o'zbek tilida «Botir yovda bilinar, So'zchi – dovda» shaklida ishlatiladi» [6]. Tadqiqotchining bu kabi tahlilidan xulosa qilish mumkinki, hozirgi kunda qo'llanib kelinayotgan xalq maqollari dastlab Koshg'ariy ijodida muallifning o'z fikri sifatida ishlatilgan. Tabiiyki, bu dono xulosani yozuvchi xalq og'zidan o'rgangan hamda keyinchalik ushbu hikmat og'izdan og'izga o'tib maqol sifatida shakllangan.

Maqollarning evolyutsiyasi xususida fikr yuritar ekan, tadqiqotchi o'zgarishlarning turini ajratib ko'rsatadi, Koshg'ariy qo'llagan shakl va hozirgi qo'llanishda qanday sintaktik o'zgarishlar borligini quyidagicha ko'rsatadi: «*Keş ton orramas, keñäşlig bilig artamas*. – «Keng to'n to'zmaydi, kengashlik ish buzilmaydi». Bu maqol ishlarni bajarishda boshqalar bilan kengashish, o'zboshimchalik qilmaslikka undab aytiladi (DLT, 444). Mazkur maqolda ikki hodisa bir-biriga solishtirilmoqda. Ma'no ham shundan kelib chiqadi. Ushbu maqolning hozirgi kundagi ko'rinishi bir sostavli gap shaklida qo'llanadi: *Kengashli to'y tarqamas*. Maqolning ikkinchi «Keng to'n to'zmaydi» qismi bugunga kelib, nazarimizda o'z ahamiyatini yo'qotgan. Shuning uchun u hozir tushib qolgan. Shu bilan birga, «kengashli ish» o'rniga, «kengashli to'y» iborasi qo'llanmoqda. «Ish»ning «to'y»ga o'zgargani ham bejizga emas, inson hayoti davomida «to'y» muhim o'rin egallagan bo'lsin, uni chiroyli, go'zal qilib o'tkazish uni kengashgan holda, maslahat bilan amalga oshirish nazarda tutiladi» [1; b. 16].

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, maqollar evolyutsiyasida fonetik, leksik, morfologik, sintaktik transformatsiyalar kuzatilishi mumkin. Quyida bugungi kunda qo'llanilayotgan ayrim maqollarning evolyutsiyasida «Zarbulmasal» asaridagi fikrlarning o'rni haqida fikr yuritimiz.

Shuni ta'kidlash joizki, «Zarbulmasal» maqollarning qo'llanishi nuqtayi nazaridan boshqa yozma yodgorliklardan farq qiladi. «Devonu lug'otit turk», «Qutadg'u bilig», «Hibatul haqoyiq» kabi asarlar yoki turli she'riy asarlarda maqollarning uchrashi muallifning xalq maqolini fikrini dalillash uchun keltiradi. «Zarbulmasal» esa maqollarni to'plash maqsadi bilan yozilgan, ushbu asarda xalq maqollari ajratib ko'rsatilgan: har bir maqol qo'shtirnoqqa olingan. Bu asarning barcha nusxalariga birdek tegishli. Shu bilan birga mazkur asarda maqol sifatida ta'kidlanmagan fikrlar ham uchraydiki, ular bugungi kunda xalq maqoli sifatida e'tirof etilgan. Quyida shu fikrlardan ayrimini tahlil qilish asosida maqollarning shakllanishida «Zarbulmasal»ning o'rnini ko'rsatish mumkin bo'ladi.

Y.Rahmatov qadimgi yodgorliklarda mavjud bo'lib, keyinchalik maqolning evolyutsiyasiga xizmat qilgan birliklar xususida shunday yozadi: «Mardlik va jasorat g'oyasi barcha zamonlar uchun birdek dolzarb bo'lib kelgan. Ayniqsa, el-yurt ravnaqi va vatan yo'lidagi fidoyilik qadimgi turk xalqlari uchun alohida g'urur sanalgan. Shu bois xalq orasida el-u yurt koriga yaraydigan er yigitlarni ulug'lovchi maqollar juda ko'p uchraydi. Bunday maqollarning dastlabki namunalari qadimgi yodnomalarda ko'plab topiladi. Bitiktoshdagi «Erning kalmishi alp» – «Jangchilarning kelgani qahramondir» maqoli davriy evolyutsiyada takomillashib «Er yigitni yov ustida ko'r», «Botir yovda bilinar», «Mard maydonda sinalar», «Er boshiga ish tushsa, etik bilan suv kechar, ot boshiga ish tushsa suvliq bilan suv ichar» kabi maqollarni yuzaga keltirgan.

Odatda, tarixiy taraqqiyotning biror-bir davrida qo'llangan maqollar vaqt o'tishi bilan boshqa shaklga o'tadi. Bu tilning rivojlanishi, o'zgarishi, boshqa tillarning ta'siri natijasida sodir bo'ladi. Y.Rahmatov shundan kelib chiqib maqolning shakliy o'zgarishini maqol tarkibida bo'ladigan harf o'zgarishi; so'z o'zgarishi; so'z tushib qolishi; so'z qo'shilishi; gap qurilishining o'zgarishi kabi o'zgarishlarni nazarda tutadi.

«Zarbulmasal»dan quyidagi parchani tahlilga tortamiz:

... alqissa, onasi fahmlab aydi: «Ey bolam, ko'nglungiz er tilar o'xshar, sabr qiling, ko'b oshuqman. «Oshuqxon qiz erga borsa, yorgimas» va «teshuk to'lchoq yerda qolmas». Anda qiz itobi og'oz qilib aydi: «Ey ona, siz bizga, sabr-tahammul sari yo'l ko'rsatursiz, mani olur yigitga ham otasi ayturki, «fo'lod pichoq qinsiz qolmas», «bosh eson bo'lsa, to'ppi topilur» [1; b. 10].

Y.Rahmatovning maqollar evolyutsiyasi haqidagi fikrini nazarda tutsak, mazkur parchada so'z o'zgarishi (leksik) va tovush o'zgarishiga uchragan birliklar uchraydi. Masalan, «Oshuqxon qiz erga borsa, yorgimas» maqoli bugungi kunda «Oshiqxon qiz erga yolchimas» shaklida uchraydi. Demak, bu maqolda *oshuqxon* so'zi *oshiqqan* shaklida, *yorgimas* so'zi *yolchimas* o'zgargan; *erga borsa* birikmasi esa soddalashgan, qo'shma gap shaklidagi maqol soddaga aylangan. Asarda keltirilgan *teshuk to'lchoq*

yerda qolmas maqolidagi to'ldirish so'zi munchoq so'ziga o'zgarib, bugungi kunda mazkur maqol teshuk munchoq yerda qolmas shakliga kelgan.

Quyidagi matn tarkibida kelgan *dala-tuzni suv olsa, o'rdak, qozni to'shidin* ifodasi bugungi kunda ishlatiladigan "*Dunyoni suv bossa o'rdakning to'rig'igacha kelmaydi*" maqolining evolyutsiyasiga xizmat qilgan. Solishtiring:

Bayt: «Dala-tuzni suv olsa, o'rdak, qozni to'shidin,
Quloqsizga so'z aytsang, qulog'ini toshidin [1; b. 11].

Boshqa bir misol. *Mundin bexabar o'xsharsanki, «Cho'bni xor tutsang, ko'zga tushar»*. Maning birla so'zlashguncha borib Boyo'g'li birla so'zlashgil». *Cho'bni xor tutsang, ko'zga tushar* maqoli shaklan, mazmunan transformatsiyaga uchragan: bugun ishlatiladigan *asragan ko'zga xas tushar* maqolida xasni mensimaslik, kichik deb bilish uning ko'zga zarar yetkazishga olib kelishi ta'kidlanadi. Maqolning hozirgi versiyasida esa asralgan ko'zga urg'u beriladi. Ikkisida ham ma'no bir xil, ammo ma'no taraqqiyoti yuz bergan.

Boshqa bir kontekstni tahlil qilamiz: *Anda Yapaloqbiy aydi: «Bitar ishni keyinga solursan, magar onki mone'ul xayrga o'xsharsan. Sandin suq-husudni idi kelur»*. *Anda Ko'rqush aydi: «Aslo man xayr ishini keyinga solurim yo'q* [1; b. 12]. Bu kontekstda ifodalangan ma'nodan hozirgi kunda qo'llaniladigan "Qolgan ishga qor yog'ar" maqoli shakllangan. *Bitar ishni keyinga solursan, magar onki mone'ul xayrga o'xsharsan* gapi shaklan o'zgarib, mazmunan hozirgi davrda ishlatiladigan maqolga aylangan. *Bitar ish* birikmasi *qolgan ish* shaklini olgan, qo'shma gapning ikkinchi qismi batamom o'zgargan.

Xulosa. "... xalq maqollarining uzoq yashovchanligi va ko'p qo'llanishini e'tiborga olgan holda ularning tadrijiy taraqqiyotini ilmiy jihatdan o'rganish mumkin. Bu esa bir maqolning har bir davr yozma adabiyotida va og'zaki ijodida qay tarzda qo'llangani, xalqning va individual ijodkorning unga munosabati, badiiy va adabiy yodnomalardagi g'oyaviy-badiiy maqsadi bilan bog'liqlikda o'rganish asosida amalga oshiriladi [1; b. 143].

"Zarbulmasal" asari matnini o'rganish asosida shuni aytish mumkinki, muallif tomonidan shakli o'zgarish kiritilgan maqollar hamda o'zgartirishsiz – qo'shtirmoqqa olingan holda qo'llangan xalq maqollari uchraydi. Asarning yozilishidan kelib chiqadigan maqsad ko'p hollarda maqollarni aynan qo'llash yondashuvini qo'llab-quvvatlash, ayrim o'rinlarda hali maqol sifatida shakllanmagan, ammo xalq orasida uning tajribasi, donoligi namunasi sifatida turli ko'rinishda ishlatilib kelinayotgan birliklar muallifning fikri sifatida keltirilgan. Shunday birliklar bugungi kundagi qator maqollarning shakllanishiga asos bo'lgan deyish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: филол. фан. доктори диссер. автореферати. – Самарқанд, 2019. – 17-20-б.
2. Раҳматов Й.Ф. Мақол ва унинг ўзбек мумтоз адабиётидаги эволюцияси: Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси. – Тошкент, 2023. – 268 б. – 137-138-б.
3. Раҳматов Й.Ф. Мақол ва унинг ўзбек мумтоз адабиётидаги эволюцияси: Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси. – Тошкент, 2023. – 268 б. – 139-б.
4. Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари ва унинг наири ҳақида / Ўзбек халқ мақоллари. I том. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 7.
5. Мирзаалиев И. Қадимги туркий мақоллар семантикаси ва стилистикаси («Девону лугатит-турк» материали мисолида): Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. – 38 б.
6. Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. – Тошкент. 2006. – Б. 78.
7. Мирзаалиев И. Қадимги туркий мақоллар семантикаси ва стилистикаси («Девону лугатит-турк» материали мисолида): Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. – 38 б. – 15-б.
8. Мирзаалиев И. Қадимги туркий мақоллар семантикаси ва стилистикаси («Девону лугатит-турк» материали мисолида): Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. – 38 б. – 16-б.
9. Гулханий. Зарбулмасал. – Тошкент, "Ўқитувчи" наириёти, 1972. – 10-б.
10. Abdurakhimovna K. S. Poetics of Proverbs //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 303-307.

LITERARY CRITICISM

11. Abdurakhimovna K. S. *Main Subject way of "Zarbulmasal" //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 286-290.*
12. Kodirova S. A. *The effectiveness of the comprehensive health-saving model for university students in uzbekistan in the context of digitalization //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 120. – C. 01058.*
13. Kodirova S. *Idealistic study of proverbs //Youth, science, education: topical issues, achievements and innovations. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 45-51.*

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ПСИХОЛОГИЗМ В ТВОРЧЕСТВЕ ЖЕНЩИН-ПИСАТЕЛЬНИЦ ВИКТОРИАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Рашидова Феруза Расуловна,

доцент Наманганского государственного университета, д.ф.ф.н.

feruza.rashidova.uz@gmail.com

На основе рецензии старшего преподавателя

Ферганского государственного университета

д.ф.ф.н. Ф. Абдурахимовой

Аннотация. В данной статье рассматривается влияние женской прозы на развитие психологизма в литературе викторианской эпохи. Анализируются произведения таких авторов, как Шарлотта Бронте, Эмили Бронте, Джордж Элиот и Элизабет Гаскелл, с целью выявления специфики женского психологизма и его роли в раскрытии внутреннего мира героинь. В условиях строгих социальных норм и ограничений для женщин, писательницы того времени использовали литературу как средство выражения своих мыслей и чувств, а также для критики существующего порядка. Исследование показывает, что женский опыт и восприятие мира находят глубокое отражение в их произведениях, создавая уникальные психологические портреты героинь и исследуя темы неравенства, любви и борьбы за самостоятельность.

Ключевые слова: женская проза, психологизм, викторианская литература, Шарлотта Бронте, Эмили Бронте, Джордж Элиот, Элизабет Гаскелл, внутренний мир героинь, социальные нормы, самостоятельность.

VIKTORIAN DAVRI ADABIYOTIDA AYOL YOZUVCHILAR IJODIDA BADIY PSIXOLOGIZM

Annotatsiya. Viktoriya davri adabiyotida ayol yozuvchilari o'z asarlarda qahramonlarning ichki dunyosini chuqurroq o'rganishda badiiy psixologizmga murojaat qilganlar. Ushbu maqolada Sharlott Bronte, Emili Bronte, Jorj Eliot va Elizabet Gaskel asarlari tahlil qilinib, ularning ichki dunyolarini o'rganish uchun tarixiy-adabiy va qiyosiy-chog'ishtirma usullar ishlatilgan. Ayollar hayotidagi muammolarni va ularni jamiyatdagi o'rnini ko'rsatish uchun klassik asarlardan foydalanilgan. Natijada ayollar hayotidagi sevgi va mustaqillik uchun kurash mavzularini chuqurroq o'rganish uchun aniq imkoniyatlar yuzaga keladi.

Kalit so'zlar: ayollar nasri, psixologizm, Viktoriya adabiyoti, qahramonlarning ichki dunyosi, ijtimoiy me'yorlar, mustaqillik.

ARTISTIC PSYCHOLOGISM IN THE WORKS OF FEMALE WRITERS IN VICTORIAN ERA LITERATURE

Abstract. This article examines the influence of the female prose on the development of psychological realism in Victorian literature. Key works by Charlotte Brontë, Emily Brontë, George Eliot, and Elizabeth Gaskell are analyzed to identify the specific characteristics of female psychological realism and its role in portraying the inner lives of heroines. In the context of strict social norms and limitations for women, these authors used literature as a means to express their thoughts and feelings and critique the existing order. The study reveals that women's experiences and perceptions of the world are deeply reflected in their works, creating unique psychological portraits of heroines and exploring themes of inequality, love, and the struggle for independence.

Keywords: female prose, psychologism, Victorian literature, inner world of heroines, social norms, independence.

Введение. В викторианскую эпоху (1837–1901) женщины-писательницы стали важной частью литературного процесса, создавая произведения, которые глубоко исследуют внутренний мир их героинь. Этот период характеризуется строгими социальными нормами и ограничениями для женщин, что нашло отражение в их литературном творчестве. В данной статье мы рассмотрим, как

женский жизненный опыт и восприятие мира отражаются в литературе, а также специфику женского психологизма в викторианской литературе.

Викторианская эпоха была временем значительных социальных и культурных изменений, которые оказали огромное влияние на жизнь и творчество женщин. Писательницы того времени использовали литературу как средство выражения своих мыслей и чувств, а также для критики существующего порядка. Особое внимание они уделяли психологическим портретам персонажей и их внутреннему миру [1]. Например, Шарлотта Бронте в "Джейн Эйр" показывает, как главная героиня сталкивается с множеством препятствий на пути к самоопределению и счастью. Её внутренний монолог и символика позволяют читателю глубже понять её эмоциональные состояния [2].

Целью данной статьи является анализ женского психологизма в прозе женщин-писательниц викторианской эпохи, с акцентом на произведения Шарлотты Бронте, Эмили Бронте, Джордж Элиот и Элизабет Гаскелл. Эти авторы были выбраны за их значительный вклад в развитие психологизма в литературе [1]. Мы стремимся выявить, как женский опыт и восприятие мира находят отражение в их произведениях, создавая уникальные психологические портреты героинь и исследуя темы неравенства, любви и борьбы за самостоятельность.

Литературный обзор. Губар и Гилберт анализируют роль женщины-писательницы в викторианскую эпоху и её влияние на развитие психологизма. Они исследуют образ "сумасшедшей женщины" в чердаке как метафору угнетения и внутренних конфликтов женщин того времени. Это позволяет глубже понять, как социальные ограничения и давление общества влияли на творчество женщин-писательниц. Важно отметить, что их работа подчеркивает не только психологическое состояние героинь, но и самих авторов, которые использовали свои произведения для выражения личных переживаний и борьбы за равенство.

Армстронг рассматривает развитие женского психологизма через призму домашнего романа. Она показывает, как женщины-писательницы использовали литературу для выражения своих мыслей и чувств, а также для критики существующего порядка. Этот подход позволяет лучше понять, как женщины того времени воспринимали и реагировали на социальные нормы и ограничения [3]. Армстронг делает акцент на том, что домашний роман стал платформой для выражения женских переживаний и стремлений к независимости, что является значимым вкладом в изучение женского психологизма.

Шоултер анализирует произведения британских женщин-писательниц, включая Шарлотту Бронте и Джордж Элиот, и показывает, как они создавали уникальные психологические портреты своих героинь, исследуя их внутренний мир и борьбу за самостоятельность [4]. Её работа подчеркивает важность исследования женского опыта и его отражения в литературе. Шоултер справедливо указывает на то, что эти произведения предоставляют ценные инсайты в жизнь и переживания женщин того времени, что делает их особенно ценными для современных исследователей.

Брантлингер рассматривает контекст колониализма и его влияние на женское творчество в викторианскую эпоху. Это помогает лучше понять социальные условия, в которых жили и работали женщины-писательницы. Его анализ показывает, что колониализм и империализм оказывали значительное влияние на восприятие мира женщинами того времени [5]. Однако стоит отметить, что некоторые аспекты его работы могут быть дополнены более детальным рассмотрением взаимосвязи между колониализмом и женским психологизмом.

Иглтон собрала ключевые тексты по феминистской литературной теории, включая работы, посвященные анализу женского психологизма в произведениях викторианских писательниц. Её антология представляет собой важный ресурс для исследователей, поскольку она объединяет разные точки зрения и подходы к изучению женского опыта [6]. Иглтон подчеркивает необходимость комплексного подхода к анализу женского психологизма, что позволяет глубже понять сложности внутреннего мира героинь.

Настоящее исследование основано на предыдущих работах и стремится дополнить их новыми знаниями. Мы анализируем произведения Шарлотты Бронте, Эмили Бронте, Джордж Элиот и Элизабет Гаскелл с целью выявления специфики женского психологизма и его роли в раскрытии внутреннего мира героинь. Особое внимание уделяется тому, как женский опыт и восприятие мира находят глубокое отражение в их произведениях, создавая уникальные психологические портреты героинь и исследуя темы неравенства, любви и борьбы за самостоятельность.

Методология исследования. Для анализа женского психологизма в прозе женщин-писательниц викторианской эпохи были использованы методы историко-литературного и

сравнительно-сопоставительного анализа. Исследование основывается на анализе ключевых произведений Шарлотты Бронте, Эмили Бронте, Джордж Элиот и Элизабет Гаскелл. Эти авторы были выбраны за их значительный вклад в развитие психологизма в литературе [1].

Источники для исследования включают оригинальные тексты произведений, такие как *Jane Eyre* Шарлотты Бронте, *Wuthering Heights* Эмили Бронте, *The Mill on the Floss* Джордж Элиот и *North and South* Элизабет Гаскелл (Brontë, *Jane Eyre*; Brontë, *Wuthering Heights*; Eliot; Gaskell). Вторичная литература по теме включает монографии и статьи в научных журналах, которые предоставляют контекст для анализа и интерпретации данных произведений.

Методологический подход включает детальный анализ текстов с акцентом на внутренние переживания и конфликты героинь, а также контекст их создания и восприятия современниками. Например, анализ романа Шарлотты Бронте "Джейн Эйр" позволяет исследовать, как главная героиня сталкивается с множеством препятствий на пути к самоопределению и счастью. Её внутренний монолог и символика позволяют читателю глубже понять её эмоциональные состояния[2].

Аналогично, в романе Эмили Бронте "Грозовой перевал" создаются сложные психологические портреты героев. Автор исследует их внутренние страдания и противоречия, используя символы и метафоры. Кэтрин и Хитклиф испытывают глубокие внутренние конфликты, которые движут сюжет и развитие их характеров [7].

Джордж Элиот в "Мельнице на Флоссе" анализирует внутренние переживания Мэгги Туллайвер, её стремление к свободе и самореализации в условиях строгих социальных норм. Автор использует психологические конфликты для развития характера героини, показывая её внутренние противоречия и борьбу за самостоятельность[8].

Элизабет Гаскелл в "Север и Юг" исследует внутренние переживания Маргарет Хейл, её борьбу за справедливость и отношения с различными персонажами. Автор использует символизм и внутренний монолог для передачи эмоциональных состояний героини, показывая, как она справляется с трудностями и преодолевает внутренние конфликты[9]. Таким образом, методология исследования включает комплексный подход, сочетающий анализ первоисточников с использованием вторичной литературы для более полного понимания женского психологизма в викторианской литературе.

Анализ и результаты. Женские переживания и восприятие мира часто находят отражение в произведениях женщин-писательниц викторианской эпохи. Эти авторы активно исследуют темы, связанные с ролью женщины в обществе, её стремлением к самостоятельности и борьбой за свои права.

Шарлотта Бронте в романе "Джейн Эйр" показывает, как главная героиня сталкивается с множеством препятствий на пути к самоопределению и счастью. Джейн Эйр борется с социальными ограничениями и внутренними конфликтами, чтобы найти своё место в жизни. Её внутренний монолог и символика позволяют читателю глубже понять её эмоциональные состояния. Например, в одной из ключевых сцен романа Джейн говорит: "Я не могла удержаться от слёз; я была слишком угнетена, слишком одинока"[2]. Этот момент подчеркивает её внутренние страдания и одиночество, а также её стремление к свободе и независимости.

Эмили Бронте в "Грозном перевале" создаёт сложные психологические портреты своих героев. Она исследует их внутренние страдания и противоречия, используя символы и метафоры. Например, Кэтрин и Хитклиф испытывают глубокие внутренние конфликты, которые движут сюжет и развитие их характеров. В романе есть множество примеров, когда герои выражают свои внутренние переживания через природу и символы. Так, Кэтрин говорит: "Ночью мне снилось, что я блуждаю по пустыне, где нет ни одной живой души"[7]. Это высказывание отражает её внутреннее одиночество и разлад с окружающим миром.

Женский психологизм в викторианской литературе имеет ряд уникальных особенностей. Во-первых, он часто фокусируется на внутренних переживаниях и эмоциях героинь, исследуя их мечты, страхи и надежды. Во-вторых, писательницы активно используют символизм и метафоры для передачи психологических состояний героев.

Джордж Элиот в "Мельнице на Флоссе" анализирует внутренние переживания Мэгги Туллайвер, её стремление к свободе и самореализации в условиях строгих социальных норм. Автор использует психологические конфликты для развития характера героини, показывая её внутренние противоречия и борьбу за самостоятельность. Например, Мэгги говорит: "Её сердце было полным противоречий: она хотела быть свободной, но не знала, куда направиться"[8]. Это высказывание подчеркивает её внутреннюю борьбу и неуверенность в будущем.

Элизабет Гаскелл в "Север и Юг" исследует внутренние переживания Маргарет Хейл, её борьбу за справедливость и отношения с различными персонажами. Автор использует символизм и внутренний монолог для передачи эмоциональных состояний героини, показывая, как она справляется с трудностями и преодолевает внутренние конфликты. Например, Маргарет наблюдает за заводами и видит в них символ своего нового мира, полного трудностей и возможностей: "Она смотрела на заводы и видела в них символ своего нового мира, полного трудностей и возможностей"[9]. Это позволяет читателю глубже понять её внутренние переживания и стремления.

Заключение. В заключение можно сказать, что женская проза и её влияние на психологизм являются важными аспектами викторианской литературы. Произведения женщин-писательниц того времени не только раскрывают внутренний мир их героинь, но и предоставляют глубокие инсайты в социальные и культурные условия их жизни. Анализ этих работ помогает лучше понять исторический контекст и его влияние на развитие литературы.

Женский психологизм в викторианской литературе сыграл ключевую роль в развитии психологического анализа персонажей и их внутренних конфликтов. Эти произведения не только отражают личные переживания авторов, но и служат зеркалом общества того времени. Они позволяют исследователям и читателям глубже понять сложности женской психологии и социальных условий, в которых жили женщины-писательницы.

Произведения Шарлотты Бронте, Эмили Бронте, Джордж Элиот и Элизабет Гаскелл продолжают оказывать значительное влияние на современное литературоведение. Их работы стали классическими примерами психологизма и часто используются как учебные материалы для студентов и исследователей. Например, анализ романа "Джейн Эйр" позволяет изучать темы независимости и самоопределения женщин в условиях строгих социальных норм. Это делает произведения викторианских женщин-писательниц актуальными и по сей день, поскольку они затрагивают универсальные вопросы человеческого опыта и эмоций[10].

Изучение женского психологизма в викторианской литературе имеет особое значение для гендерных исследований. Писательницы того времени использовали литературу как средство выражения своих мыслей и чувств, а также для критики существующего порядка. Их произведения позволяют лучше понять роль и положение женщин в обществе, а также их стремление к самостоятельности и равенству. Например, роман "Мельница на Флоссе" Джордж Элиот исследует внутренние переживания Мэгги Туллайвер, её стремление к свободе и самореализации в условиях строгих социальных норм[8]. Этот роман показывает, как женщины того времени боролись за свои права и стремились к самореализации, что делает его важным источником для анализа исторического контекста и его влияния на развитие литературы и культуры.

Работы викторианских женщин-писательниц не только остаются важными для академических исследований, но и продолжают влиять на современную культуру. Многие из этих произведений были адаптированы для театра и кино, что подчеркивает их универсальность и актуальность. Например, роман "Грозовой перевал" Эмили Бронте был экранизирован множество раз, что свидетельствует о его глубокой психологической составляющей и способности привлекать внимание современной аудитории[3]. Кроме того, эти произведения вдохновляют современных писателей и режиссёров, которые продолжают исследовать темы, затронутые викторианскими женщинами-писательницами.

Анализ женского психологизма в викторианской литературе открывает широкие перспективы для дальнейших исследований. В частности, стоит обратить внимание на сравнительный анализ произведений разных авторов, чтобы выявить общие черты и уникальные особенности их стилей[11]. Также интерес представляют исследования влияния викторианской литературы на модернизм и постмодернизм, а также переосмысление классических произведений в современном контексте.

Таким образом, женская проза и её влияние на психологизм являются важными аспектами викторианской литературы. Произведения женщин-писательниц того времени не только раскрывают внутренний мир их героинь, но и предоставляют глубокие знания в социальных и культурных условиях их жизни. Анализ этих работ помогает лучше понять исторический контекст и его влияние на развитие литературы. Женский психологизм в викторианской литературе продолжает быть актуальным и по сей день, предоставляя ценные материалы для современных исследований в области литературоведения и психологии.

LITERARY CRITICISM

ЛИТЕРАТУРА:

1. Gilbert, Sandra M., and Susan Gubar. *The Madwoman in the Attic: The Woman Writer and the Nineteenth-Century Literary Imagination*. Yale University Press, 2000 – 34 p.
2. Brontë, Charlotte. *Jane Eyre*. Penguin Classics, 2006 - 448 p.
3. Armstrong, Nancy. *Desire and Domestic Fiction: A Political History of the Novel*. Oxford University Press, 1987- 256 p.
4. Showalter, Elaine. *A Literature of Their Own: British Women Novelists from Brontë to Lessing*. Princeton University Press, 1977.
5. Brantlinger, Patrick. *Victorian Literature and Postcolonial Studies*. Edinburgh University Press, 2010 – 240 p.
6. Eagleton, Mary. *Feminist Literary Theory: A Reader*. Blackwell Publishing, 2003 – 368 p.
7. Brontë, Emily. *Wuthering Heights*. Penguin Classics, 2003 – 342 p.
8. Eliot, George. *The Mill on the Floss*. Oxford University Press, 2008.
9. Gaskell, Elizabeth. *North and South*. Penguin Classics, 2003 – 512 p.
10. Rashidova, F. *Artistic psychologism as a general problem in the literature of the Victorian Era*. *Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika*, 2024.
11. Rashidova, F. *Artistic psychology in the image of Ch.Bronte's works*. *Namangan State University Bulletin*, 2024

КЛЮЧЕВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТСКИХ ИГР УЗБЕКСКОГО НАРОДА

*Ахмедова Камила Алимовна,
докторант I курса факультета литературоведения
Ферганского государственного университета*

Аннотация. Узбекский детский игровой фольклор включает в себя разнообразные формы и жанры, которые передаются из поколения в поколение, сохраняя при этом уникальные черты и особенности, присущие узбекскому народу. В данной статье мы стремимся глубже понять особенности узбекского детского игрового фольклора, а также его эстетическую функцию.

Ключевые слова: детский игровой фольклор, особенности игрового фольклора, эстетическая функция игрового фольклора, народные игры.

O‘ZBEK XALQ BOLALAR O‘YININING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. O‘zbek bolalar o‘yin folklori o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan o‘ziga xoslik va xususiyatlarni saqlagan holda avloddan avlodga o‘tib kelayotgan xilma-xil shakl va janrlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada o‘zbek bolalar o‘yin folklorining o‘ziga xos xususiyatlari hamda estetik vazifasini chuqurroq anglashga harakat qilinadi..

Kalit so‘zlar: bolalar o‘yin folklori, o‘yin folklori xususiyatlari, o‘yin folklorining estetik vazifasi, xalq o‘yinlari.

KEY FEATURES OF CHILDREN'S GAMES OF THE UZBEK PEOPLE

Abstract. Uzbek children's game folklore includes a variety of forms and genres that are passed down from generation to generation, while preserving the unique features and peculiarities inherent in the Uzbek people. In this article, we strive to better understand the features of Uzbek children's game folklore, as well as its aesthetic function.

Keywords: children's game folklore, features of game folklore, aesthetic function of game folklore, folk games.

Введение. Узбекский детский игровой фольклор представляет собой богатое и разнообразное явление, включающее в себя множество игр и различных форм игрового взаимодействия. Ключевыми элементами узбекских детских игр являются как традиционные, так и образовательные формы, способствующие развитию детей. Одним из наиболее известных примеров являются народные игры «чиллак» и «кураш», каждая из которых имеет свои уникальные особенности и воспитательную направленность. «Чиллак» представляет собой игру с элементами соревнования, укрепляющую физическую подготовку детей, тогда как «кураш» является традиционным боевым искусством, где важны не только физические навыки, но и стратегическое мышление. Эти игры формируют любовь к родной культуре и помогают детям развивать важные физические и социальные навыки [3].

Основная часть. Исторический контекст узбекских игр уходит в глубокое прошлое, показывая, как они развивались на протяжении веков. Национальные игры восходят к эпохе до нашей эры, когда они были частью богатого культурного наследия племени саков. Игры не только развлекали, но и выполняли функции воспитания, что подчеркивает их значимость в формировании культурного самосознания подрастающего поколения. Они служили не только развлечением, но и способом передачи знаний и навыков от поколения к поколению [4].

Воспитательная функция узбекских детских игр очевидна. Они стали важным инструментом для формирования нравственных и эстетических ценностей. Например, через игры дети учатся сотрудничеству, честности и уважению к другим, что способствует их гармоничному развитию в обществе. Воспитательные элементы присутствуют как в содержании, так и в правилах игр. Это делает их не только увлекательно, но и полезно [5]. Подобная функция является ключевой в процессе социализации, где через активное участие в играх происходит взаимодействие между детьми, формируются социальные навыки и эмоциональный интеллект.

Разнообразие узбекских детских игр можно разбить на несколько категорий. Существует несколько типов игр: традиционные, дидактические и воспитательные. Традиционные игры, такие как «санама» (узбекская версия считалки), занимают особое место в культурной идентичности и обеспечивают связь с наследием. Этот тип игр имеет несколько аналоговых названий в других культурах, что подтверждает распространенность модели считалок в различных народностях, однако содержание и форма остаются специфичными для узбекского народа [1].

Дидактические игры, направленные на обучение и развитие навыков, играют важную роль в формировании у детей способности решать проблемы и развивать креативность. Эти игры часто включают в себя элементы соревнования и сотрудничества, что делает их привлекательными и обучающими одновременно. Они могут быть использованы как в образовательных учреждениях, так и в домашних условиях, что позволяет расширять кругозор и увеличить уровень знаний детей, преодолевая границы за пределами игровой среды [2].

Классификация узбекского детского фольклора и игровых форм остается сложной задачей из-за великого многообразия. Безусловно, необходимо дальнейшее изучение и классификация детских игр узбекского народа, чтобы лучше понять их культурное значение и роль в воспитании. Существующий спектр жанров включает в себя народные, дидактические, развивающие и спортивные игры, которые можно разделить по тематическим и функциональным основаниям. Это усовершенствование классификации позволит глубже исследовать и сохранять эти бесценные культурные наследия [3][1].

Игровой фольклор обладает многими эстетическими функциями, которые выражаются через узбекские детские игры. Эти игры не только развлекают детей, но и становятся важным средством воспитания, формируя моральные и этические качества, такие как коллективизм, настойчивость и эмоциональную выразительность. Узбекские национальные игры, такие как "Санама", демонстрируют, как через элементы фольклора можно передавать культурные ценности и традиции подрастающему поколению [3].

Физическое развитие детей играет значительную роль в процессе воспитания. Узбекские национальные игры активизируют физическую активность и помогают развивать координацию, ловкость и силу. Например, игры "Кураш" и "Чиллак" не только способствуют физическому развитию, но и формируют командный дух, что важно для социального взаимодействия в коллективе [4]. В таких играх дети учатся работать в команде, что подготавливает их к будущим социальным ролям и взаимодействию в обществе.

Музыка также занимает центральное положение в узбекских игровых традициях. Напевы и ритмичные мелодии позволяют увеличить эмоциональную вовлеченность детей в процесс игры, а также формируют патриотизм и привязанность к культуре. Музыкальное сопровождение создает определенное настроение и атмосферу, пропитывая игры культурными символами и значениями. Это, в свою очередь, способствует более глубокой интеграции детей в культурный контекст своей страны [1].

Эстетическая функция узбекских детских игр проявляется и в образах, которые ассоциируются с играми. В узбекских играх фигурируют персонажи и образы животных, которые не только развлекают, но и учат детей различным моральным урокам. Например, образы волка и зайца могут служить символами хитрости и осторожности соответственно, что помогает детям понять базовые социальные ценности. В процессе игры они учатся различать добро и зло, что важно для их морального воспитания [6].

Эстетические функции узбекских игр затрагивают и развитие креативности и находчивости. В рамках игры "Санама" дети используют воображение для создания различных игровых ситуаций, что развивает их индивидуальность и способность к решению проблем. Это подтверждает, что детские игры – это не просто времяпровождение, а сложные культурные конструкции, формирующие личность [5].

Tadqiqot metodologiyasi. XX asrning 60-yillaridan boshlangan yozma manbalarni kompravistikaning bosh sohalaridan bo'lgan qiyosiy- xrologik usulda o'rganish uning shaxsiga bo'lgan munosabatlarning bir qadar ijobiylashuviga asos vazifasini bajardi. Afsuski, 1970 yilda Amir Temur shaxsi rasmiy qoralanishi, I.Mo'minov faoliyati esa o'tmishni ideallashtirish deya baholanishi bu boradagi faoliyatlarni bir qadar "muzlash"ga sabab bo'ldi. Amir Temur shaxsi va faoliyatini qora sahifalarga kiritishda M.Abduraimov va M.Vahobovlar kabi mafkura qullarining A.P.Novoseljev bilan birgalikdagi chiqishlari ta'siri sezildi. Buning oqibatida, keyingi o'n yillikda biror maqola ham chop etilmadi[2;23]. 1980-yillarga kelibgina, bu ta'qiqqlar biroz yumshab, Temur va Temuriylar saltanatiga oid ba'zi yozma manbalar tarjima qilinib, Fosix Hafoviyning "Mujmali Fosixiy", Abdurazzoq Samarqandiyning "Mat'la as-sadayin", Temur tuzuklari (fors tilidan Alixonto'ra Sog'unuy va H.Karomatovlar tarjimasini), S.Toshkandiy "Temurnoma, Amir Temur ko'ragon jangnomasi", X.Vamberi "Buxoro yohud Movarounnaxr tarixi" asarlari nashr etishga muvaffaq bo'lindi.[3;25] 1967-yilda nashr etilgan "Tuzuku Temuriy"ning xatoliklari tuzatilib, nashr etildi. H.Karomatov o'z tadqiqotlarida "Temur tuzuklari"ning O'zRFA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan Kalkutta, 1785 Tehron, 1968 Bombay, 1890-yilgi nashrlarini Alixonto'ra Sog'unuy tarjimasini bilan qiyosiy tadqiq etdi.[4;58] Tuzuklar qayta o'rganilib, tabdil qilinib, 1991-yil B. Ahmedov ilmiy izohlari bilan nashr etildi. 1996-yilda esa ushbu nashr asosida asar o'zbek, ingliz va fransuz tillariga tarjimalari bilan nashr etildi. 1999-yilda rus tilida Forsiy asl matni bilan, 2005-yilda esa to'liq holatda chop etildi. Keyinchalik, esa ushbu asarning Sank Peterburg qo'lyozmasi asosida, o'zbekcha matni tayyorlanib, Yazdiyning "Zafarnoma" asari tanqidiy matnidan foydalangan holda, H.Karomatov tomonidan "Zafar yo'li" nomi bilan qayta nashr etildi.

Ushbu asarni shuningdek, ilmiy tadqiq etish masalasida uning asl turkiy matni topilmagani, asar yozilish yillari to'g'risidagi turli qarashlarning ilgari surilishiga olib keldi. Xatto, ushbu asar muallifiga nisbatan ham ikkilanishlar kuzatilgani, B.Ahmedov tomonidan "asar muallifi ma'lum emas, asarda Amir Temur shaxsi ko'p jihatdan ideallashtiriladi[5;7]" deya ilk munosabatlar bildirilgan edi. Ammo, besh yildan so'nggina olim ushbu asarni Sh.Yazdiy, N.Shomiy asarlaridagi ma'lumotlarga tayanib, bu asar Amir Temur qalamiga mansub asar ekanligini dalillar bilan keltirib, uning muallifi mubolag'asiz Sohibqiron ekanligini yozadi. Bu ma'lumot esa keyinchalik D.Yusupova hamda R.Jalilova tomonidan, B.Ahmedov va H.Bobobekovlar tomonidan kotiblarga aytib yozdirilgan deya to'ldirilsa, O.Bo'riyev asardagi atamalarning kelib chiqishi XVI-XVII asrlarga to'g'ri kelishini, asarning yozilishi esa Amir Temur davridan ancha keyin yozilishi haqidagi mulohazalarini ilgari suradi. H.Bobobekov, H.Boboyev va A.Quranboyevlar ushbu asar K.Xorazmiy to'ldirgan "Qissayi Temur" asarining to'liq nusxasi sanaladi deya tahmin qilishdi.[6;136] Ushbu asarning fanda "Tuzuku Temuriy", "Temur tuzuklari", "Malfuzoti Temuriy" (Temurning aytganlari), "Voqeoti Temuriy", (Temur haqidagi voqealar) kabi o'nlab nomlari mavjud. Bizga ma'lum qo'lyozmalarining eng avvali XV asrlarda yaratilgan degan xulosalar berilgan Boburiy hukmdor Shohjahon davriga oid. Adabiyotshunos olim U.Uvatov bu asar haqida livanlik olim Mazhar Shihob ma'lumotlariga tayangan holda, 1616-yilda hajga kelgan Abu Tolib al-Xusayniy "Tuzuklarning" asl turkiy nusxasini qo'lga kiritganini yozadi. Bu asar davrlar osha Komil Xorazmiy tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan.[7]

"Tuzuklar" muallifi bahsida H.Karomatovning qarashlari ham mavjud: Olim ushbu asarni mustaqil bitik deya hisoblab, u Darvesh Ali Buxoriyning Sh. Ali Yazdiy "Zafarnoma"si asosida yaratilganini, "Malfuzoti Temuriy" nomli asarning nusxasi ekanligini ilgari suradi. Demak, olim fikricha, bu asar muallifi Afzal Buxoriy ismli olim. Bu ma'lumotlarni O.Bo'riyev ham tasdiqlaydi. Bu olimlarning fikri xulosasida, ushbu asarning asl turkiy nusxasini izlab topish, mukammal tanqidiy matni yaratish va qiyoslashgina ushbu masalaga oydinlik kiritish taklifi bilan cheklanamiz.

Amir Temur haqida bitilgan manbalar qatorida Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari ham qimmatli ma'lumotlar jamlanmasi deya e'tirof etiladi. Uning "Zafarnomayi Temuriy", "Tarixi shahonkushoyi Temuriy", "Fatxonmayi Temuriy" nomlari mashhur bo'lsa, muallifni Alisher Navoiy "sharaf ul millat va din" edi deya ta'rif keltiradi. Asarni o'zbekchalashtirgan olim Darvesh Ali Buxoriy, turkiylashtirgan esa Ahmad al-Ajamiy edi. O'zbek tilida qayta tarjima ishi shuningdek, XIX asrda Xudayberdi ibn Qushmuhammad tomonidan Xivada amalga oshirilgan. Shuningdek, asar fransuz tiliga

1722-yilda Parijda, 1723-yilda Londonda ingliz tiliga, 1929-yilda Istanbulda turk tiliga tarjima qilinib, 1885-yilda Hindistonda, 1957-yilda Eronda eski o'zbek tilida nashr etilgan. Ushbu asar yuzasidan mustaqillik yillarida o'nlab tadqiqotlar amalga oshirilib, A.O'rinboyev tomonidan ushbu asar "Amir Temur haqida yozilgan yozma manbalar orasida aniq hujjatlariga asoslangan eng haqiqiy ishonchli manbadir[8;97]" deya ta'riflanadi. Ushbu asar Amir Temurning barcha tarjimai hollari uchun asos bo'lganligi bilan bir qatorda, Sohibqiron yashagan davr muhitini yoritishdagi ilmiy qimmatini bilan ham ajralib turadi. Uning o'zbekcha tarjimalariga asosan, T.Fayziyev, A.Muhammadjonov, B.Ahmedov, R.Mukminova, G.Pugachenkovalarning ilmiy tadqiqotlari uchun ham muhim tarixiy dalil bo'lib xizmat qildi [9]. Bu asar Ibn Arabshoh asari singari dunyo sharqshunos tarixchilari, temurshunoslari tadqiqotlari uchun ishonchli manba sifatida tan olingan, ingliz sharqshunosi E.Braun "Zafarnoma" "ko'tarinkilik va maqtov ruhida yozilgan bo'lishiga qaramay, u boshqa manbalarda uchramaydiga ajoyib faktlar, aniq sanalar, shajara va etnografik, toponimik ma'lumotlarga boy"[10;27] ekanligini ta'kidlaydi.

Amir Temur va Temuriylar davri tasavvurlarini beruvchi, qimmatli manbalardan yana biri Ibn Arabshohning "Ajoyib al maqdur fi tarixi Taymur" asari bo'lib, ushbu noma U.Uvatov tomonidan arab tilidan o'zbek tiliga tarjima qilindi va so'zboshi asosida izohlar bilan ikki nashda bosmadan chiqdi. 1436-yilda yozilgan ushbu asar garchi bir qadar salbiy qarashlar asosida bitilgani esa Amir Temurning Shom o'lkasiga yurishi chog'ida oilasi bilan Samarqandga olib kelinishi va'jidan edi deb hisoblash o'rinli. Ibn Arabshoh o'z vataniga 1408-yilda qaytguniga qadar o'zi guvoh bo'lgan voqealar haqida, eshitgan va afsonalar borasidagi tasavvurlari va xalq og'zaki ijod namunalari asosida ushbu asarini tugallaydi. Garchi muallifning shaxsiy adovati va badiiy bo'rttirish hollarini hisobga olgan holda, manbani tahliliy tanqidiy mushohada asosida o'rganish, shu bilan birgalikda, uni boshqa asarlarda uchramaydigan madaniy hayot namoyondalari va hunarmandlar to'g'risida manba sifatida qabul qilish o'rinli. Adabiyotshunos U.Uvatov bu asarda keltirilgan ko'pgina ma'lumotlar, nodir va noyobligi bilan ahamiyatli ekanligini, lekin shunga qaramay chalkashliklar, tahminiylar tahlil qilingan hollar ko'plab uchrashini aytib o'tgan.[11;165] Ta'kidlash joizki, ushbu asar Rus va G'arb davlatlari tarixchilari uchun asosiy manba sifatida foydalanilganini, asarning jahon Temurshunosligida o'rni katta ekanligini ham ta'kidlash zarur.

Amir Temur davlati, saltanat yuritish va hukmronlik faoliyatiga bag'ishlangan yana bir qimmatli manba G'iyosiddin Alining "Hindistonga yurish kundaligi" sanaladi. U Temurbek buyrug'iga binoan, 1399-yilda yozib nihoyalangan. Asar nomidan ko'rinib turibdiki, u buyuk fotixning Hindistonga qilgan zafarli yurishi tafsilotlariga bag'ishlanadi. Asarning A.Simonyonov tomonidan rus tiliga qilingan tarjimasiga asoslanib, olib borilgan tadqiqotlari talaygina. R.Rahmonaliyev ham ushbu tarjimaga asoslanib "Tamerlan"[12;122] nomli to'plamga parchalar kiritgan.

Mana shunday manbalardan yana biri Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asari bo'lib, bu asar ham Amir Temur topshirig'a ko'ra, yozilganligi aytib o'tiladi. Asar voqealari 1404 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu asar tadqiqi 1937, 1956-yillarda birinchi va ikkinchi jild shaklida nashr etiladi. Ammo sobiq sho'rolar davrida Temur shaxsi foni ostida u haqida yozilgan barcha asarlarni o'rganishga taqiq ham qo'yildi. Istiqloq yillarida esa marhum tarjimon Y.Hakimjonov ishi davom ettirilib, A.O'rinboyev, H.Karomatov, O.Bo'riyevlar tomonidan asar ilmiy izohlar bilan o'zbek tiliga tarjima qilindi va chop etildi. Ushbu asarning shu nashrida Hofizi Abro'ning ushbu asarga yozgan ilovasi "Zayli Zafarnomayi Shomiy" asari ham birgalikda nashr etildi. Olim B.Ahmedov tarixiy manbani "soda til va ravon usulda yozilgan, daliliy ma'lumotlarga boy, lekin Sharaffuddin Ali Yazdiy asariga qaraganda bir qadar ozroq ideallashtirilgan" [13;167] ekanligini aytib o'tadi.

Hofizi Abro'ning "Zayli Zafarnomayi Shomiy" asari Shomiy o'z asarida kiritmay qolgan Temur hayotining so'ngi yillari haqida muhim ma'lumotlarni ulashuvchi manba. Ushbu muallifning, "Hafizi Abro' geografiyasi" asari ham Temuriylar davri, hususan Amir Temur va Shohrux Mirzo davrida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari borasida to'xtaladi. Uning shuningdek, to'rt jilddan iborat "Majmai Tavorixi sultoniya" asarida Amir Temur va Shohrux Mirzo saltanati tarixini, yurt obodligi yo'lida qilingan ishlar qalamga olinadi. Ushbu tarixshunosning bu asarlarida O.Bo'riyev o'z tadqiqotlarida[14;168] keng foydalanganligi ma'lum.

Temuriy shaxzodalar haqida bitilgan ko'plab asarlar ham Amir Temur tuzgan saltanat hukmronlik yillari haqida tasavvur o'yg'otishda muhim manba sifatida e'tirof etiladi. Mana shunday asarlardan biri Umarshayx Mirzoning o'g'li Mirzo Iskandarga bag'ishlab yozilgan Muiniddin Nazantiyning "Muntaxab ut taxorix Muiniy"dir.[15;17] Asar Markaziy Osiyo va Sharq mamlakatlarining eng qadimgi davrlaridan to Amir Temur vafotigacha bo'lgan tarixi vafidan iborat.[16] Ushbu asarning ilmiy tadqiqi mustaqillik yillarida Sharqshunoslik instituda alohida ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida keng o'rganilgan. G'.Karimov tomonidan Sohibqironning saltanat boshiga kelish tarixi, undan keyingi voqealar haqida o'z izlanishlarini

olib borgan bo'lsa, B.Ahmedov ushbu asarda uchraydiga xatoliklar xususida, ularning to'g'ri shakllarini esa birlamchi manbalar dalillari asosidagi ma'lumotlarni keltiradi.[17;4]

Buyuk sohibqiron davriga oid yana bir muhim manba Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlayi Sadayin va majmayi baxrayin" asari hisoblanadi. Muallif Temuriy shaxzoda Shoxrux Mirzo saroyida elchi vazifazida Hindistonga safarlarga bosh bo'lgan safari taassurotlarini ushbu asariga kiritadi. Ushbu manba temuriylar va sharq mamlakatlari tarixini XIV va XV asr tarixini yoritishga bag'ishlanganligi bilan ahamiyatli. Ushbu manbani o'rganilishi yuzasidan ishlar rus tiliga tarjima qilinishi bilan boshlanadi. Temuriyshunos olim B.Ahmedov ma'lumotlaiga tayanigan bo'lsak, asarning rus va boshqa tillariga tarjimalari, xorij olimlar tomonidan yuqori baholanganligi, chet davlatlarida ham bir necha bor nashr etilganligi, maxsus ilmiy kataloglarda tavsiflanganligi oydinlashadi.

Natijalar va muhokama. Manbashunoslarning e'tiroficha, Temuriylar tarixi, umumiy tarix, muhim voqealar va sanalar haqida muhim va takrorlanmas ma'lumotlar majmui bo'lgan Fasix Ahmad Xavofiyning "Mujmali Fasixiy" asarida madaniy hayot batafsil bayon etilgan. Amir Temur davrida keng ko'lamda olib borilgan obodonchilik, bunyod etilgan madrasa va masjidlarining kim va qay maqsadda bunyod etilganligi haqidagi tarixiy qaydlar bugungi kun tarixchilari va adabiyotshunoslari suyanadigan muhim manbalardan sanaladi. Asarni rus tilida tarixshunos olim D.Yusupova mahorat bilan tarjima qilganligi, keyinchalik undan o'zbek tiliga lavhalar olinganligi va bu borada amaliy ishlar olib borilayotganligi ma'lum. Mana shunday asarlardan yana biri Chingizxon bilan zamondosh bo'lgan taxt egalari hamda Temuriylar sulolasiga atab yozilgan ularning siyosiy ahvoloti haqida ma'lumotlar uzatgan, o'nga yaqin mana shunday asarlari bilan mashhur bo'lgan tarixchi olim G'iyosiddin Xondamir hisoblanadi. Muallif Osiyo, Eron, Hindistonning o'rta asrlardagi madaniy, siyosiy, ijtimoiy va ilm fan muhiti haqida ma'lumotlarning eng saralarini kitob holiga keltirgan. Xondamirning asarlari nafaqat keyingi davr Sharq olim va adiblari balki istiqloq davri Temurshunoslari, Yevropa va Amerika sharqshunoslari orasida ham mashhur sanaladi.

Yuqorida keltirilgan asarlar ro'yhatini hali uzoq davom ettirish mumkin, ammo biz mualliflar orasida Amir Temur zamonida yaqin davrda yashab ijod etgan, manbalarning ishonchiligi jihatdan eng avvalgi ro'yhatdagilarini o'rganish bilan cheklandik. Bu asarlarning aksariyati Amir Temurni ko'zi bilan ko'rgan u yashagan davrni va yaqin yuz yillikda yashab ijod etganligi bilan asoslidir. Keyingi davr tarixchi va adiblari manbalari esa biz yuqorida keltirgan tarixiy asarlarga tayanib, solnomalar va xalq og'zaki ijod namunalari, afsona va rivoyatlar, baxshilar termalarida uchraydigan badiiy to'qimalarga ko'proq tayanganligi bois, Amir Temur haqidagi ma'lumotlarning turli-tumanlashuviga, haqiqatdan uzoqlashuviga, bu o'rinda ijodkorlarning o'z ichki tasavvurlarini qo'shib hisoblaganda, yangi-yangi afsonalarning to'qilishiga sabab bo'lganligini ta'kidlash zarur.

Sohibqironning hayot tarzini o'rganish manbalarning o'rnini ma'lum bir xronologik tadrijiylikka keltirish ushbu doiradagi ishlar haqida aniq tasavvurlarni uyg'otishga yordam beradi:

- 1) Amir Temurni shaxsan ko'rgan, u bilan bir zamonda yashagan mahalliy va chet ellik adib va tarixchilar manbalari, obidalar;
- 2) Amir Temur va temuriylar haqida tasavvurlarga asoslangan badiiy bo'rtirma, ular shaxsi ideallashtirilgan, qisman haqiqat sanaladigan badiiy va xalq ijodi namunalari;
- 3) Tarixiy manbalarga asoslangan va turli qarashlarni ilgari surgan ikkilamchi manbalar, arxeologik qashishma namunalari va solnomalar [18;25];

Xulosa va takliflar. Mana shu tadrijiylikda Temuriylar davri haqida yanada aniq va xolis ma'lumotlarni o'rganishda elchilar tomonidan yozilgan kundaliklar, sayohatnomalarda bitilganlar ham muhim manbalar sanaladi. Mana shunday turdagi manbalardan Rui Gonzales De Klavihoning "Samarqanddagi Temur saroyiga sayohat kundaligi" [19] da keltirilgan ma'lumotlar ham qimmatli manbalar sirasiga kiradi. Ushbu manbaning ahamiyatlilik darajasidan uni ispan tilidan rus tiliga 1881-yilda tarjimaga kirishgan N.Sreznevskiyning bu boradagi xizmatlarini, I.Mirokova, istiqloq yillarida O.Tog'ayev kabi olimlar davom ettirishgan. Dunyoning ko'plam tillariga qilingan tajimalari va asl manbani solishtirish asnosida temuriyshunos olim B.Ahmedov ushbu kundaliklarda A.Temur saroyidagi malikalarga bergan ta'riflarini noo'rin ekanligini Ioann Grinlarning Amir Temur haqidagi xotiralariga solishtirgan holda asoslab berishga intilgan. Mana shunday qiyoslanishi lozim bo'lgan manbalarga Bavariyalik Ioxannes Sheltbergernng "Sayohatnoma", Sultoniya Yepiskopinining Amir Temur haqidagi xotiralar, Arab Tarixchisi Ibn Xaldunning "Tarjimai hol" asari, "At ta'rif bi Ibn Xaldun" yodnomasi kabi tarixiy ma'lumotlarni tarjima qilish, maqola, risola va to'plam holiga keltirish ishlari olib borilmoqda. Bu borada amalga oshirilgan ishlar "Amir Temur jahon tarixida", "Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida", "Temuriylar bunyodkorligi davr manbalarida" [20] kabi to'plamlarda jamlandi. Aslida ham Amir Temurnig o'z ko'zi bilan ko'rgan uning yurti yoki saroyida mehmon bo'lgan xorijiy elchilar va tashrif buyuruvchilarining xotira

va kundaliklari, sayohatnoma va solnomalarini solishtirish va asliyatga yaqin fikrlarni qiyoslashorqali aniqlab olish ilmiy tadqiqotchilar oldiga qo'yiladigan muhim vazifalardan biridir. Mana shunday ilmiy izlanishlar natijasida so'ngi yillarda butun dunyo tahdidiga aylanib borayotgan globallashuvning salbiy ta'siridan yoshlarni saqlab qolishda, turli davrlarda Amir Temur shaxsiyatiga berilgan ta'riflarni jamlagan holda, sun'iy intellect imkoniyatlaridan foydalangan holda uning turli zamonlardagi tasavvuriy qiyofasini tiklash ishlari amalga oshirilishi lozim deb hisoblaymiz. Zero, mana shunday faoliyatlar doirasidagina bu tarixiy siymo haqida xolis va obyektiv tasavvurlarni shakllantirish va dunyo olimlariga taqdim etishga imkon tug'iladi.

ADABIYOTLAR:

1. Yaxshiyeva Z.R. *Alisher Navoiy va ingliz adiblari ijodida Amir Temur obrazi talqinlari*. Alisher Navoiy. Xalqaro jurnali. ISSN. 2181-9904. Doi Jurnal. 10.26739/8121-9904. 2023.3-jild, 2 son. 25-30.
2. Raxmatullayeva A.R. *O'zbekistonda Amir Temur hayoti va faoliyati tarixshunosligi*. Tarix fan.nomz.ilm.daraj. olish diss. T., 2010.-B.23.
3. Yaxshiyeva Zebo Rashidovna. *Jahon adabiyotshunosligida Amir Temur obrazi talqinlarining qiyosiy tadqiqi*. Нововведения современного научного развития в эпоху глобализации: Проблемы и решения. Volume1. Issue 3. www.uzresearchers.com. 18-25.
4. Karomatov H. "Temur tuzuklari"ni O'zbekistonda o'rganish muammolari.// Temuriylar davri madaniy yodgorliklari. Konf.mater.-Toshkent. 2003.- B.57-58.
5. Temur tuzuklari. (so'zboshi va nashrga tayyorlovchi B.Ahmedov). T., 1991. –B. 7.
6. Amir Temur Ko'ragon. Zafarnoma. Tuzuki Temuriy. so'zboshi va tabdil mualliflari H.Bbobobekov, H.Boboyev va A.Quranboyev Toshkent: Nur. 2000. 136 b.
7. U.Uvatov. Temur tuzuklari Makkadamikina?// Amir Temur saboqlari:2.T., 2005.-B.75-100.
8. O'rinboyev A. Sh.Ali Yazdiy "Zafarnoma"sida Temuriylar bunyodkorligi davr manbalari. T.1996. B-85-97.
9. Yaxshiyeva Z.R. *G'arb va Sharq adabiyotida Amir Temur prototipi asossida yaratilgan asarlar tadqiqi*. O'zbekiston: til va madaniyat. Adabiyotshunoslik. 2024 Vol. 1[2] ISSN 2181-92-2x. www.literature.tssull.uz 120-138.
10. Абиджанова. Д. *Мавераннахр эпохи правления Амира Тимура в англоязычной историографии*. Автореф. дисс. канд.ист.наук. 1999. –С.27.
11. Uvatov U.Ibn Arabshoh. *Temur va Temuriylar davri madaniy hayoti*. T: 2008. B.158-165.b
12. Тамерлан. Эпохи. Личност. Деяния.// обработка текста Р.Рахмоналиева. М.: Гураш, 1992. С-122.
13. Ahmedov B. *O'zbekiston tarixi manbalari. (Qadimgi zamon va o'rta asrlar)*. T.: O'qituvchi, 2001.- B.167.
14. O.Bo'riyev. *Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo*. T. 1998. B.168.
15. Muiniddin Nazantiy. *Muntaxab ut tavorix. G'. Gulom tarjimasi*. T., Moziydan sado.2000. B.14-17.
16. Raxmatullayeva A.R. *O'zbekistonda Amir Temur hayoti va faoliyati tarixshunosligi*. Tarix fan.nomz.ilm.daraj. olish diss. T., 2010.-B.23.
17. Ahmedov B. *Muqaddima o'rnida/ Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida*. T. 2000. B. 3-4.
18. Yaxshiyeva Zebo Rashidovna. *Jahon adabiyotshunosligida Amir Temur obrazi talqinlarining qiyosiy tadqiqi*. Нововведения современного научного развития в эпоху глобализации: Проблемы и решения. Volume1. Issue 3. www.uzresearchers.com. 18-25.
19. Klavix, Rui Gonsales de. "Samarqanddagi Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi". (1403-1406). Ruschadan tarjima.// O'Bo'riyev. Toshkent: Adolat. 1989. – 2004. - 44 b.
20. Zebo Yaxshiyeva. *XVI asr ingliz adabiyotida yoritilgan temur obrazining qiyosiy tahlili*. Scientific Bulletin of Nam SU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi – 2023-yil-8-son. 345-350.



Navoiy gulshani

INTERPRETATION OF ENLIGHTENMENT IN ALISHER NAVOI'S WORK

*Turayeva Umriniso Rahmatovna,
Bukhara State University, PhD, teacher
niso2019@mail.ru*

Abstract. Based on the works of Alisher Navoi, this article talks about self-cultivation and ways to overcome it. In Navoi's epics such as "Hayratul-Abror" and "Lison ut-Tayr", several verses about self-cultivation are analyzed.

Keywords: Khamsa, self-discipline, Lison ut-tayr, Hayratul-abror.

ALISHER NAVOIY ASARLADAGI MA'FARFIYAT TALQINI

Annotatsiya. Bu maqolada Alisher Navoiy asarlarida o'z-o'zini tarbiyalash va nafsni yengish yo'llari haqida so'z boradi. Navoiyning "Hayratul-abror", "Lison ut-tayr" kabi dostonlarida o'z-o'zini tarbiyalashga oid bir qancha baytlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Xamsa, o'z-o'zini tarbiyalash, Lison ut-tayr, Hayratul-abror.

Our observations show that although Navoi's epic "Khamsa" was written in Turkish and, in his own words, "was created in thirty months and two and a half years", each of the epics in the work appears to be the product of many years of creative thinking. It is no exaggeration to call the work a "spiritual constitution". Because, the work is a set of rules that are vitally summarized from beginning to end, and have the characteristic of leading the spiritual and spiritual world of a person to perfection.

The first article of the great epic "Khamsa" "Hayrat ul-Abror" is about one of the most beautiful human qualities, being a believer. The creator: "Whoever has become a human being in this world, his main condition is faith. "Only a person who has patience, gratitude and modesty is worthy of the honorable name "man," and people who are far from faith cannot be called by this name" [1].

In the fifth article of the "Hayrat ul-Abror" saga, the following opinion is given about generosity, nobility, and generosity: "When a person wears the clothes of generosity, he does not despise the blessings and jewels of this world. There is no better feeling than when a person generously does good to someone. Even if every hair on your body turns into a tongue, it is impossible to express gratitude for it. Since God gave you a rich country, He also taught you how to do good. Find out: who has the right to be generous, and who can be given gold and silver? To make a name, to glorify one's name, even to scatter gems with one's hand is not a characteristic of intelligent people. A drunk or a mad person commits such absurd acts [1]. Including: Everything was known in the science of truth,

Lavhul died in Mahfuz.

It is not known whether the people of good behavior and good deeds will go to heaven because of their good deeds, or whether they will go to hell because of their bad deeds and morals. Even if a person who has worshiped God for a thousand years does not get a place in heaven, all his prayers are in vain.

Indeed, the poet likens generosity to clothes. The reason is that just as clothes make a person beautiful, generosity is also a decoration for him. Generous people never expect anything in return. They will be far away from taste and close to the Truth. In addition, the great thinker emphasizes that generosity is not a means of making a name.

The justice shown by the king to the old woman in the "Story of Shah Ghazi", which is mentioned in the third article of the epic, "Chapter of Salatin" (about the Sultans, that is, the kings), deserves the greatest praise:

"No matter how many times you see bad luck,
Shah chu kilur adl, Navoi, what a grief."

There is no doubt that Navoi's thoughts on justice in the story serve as a blueprint for the kings of his time and the leaders of today. Similarly, the thoughts in the chapter of the seventh article "Satisfaction" are also relevant for today: "For whom contentment served as a science and a habit, know that it was this contentment that made him rich. Do not consider gold and silver and various ornaments as wealth. , true wealth is the treasure of contentment.

Hey, you've got a cabbage on your shoulder,

Diram value in Kalmayin.

Panjang died and was exposed to fraud.

The sun is shining in the Maghreb.

If you are not satisfied, try to be rich with cash satisfaction. Don't be rude. Because taste is the work of gado, and tamagir is the gado itself. The poet compares human satisfaction to real wealth. Because it is a vital proof that a person can rise due to satisfaction:

I am not a king, he put a crown on his head,

I know the king, there is no need for him.

If the king is a son, he is in need.

It is a crown even in need.[1]

Navoi knew that the causes of corruption, which was considered a vice both in the past and now, that is, in today's language, "corruption", are due to dissatisfaction, impatience, lack of faith, and moral deficiency, and he fought against it through his works. In general, there is no doubt that the interpretation of qualities that lead a person to perfection in all epics of Navoi's "Khamsa" serves to enrich the spirituality of the children of every era.

In the prologue of the epic "Lison ut-Tair", Navoi expresses the power of the Creator extremely clearly: "The Creator created the universe with his mighty pen under a clear plan. He made the nine heavens revolving, and made the understanding unable to understand the secret thereof. He brightens the sky with day and night, decorates it with sun and stars. He made the heavens to move and the earth to remain in its hollowness" [2].

According to the poet, the person who is the star of the universe is also flawed. In the epic "Lison ut Tair", Navoi shows the ways to avoid materialism and reach spiritual maturity. He names these paths as follows: demand, love, enlightenment, renunciation, admiration, monotheism, and the path of fear and destruction. In his prayer about the path of demand: "O God! All creatures seek you, you are desired by them and beloved by the people of love! All beings in the two worlds seek you, and those who are inclined to you refrain from desiring anything else. Except you, even if he is an angel or a fairy, he is not worth seeking as a student. John, make my heart to you! Win my passion for your love with pain! Give me the pleasure of demand! Make a wish again! Get out of my mind except you! Then make it my heart to remember you!" he writes. Indeed, evil will never come out of a heart that is in love with Him. If evil does not come out, then he is a believer. A believer always seeks Allah. A fire of love appears in his heart to seek God. The beauty of Allah cannot be reached without love.

In the description of the path of enlightenment: "O Lord! Whichever of these paths you wish for enlightenment, it will surely lead you! Send Ovvora Foni to the same path! Good luck with the road! The path of forgiveness. "Don't be in need of someone else than yourself! I obey you alone. I am not a forest lion, but a lame ant. I am so weak that even an ant is a hundred times smaller than me. Do what I need to do to others!" "Oh god! Take me by the hand and show me the way to wonder!

The people of knowledge and intelligence are amazed not only at your race, but at each of your qualities and power. Don't make me wander in amazement, but easily draw me to your side".[2] Tawheed, that is, the path of unity. In this case, the creator turns to Allah and says: "Yo Lord! Don't mark me with my identity, shake me off from all 377 things and lose me to your identity. If a person's heart and language are one, if his faith is complete, he will surely reach his goal. For this, Allah must look at him. And finally, the path of death: "Yo rab! Let the mortal be blessed with such an absence, so that he may find his own wealth from the treasure of eternity!"[2].

The thoughts hidden in the layers of Navoi's works have a universal essence. Every time we try to gain spiritual strength by reading the poet's writings, we try to develop new meanings. In this sense, over the centuries, the value of this priceless heritage increases and serves to raise the rank of humanity.

REFERENCES:

1. *Навоий А. Хамса. -Т.: "Янги аср авлоди", 2018. Б–496*

2. *Навоий А. Лисон ут-майр*". –Т.: *Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти*, 1991. Б – 464.
3. *Eshonqulov H., Sodiqova D. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2021. – T. 3. – №. 3.*

**ЖАДИДЛАР МЕРОСИ ҲУҚУҚИЙ ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТ ВА ФУҚАРОЛИК
ЖАМИЯТ ПОЙДЕВОРИ**

(Махмудхўжа Бехбудий таваллудининг 150 йиллигига бағишланади)

Раунов Сойиб Саидович,

*Бухоро Давлат университети Ижтимоий сиёсий
фанлар кафедраси профессори, тарих фанлари номзоди*

Аннотация. Мақолада XIX аср охири - XX аср бошларида юртимиз миллий озодлиги, мустақиллиги учун курашга астойдил бел боғлаган дастлабки ижтимоий-сиёсий ҳаракат – жадидлар ҳаракатининг етук вакили Махмудхўжа Бехбудийнинг сиёсий партияларга муносабати масалалари таҳлил қилинган. Махмудхўжа Бехбудий томонидан ўша вақтда чор Россиясида мавжуд бўлган сиёсий партиялар дастурлари атрофлича таҳлил қилинганлиги тўғрисида фикр юритилиб, бу партияларнинг ўша давр ижтимоий-сиёсий ҳаётида тутган ўрни адолатли кўрсатиб берилганлиги асосланган. Шунингдек, мақолада ўша даврда мавжуд идора усуллари ҳақида Махмудхўжа Бехбудийнинг фикрлари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: жадидлар ҳаракати, сиёсий кураш, сиёсий партиялар, мутлақ монархия партияси, конституцион демократлар – кадетлар партияси, социал-демократлар партияси, Русия мусулмонлари иттифоқи, мутлақ монархия, конституциявий монархия, республика, куч билан истиқлол олиш, муроса йўли, ҳамкорлик йўли.

**НАСЛЕДИЕ ДЖАДИДОВ - ФУНДАМЕНТ ПРАВОВОГО ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО
ГОСУДАРСТВА И ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА**

Аннотация. В статье анализируется отношение Махмудходжи Бехбуди, выдающегося представителя джадидского движения - первого общественно-политического движения, решительно посвятившего себя борьбе за национальное освобождение и независимость нашей страны в конце XIX - начале XX веков, к политическим партиям. Рассматривается, как Махмудходжа Бехбуди всесторонне проанализировал программы политических партий, существовавших в то время в царской России, и обоснованно показал роль этих партий в общественно-политической жизни того периода. Также в статье анализируются взгляды Махмудходжи Бехбуди на существовавшие в то время методы управления.

Ключевые слова: движение джадидов, политическая борьба, политические партии, партия абсолютной монархии, партия кадетов, социал-демократическая партия, союз мусульман России, абсолютная монархия, конституционная монархия, республика, завоевание независимости силой, путь компромисса, путь сотрудничества.

**JADID HERITAGE - THE FOUNDATION OF A DEMOCRATIC STATE BASED ON THE
RULE OF LAW AND CIVIL SOCIETY**

Abstract. The article analyzes the issues of the attitude of Mahmudkhodja Bekhbudi, a prominent representative of the Jadid movement, the first socio-political movement that steadfastly fought for the national freedom and independence of our country in the late 19th and early 20th centuries, to political parties. It is argued that Mahmudkhodja Bekhbudi thoroughly analyzed the programs of political parties that existed in Tsarist Russia at that time, and that he fairly demonstrated the place these parties occupied in the socio-political life of that period. The article also analyzes Mahmudkhodja Bekhbudi's views on the methods of government that existed at that time.

Key words: jadid movement, political struggle, political parties, the Absolute Monarchy Party, the Cadet Party, the Social Democratic Party, the Union of Muslims of Russia, absolute monarchy, Constitutional monarchy, Republic, gaining independence by force, the path of compromise, the path of cooperation.

“Маърифатпарвар аждодларимизнинг мероси бугун биз қураётган ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамияти учун пойдевор бўлиб хизмат қилиши табиий. Бу кимгадир ёқадими ёки йўқми, халқимиз жадид боболаримиз кўрсатиб берган йўлдан оғишмай бориши керак. Чунки уларнинг ғоя ва дастурлари Янги Ўзбекистонни барпо этиш стратегияси билан ҳар томонлама уйғун ва ҳамоҳангдир” [1].

Шавкат Мирзиёев

Кириш. Дарҳақиқат, биз учун жадидчиликнинг синовдан ўтган амалий тажрибаси Янги Ўзбекистон ва Учинчи Ренессанснинг бунёд этишнинг муҳим маънавий-назарий манбаси бўлиб хизмат қилади. Чунки жадидларнинг ғоя ва дастурлари, давлатимиз раҳбари эътироф этганидек, Янги Ўзбекистонни барпо этиш стратегияси билан ҳар томонлама уйғун ва ҳамоҳангдир.

Шу маънода, тараққийпарвар аждодларимизнинг илғор ғоя ва қарашларини тадқиқ этиш ва тизимлаштириш, Туркистон жадидларининг миллий давлатчилик ривожигаги ўрни ва таъсирини ўрганиш, XX асрнинг биринчи чорагида улар томонидан барпо этилган давлат тузилмаларининг қонунчилик базасини таҳлил қилиш, дунёвий, ҳуқуқий ва демократик жамият қуришга қаратилган фаолиятига тарихий баҳо бериш билан боғлиқ серқирра ҳамда кўламдор вазифалар олдимизда турибди.

Методлар. XIX аср охири - XX аср бошларида юртимиз миллий озодлиги, мустақиллиги учун курашга астойдил бел боғлаган дастлабки ижтимоий-сиёсий оқим – жадидлар ҳаракати эди. У тарих саҳифаларига «жадидчилик», вакиллари эса «жадидлар» номи билан муҳрланди. Ўзбекистон Истиқлолга эришган 1991 йилдан ҳозирга қадар олиб борилган илмий тадқиқотлару, ёзилган талай мақолаларда жадидчиликнинг туб моҳияти турлича тадқиқ ва таҳлил қилинди, кўлами ва жамиятга таъсири ҳамда уни ривожлантирган шахсларнинг ҳаёти ва ижоди баҳоли қудрат ёритилди. Аммо бу масалалар ҳануз тўла-тўқис очиб берилмади. Бу оқим ўз ҳаракат шаклини маданий-маърифий тарзда кўрсатишга интилган бўлса-да, унинг моҳияти ва замирида сиёсий кураш, ўз халқининг мустамлакачилар зулмидан озод қилиш, мустақил давлат қуриш нияти ётар эди. Бу ниятга эришиш учун курашчиларнинг олдинги сафларида маърифатпарвар жамоат арбоби, жадидчилик ҳаракати етакчиси, диний ва дунёвий илмлар сарқори, драматург ва ёзувчи, публицист Маҳмудхўжа Бехбудий ҳам бор эди.

Муҳокама. Маҳмудхўжа Бехбудий Самарқанд вилоятининг Бахшитепа қишлоғида туғилган. Шуниси қизиқки, алломанинг туғилиш ва ўлимида ҳали-ҳануз ноаниқликлар мавжуд бўлса-да, лекин унинг дунёга келиши 1875 йил 19 январь куни, дея қайд этилади. Отаси Бехбудийхўжа қори имом-хатиблик орқасида каттагина давлат орттирган зиёли инсонлардан эди. Отасининг бешта хотини бўлиб, Маҳмудхўжа унинг иккинчи хотинидан туғилган. Алломанинг катта боболари насаб жиҳатидан Хўжа Аҳмад Яссавийга бориб тақалади. 10-12 ёшида Қуръонни ёд олган Маҳмудхўжа Бехбудийнинг ҳам тоғаси, ҳам устози бўлган муфти мулла Одил жиёни ҳақида, ёшлик чоғида жуда ҳам зеҳни ўткирлиги, ўқишга ҳаваси кучли экани, унинг тарбиясидаги ҳалимлик, гўзал хулқлиги, кам гап ва ўйин-кулгунни кўп ҳам ёқтирмайдиган фазилатли бўлганини тилга олади.

Маҳмудхўжа Бехбудий дастлаб Самарқанд мадрасасида, сўнгра Бухорода яхшигина таҳсил кўрган. Анъанавий таҳсил, сўнг эса ўз устида қунт ва сабот билан ишлаш орқали у шариятнинг юксак мақомлари – қози, муфти даражасигача кўтарилди. 1899-1900 йилларда Бехбудий бухоролик дўсти Ҳожи Бақо билан ҳаж сафарига чиқади. Бехбудий сафар чоғида кўп ажобий ходисаларга гувоҳ бўлди. Хусусан сафарда у янги мактаб ҳақидаги қарашларини мустаҳкамлайди. Унинг ташаббуси ва ғайрати билан 1903 йилда Самарқанд атрофидаги Ҳалвойи (С. Сиддиқий), Ражабамин (А. Шақурий) қишлоқларида янги мактаблар ташкил топади. Адиб ушбу мактаблар учун дарсликлар тузишга киришади. Кетма-кет унинг «Рисолаи асбоби савод» (1904), «Рисолаи жуғрофияи умроний» (1905), «Рисолаи жуғрофияи Русий» (1905), «Китобат-ул атфол» (1908), «Амалиёти ислом» (1908), «Тарихи ислом» (1909) каби китоблари пайдо бўлади. Маҳмудхўжа 1903-1904 йилларда Москва, Петербургда боради, 1906 йилда Қозон, Уфа, Нижний Новгородда бўлади. Булар саёҳат эмас, хизмат сафари эди. Масалан, Нижний Новгородда 1906 йилнинг 23 августида Русия мусулмонларининг турмуш ва маданияти муаммоларига бағишланган қурултой чақирилади. Бехбудий бу қурултойда Туркистонлилар гуруҳини бошқаради ва катта нутқ сўзлайди.[6]

Жадидлар назарида маърифат учун биргина мактаб кифоя қилмасди. Замон ва дунё воқеалари билан танишиб бормоқ, миллат ва Ватаннинг аҳволдан, қундалик ҳаётдан огоҳ бўлмоқ керак эди.

Бу оқим ўз ҳаракат шаклини маданий-маърифий тарзда кўрсатишга интилган бўлсада, унинг моҳияти ва замирида сиёсий кураш, ўз халқининг мустамлакачилар зулмидан озод қилиш, мустақил давлат қураш нияти ётар эди. Бу мақсадга эришиш учун Туркистондаги барча халқларни

бирлаштириш заруратини англаб етган Жаҳидлар ўзларининг келажакдаги давлат тузумини барча миллатларнинг бирлиги асосида тасаввур этардилар.

Бу бирликни тامينлаш учун сиёсий партияларга зарурат борлигини англаган Жаҳидлар Россиядаги сиёсий жараёнларни диққат билан кузатиб бордилар, вужудга келётган рус сиёсий партиялари дастурларини ўргандилар.

Бундай фаолият Жаҳидчилик ҳаракатининг йирик вакилларида бири Маҳмудхўжа Бехбудий ижодида ҳам яққол кўзга ташланади. У ўзининг 1906 йил 11 октябрда “Хуршид” газетасида босилган “Хайрул умури авсатуҳо” (“Ишларнинг яхшиси ўртачасидур”) [2.146] номли мақоласида ўша вақтда Россияда мавжуд сиёсий партияларни қуйидаги гуруҳларга бўлади:

1. “Буйрўкратиян мустабид” фирқаси (мутлак монархия - ҳукумат партияси).
2. Машрутаи авомия (конституцион демократлар - кадетлар партияси).
3. Иштирокиюни оммавиюн (халқ социализми - социал - демократлар партияси).
4. Русия мусулмонлари иттифоқи.

Ушбу мақоланинг характерли хусусияти шундаки, мақолада муаллиф миллат озодлиги ва эрки учун бирлашиш зарурлигини асослаб беришга ҳаракат қилиб, озодлик ва эрк учун курашда сиёсий партияларнинг роли ва ўрни бекиёс эканлигини кўрсатиб беради. Жумладан, ўша даврда чор Россиясида фаолият кўрсатган сиёсий партиялар фаолияти, мақсад ва вазифаларини таҳлил қилиб, уларнинг чоризмнинг ички ва ташқи сиёсатида таъсири, Туркистондаги мустамлакачилик сиёсатида тутган ўрни ҳақида асосли ва адолатли фикрлар билдиради, бу партияларнинг қай бирига эргашиш, қайсисидан қочиш лозимлигини асослаб беради. Жумладан, “Буйрўкратиян мустабид” (мутлак монархия) партияси ҳақида фикр юритиб, бу партияни ҳукумат партияси деб атайди ва бу партия рус императори хизматида эканлигини кўрсатиб беради. “Импиратуримиз(нг) ҳар бир амри ва ҳукму ройи, - деб ёзади Маҳмудхўжа Бехбудий, - “закун” аталиб, ҳеч лоу наамсиз (сўзсиз) барча волий, суд вузарова булар қўл остида турганлар воситаси-ла ўрнига келадур. Ҳар хил низом ва закун китобларни Синод (Военный совет) деган мажлис аъзолари тузатиб, тўхуб подшо ҳазратларига Вазирлар мажлиси воситаси ила манзур қилурлар. Императоримизнинг имзоларидан сўнгра закун аталиб, барча вузаро ва вилоят маҳкамаларини ва суд мажлисларини мутасаддийлари тарафидан халқ устига жорий қилинур” [2-146]. Бундай аҳвол одамлар аҳволининг ёмонлашишига сабаб бўлаётганлигини таъкидлаб ўтилади.

Маҳмудхўжа Бехбудий кадетлар партияси ҳақида фикр юритиб, “бу партиянинг муроди шулки, “Миллат мажлиси” хоҳ Дума очилиб ҳар бир милйўн халқдан 3-4 вакил пойтахтга бориб, мажлис қуриб, бар закун ва қонунларни, ҳар бир вилоятни аҳволи ва ҳар дин ва миллатни озод ва сарбастлигига ақл ва инсофиға қараб таассуби ҳуқуқи башария ва риоян динияга мувофиқ тузатиб, подшоҳ ҳазратларига топширсалар. Ва импературимиз ҳам ўшал халқ вакиллари тайёрлаган закунларни ўрнига келмоқиға ҳумоюн фармойишларини қилсалар” [2-148] деб кўрсатади. У кадетлар партиясини қўллади ва Россияни келажакни кадетлар партияси дастурида кўради.

Маҳмудхўжа Бехбудий “социол-демократически” (социал-демократлар партияси) ҳақида фикр юритиб, “буларни бошлуча муроди ҳозирги барча закун, мулкيات қоидаларини бутун бузиб, мол ва ерларни ҳамма ҳалойиқ ўртасиға муштарак қилиб, анинг манфаатини бутун ҳалойиқ ўртасида мусовий этмоқчидур. Бойлик ва камбағалликни йўқ қилиб, дунё моли(ни) роҳатидан ҳаммани баробар фойдалантуриб, маъсуд ва роҳат умр ўтказилмоқиға ва ҳар ким ўз истикболидан амин бўлмоқиға закун ва қоида жорий қилмоқчидурлар” [2.149] деб ёзади. Бехбудий сациализимни зўравонлик ва жамият ўрнатмоқчи бўлган ижтимоий тенгликни адолатсизлик деб ҳисоблайди. Дарҳақиқат, одамларда қобилият, салоҳият, илм турлича бўлганидек, жамиятда тутган ўрни ҳам турлича бўлади. Социал демократлар буни инкор қилиб, ҳаммани тенглаштиришга урундила. “Бу партияни муроди – деб ёзади Бехбудий, - мумкин лойиқиё ёйинки хаёлийдек кўринуб, бу тоифага қўшилмоқ биз мусулмонлар учун ниҳоятда зарарликдур.” [2.149] Бу фикрлари билан Бехбудий социалистик таълимотни рад қилиб, бу таълимот асосида социалистик жамият қурмоқчи бўлган большевиклар партиясини инкор қилган эди. Унинг бу хулосалари коммунистларга уни қоралаш учун асос бўлди. Шунинг учун шўролар ҳокимияти йилларида Маҳмудхўжа Бехбудий ижоди умуман ўрганилмади.

Маҳмудхўжа Бехбудий таҳлил қилган яна бир партия – “Русия мусулмонлари иттифоқи” дир “Русия мусулмонлари иттифоқи” Россия мусулмонларининг 1906 й 13-23 январда Петербургдаги II съездида тузилган [5-19]. Маҳмудхўжа Бехбудий бу партиянинг келажакни кадетлар партияси билан ҳамкорлик қилишда кўради ва Туркистон мусулмонларини ушбу партия билан ҳамкорликка чорлайди.

Маҳмудхўжа Бехбудий сиёсий партиялар тўғрисида ёзиб, “биз мусулмонларнинг, диний ва кавмий ҳуқуқимизнинг камчиликлари подшоҳ ҳазратларига етмай, етганда ҳам мажлис тарафидан рад бўлиб қолур” [2-147] деган хулосага келади. Бу ҳолга барҳам бериш ва умуман миллат озодлиги ва эрки учун курашиш учун мусулмонларнинг ўз сиёсий партияси бўлиши керак деган ғояни илгари суради. Миллий мустақиллик учун кураш жараёнида Туркистонда “Шўрои Исломия”, “Шўрои Уламо”, “Мирваж ул-ислом”, “Мифтах ул-маориф”, “Равнақ-ул ислом”, “Иттифоқ ул-муслимин”, “Турон” каби турли мусулмонлар ташкилотларининг [4-96] тузилишида Маҳмудхўжа Бехбудий ғояларининг таъсири катта бўлганлиги ҳақиқатдир.

Асосийси шундаки, Маҳмудхўжа Бехбудий сиёсий партиялар ҳақида фикр юритганда уларнинг жамият тараққиёти учун прогрессив аҳамиятга эга бўлганларини ажратиб кўрсата олган ва Туркистон келажагини таъминлашда уларнинг қай бирига эргашиш лозимлигини, бошқарувда улардан қайси бирини фойдаланса юрт келажаги, миллат тақдири учун ижобий аҳамият касб этишини асослаб берган.

М.Бехбудийнинг сиёсий қарашларида давлатни бошқариш тўғрисидаги фикрлар ҳам диққатга сазовордир. У ўзининг 1906 йилда Самарқанддаги Г.И.Демуров матбаасида чоп этилган “Мунтахаби жуғрофияи умумий” (“Умумий географиядан сайланма китоб”) номли асарида замонасидаги мавжуд идора усуллари ҳақида фикр юритиб, уларни учга бўлади.

1. Идораи мустақалла (идораи мутлақа монархия). “Они устидан қарагучи подшоҳ, - деб ёзади М.Бехбудий, - соҳиб ихтиёр ва ҳар бир ройи ва амри закўн (қонун) ва низом бўладур... Кўл остидаги барча мажлислар, маслаҳатхоналарни иттифоқи, хоҳиши, ҳукми ўшал императўрни мустаҳкам қилиши имзосига мавқуф (боғлиқ)дир” [3-243] Бу ўринда Маҳмудхўжа Бехбудий бир кишининг авлоддан авлодга ўтадиган яқка ҳукмронлиги – монархия тўғрисида фикр юритади ва бу ҳокимиятнинг чекланмаганлигини кўрсатиб беради.

2. Идораи машрута (Конституциявий, парламентли ҳокимият) Бу идора усулини Маҳмудхўжа Бехбудийнинг кўйидагича таърифлайди: “Эл ва уруғлари илм, ҳунар ва дунё ишлариға тараққий қилгандурки, шул тарика фуқаролар ўз ароларидан инсофлик, илм ва дунёдан хабарлик одамларни ўзларига катта ва бошқарғувчи вакил сайлайдилар. Шул тарика сайланган вакилларни подшоҳ жамлаб, муқаррарий маҳкамаларға, мамлакатдорлик ишлариға аралашиб, машварат ила тузатилмоқ ва муҳофазат қилмоқға кўз бўлмоқлари учун қарор берадур...” [3-243] Маҳмудхўжа Бехбудий талқинида бундай йиғинлар турли мамлакатларда турлича – “миллат мажлиси”, “маслаҳатхона”, “парламент”, “государски дум”, “мажлиси синодий”, “эл мажлиси” деган номлар билан юритилади ва бу мажлисларнинг руҳсатисиз императорлар бирор ишни амалга ошира олмайдилар ва подшолар ушбу мажлислар амрига тобедирлар. Бизнингча, бу ўринда Маҳмудхўжа Бехбудий бошқарувнинг Конституцион монархия усули тўғрисида фикр юритган бўлиб, табақалар монархиясини ҳам шу бошқарув усулига қўшиб юборган.

3. Идораи жумҳурият (Республика), Бу бошқарув усули ҳақида фикр юритиб Маҳмудхўжа Бехбудий кўйидагиларни ёзади: “Аксар фуқароси аҳли илм бўлиб, бу аҳли дониш аҳолини сайлаган вакиллари баъзи ҳукуматга етти йилгача ўз мамлакат ва ҳукуматларини бошқармоғи учун ўз ароларидан бир нафар донишманд одамни бошлиқ сайлайдурларки, “раиси жумҳурият”, “садринишини миллат”, “периздент” аталадур. Бу раис гўё бир оризи (тасодикий) омонат подшоҳдур. Ҳар бир ҳукм ва амр ва тартибни мамлакат ва кўбга тааллуқ ишни “Миллат мажлиси”ни қилиб берган дастурул амал, яъни қонун ва низомномалариға мувофиқ қилиб, бутун элга тобеъ бир кишидур” [3-244].

Маҳмудхўжа Бехбудий бу тоифадаги подшолар “элға тобеъ бўлуб турурман” деб қасам ичкандан кейин тахтга чиқадилар деб кўрсатади.

Шундай қилиб, Маҳмудхўжа Бехбудий ўзи яшаган давр учун кенг тарқалган бошқарувнинг учта шаклини қисқача таҳлил қилиб, бошқарувнинг конституцион монархия ва республика шакллари анча прогрессив бошқарув шакли эканлигини асослаб беради.

Хулоса. Жадидчилик ҳаракати тарихи билан шуғулланган таниқли олим Бегали Қосимов ўзининг “Карвонбоши” номли мақоласида жадидлар истиқлолга эришиш борасида бир-бирларидан фарқ қилувчи уч йўлдан борганликларини кўрсатади:

1. Русияга тобеликдан зўрлик билан қутилиш, куч билан истиқлол олиш (Дукчи Эшон, 1916 й. Воқеалари, “босмачилик”)

2. Муроса йўли. Руслар ёрдамида маърифатга эришиш. Маърифат масаласида ҳақ-ҳуқуқ олиш, миллий хусусиятларни тиклаш (Исмоил Гаспарали, Маҳмудхўжа Бехбудий)

3. Ҳамкорлик йўли. Чор маъмурлари, сўнг эса шўро ҳукумати билан бирга уларнинг дастурларида қатнашиши ва имкон бўлиши билан мустақилликни кўлга олиш. (Мунаввар қори, Ҳамза, Авлоний.) [5.-29]

Дарҳақиқат юрт тақдири, миллат келажаги, одамлар дардига бефарқ бўлмаган Маҳмудхўжа Бехбудий сиёсий қарашларини таҳлил қилиб, у ҳақиқатан ҳам муроса йўлидан борганлигини, халқнинг сиёсий онгини ўстириш орқали истиқлолга эришишга ҳаракат қилганлигини гувоҳи бўламиз. Унинг асарларида миллат тақдири, унинг истиқболи муаммолари асосий ўринда туради. У миллат истиқболини истиқлолда деб билади ва мустақил давлат ўрнатмагунча миллат келажаги тўғрисида гапириб бўлмайди деган хулосага келади. Бу унинг биринчи хулосаси бўлса, иккинчиси эса “ҳақ олинур, лекин берилмас” деган хулосадир. Дарҳақиқат, миллат ўз ҳаққини олиши учун курашмоғи ва бу курашда уларга сиёсий партиялар йўлбошчилик қилиши лозимлиги М.Бехбудий асарларида яққол кўзга ташланади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Шавкат Мирзиёев: “Жадидлар гояси — Янги Ўзбекистон стратегияси билан ҳар томонлама уйғун ва ҳамоҳанг”// <https://daryo.uz/k/2023/12/22/shavkat-mirziyoyev-jadidlar-goyasi-yangi-ozbekiston-strategiyasi-bilan-har-tomonlama-uygun-va-hamohang>

2. Маҳмудхўжа Бехбудий. Хайрул умури авсатухо. Танланган асарлар, Т. “Маънавият”, 1999, 146-150 бетлар

3. Маҳмудхўжа Бехбудий. Мунтахаби жузрофияи умумий. Танланган асарлар, Т. Маънавият 1999 й., 221-247 бетлар

4. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: сиёсий партиялар, мафкуралар, маданиятлар. Т., “Шарқ”, 1998 й, 157 бет.

5. Қосимов Б. Карвонбоши.//М.Бехбудий, Танланган асарлар. Т., “Маънавият”, 1999 й, 5-38 бетлар.

6. Ҳакимов А. Маҳмудхўжа Бехбудий: туркистон жадидчилик ҳаракатининг йўлбошчиси, миллий маърифат раҳнамоси.//<https://yuz.uz/news/mahmudxoja-behbudiy-turkiston-jadidchilik-harakatining-yolboshchisi-milliy-marifat-rahnamosi>

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINI IJTIMOY HIMOYA QILISHNING
AYRIM MASALALARI

Sultanov Toxir Raximberganovich,
Xorazm viloyati Ichki ishlar boshqarmasi xodimi
tohir6060@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari xodimlari ijtimoiy himoyasining ayrim masalalariga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqolada amaliy qonunchilikdagi ayrim bo‘shliqlarga e‘tibor qaralib, xodimlarning ijtimoiy himoyasining qonuniy asoslari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: ichki ishlar organlari, ichki ishlar organlari xodimlari, qonunchilik, qonun talablari, ijtimoiy himoya, ijtimoiy yordam, ijtimoiy ta‘minlash.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ СОТРУДНИКОВ ОРГАНОВ
ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Аннотация. В данной статье рассматриваются актуальные аспекты социальной защиты сотрудников органов внутренних дел Республики Узбекистан. Особое внимание уделяется анализу пробелов в применении норм действующего законодательства, а также изучению правовых основ, регулирующих механизмы социальной защиты работников данной сферы.

Ключевые слова: органы внутренних дел, социальная защита, социальная помощь, социальное обеспечение.

SOME ISSUES OF SOCIAL PROTECTION OF INTERNAL AFFAIRS OFFICERS

Abstract. This article focuses on the challenges and opportunities in organizing effective social protection for employees of the internal affairs bodies in Uzbekistan. It provides a detailed review of the legal framework that underpins social security provisions, emphasizing the importance of safeguarding the welfare of these employees. Additionally, the article highlights practical gaps in current legislation, drawing attention to areas requiring urgent reforms to ensure comprehensive support and assistance for internal affairs personnel.

Keywords: internal affairs agencies, social protection, assistance, provision.

Kirish. Yurtimizda ichki ishlar organlarini aholining ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish, ularning fuqarolar, jamoat tashkilotlari hamda keng jamoatchilik bilan yaqin hamkorlikda, o‘zaro ishonch va hamjihatlik ruhida ishlashini ta‘minlash, mahallalar, aholi turar joylari va butun yurtimizda qonun ustuvorligi, tinchlik-osoyishtalikni yanada mustahkamlash maqsadida keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda.

Ichki ishlar organlari xodimlarini “Inson qadri uchun” tamoyili asosida davlatning yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlariga ega, o‘z burchiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar vakili etib tarbiyalash orqali aholining chinakam roziligiga erishish, xizmat vazifalariga halol, vijdonan, Vatan va xalq oldidagi burchini chin dildan his etgan holda, yuksak mas‘uliyat bilan yondashish, jamiyatda umume‘tirof etilgan odob-axloq normalariga so‘zsiz amal qilish tuyg‘usini shakllantirish orqali aholini ishonchini qozonish oliy maqsad etib belgilangan.

SUKHAREVA'S RESEARCH IN THE STUDY OF THE ETHNIC HISTORY OF THE PEOPLES
OF UZBEKISTAN**

Abstract. The article highlights the history of ethnography of the peoples of Central Asia and the Uzbeks at the beginning of the XX century, the study of ethnic history by ethnographers and Oriental scholars. O.A.Sukhareva also conducted a study of the ethnography and ethnic history of the population of Bukhara, Samarkand, Karshi and Shakhrisabz, and analyzed the methods of the scientific approach in the scientist's research.

Keywords: ethnography of the peoples of Central Asia and Uzbeks, research by O. A.Sukhareva, the quarters of the city of Bukhara, the population and ethnic composition of Bukhara, ethnic groups such as Turkic-speaking peoples, Arabs, Persians, Jews.

Кириш. XIX асрнинг иккинчи ярми — XX аср бошларида Ўрта Осиё халқлари ва ўзбеклар этнографияси ва этник тарихини ўрганишда Н.Г.Маллицкий, М.С.Андреев, А.А.Семёнов, А.А.Диваев каби этнограф ва шарқшунос олимларнинг хиссаси катта бўлди. Ушбу олимлар 1920 йилда ташкил топган Ўрта Осиё Давлат университетида ўз илмий ишларини давом эттирдилар. Туркистон университетида ўзбек этнографияси бўйича Махсус курс киритилиб, этнография фанининг йирик вакили Н.С.Ликошин тузган бу курс дастури диққатга сазовордир. Ўша йилиёқ М. С. Андреев раҳбарлигида ташкил қилинган Шарқ институти ўқув дастурида ҳам Ўрта Осиё халқлари этнографияси фани фахрли ўринни эгаллаган [3,47]. Бундан ташқари, институт қошида илмий тўғарақлар тузилиб, маҳаллий халқларнинг этнографияси ва фольклорини ўрганишга катта эътибор берилди.

1924 йили минтақада ўтказилган миллий ҳудудий бўлинишда тарихий-этнографик ишлар натижасида тўпланган материаллар қўл келди. Ўша йилларда этнографик хариталар тузиш мақсадида тадқиқотлар ўтказилиб, Ўрта Осиёни ҳудудий бўлинишида ёзилган тўпламлар ва этнографик

хариталар катта аҳамиятга эга бўлди. Мазкур ишларда маҳаллий тилларни яхши биладиган таниқли географ, тарихчи, этнограф олимлардан М. С. Андреев, А. А. Диваев, В. Н. Кун, Н. П. Маллицкий, А. А. Семёнов, Е. Д. Поливанов, Л. В. Ошанинлар фаол қатнашдилар. 1921 йилда маҳаллий ҳокимият томонидан йирик этнограф олимлардан ташкил топган «Туркистон туб аҳолисининг маиший турмушини ўрганиш илмий комиссияси» ўзбек этнографияси ривожига муҳим бир босқич бўлди [3,47]. Ўша вақтда иккита экспедиция ташкил қилинди: А. А. Диваев раҳбарлигидаги Сирдарё ва М. С. Андреев бошчилигидаги Самарқанд экспедициялари. Улар маҳаллий этнослар ва этник гуруҳлар (ўзбеклар, туркманлар, араблар, лўлилар) тўғрисида бой этнографик маълумотларни тўпладилар. Айниқса, тадқиқий дастурга киритилган масалалардан аҳолининг анъаналари, диний эътиқодлари, урф-одат ва маросимлари, анъанавий хўжалиги ва маданий турмуши муҳим аҳамиятга эга бўлиб, шу дастур асосида ноёб этнографик материаллар анча йиғилган эди.

Ўрта Осиёда 1920-1924 йилларда ўтказилган аҳоли рўйхатга олиш ишининг ташкилотчиси ва фаол қатнашчиси И. П. Магидовичнинг ишлари ҳам диққатга сазовордир. У ўзининг аҳоли ўртасида тўплаган тарихий этнографияга оид маълумотларига асосланиб, ўзбек халқи уруғ-қабилаларининг рўйхатини тузди. Аҳолини этник ўрганиш комиссияси аъзоси И. И. Зарубин ҳам ўзбек этнографияси ҳақида материаллар тўплаб, баъзи мақолалар чоп этган эди. Шу йиллари ажойиб географ ва этнограф профессор Н. Г. Маллицкий ўзининг маърузалари ва илмий географик асарларида ўзбекларнинг уруғ-аймоғи ва уларнинг этнографиясига оид тавсифларини берди.

Бир неча музейлар ташкил қилган экспедициялар ҳам этнографик маълумотлар ва буюмлар тўплашда зўр хизмат қилди. 1936—1937, 1940—1941 йилларда М. С. Андреев бошчилигида ўтказилган тадқиқотлар нафақат фанни, балки республика музейларини ноёб экспонатлар билан бойитди. Толмас саёҳатчи М. С. Андреев Ўрта Осиёнинг энг йирик этнограф олимларидан бири. У ўқитувчилар семинариясини тамомлагач, Тошкентдаги йирик мадрасалардан бирида ҳам таълим олади. Андреев мадрасага ўзбек миллий кийимида қатнайди. Шундай қилиб, у барча маҳаллий тилларни ўрганади. М. С. Андреев ўзбек, тожик ва Ўрта Осиёдаги бошқа халқларнинг этнографияси ва тили ҳақида бир қатор қимматли илмий асарлар нашр этди [7].

Долзарблик. 1950-йиллардан бошлаб этнографлар диққатини ҳозирги замон этник муаммолари жалб қила бошлайди. Маҳаллий тадқиқотчилар томонидан 1950 йилда ташкил қилинган Ўзбекистон Фанлар Адакемияси Тарих ва археология институти экспедицияси биринчи марта ўзбекларнинг ҳозирги маиший турмуши ва маданиятини ўргана бошлаган эди. 50-йилларнинг бошларида О. А. Сухарева билан биргаликда М. А. Бикжонова Наманган вилояти Чортоқ туманидаги Айқирон қишлоғи аҳолисининг этнографияси ва ҳаётига оид дала материалларини тўплади. Ушбу тадқиқот натижасида яна бир монография “Ойқирон қишлоғи ўтмиши ва ҳозир” 1955 йилда нашр этилди [8].

Яна бир салмоқли илмий ишлардан бири О. А. Сухарева бошчилигида бир гуруҳ этнографлар иштирокида тайёрланган кўп жилдли «Жаҳон халқлари» туркумига киритилган «Ўрта Осиё ва Қозоғистон халқлари» номли икки жилдли капитал асар бўлди. Мазкур нашр жаҳон илмий жамоатчилиги томонидан юксак баҳоланган. “Ўзбеклар” этнографиясининг асосий қисмини ёзилиши 1956 йилда Москва, Ленинград ва Тошкентда олиб борилган илмий изланишлар натижаси бўлди. Тадқиқотлар 1958 йилда фаоллашди. “Аҳолининг асосий машғулотлари”, “Шаҳар ва қишлоқ”, “Кийим-кечак”, “Жамоавий ва оилавий муносабатлар” йўналишидаги қисмлар муаллифи О. А. Сухарева эди. А. Жданконинг маълумотларига кўра, О. А. Сухарева ушбу тадқиқот ишининг биринчи қисмини 6 бўлимдан иборат қилиб тузди. Йиғилган барча маълумотлар Москвада 1962 йилда иккита жамоавий монография: “Ўзбеклар” (ўзбек тилида) ва “Ўзбеклар этнографияси очерклари” (рус тилида) нашр қилинди [2].

Шу даврдан ўзбеклар ва Ўрта Осиё халқларининг келиб чиқиши; (этногенези) масаласига жиддий ёндошилди. Бу муҳим муаммога бағишланган маърузаларда таниқли олимлар А. Ю. Якубовский, С. П. Толстов, А. А. Семёнов, А. Н. Бернштам, Л. В. Ошанин, К. В. Тревер, Я. Ф. Гуломов, Р. Н. Набиев ва бошқалар фаол қатнашдилар. Ўзбеклар ва қорақалпоқларнинг этногенези ва этник тарихини ўрганишга жиддий киришган Б. В. Андрианов, Я. Р. Винников, Т. А. Жданко, С. К. Камолов, Ш. И. Иноғомов, Б. А. Ахмедов, Р. Г. Муқминова, Б. Х. Кармишева, К. Шониёзов, Т. К. Хўжайовлар бир неча муҳим илмий асарлар нашр қилдилар. Мазкур мураккаб муаммони ҳал қилишда ўзига хос яқунловчи анжуман сифатида 1983 йилда Москвада чақирилган «Ўрта Осиё ва Қозоғистон халқлари этногенези ва этник тарихи муаммолари» мавзуидаги илмий конференция фанда янги бир босқич бўлди [3].

Методлар. Мазкур мақолада Ўрта Осиё халқлари ва ўзбеклар этнографияси, этник тарихини тарихчи-этнограф олимлар томонидан ўрганилиши илмийлик, тарихийлик, даврийлик ва ҳолислик мезонлари асосида таҳлил қилинди.

Тадқиқот натижалари. 1960-йиллардан бошлаб ўзбекларнинг хўжалик фаолияти, моддий маданияти, оилавий ва маънавий турмушига оид масалаларга эътибор кучайди. Масалан, деҳқончилик, хунармандчилик, халқ меъморчилиги ва санъатига бағишланган бир неча илмий асарлар пайдо бўлди (Е. М. Пешчёрева, О. А. Сухарева, Н. А. Кисляков, И. М. Жабборов, М. К. Рахимов, А. Иўлдошев, П. М. Зоҳидов, Р. А. Абдурасулова, Б. Б. Веймарн, В. Л. Воронина, Г. А. Пугаченкова, Л. И. Ремпель ва бошқаларнинг асарларини таъкидлаш мумкин).

Бухоро, Самарқанд, Қарши ва Шаҳрисабз шаҳарлари аҳолиси этнографияси ва этник тарихи ҳам О. А. Сухарева томонидан ўрганилди. Унинг тадқиқотларида Ўрта Осиё халқлари этник тарихи ва этник хусусиятлари куйидаги илмий ёндошувлар асосида талкин этилди [5]:

- биринчидан, О. А. Сухарева Бухоро шаҳрининг гузарлари тарихини ўрганишда шаҳар аҳолисининг этник келиб чиқишига мурожаат қилди, статистика шаклида квартал аҳолиси этник таркибини кўрсатди. Бу ерда у хўжаликлар сонини, этник касб-кор ва этноснинг бошқа хусусиятларини батафсил баён қилди;

- иккинчидан, Самарқанд ва Бухоро аҳолисининг хунармандчилиги ва касб турларини ўрганишда этник келиб чиқиши масаласига тўхталади, бу жараёнда у маҳаллий диалектнинг лингвистик хусусиятларини ҳам асос қилиб олади. Олима касбларнинг маълум бир этник гуруҳга хос бўлган тил ва этник хусусиятлари билан таснифлайди;

- учинчидан, О. А. Сухарева томонидан кийим-кечаклар тарихи ҳам муфассал ўрганилади, бунда у маълум бир этноснинг анъанавий кийимлари хусусиятларини ҳам таҳлил қилади;

- тўртинчидан, этник келиб чиқиш масаласини маълум бир этник гуруҳга тегишли кадрятлар ва маросимлар тарихи билан боғлиқ ҳолда таҳлил қилади.

О. А. Сухареванинг 1966 йилда Москвада нашр қилинган “Бухара XIX - начала XX вв : позднефеодальный город и его население” номли монографиясининг 3-бобида “Бухоро аҳолисининг этник таркиби ва шаклланиш йўллари” муаммолари ўз илмий изоҳини топди. Бу бобда шаҳар аҳолиси этнографияси ва этник тарихи масаласи куйидаги манбалар асосида илмий таҳлил қилинади :

1. *Х асрга тегишли тарихий манбалар, вақфномалар,*
2. *XVI асрдан бошлаб Бухорога ташриф буюрган европалик ва рус сайёҳларининг эсдалик ва хотираларидаги тарихий мемуарлар,*
3. *1924-1926 йилларда Бухоро аҳолисини рўйхатга олиш ишлари ҳисоботлари ,*
4. *1928-1930 йилларда Бухорода Тропик касалликлар институтининг тиббий кўриги натижасида тузилган статистик маълумотлари*[11],
5. *Тарихий адабиётлар ва этнографик дала тадқиқотлари.*

О. А. Сухарева тарихий-этнографик тафсилотларига таяниб, Бухоро аҳолиси этник таркибини туркий тилли халқлар, араблар, форслар, яҳудийлар каби этник гуруҳларга бўлиб ўрганади.

Олима Ўрта Осиё шаҳарлари ва кишлоқларининг этник таркиби масаласини анъанавий равишда аҳоли бандлиги билан боғлайди. Агар минтақада туркий халқлар миқдорий жиҳатдан устун бўлган бўлса, катта шаҳарлар – хусусан, Бухоро ва Самарқандда тожиклар аҳолининг аксарият қисмини ташкил қилганлигини таъкидлайди. Бухоро шаҳрида бухоролик-тожиклар, форслар, афғонлар шунингдек, яҳудийлар ҳам истиқомат қилганлигини таъкидлайди. Уларнинг сони Бухорода уч мингга яқин кишини ташкил этган. 1745 йилда Эрон шоҳи Нодиршоҳ кўшини билан биргаликда келган “Кўп сонли лезгинлар, усмонли турклар, эронийлар ва афғонларнинг катта қисми Бухорода қолди ва ҳозирда ҳам яшамоқдалар” деб ёзади Мейендорф ва Хорошхинлар. О. А. Сухарева бу маълумотларни Д. Г. Вороновский диссертациясидан фойдаланиб изоҳлар келтиради [11].

О. А. Сухарева Бухоро шаҳри аҳолиси этник хусусиятларини Бухорога ташриф буюрган элчи-сайёҳларнинг эсдалик ва хотиралари асосида таҳлил қилади. Жумладан, 1558-1560 йилларда Бухорода бўлган сайёҳ Женкинсон эсдаликларида “Шаҳар жуда улкан” деб баҳоланади. Шаҳар аҳолиси орасида тожик тили устунлигини таъкидланади. Бухоро қачонлардир форслар ҳукмронлиги таъсирида бўлган, ҳозирда ҳам кўпчилик форс – тожик тилида сўзлашади, дейилади. А. Бёрнс ҳам шу фикрни тасдиқлайди. Ф. Ефремов ва М. Ch. Adelung фикрларида бухороликлар “жанубий татарлар” этник гуруҳига киритилиб, М. Ch. Adelung “Mitridatis” номли асарида улар туркийларга тегишли гузлар ва туркманларнинг ҳақиқий авлодлари деб таърифланади [11].

Юлиус Клапрот этнослар ҳақидаги назария ва қарашларга тўхталиб, “бухороликлар ким” деган саволни кўяди. У бухороликлар туркий эмас, Эрон тиллик дейди. Бунга асос қилиб 1805 йилда Головин бошчилигида Хитой экспедицияси таркибида бўлиб, савдо муносабатлари билан Хитойга келган бухоролик савдогарлар билан танишувда уларнинг тили форсчага яқинлигига ишонч ҳосил қилади. Сибир орқали Тоболск ва Томск сафари давомида у Сибирлик бухорийлар билан учрашади

ва бухороликлар тилида туркий сўзлар кўпчиликини ташкил этса-да, форсча сўзлар ҳам кўшиб ишлатилишини таъкидлайди. Шу асосида бухороликлар форслардан келиб чиққан деб хулоса қилади.


А.Ф.Негри ва Е.К.Мейендорф, Е.А.Эверсман, Будрин (1820), П.И.Демезон (1833-34), Я.В.Виткевич(1836), Н.Хаников ва А.Леман (1841), А.Бёрнс 1831-1832, А.Вамбери(1863-64), Г.И.Спасский, И.Пославский, Н.Ф.Ситяковский, П.П.Шубинский(1892)[13], асарларида Бухоро аҳолиси этнографияси ва этник тарихига доир маълумотларга бой.

1820 йили Бухорага жўнатилган А.Ф.Негри бошчилигидаги дипломатик миссия катнашчиларидан Е.А.Эверсман, Х.П.Яковлев, Будрин ва полковник Г. Мейендорфларнинг китоб ва хотиралари нихоятда бой тарихий этнографик маълумотларга эга. Г. Мейендорфнинг турли даврларда нашр қилинган “Оренбургдан Бухорога саёҳат” номли китобида Бухоро хонлигининг географик ўрни, ижтимоий-иқтисодий аҳволи, давлат тузилиши, аҳолиси ва унинг машғулоти, қишлоқ хўжалиги, суғориш тизими, хунармандчилиги, ички ва ташқи савдо, оила ва хотин-қизларнинг турмуши ҳақида қимматбаҳо маълумотлар келтирилган. Чет эл муаллифларидан бири - форс тилини яхши билган инглиз саёҳатчиси Александр Бёрнс 1831-1832 йилларда Бухорода туриб, муҳим сиёсий, иқтисодий, ҳарбий ва этнографик материалларни тўплайди. Унинг томонидан ёзиб қолдирилган саёҳатномада ўзбеклар ҳақида нихоятда қизиқарли маълумотлар мавжуд. 1840-1850 йиллар ичида Қозоғистон ва Ўрта Осиё халқларининг этнографиясини илмий жиҳатдан ўрганишда ака-ука Николай ва Яков Ханиковларнинг хизмати катта. Арминий Вамбери ҳам ўзбек уруғлари ҳақида гапириб, биринчи бўлиб “ўзбек” сўзининг келиб чиқиши тўғрисида мулоҳаза юритади. А.Вамбери ўзбек қабилаларининг рўйхатини беради ва уларнинг кийим-кечаклари, таомлари, ўйинлари ва мусика асбоблари, урф-одатлари ва диний маросимлари тўғрисида ҳикоя қилади[11].

XIX асрнинг 80-йилларида Бухорода бўлган И.Пославский Бухоро аҳолисининг кўпчилигини ўзбеклар ташкил этади деб таъкидлайди. Ўзбеклар шаҳарнинг шарқий қисмида, тожиклар (эронийлар) ғарбий қисмида яшайди, -деб ёзади. Бухоро шаҳри аҳолисини этно-лингвистик нуқтаи назаридан таҳлил қилишда О.А.Сухарева юқорида келтирилган европалик ва рус сайёҳларининг эсдалик ва хотираларидаги маълумотлардан фойдаланади.

Бухоро шаҳри аҳолиси таркибидаги форс-тожик аҳолисининг этник тарихи

Бухорода **форслар**, асосан, шаҳарнинг ғарбий қисмидаги маҳаллаларда яшайдилар. Жўйбор маҳалласида ҳам кўпчиликини ташкил этадилар. Хиёбонга ёндош Сарахсиён, Косагарон, Мир Дўстум маҳаллаларигача бўлган ҳудудларда ҳам яшайдилар. Эронийлар шаҳар деворидан ташқаридаги Кумработ ва Афшор маҳаллаларида ҳам истикомат қиладилар. Улар шаҳар деворига яқин жойлашган Чақар, Абдуллахўжа, Чукур маҳалла, Ҳовузи Баланд маҳаллаларида кўпчиликини ташкил этганлар. Форсларнинг Жўйбор гуруҳи билан боғлиқ бўлмаган иккита кичикроқ гуруҳлари шаҳар марказида-кўҳна шаҳристон ҳудудида ва Аркдан ғарброқда жойлашган Дўстчуроғаси маҳаллаларида ҳам яшайдилар.



Бухорода эронийларининг кўчиб келиши турли даврларда содир бўлган. Ҳофиз Таниш Бухорийнинг “Абдуллонома” асарида келтирилишича XVI асрда Убайдуллахон ва Абдуллахон II даврларида Марвдан ва Эрондан кўплаб форслар кўчиртириб келинган.

XVIII аср ўрталарида бир қисм форслар Эрон ҳукмдори Нодиршоҳ томонидан Бухоро амирлигига юришлари вақтида Бухоро шаҳри ҳудудига ўрнашиб қолганликлари ҳақида Муҳаммад Ёқуб Бухорийнинг “Гулшан ул- мулк” асарида айтиб ўтилган.

Лекин, Бухоро форсларининг ўзига хос этник гуруҳга айланишига кўчиб келган эронликлар эмас, қадимдан Ўрта Осиё шаҳарлари таркибига кирган Марвдан кўчиртирилганлар катта аҳамиятга эга. XVIII асрда амир Шоҳмурод буйруғи асосида Мурғоб тўғони буздирилиб, Марв аҳолиси мажбуран Самарқанд ва Бухорога кўчиртирилган. Абдулкарим Бухорийнинг ёзишича “Шоҳмурод Марвдан 5000 оилани кўчиртиришни буюрди, кейин яна 2000 оила Бухорога кўчиртирилди. Умуман, бу даврда 17000 оила Бухорога келтирилди”.

Муҳаммад Ёқуб Бухорийнинг “Гулшан ул-мулк” асарида Амир Шоҳмурод томонидан Бухорога “ўттиз минг шиа-қизилбошлар” кўчиртирилган дейилади. Марвликларни оммавий равишда Бухорога кўчиртириш Амир Ҳайдар даврида ҳам амалга оширилган.

Дўстчуроғаси, Тўпхона маҳаллаларида яшаётган форслар бир вақтда мажбурий кўчиртириш орқали шаҳарга келиб қолган. Тўпхона маҳалласидаги 90 хонадондан 60 таси форслар хонадонлари бўлган. Булар шиа мазҳабини сақлаб қолганлар. Бу маҳаллада уларнинг эътиқоди билан боғлиқ Ҳусайнияхоналари бўлган.

Форсларнинг яқка тартибда кўчиб келишлари XX аср бошларигача давом этган. Савдо ишлари билан келган форс савдогар ва хунармандлар ўз мазҳабдагилар яшаётган муҳит, шароитларни кўриб Бухоро шаҳридаги маҳаллий форсларга қўшилиб кетганлар. Кўчиб келган эронийларни туб аҳоли “Машҳади” (машҳадликлар) ёки “Пирсиёнлар” (форслар) деб атаганлар. Сухареванинг маълумотларига кўра озод қилинган форсий кулларнинг авлодлари Косагарон маҳалласидаги “Кўчаи Ғуломо” деб аталувчи тор кўчада яшаганлар. Манғитлар сулоласи хукмдорлари даврида олий амалдорлар орасида форслар ҳам кўпайиб борган. Муҳаммад Раҳимбий даврида қўшбеги лавозимида форс Давлатбий ишлаган. Амир Насруллоҳон даврида оталик лавозими ўрнига қўшбеги мансабининг мавқеи оширилиб, бу мансабга форслардан тайинланган.


1926 йилда ўтказилган аҳолини рўйхатга олиш ишларида Бухоро шаҳрида истиқомат қилувчи форсийлар 1917 нафарни ва эронийлар 94 нафарни ташкил этган. Бундан ташқари шаҳар атрофида 1210 нафар хўжалик яъни 4000 кишидан иборат форсийлар яшаганликлари қайд этилган. Шундай қилиб шаҳарда 2000 нафар, шаҳар чеккаларида 4000 нафар жами 6000 нафардан иборат форсийлар истиқомат қилган [11].

Бухоро шаҳри аҳолиси таркибидаги туркийзабон аҳоли этник тарихи:

Шаҳарнинг 34 маҳалласида ўзбеклар яшайди. Кўп маҳаллалардаги ўзбеклар ҳарбийлар ва амалдорлар ҳисобланади. Кўп сонли ўзбеклар шаҳарнинг шимоли-шарқий қисмида Бўйрабобон маҳалласида Самарқанд дарвозасидан унча узоқ бўлмаган ҳудудда яшаганлар. Шаҳарнинг ғарбий қисмида қалмоқлар истиқомат қилган. Дўрмон, Оқмачит ва Қатағон маҳаллаларида кенегаслар яшаган. Насруллоҳон бошқаруви даврида Шаҳрисабз ҳудуди эгалланади ва аҳолини бир қисми мажбуран Бухорога кўчиртирилади. Ўзбек уруғларидан бўлган ҳарбий хизматчилар шаҳарнинг шимолий-ғарбида жойлашган Қулмуҳаммад-хожи, Зиндафил Аҳмадий Жоме, Оқмачит, Баҳодирбий, Қалмоқ, Мачити Кунжак, Аҳмад дорғо, Девори Пахса, Такия, Муддао маҳаллаларининг барчасида истиқомат қилганлар. Сорвоно маҳалласида ярим аҳоли туркийзабон бўлган, уларнинг асосий касблари амирга тегишли юкларни ташишга мўлжалланган туяларга қараш бўлган. Бу маҳаллада амирнинг ишончли кишилари ва хизматчилари яшаганлар.

Бир неча туркий уруғлар шаҳарнинг жануби-ғарбий қисмида жойлашганлар. Бу ерда Қирғизойим маҳалласида ҳарбийлар кўпчиликни ташкил этгани учун, халқ орасида Сипоҳийлар деб номланадиган катта маҳалла бўлган. Бу маҳаллада манғитлар, қирқ-юзлар каби туркий уруғлар яшаган. Ғозиён маҳалласидан ғарбдаги маҳаллаларда кам сонли ўзбек сипоҳий оилалари ҳам истиқомат қилган. Масалан, Косагарон, Шайх-Жалол, Миракон, Ҳавузи-Нав маҳаллаларида ўзбек оилалари ҳам кўпчиликни ташкил этган.

Туркий Буркут уруғидан бўлган ўзбеклар шаҳарнинг энг шарқий нуқтасида жойлашган Қора Камол маҳалласида истиқомат қилганлар. Ўтмишда буркутлар аслзода сипоҳийлар бўлган. Кейинроқ улар камбағаллашиб, тожикларнинг этикдўзлик касбини эгаллай бошлаганлар. Лекин тил хусусиятини йўқотмаганлар ва ўз номларига “бек” сўзини қўшиб айтганлар. О.А. Сухарева Бухоро шаҳрига, асосан, ўзбек уруғлари XVI асрдан кўчиб келган деб таъкидлайди.



Бухоро яҳудийлари:

О.А.Сухарева яҳудийлар Ўрта Осиёга қадимги даврлардан келган деб таъкидлайди. Спасский, Эверсман, Н.Хаников, Мейендорф, А.Вамбери ва Бёрнсларнинг хотиларида яҳудийларнинг Ўрта Осиёга тарқалиши ҳақида турлича фикрлар айтилади. Темур даврида Бухорога Шероз ва Боғдоддан 10 та яҳудий оиласи кўчириб келтирилган. Улар ипак матолар тайёрлайдиган мохир хунарманд оилалари бўлишган.

XVI асрнинг ўрталарига келиб Бухоро хонлигининг ташқи дипломатик ва сиёсий алоқаларининг ривожини яҳудий халқларининг бу ерда янада ортиши ҳамда яшаб қолиши учун қулай муҳитни юзага келтирган. Натижада Туркистон минтақасидаги бу “майда миллат”га умумий тарзда “Бухоро яҳудийлари” дейила бошланган. Ушбу атама дастлаб хорижий сайёҳлар хотиралари ва тарихий адабиётларда XIX асрнинг 20-йилларидан учрай бошлайди[10].

Бухорода яҳудийларнинг учта гузар (кўчаси) бўлиб, саккиз юз хонадонни ташкил этган, умумий сони 4000 минг нафар бўлган. Бу даврда Машҳадда 300, Шаҳрисабзда 30, Балхда ҳам 30, Самарқанд ва Ҳиротда ўнтадан, Хивада тўрт нафар яҳудий хонадони, Бадахшон, Қўқон ҳамда Кошғарда эса умуман яҳудийларни учрамаган. Рус олими Е.Мейендорф “...Чекловларга қарамай, яҳудийлар Осиё шаҳарлари ичида Бухоро улар учун энг яхши ва қулай макон деб ҳисоблайдилар” деб ёзади[5].

Бухоро яҳудийлари маҳаллий аҳолидан диндан бошқа ҳамма нарсани ўзлаштирганлар. Яҳудийлар амирликнинг Бухоро ва Қарши бекликларида яшаб, савдо, хунармандчилик, ишлаб чиқариш ва тўқувчиликда мохир бўлганлар. Амирлик марказида яҳудийларнинг Маҳаллаи Кўҳна (XVI), Маҳаллаи Нав (XVII) ва Маҳаллаи Амиробод (XIX) каби учта яҳудий гузарлари бўлган [1]. Л.И.Ремпелнинг ёзишича, Қуддусдан кўчиб келган яҳудийлар Янги маҳаллага жойлашишга эришганлар. У ҳам Эски (Кўҳна) маҳалладан узок бўлмаган[11]. Аммо, одатда, яҳудийларга ер берилиши, уй сотиб олиши каби масалаларга руҳсат берилмаганлиги сабабли улар учун бу воқеани жуда муҳим ҳисобланган.

XIX асрнинг ўрталарига келиб яҳудийларнинг маҳалласи яна биттага кўпаяди. Маҳаллани Амир Музаффархонга миннатдорлик рамзи сифатида “Амиробод” деб аташади. Шаҳарнинг Эшони Пир, Маҳаллаи Хўжа Ҳалим, Чор Карвонсарой, Мухтор Шофе, Арабон (Сафедмўй), Дарвозаи Саллахона ва Хўжа Амонбой маҳаллаларининг бир нечта хонадонларида яҳудий – “чалалар” яшашган. Яҳудийлардан “чала” деб исломга ўтганларига нисбатан айтилган [9].



Хулоса. Ўзбекистон ҳудудида истиқомат қилиб келган халқлар этнографияси ва этник тарихини ўрганиш борасида О.А.Сухареванинг илмий тадқиқотлари ўзига хослиги билан ажралиб туради. Бухоро, Самарқанд, Қарши ва Шаҳрисабз шаҳарлари аҳолиси этник тарихи олима томонидан концептуал тарзда ўрганилади. Аҳолининг лингвистик хусусиятлари, миграцион жараёнлар, иқтисодий интеграциялашув, этник гуруҳларнинг маънавий ва ижтимоий ҳаёти масалаларига алоҳида тўхталиб, этник мақом масаласини тадқиқот соҳасида қўлламайди. Шу билан бирга, О. А. Сухарева

илмий тадқиқотлари объекти сифатида танлаган шаҳар муҳити аҳолисининг миллий кийимлари, урф-одатлари, маросимлари ва бошқа этнографик хусусиятларини ўрганиш нуктаи назаридан муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР:

1. *Альмеев Р.В. История регистрации и деятельности в г. Бухаре второй общины и синагоги бухарских евреев (1989-1999 гг.) - Бухара, 2001. -С. В кн.: История Узбекской ССР, т.II. Ташкент: Фан, 1968, статьи: Города и селения Узбекистана, с. 122-137; Ремесленное производство, с. 174-201; Бытовые условия жизни народных масс, с. 491-510.*
2. *В кн. Народы Средней Азии и Казахстана (серия «Народы мира, Этнографические очерки»), т.1.М.:Изд-во АН СССР, 1962, разделы: Города, селения, с. 262-278; Одежда. Общественный и семейный быт, с. 292-304, 314-344 (в соавторстве с М. А. Бикжановой и К. Л. Задыхиной).*
3. *Жабборов И.М. “Ўзбек халқи этнографияси”. Т., 1994, 47-Б*
4. *Жданко Т. А., Кармышева Б. Х. Ольга Александровна Сухарева (некролог) // Сов. этнография (далее - СЭ). 1983. № 6. С. 158-160.*
5. *Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. - Москва, 1975. -С. 95-96.*
6. *Мирзоев М.Н. Вклад Ольги Александровны Сухаревой в изучение истории и этнографии таджиков Бухары и Самарканда На соискание ученой степени кандидата исторических наук ...дисс. – Душанбе: 2024. –С.182 .*
7. *Наумова, О.Б. Ольга Александровна Сухарева (К 100-летию со дня рождения) [Текст] / О.Б. Наумова// Этнографическое обозрение. – 2003. – №6. – С.96.*
8. *В кн.: Памяти Михаила Степановича Андреева. Сборник статей по истории и филологии народов Средней Азии. Сталинабад, 1960. — Писарчик А. К. Михаил Степанович Андреев (1873—1948), с. 3—20; Список опубликованных научных работ М. С. Андреева, с. 20—23. (Перечень 54 кн. и ст. за 1893—1958 гг.).*
9. *Ражабова Д. XIX-асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошларида Бухоро амирлигидаги конфессиялар тарихи. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2023;*
10. *Ремпель Л.И. Далёкое и близкое. - Ташкент, 1981. -С. 48.*
11. *Сухарева, О.А., Бикжанова, М.А. Прошлое и настоящее селения Айкыран [Текст]: Опыт этнографического изучения колхоза им. Сталина Чартакского района Наманганской области / О.А. Сухарева. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1955 – 238 с.*
12. *О.А. Сухарева // Семья и семейные обряды у народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука, 1978. – С.118-131.; Она же. Вопросы изучения костюма народов Средней Азии [Текст] / О.А. Сухарева // Костюма народов Средней Азии. Историко-этнографические очерки. – М.: Наука, 1979. – С.3-13.;*
13. *Сухарева, О.А. Бухара XIX - начала XX в. (позднефеодальный город и его население) / О.А. Сухарева. – М.: Наука, 1966. – 328 с.*
14. *Тўраева Г.Б. XIX аср охири - XX аср бошларида Ўрта Осиё халқлари этнографияси тарихи нунослиги – рус шарқи нунослиги мисолида / "Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№1 Б-132-135. (70), Хоразм Маъмун академияси, 2021 й. – 314 б. – Босма нашрининг электрон варианты - <http://matin.uz/uz/page/56> ISSN 2091-573 X*
15. *Шубинский П.П. Очерки Бухары // Исторический вестник. (Петербург), 1892. № 7. -С. 386.*

ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA DINLARNING YORITILISHI

*Abdulahyayeva Zilola Sharipjonovna,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi tadqiqotchisi
Nishanova Dildora Komiljanovna,
Oriental universiteti dotsenti v.b.*

Annotatsiya. Abu Rayhon Beruniy o‘zining ilmiy merosi bilan tarix, tibbiyot kabi fan tarmoqlaridan tashqari dinshunoslik faniga ham kata hissa qo‘shganligi bois dinshunoslik otasi degan taxallus bilan ham e’tirof etiladi. Alloma o‘z davrida dinlarning tarixi, marosimlari va xalqlarning urf-odatlarini o‘zining vizual tadqiqotlari asosida faktik ma’lumotlar berganligi mavhum ma’lumotlarning oldini olish hamda ularning g‘oyaviy maqsadlarini yetarli tarzda ochib bergan. Maqolada Qadimgi Eron, Hindiston hamda Markaziy Osiyo xalqlarining diniy e’tiqodlari, marosimlari va urf-odatlari Beruniy asarlari asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Qadimgi Eron, Markaziy Osiyo, Beruniy asarlari, Qaloyus, Faylakus, majusiylik, zardo‘shiylik, moniylik, forslar, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, Sankhya, Foris ibn Yahuzo ibn Yoqub.

ОСВЕЩЕНИЕ РЕЛИГИИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ БЕРУНИ

Аннотация. Абу Рейхан Беруни, благодаря своему научному наследию, внёс значительный вклад не только в историю и медицину, но и в религиоведение, поэтому его также называют отцом религиоведения. Учёный предоставил фактическую информацию об истории религий, обрядах и обычаях народов своего времени на основе своих визуальных исследований, чтобы предотвратить абстрактную информацию и адекватно раскрыть их идеологические цели. В статье освещаются религиозные верования, обряды и обычаи народов Древнего Ирана, Индии и Центральной Азии на основе трудов Беруни.

Ключевые слова: древний Иран, Средняя Азия, произведения Беруни, Калюус, Файлакус, язычество, зороастризм, монизм, персы, «Реликвии древних народов», «Индия», Санхья, Фарис ибн Якуба.

THE LIGHT OF RELIGION IN BERUNI'S WORKS

Abstract. Abu Rayhan Beruni with his scientific heritage, has made a significant contribution to the science of religion, in addition to history and medicine, and is also known as the father of religion. The fact that philosopher gave factual information on the history of religions, ceremonies and customs of peoples based on his visual studies in his time prevented abstract information and sufficiently revealed their ideological goals. The article covers the religious beliefs, rituals and customs of the peoples of Ancient Iran, India and Central Asia based on Beruni's works.

Keywords: Ancient Iran, Central Asia, Beruni's works, Qaloyus, Faylakus, paganism, zoroastrianism, monism, persians, "Relics from ancient nations", "India", Sankhya, Faris ibn Yahuzo ibn Yaqub

Kirish. Abu Rayhon Beruniy dinshunoslik fanining otasi sifatida e’tirof etilishining sabablaridan biri har bir dinga alohida e’tibor berish bilan birga mamlakatlar va hududlar kesimida ham keng o‘rgangan. Alloma Eronning qadimgi – islomdan oldingi diniy jamoalari haqida ham qimmatli ma’lumotlarni keltiradi. Aslini olganda, qadimgi Eron diniy e’tiqodlari bugungi kunda ham zamonaviy dinshunoslik fanining muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. “Qadimgi Eron qiyosiy dinshunoslik mutaxassislari uchun shu jihati bilan ham qiziqarliki, u ko‘plab dinlar vujudga kelgan makon hisoblangan. Bu manzil qadimgi dinlar o‘chog‘i edi”[3], – deydi Qamaruzzamon.

Beruniy Eronning tub aholisi – forslarning nega aynan shunday deb atalishlari xususida to‘xtalib, bu atama “Foris ibn Yahuzo ibn Yoqubga nisbat qilib olingan. Ba’zilarning aytishicha, eronliklarning Fors mamlakatiga kelganliklari sababli shunday nom berilgan”, – deb qayd etadi[1].

Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asaridagi “Eronliklar oylaridagi hayitlar va mashhur kunlar ustida so‘z” nomli bobida bu xalqning bayramlari haqida batafsil ma’lumot beriladi. Olim qisman ularning diniy qarashlariga ham to‘xtaladi. Bu borada o‘ziga qadar ma’lum bo‘lgan ma’lumotlarni

tanqid qilib, “ular bu masalaga ko‘p e‘tibor bermaganlar, chunki buzilgan va ko‘pchiligi ishonchsiz nusxalardan ko‘chirish bilan kifoyalanganlar”, – deb yozadi. Bu borada Zoduvayh ibn Shohuvayh, Xurshid ibn Ziyor, Muhammad ibn Bahrom ibn Mityor kabilarni ma‘qullab, ularning axborotidan foydalanganini aytadi.

E‘tiborli jihati Beruniy qadimgi eronliklardagi bayramlarni ikki guruhga – dunyoviy va diniyga ajratadi. “Bu hayit kunlarining ba‘zisi dunyoviy ishlar uchun, ba‘zisi diniy ishlar uchun belgilangan. Dunyoviyolari mukarram hayitlar va ulug‘ kunlar bo‘lib, podshohlar, raislar shu kunlarda marosimlar o‘tkazganlar. Diniy hayitlarga kelganda, bularni eronliklarning shariat arboblari, imomlari va dindorlari keltirib chiqarganlar”, – deb yozadi olim va har ikki turli bayramlarning maqsadi ham turlicha bo‘lganini ta‘kidlaydi: “Dunyoviy bayramlar hukmdorlarning maqtovg‘a sazovor bo‘lishi uchun qaratilgan bo‘lsa, diniy bayramlar oxirat uchun bo‘lgan”[5].

Asosiy qism. Beruniy asarlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, qadimgi forslar dini deganda ikki din nazarda tutilgan. Ular majusiylik va zardushtiylik bo‘lib, hozirgi kunga qadar ular aslida bitta dinmi yoki alohida ikki dinmi? degan muhohasali fikrni yuzaga keltirmoqda. Chunki Beruniyning o‘zi ham bunga katta e‘tibor qaratmagan holda turli fikrlarni keltirganini ko‘ramiz. Jumladan, majusiylik dinining kelib chiqishi borasida “Qadimgi majusiylar Zardusht yuzaga chiqishidan oldin ham mavjud edilar. Endi ulardan Zardusht diniga ishonmaydigan xolis va sof biron kishi topilmaydi, balki ular ham Zardusht qavmidan yoki Quyoshga topinuvchilardan bo‘lib ketganlar”, deyilib, zardushtiylik va majusiylik dinlari boshqa-boshqa ekanligi ko‘rsatilsa, ayrim ma‘lumotlarda eronliklar aynan Zardusht keltirgan majusiylikni din tutganliklarini va xristianlik yuzaga kelgunga qadar bu dinda mazhablarga bo‘linmaganliklari yoki Zardusht yuzaga chiqib, majusiylikni olib kelgach, podshohlar din ishlariga e‘tibor bilan qaraganlari, “Xuroson, Fors, Iroq, Mosul va Shom atrofidagilar buddaviylik yuzaga kelguniga qadar Zardusht da‘vat etgan majusiylikda bo‘lib, Kushtasb va uning o‘g‘li Isfandiyor davrida Xitoydan to Rungacha bo‘lgan yerlarda otashparastlik ibodatxonolari qurilgan”i qayd etilgan. V.Klayn, F.Rozental, O.Qamaruzzamon va A.Jefferilar Beruniyning majusiylik deganda zardushtiylikni nazarda tutganini aytalar[1,2,3] K.Adang, G.Kaur va J.Vaardenburg ular ikki yo‘nalish sifatida o‘rganilganini ta‘kidlaydilar[3]. Professor A.Hasanov ham bu boradagi fikrlarni bildirib, o‘zbek tilida majusiylik ikki xil: 1) zardushtiylik va 2) umuman butparastlik ma‘nosida kelishini ta‘kidlaydi[6]. Agar shu jihatdan olib qaralsa, Beruniy majusiylar atamasini ikki ma‘noda ishlatgan. Unga ko‘ra, zardushtiylikdan avval ham quyoshga topinuvchilar (butparastlar) bo‘lgan va ular majusiylar deb atalganlar. So‘ngra Zardusht yuzaga chiqqach, aqida bir-biriga o‘xshash bo‘lgani sababli shu nom bilan atala boshlangan.

“Majusiylik” atamasining kelib chiqishi borasida Beruniy quyidagilarni yozadi: “Majus” nomini olsak, ba‘zilar bu so‘z “najosat”dan olingan, go‘yo “majuslar” “najuslar”dir, “nun” (harfi) “mim”ga almashgan, deydi. Hamza ibn Hasan Isfahoniy buni inkor etib, “majus” suryoncha “magushiy” nomining arabchalashtirilganidir, chunki nabotiyalar Eron podshohini “magushiy” deb atar edilar, degan. Bu lafzning ma‘nosi “o‘z mamlakatlari ishi haqida so‘zlovchilar” demakdir”[11].

Beruniyning yozishicha, majusiylarning diniy asoslarida aniqlik bo‘lmagan, ya‘ni ular “birmuncha qadimgi (urf-odatlarini) hikoya qilib, shularni o‘z dinlariga nisbat berganlar”[11]. Buni olim ularning Quyoshga topinuvchilar va qadimgi harroniylarning diniy asoslaridan ko‘chirma olganlari bilan izohlaydi. Jumladan, majusiylar o‘z dinlariga aloqasi bo‘lmagan kunlar va hayitlarni ham nishonlayverganlar. Beruniy bularga “novsorji”, “chiri”, “umri”, “adu” kabi bir qancha diniy bayramlarni misol sifatida keltiradi.

Beruniy davrida garchi islom davlat dini darajasiga ko‘tarilib, aholining ko‘p qismini musulmonlar tashkil qilgan bo‘lsa-da, mahalliy aholi orasida zardushtiylik tarafdorlari ham bo‘lgan. Binobarin ushbu din ham olim tomonidan batafsil o‘rganilgan.

Zardushtiylikka oid Beruniy tadqiqotlari asosan, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”da uchraydi. U ilm-fan tarixida ilk bor zardushtiylik dinining boshqa ko‘plab dinlar, moniyalar, xorazmliklar va hatto ba‘zi xristian sektalariga ta‘sir ko‘rsatgani haqidagi fikrni ilgari surgan. Olimning ushbu dinning yuzaga kelish tarixi, ta‘limoti, tarafdorlari, ularning diniy urf-odatlarini haqidagi ma‘lumotlarni turli xil fikrlar asosida sharhlaganini alohida ta‘kidlash joiz.

Beruniy Zardushtning kelib chiqishi haqida turli fikrlar borligini qayd etib, quyidagilarni yozadi: “Yunonlarga ko‘ra, Pifagorning ikkita shogirdi bo‘lib, biri Qaloyus, ikkinchisi Faylakus edi. Qaloyus Hindiston yarim oroli mamlakatlari borgan va Brahmanlar ta‘limoti nisbat beriladigan Barahmashga yetti yil shogird bo‘lib, Pifagor ta‘limotini o‘rgangan. Qaloyus vafot etgach, Barahmash yangi fikrlar ijod etib, Pifagor ta‘limotiga qo‘shgan. Faylakus esa Bobilga borgan. U yerda Zardusht nomi bilan tanilgan Purushosfning o‘g‘li Safid Tumon yoki ikkinchi nomi Vortush bilan tanishib, unga ustozlik qilgan. Faylakus vafot etgach, Zardusht Siblun (Seylon) tog‘iga kirib, bir necha yil shu yerda yashagan. Nihoyat o‘z kitobini tuzib, yangi dinga asos solgan. Ibroniylar esa Zardusht Ilyos payg‘ambar shogirdlaridan biri degan fikrni

ilgari surib, Zardushtning “Tug‘ilish kitobi”da yozgan bolalik vaqtida Harronda hikmatshunos Ilyosdan ilm o‘rgangani haqidagi ma‘lumotni bunga dalil sifatida keltiradilar. “Rumliklarning da’vosicha, – deb yozadi Beruniy, – Zardusht Mavsuldan bo‘lgan. Ehtimol ular Ozarbayjon chegaralarini Mavsul chegaralariga qo‘shib, shunday degan bo‘lsalar kerak”[5].

Beruniyning o‘zi Zardusht ibn Safid Tumon Manuchehr podshoh naslidan bo‘lib, Bishtosf (Uni Gushtosib, Bishtosf yoki Vishtasb deb ham ataydilar. Afsonalarga ko‘ra yer yuzida hukm surgan podshohlarning eng avvalgisi Qayumars bo‘lgan. Saltanat Qayumarsdan keyin avlodma-avlod o‘tib, nihoyat Gushtosib ibn Lahrosbga tekkan ekan. Bu podshoh davrida Zardusht chiqqan va birinchi bo‘lib bu dinni shu podshoh qabul qilgan va o‘g‘li Isfandiyod bilan uni yoyishga harakat qilgan.) podshohligidan o‘ttiz yil o‘tib, o‘ng va chap qo‘li qirqilgan ko‘ylak kiygan, beliga xurmo po‘stlog‘idan zunnor bog‘lagan, yozuvlari o‘chib ketgan bir qog‘ozni qo‘liga ushlab, ko‘kragiga qo‘ygan holda Ozarbayjonda yuzaga chiqqani haqidagi ma‘lumotga qo‘shiladi. Bu haqda u yana shunday deydi: “Xurosondan Mosulgacha bo‘lgan hududlar to Zardusht Ozarbayjondan chiqib, Balxda majusiylilik diniga da’vat qilgunigacha shamanlik dinida edi. Uning da’vati Kushtasb davrida rivojlandi. Kushtasbning o‘g‘li Isfandiyod (Isfandiyor) Sharq va G‘arb mamlakatlarida majusiy dinini majburiy va sulh yo‘li bilan tarqatdi. Xitoydan to Rumogacha otashparastlar ibodatxonalarini qurdirtdi”[3].

Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”da Zardushtning yuzaga chiqishi bilan Iskandar erasining boshlanishi orasida 258 yil borligini keltiradi. Iskandar erasi miloddan avvalgi 312-yilda boshlangan deb hisoblanganidan kelib chiqib, ushbu sana milodiy hisobga ko‘chirilsa (312+258=570), Zardusht yuzaga chiqqan sana miloddan avvalgi 570-yil ekani kelib chiqadi. Bu paytda u qirq yoshda bo‘lgan, demak Zardusht miloddan avvalgi taxminan 610-yilda tug‘ilgan. Ammo oradan deyarli o‘ttiz besh yil o‘tib yozilgan “Qonuni Mas’udiy” asarida Zardusht yuzaga kelgan sanani Iskandar erasi boshlanishidan 276-yil avval deb beriladi. Bu miloddan avvalgi 586-yilga to‘g‘ri keladi. Qirq yil qo‘shilganda esa 628 chiqadi. Garchi zamonaviy ilm-fanda ham Zardushtning aynan qachon yashagani borasida bir xulosaga kelinmagan bo‘lsa-da, uning mil. avv. 660-628 yillar orasida tug‘ilgani haqida taxminlar mavjud[5]. Binobarin, Beruniyning ma‘lumoti ushbu taxminni deyarli tasdiqlagani ko‘rinadi.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto” haqida esa Beruniy uning murakkab tilda, alohida tartibda yozilgani, harflarining soni ko‘p ekani boshqa xalqlar ham o‘qib, o‘rganishlari uchun birmuncha qiyinchilik tug‘dirishini aytadi[4]. Olimning fikricha, Avesto o‘ttiz nask bo‘lib, podshoh Doro ibn Doro xazinasida uning o‘n ikki ming qora mol terisiga tilla bilan yozilgan nusxasi saqlangan. Ammo Iskandar otashxonalarini vayron qilganda, uning beshdan uch qismi kuyib ketgan. “Nask” atamasini Beruniy “Biz Qur‘on bo‘laklarini haftiyaklar (yettidan bir) deganimizdek, nask Abisto bo‘laklaridan har bir bo‘lakning nomidir”[2], deya ta’riflaydi.

Zardushtiylik dini turli dinlarga, jumladan, xristianlikning ba’zi oqimlariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatganini Beruniy o‘ziga xos ma‘lumotlar asosida isbotlab bergan. “Eronliklar Zardusht keltirgan majusiylilikni din tutdilar va ular Isoni ko‘kka ko‘tarib, (uning) shogirdlari (o‘n ikki havoriy) Iso diniga da’vat (qilish) maqsadida har tomonga tarqalmaguncha, majusiylilikda mazhablarga bo‘linmadilar va ixtilof qilmadilar. Isoning shogirdlari mamlakatlarga tarqalgach, ba’zilari Eron mamlakatiga borib qoldi. Ibn Dayson va Marqiyun ikkovi Iso da’vatini qabul etgan kishilardan bo‘lib, uning so‘zlarini eshitgan edilar. Ikkovi Iso so‘zidan bir qism va Zardusht tomonidan eshitganlaridan bir qism olib, har biri shu ikki so‘zdan ikki qadimgi asl mazmuni o‘z ichiga olgan bir mazhab tuzdi va har biri bittadan Injil chiqarib, uni (Iso) Masihniki qilib ko‘rsatdi va undan boshqa (Injillarni) yolg‘onga chiqardi. Ibn Dayson yuragiga xudoning nuri joylashganini da’vo qildi. Lekin bular (Injillarining Iso Injiliga) muxolifligi ular ikkovini va ularga ergashganlarni xristianlar jumlasidan chiqaradigan darajaga yetmadi. Ularning Injillari hamma masalalarda ham xristian Injillariga qarama-qarshi qo‘yilmadi. Balki bu ikki Injilda ortiq va kamlik yuz berdi, xolos”[2].

Beruniyga ko‘ra, majusiylarda ro‘za bo‘lmagan. Aksincha ro‘za tutgan kishi gunohkor sanalib, “kafforati uchun bir to‘da miskinlarni ovqatlantirishi lozim bo‘lgan”[1]. Majusiylarning qiblasi haqida Beruniy boshqa dinlar bilan qiyosiy tarzda ma‘lumot keltirgan. Asarda yozilishicha, ularning qiblasi Quyosh bo‘lib, chiqishi, botishi va kunning yarmida unga qarab ibodat qilganlar. Bundan tashqari bu din tarafdorlari olov, suv va boshqa maxluqlarga qarab ham namoz o‘qiyverganlar hamda Xudoga tasbeh aytganlar[2].

Beruniy jumladan, forslarning “surush ro‘z”i haqida to‘xtalar ekan, unga qo‘shimcha sifatida diniy amal hisoblangan “zamzama” haqida ham ma‘lumot beradi. “Zamzama – fahmlanadigan so‘z bilan emas, imo-ishora bilan gapirishdir. Bunga sabab shuki, qachon ular namoz o‘qib va Xudoga tasbeh aytib, uni muqaddas tutsalar, shu o‘rtada ovqatlanib oladilar. Namoz o‘rtasida ularning gapirishlari mumkin bo‘lmagani uchun “himm-himm” deb ishorat qiladilar”. Ba’zi adabiyotlar ham buni tasdiqlaydi: “Zamzama” so‘ziga “fahmlamoq ma’nosining berilishi majusiylarning (zardushtiyalar nazarda tutilgan) ovqat tanovul qilish oldidan muayyan diniy iboralarni shivirlab o‘qishlari bilan izohlanadi”[7].

Beruniy zardushtiylikdagi dafn marosimiga ham to'xtalib, majusiylar "ustidan yel o'tib turadigan, to'rt tarafi panjarali va usti tomlik bir bino qurib, shu yerga o'liklarni tashlab ketishgan", – deb yozadi. Ushbu ma'lumotlarni V.Klayn ham tasdiqlab, bu holat brahmanizm va yunon e'tiqodlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatganini qo'shimcha qiladi[1].

Ma'lumki, zardushtiylik katta madaniy va ilmiy merosga ega bo'lganlar, ammo tarixiy jarayonlar natijasida ular yo'q qilingan. Bu fikrlar Beruniyning quyidagi so'zlarida ham o'z aksini topadi: "Iskandar va uning vorislari rumliklar tomonidan eronliklar rag'bat qilgan barcha ilmiy kitoblar kuydirilib, hayot vositasi bo'lgan va faxr qilinadigan go'zal san'atlari barbod etilgan edi. Hatto Iskandar ko'plab diniy kitoblarni kuydirgan, ajoyib binolarni vayron qilgan, masalan, Istaxr tog'idagi bizning zamonimizda Sulaymon ibn Dovud masjidi nomi bilan mashhur bo'lgan binoga o't qo'ygan edi. Aytishlaricha, u masjidning ba'zi joylarida kuyanlik nishonalari hozirgi kungacha saqlanib qolgan". Shu sababli ham Beruniy ularning asl tarafdorlari hozirda deyarli yo'qligini, borlari ham "dinida qattiq turmagan, dinlarining yuzaki narsalarini tanib, haqiqat va ma'nosini tekshirmaydigan bir guruhigina qolgan"ini ta'kidlaydi.

Moniylik e'tiqodiy yo'nalishga Fors mamlakatlariga da'vatchi sifatida kelgan xristian Ibn Dayson va Marqiyunlardan ta'sirlangan ayrim ma'lumotlarga ko'ra, mesopotamiyalik, boshqa xabarlariga ko'ra xitoylik, yana ba'zi manbalarga ko'ra esa eronlik Moniy (216-276) tomonidan asos solingan. Moniylik qisqa vaqt ichida Misr, Tunis va Jazoirgacha bo'lgan hududlarni qamrab olgan hamda Buyuk ipak yo'li orqali O'rta Osiyoga, 694-yilda esa Xitoyga ham kirib kelgan, 762-840 yillarda Uyg'urlar davlatida davlat dini sifatida qabul qilingan. "Beruniyning ma'lumotlariga ko'ra, moniylik Samarqandda ham bir qancha muddat hayot kechirgan. Keyinchalik islom dini bu yerlarga kirib kelgach, o'zlarini Qur'onda e'tirof etilgan sobiiylar deb ataganlar". Bu fikrni V. Klayn va Shtromayerlar ham tasdiqlaydi. Beruniyshunos O. Qamaruzzamon esa moniylik musulmon olamida keng tarqalgan bo'lib, ularning islom dunyosidagi jamoasi sobiiylar deb atalgani, ularning diniy huquqi va ta'limoti sharqda islom dinidan tashqari turklar, xitoylar, Tibet aholisi hatto ba'zi hind sektalari orasida ham tarqalgani, bunga asos sifatida esa Shopur tomonidan Zardushtning payg'ambarlik da'vo qiluvchilarni mamlakatdan haydash haqidagi qonuniga asoslanib, Moniy o'z hududidan haydab chiqarganini va unga qaytib kelmaslikni shart qilganini, Moniy esa Hindiston, Xitoy va Tibetda bir qancha vaqt yashab, o'z diniga da'vat qilganini keltiradi[1].

Olimning moniylik va uning asoschisi haqidagi ma'lumotlari "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"da ham "Hindiston"da ham uchraydi. U bu dinni o'rganishda asosan Eronshahriy va ikki xristian olim asarlariga tayangan[6]. Bundan tashqari Beruniy moniylikning asl manbalari bilan ham tanish bo'lgan. Uning ushbu ta'limotga oid "Sirlar kitobi"dan havolalar keltirishi ham fikrimizni tasdiqlaydi. G.Shtromayerga ko'ra, u Moniyning "Shoburaqon", "Tiriklar xazinasi", "Jabborlar haqida kitob"lari hamda xatlari bilan ham shaxsan tanish bo'lgan[7]. L. Ort ham yuqoridagi fikrlarga qo'shiladi[8].

Moniylik haqida Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"ning "Payg'ambarlik da'vo qilgan shaxslar" bobida batafsil to'xtalgan. Moniy majusiylar, xristianlar va sanaviya mazhablarini yaxshi bilgan hamda Zardusht, Mazdak, Muqannalar kabi payg'ambarlik da'vo qilgan. U o'zini Odam, Zardusht, Budda va Isodan keyingi haqiqiy payg'ambar va Iso Masih xabar bergan xristian ta'limotidagi "Furoqlit" va "payg'ambarlarning muhri" deb atagan va Shopur ibn Ardasheriga atab yozgan "Shopuraqon" kitobining boshida quyidagi gaplarni yozgan: "Hikmat va yaxshi amallar doimo (xudoning) elchilari vaqti-vaqti bilan keltirib turganlarning o'zidir. Bir zamon u hikmat va yaxshi amallar Budd ismli elchi orqali Hindiston mamlakatiga, bir zamon Zardusht orqali Eron zaminiga va bir zamon Iso orqali Mag'rib zaminiga yuborilgan. So'ngra bu oxirgi asrda men Moniyga – haqiqiy xudoning elchisiga – shu vahiy tushirilib va shu payg'ambar keltirilib, (men orqali) Bobil zaminiga yuborildi".

Beruniyning yozishicha, "Moniy Bobil yaqinidagi Mardinu degan qishloqda Iskandar taqvimining besh yuz yigirma yettinchi yili, Ozarbon podshoh yillaridan to'rt yil o'tganda tug'ilgan. O'n uch yoshida unga vahiy kelgan. Shundan so'ng unga ergashuvchilar soni ko'paygan va bir necha asrlar davomida tarixda chuqur iz qoldirgan. Aslida ham Moniy yuqorida ta'kidlaganimizdek, 216-yilda tug'ilgan.

Olim Moniyning dahshatli o'limi haqida ham qimmatli ma'lumotlarni qoldirgan. Unga ko'ra, Moniylik ta'limoti Ardasher, Shopur ibn Ardasher, Hurmuz ibn Shopur podshohlighida keng tarqalgan, ammo Bahrom ibn Hurmuz davriga kelib, vaziyat o'zgargan va u vahshiyona tarzda o'ldirilgan. Olim Jabroil ibn Nuh Yazdonbaxtning xristianlarga yozgan raddiyasidan quyidagi iqtibosni keltiradi: "Moniy shogirdlaridan birining bir kitobi bo'lib, unda Moniyning o'limi haqida shunday xabarni beradi: "Moniy podshohga qandaydir bir yaqinligi sababli qamaldi, u podshohga jin tekkani sabab qilib, uni davolashni va'da qildi, lekin bunga qudrati yetmadi. Keyin ikki oyog'ini kishan va ikki qo'lga g'ull solindi, oxir u qamoqda o'ldi. Uning boshi podshoh chodiri eshigining baland joyiga qo'yildi, jasadini esa boshqalarni qo'rqitishi va ibrat bo'lishi uchun yo'lga tashlandi". Beruniy bu ma'lumotni to'ldirib, o'sha podshoh Bahrom ibn Hurmuz

bo'lgani, Moniyning kallasi osilgan joy esa Jundishopur shahrining darvozasi ekani va bu darvoza o'sha davrda ham bor bo'lib, u "Moniy darvozasi" nomi bilan mashhurligini qo'shimcha qiladi.

Moniylik dinining manbasi sifatida Beruniy uning abjad harflari tartibida tuzgan Injilni keltiradi[1]. Aslida ham bu dinning yozma manbasi mavjud bo'lib, u 15 bo'limdan iborat "Xuastuanift" ("Moniylar tavbanomasi") kitobidir.

Beruniyning ta'kidlashicha, moniylik ta'limoti boshqa dinlardagi o'zi duch kelgan yo'l-yo'riqlarni asos qilib olavergani sababli ham ko'pchilik tomonidan tan olinmagan. Jumladan, olimning "U (Moniy) olamning borligi va ko'rinishi haqida hujjat va dalillar natijalariga zid ravishda xabar berdi"[1], "Moniy Eronshahrdan haydalganida Hindistonga kirdi va hindlardan tanosuxni o'z diniga kirgizdi"[2], "Moniy ham hindlardan dengizda bir dev yashaydi. O'sha dev nafas olishi va chiqarib turishidan suv ko'tarilishi va pasayishi bo'lib turadi, deb eshitganidan keyin u ham shu e'tiqodga amal qila boshladi", degan fikrlari hamda Moniyning xristanlar Injilidan kelib chiqib, boshqa bir Injilni yaratishi yoki hindlar va buddaviylarning osmon yoritqichlariga qarab fol ochishlari o'sha davrda mumkin bo'lmaganini Moniy o'z diniga ko'chirganini misol sifatida keltirish mumkin.

Beruniy Moniyda mo'jiza bo'lgani masalasi va uning payg'ambarlikni da'vo qilganiga to'xtalib, bu borada ikki xil fikr mavjud ekanini aytib o'tadi. "Bir guruh: "Moniyda mo'jiza bo'lmagan", – deydi-da, uning to'g'risida "Iso Masih va uning suhbatdoshlari olamdan o'tganda, u yerdan oyatlar ko'tariladi" deb xabar qildi, deydilar. Boshqa guruh: "Moniyda payg'ambarlik alomatleri va mo'jizalari bo'lgan. U Shopur podshohni o'zi bilan birga osmonga olib chiqib, ikkovi osmon bilan yer orasida havoda turgan paytda, Shopur unga iymon keltirgan va Moniy unga bu taajjub voqeani ko'rsatgan", – deb keltirgan[1].

Beruniy ma'lumotlariga ishonilsa, moniylar o'zlarini ikki guruhga bo'lganlar:

1. Siddiqlar, moniy mazhabining taqvodorlari va zohidlari;
2. Samma', ya'ni eshituvchilar, tobelar va dunyo ishlari bilan aralashib yuruvchilar.

Ularning har biri o'z diniy huquqi va tartiblariga ega bo'lgan. Siddiqlar uzlatda, qashshoqlikda, muntazam ravishda ro'za tutib, imkon boricha sadaqa berish, bir kunlik ovqat va bir yillik kiyimdan boshqa narsani o'ziga harom qilish, oila qurmaslik va xalqni da'vat qilib, yo'lga solish uchun doim dunyoni kezishga majbur bo'lganlar.

Samma', ya'ni eshituvchilar esa, dunyo ishlariga aralashib yurib, o'z so'zlarini qabul qilganlarga mulkining o'ndan birini sadaqa qilish, umrining yettidan birida ro'za tutish, birgina xotin bilan cheklanish, siddiqlarga g'amxo'rlik qilish kabi rasm-rusumlarga amal qilganlar.

Moniylarning Xudo borasidagi fikrini Beruniy "johillik" deb ataydi. Unga ko'ra, moniylar Xudoni ikkita (yaxshilik va yomonlik xudolari) deb e'tiqod qilganlar va dualistik aqidaga tayanganlar. Olim Moniyga ergashganlar "sanaviylar" deb ham atalishini aytib o'tadi.

Beruniy bu dinning boshqa dinlar bilan bog'liqligini ham o'rganib, ularni tahlil etishga harakat qilgan. Jumladan, ularning xristianlikka yaqin bo'lganini Isoning o'lim, ruh haqidagi fikrlariga qo'shilishlari va shunga e'tiqod qilishlari bilan izohlashga urinadi. Ba'zi olimlar Beruniy tomonidan o'rganilgan ushbu ta'limotning xristianlik ta'sirida yuzaga kelgani borasidagi fikrga qo'shilmaydilar.

Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"da moniylarning qiblati shimoliy qutb bo'lgani va ular bu holatda sobiylar bilan o'xshash ekanliklarini quyidagicha bayon qiladi: "Sobiylar shimoliy qutbga qaraydilar. Moniy mazhabidagilarni ham shu qutbga qaraydilar deb gumon qilaman, chunki bu qutb ular fikricha, osmon qubbasining o'rtasi va eng baland joyidir". Ammo, "Hindiston"da Moniyning "boshqa xalqlar bizni Oyga va Quyoshga sajda qilib, bu ikkovini sanam o'rnida tutishimizni ayblaydilar. Chunki ular Oy va Quyosh haqiqatini bilmaydilar. Oy va quyosh bo'lsa, bu olamga chiqishimizning yo'li va eshigidir; Iso ham shunday fikrda bo'lgan" degan so'zlarini keltirib, ularning qiblati oy va Quyosh tomon ekanini aytadi. Bizning fikrimizcha, keyingi ma'lumot haqiqatga yaqinroq ko'rinadi. Chunki bu asarlar orasidagi muddat o'ttiz yildan oshiqroq bo'lib, bu davr orasida olim yanada yangi ma'lumotlarni o'rgangan bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, Beruniy ma'lumotlarini o'rganish u moniylikning majusiylik, xristianlik va dualistik ta'limotlar ta'sirida yuzaga kelgan, degan fikrni aytib o'tadi. Bu ta'limot haqida bergan axboroti uning moniylik bilan bevosita o'z kuzatuvlaridan tanish bo'lganini taxmin qilish imkonini beradi.

Mazdakiylik diniy yo'nalishi haqida Beruniy ko'p ma'lumot keltirmagan. Buning asosiy sababi sifatida dinning u qadar keng tarqalmagani va uzoq vaqt davomida amalda bo'lmaganini aytib o'tadi. Olimning fikricha, Mazdak ibn Hamdodon Niso aholisidan bo'lib, Qabod ibn Firuz ((488-531), Sosoniylar sulolasi podshohlaridan biri, Anushervon(531-579)ning otasi) davrida mobadlar mobadi, ya'ni qozilar qozisiga aylangan. U sanaviylikka da'vat qilib, ayrim diniy asoslarda Zardushtga muxolif chiqqan va "Abisto tafsiri va ta'vilining egasiman, deb da'vo qilgan".

HISTORY

Beruniyga ko'ra, ushbu ta'limot "mazdakiya", "xurramdiniya", "zindikiya" degan nomlar bilan atalgan. Uning ta'limotiga binoan mol-mulk va xotinlarning egasi bo'lmay, ular barchaniki hisoblangan. Bundan tashqari ular e'tiqodicha, zamon (Xudo tomonidan) yuborilgan Payg'ambarlardan xoli bo'lmaydi va ular birin-ketin yuborilib turadilar. "Demak, u (Mazdak) o'zini payg'ambar deb hisoblagan", – deydi Beruniy.

Ushbu ta'limotga Qabod va butun xalq ergashgan. Beruniyning fikricha, Qabod Mazdakka uning tarafdorlari ko'paygani uchungina xayrixohligini bildirgan. "Mazdak Qabodning o'z amakivachchasining xotinini yaxshi ko'rib qolganini bilgach, ustalik bilan shu mazhabni o'ylab chiqargan va uning niyatini amalga oshirgan. Buning evaziga esa u Qabodning xotini, ya'ni Anushervonning onasiga uylangan. Anushervon onasi sababli Mazdakning oyoqlarini o'pgan. Anushervon podshoh bo'lgach, uning dastlabki qilgan ishi Mazdak va uning tarafdorlaridan qo'lga tushganini ushlab va boshlarini quyiga, orqa tomonlarini yuqoriga qilib, chuqurga ko'mdirib o'ldirishdan iborat bo'lgan". Ammo yana bir ma'lumotga ko'ra, "Qabod mazdakiylardan Eron zodagonlariga qarshi kurashda foydalangan".

Shunday qilib, Mazdak tarixda diniy yo'nalish asoschisi sifatida o'rganilmagan bo'lsa-da, Beruniy uni soxta payg'ambarlar sirasiga kiritadi va u ishlab chiqqan diniy yo'l-yo'riqlar asosida uning soxta diniy ta'limot ekanini isbotlashga harakat qiladi.

Beruniy shuningdek, o'z asarida xorazmliklar e'tiqodiga oid qisqacha ma'lumotlar ham bergan, buning sababi ular haqida olimlar uchun juda kam manbalar yetib kelganidir. Boz ustiga arablar bosqini paytida "Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimni boshqalarga o'rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo'q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u (xabar va rivoyatlar) islom davridan keyin, haqiqatni bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qolgan". Beruniy arab fathi natijasida qadimgi xorazmiy tilida mavjud bo'lgan zardushtiylik manbalari ham yo'q qilingani haqida ma'lumot bergan. Beruniy xorazmliklarni islomdan avval majusiylilikda bo'lganlarini aytadi. Hatto o'z davrida ham ularning bir qismi majusiylilikda bo'lgan holda diniy rasm-rusumlarga jiddiy e'tibor bermasligini ta'kidlab, "Hozir ularning majusiylari qolmagan, faqat dinida qattiq turmagan, dinlarning yuzaki narsalarini tanib, haqiqat va ma'nosini tekshirmaydigan bir guruh qolgan"ini e'tirof etadi.

Beruniyga ko'ra, xorazmliklarda animizm belgilari bo'lgan. Jumladan, remijd oyining o'n beshinchisi namhb deb atalib, unda xorazmliklar jinlar va arvohlar zararlarini daf etish uchun is chiqarib, ovqat pishirganlari, ispanormaji oyining oxirgi besh kunida va bulardan keyingi keladigan qo'shimcha besh kunida mozorlarga ovqat olib borganlarini misol sifatida keltiradi. Xorazmda jinlarga va turli arvohlarga ishonish e'tiqodi Beruniy davrida ham bo'lgan. Bunga isbot sifatida Beruniyning xorazmliklarda Ispanormaji oyining o'ninchi kuni Vaxsh angom bayrami nishonlanishi va unda Vaxsh suviga ayniqsa Jayxun suviga vakil qilingan farishtaning xotirlanishi haqidagi so'zlarini keltirish mumkin va bu holat xorazmliklar e'tiqodida animizmning bir ko'rinishi bo'lganini bildiradi.

Garchi zardushtiylik Xorazmda davlat dini darajasida mustahkamlanmagan bo'lsa-da, qadimgi xorazmiy diniy qarashlari bilan qorishib ketgani va Beruniyning bu fikrlarini arxeologik manbalar ham tasdiqlaydi[3]. Umuman olganda Beruniy fikriga asoslanib, xorazmliklarning diniy hamda milliy bayramlari qadimgi fors dinlariga o'xshash bo'lganini xulosa qilish mumkin.

Beruniy so'g'diyonaliklarning diniy qarashlari haqida juda kam ma'lumot qoldirgan. Ularning asosan qadimgi fors dinlari qatorida eslab o'tadi. Olimning "So'g'diylar bilan eronliklar orasida yillar va ayrim oylarning boshlanishi xususida qo'shimcha besh kundan boshqa deyarli farq yo'q"[1], – degan so'zlari ham ushbu fikrni tasdiqlaydi.

Beruniyga ko'ra, so'g'dlar zardushtiylikdan ta'sirlangan bo'lsalar-da, o'z taqvimlarini saqlab qolganlar va boshqalar singari diniy bayramlari mavjud bo'lgan[1]. Beruniy ularning navsard oyining birinchi kuni navro'zni, yigirma sakkizinchi kuni esa Buxoro majusiylari Romush Og'om bayramini, basokanj oyining o'n beshinchi kuni ovqat, ichimlik, olov tekkan narsalar tark etilib, xamirli ovqat, meva va sabzavotlar yeyilganini, f-g'-kon oyining ikkinchi kuni otashxonalarda yig'ilganlarini, x-sh-v-m oyining oxirgi kunlarida arvohlarga aza tutib, yuzlarini yulishlarini va eronliklar, xorazmliklar kabi qabristonda ovqat va sharoblar qoldirishlarini keltirib, ularda ham animizmning ko'rinishlari saqlanib qolganini bayon etadi.

Beruniy so'g'diylarning diniy e'tiqodlari bevosita afsonaviy shoh Siyovushni yodga olish bilan bog'lanib ketganini ilgari suradi[6]. Yangi yilning birinchi kunida unga atab xo'roz so'yilishi, muayyan kunlarda ular qora kiyim kiyib, oyoq yalang bo'lgan holda uni qidirish marosimini nishonlashlari shular jumlasidandir.

Shunday qilib, Beruniy Markaziy Osiyo diniy ta'limotlariga ham katta e'tibor bilan qaraganini alohida ta'kidlash zarur. Zero, uning u qadar tarafdorlari ko'p bo'lmagan va uzoq vaqt davom etmagan mazdakiylik, moniylik, ma'lum bir aholi orasidagina mavjud bo'lgan so'g'diylar va xorazmiylarning diniy ta'limotini bu qadar keng va asosli o'rganishi hamda ularga hurmat bilan qarashi ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Ma'lumki, Qadimgi Fors hududida bir qator dinlar mavjud bo'lganki, ular hozirga qadar muammoli masala bo'lib qolayapti. Ammo, Beruniy tomonidan ularning tizimlashtirilgan holda o'rganilishi hamda ixtilofli masalalarni astronomik kuzatuv hamda matematik hisoblar orqali aniqlashtirilishi uning dinshunoslikning muhim vazifasini olib borganidan dalolat beradi. Shu kungacha aksariyat ma'lumotlarda zardushtiylik dini majusiylik nomi bilan ham atab kelinar edi. To'g'ri, Beruniy bunga qarshi chiqmagan, ammo ularning alohida-alohida dinlar ekanini ishonchli manbalaridan iqtiboslar keltirish orqali tasdiqlab, bu masalaning yanada aniqlashtirilishiga hissa qo'shgan.

Beruniy o'z davrida yashagan musulmonlar tomonidan hindlar dinini tushunish qiyin ekanini bilardi va buning sababini islom hamda brahmanizm dinlari o'rtasidagi farqli jihatlarning ko'pligi hamda ularning bir-biridan turli masalalarda mutlaqo tafovut qilgani bilan izohlaydi[4]. Shu sababli u hind dinlarini tushunishni osonlashtirish maqsadida ushbu diniy ta'limotni qadimgi yunon e'tiqodiy qarashlari, xristianlik va islom bilan qiyosiy holda o'rganishga harakat qildi.

Hindlar va ularning madaniyati bilan Beruniy ilk bor G'aznadalgida tanishgan. U bu yerdagi hind savdogarlar, shuningdek, asirga tushgan hind brahmanlari va panditlari bilan suhbatlashishga erishgan[5]. Aynan shu davrda uning hind madaniyati va dinlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishi shakllangan deyish mumkin.

V.Klayn Beruniyning bu sohadagi mehnati xususida shunday deydi: "U hindlar dinini shunchaki etnografik jihatdan o'rganmay, bu bilan bog'liq bo'lgan bir qator muammoli masalalarni ham o'rta tashlab, ularning yechimini ham ko'rsatib bergan. Bu esa nafaqat o'sha davr, balki bugungi kun uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi"[4]. Yana bir sharqshunos olim Salim Xon esa quyidagi fikrlarni bildirgan: "Beruniy o'zining "Hindiston" asari bilan ushbu xalqning madaniy, ilmiy va diniy merosini o'z davridan bugungi kungacha yetib kelishiga sabab bo'ldi"[6].

Beruniy hindlar dinini o'rganishda ularning muqaddas kitoblaridan foydalanganini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz. Bu haqda u "Hindiston"da "Ularning kitoblarini bor deb gumon qilingan joylardan to'plashga hech kim tenglasholmaydigan darajada qiziqardim, kitoblarni berkitib qo'yilgan joylardan topib olishga yo'l ko'rsatuvchi kishini oldimga chaqirib, baxillik qilmasdan, mumkin bo'lganicha, unga ehson qilar edim", – deya ta'kidlaydi. Natijada u "Gita", "Patanjali" va "Sankhya" kabi muhim manbalardan misollar keltirdi, shuningdek, brahmanizmning boshqa diniy manbalari bilan ham tanishdi.

Beruniy hindlarning kasta tizimiga batafsil to'xtalgan. Uning fikricha, dastlabki davrda 4 kasta bo'lgan. Ular ruhoniy va olimlardan iborat bo'lgan brahmanlar, boshqaruvchilar va aristokratlardan kshatriylar, ishchilar va hunarmandlardan tashkil topgan vayshiyalar hamda xizmatkor shudralardir. Qolgan quyi tabaqalar keyinroq shakllangan. Beruniy ushbu tizimga oid ba'zi bir tartibotlarni, bolalik, o'smirlik, keksalik va nihoyat so'nggi zohidlik deb ataluvchi hayot bosqichlarini ham qayd etadi.

Brahmanlar jamiyatning oliy tabaqasi hamda dinning asosiy vakillari hisoblangan. "Brahman ko'p aqlli, tinch ko'ngilli, rostgo'y, chidamli, zohir, sezgilarini saqlay olgan, adolatni sevgan, ko'rinishi pok, ibodatga berilgan, himmat va g'ayratini din yo'liga sarf qiluvchi bo'lishi kerak. Kshatriy odamlar ko'nglida haybatli, shijoatli, ulug'vor, so'zamol, qo'li ochiq, qattqliklarga parvo qilmaydigan va qiyinchiliklarni osonlashtirishga qiziqadigan bo'lishi kerak. Vayshiy dehqonchilik, chorvachilik, savdogarchilik bilan mashg'ul bo'lishi kerak. Shudra xizmatda harakatchan va tavozeli xizmati sababli har bir kishiga sevimli bo'lishi kerak", – deb yozadi Beruniy[1]. Olimning fikricha, yuqori tabaqa vakillari avval inson bo'lgan, keyinchalik yeyish, ichish, tug'ilish, o'lish va jismoniy ehtiyojlardan xoli darajaga erishgan. Hindlarda hayvon va o'simliklarning ham insonlarga xizmat qilishi, olgan savoblari va gunohlariga qarab insonga aylanishi yoki qanday bo'lsa, shundayligicha qolishi haqidagi tasavvur bo'lgan.

Beruniy hind diniy falsafasiga ko'ra, olamdagi hamma mavjudot besh unsur (osmon, shamol, olov, suv va tuproq)dan tarkib topishi, ular bir so'z bilan "mahobihuta" ("ulug' tabiatlar") deb nomlanishini qayd etadi.

Beruniy hindlar diniy ta'limotiga xos bo'lgan qayta tug'ilish va tanosux (Reinkornatsiya - jonning bir badandan boshqa bir badanga ko'chib yurishi) masalasiga alohida e'tibor bergan. Bu ta'limot inson ruhi ilohiy ruhning bir qismi ekani va doimo unga qaytishi haqidagi e'tiqod bilan asoslangan. Ilohiy ruh ayni damda eng oliy tafakkur ham bo'lgan. Ammo ba'zilar eng oliy tafakkur vosita, xolos, u ilohiy ruhning o'zi emas, deb hisoblagan. Shunday qilib, hindlar ta'limotiga ko'ra, inson ruhi bosqichma-bosqich bir jasadidan ikkinchisiga o'tib, bir necha bor hayot kechiradi va to kamolotga yetishguncha, bilim to'plab, oxir-oqibatda oliy tafakkur bilan qo'shilib ketadi, deb hisoblangan. "Qayta tug'ilish insonning o'z irodasiga qarshi bo'lgan bir holat bo'lib, brahmanlarning maqsadi undan chiqib ozodlikka, ya'ni kamolotga erishish bo'lgan"[1]. Ozodlikka erishishning normal usuli qayta tug'ilish zanjirini boshdan kechirish va zarur bilimlarni to'plash vositasida amalga oshirilgan[3]. Bundan tashqari, qayta tug'ilish hindlarda ularning hayotlari davomida

amalga oshirgan gunohlari uchun jazo vazifasini ham o'tagan, deydi Beruniy. Olim "Patanjali"da kamolotga yetishishning to'rtta usuli yozilganini qayd etadi. Ular:

1. Amaliy mehnat va bor kuch g'ayratni sarflash orqali;
2. Zohidlik orqali;
3. Ibodat orqali;
4. Ezgu niyat orqali;

Brahmanlikda shu yo'llardan biri orqaligina kamolotga erishish va abadiy rohatda yashash mumkinligiga ishonilgan.

Beruniy brahmanizmdagi jannat, do'zax va arosat tushunchalarini ham sharhlagan holda: "Hindlarga ko'ra, olam dastlab yuqori, quyi va o'rta bo'lingan. Yuqori olam "Svarloka" deyilib, bu jannatdir. Quyi olam "Nagaloka" deyiladi, ya'ni ilonlar yig'iladigan joy, bu do'zaxdir; buni "Naraloka" ham deyiladi. Ba'zan "Potola" yerning eng quyisi deb ataladi. Ammo biz turgan o'rta olam "Madhialoka" va "Manushkaloka", ya'ni insonlarning yig'iladigan joyi deb ataladi", – deb yozadi. Unga ko'ra, o'rta olam biron moddiy narsaga erishish uchun, yuqori olam savob uchun, quyi olam esa azob berish uchun yaratilgan. Jannatga ham do'zaxga ham loyiq ko'rilmaganlar "Tirajakloka" deb ataladigan joyga, ya'ni arosatga mansub bo'lib, ular asosan hayvon va o'simliklar yoki do'zaxdan jazosini o'tab chiqqan insonlardir. Shunday qilib, Beruniy quyidagi xulosaga keladi: "Demak, hindlar tushunchasiga ko'ra, dunyoga qaytgan ruh birinchi martayoq inson badaniga kiradi, ammo do'zaxdan dunyoga qaytgan ruh inson martabasiga erishgunicha o'simliklar va hayvonlar badanida kelib-ketib yuradi"[1].

Beruniy brahmanizmdagi maxluqotlarning turli jinslarga bo'linishi haqidagi qarash ham mavjud ekanini keltirib o'tgan. "Sankh'ya"dagi ma'lumotlarga ko'ra, "Ularning jinslari uchta bo'lib, yuqorida – ruhoniylar (farishta va jinlar), o'rta olamda – odamlar va quyida hayvonlardir. Turlari esa o'n to'rtta. Buning sakkiztasi ruhoniylar bo'lib, ular Barohim, Indra, Prajopata, Soma, Gandharva, Jaksha, Rokshasa va Pishocha; beshtasi hayvonlar bo'lib, ular to'rtoyoqlilar (chorva hayvonlari), yovvoyi hayvonlar, qushlar, sudraluvchi jonivorlar va o'simliklar, ya'ni daraxtlardir. O'sha turning bittasi insondir"[1].

Beruniy brahmanizmda mustahkam huquqiy tizim ham bo'lganini yozadi. Ushbu din tarafdorlari turli shartnomalarni huquqiy asosda tuzganlari haqida ma'lumot beradi. Bundan tashqari ularning an'analari, bayramlari, tug'ilish va dafn marosimlari haqida ham to'xtaladi. Ba'zi olimlar fikricha, hindlardagi sigirni muqaddaslashtirish masalasining Beruniy tomonidan o'rganilishi va unga oid turli fikr va tahliliy ma'lumotlarning keltirilishi bugungi kun hindshunos olimlari uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi[8].

Demak, Beruniy o'z davrining dinshunos olimlaridan farqli ravishda brahmanizm dinini beg'araz va xolisona o'rgangan. Hamid Rizo Yusufiy (1967-eron-nemis faylasufi) ta'biri bilan aytganda, Beruniyning brahmanizm borasidagi tadqiqotlari nafaqat hindshunoslik, balki dinshunoslikka ham tamal toshining qo'yilishidir[9].

Ma'lumki, buddizm dini Beruniy davrigacha, aniqrog'i avvaliga zardushtiylik, keyin islom dini keng yoyilgan paytgacha Markaziy Osiyoda eng keng tarqalgan din hisoblangan. Beruniygacha bu dinni Zurqon va Eronshahriylar muayyan darajada o'rganganlar. Olimning o'zi ko'proq Eronshahriyning ma'lumotlaridan foydalangan. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Beruniy buddaviylarni shamaniylar deb ataydi.

Beruniy buddaviylarning hind brahmanlariga nisbatan muxolif kayfiyatda bo'lganlarini aytgan. Shunday bo'lsa-da, ularning diniy qarashlari bir-biriga yaqindir. Buddaviylar "Olam qadimdan bor, ruhlar jasaddan-jasadga ko'chib yuradi, falak cheksiz bo'shliqqa tushirilgan, shuning uchun u aylanma harakat qiladi, chunki yumaloq narsa o'rnidan tushirib yuborilganda yumalab tushadi, – deb gumon qiladilar"[1], – deb yozadi Beruniy. Ularda borliqning umri ming marta ming yil ekani va u to'rt bo'lakka bo'linishi haqidagi e'tiqod mavjud bo'lib, "Birinchi bo'lagi – to'rt yuz ming yil, bu – tinchlik va yaxshilik zamoni, ikkinchisi uch yuz ming yil, bunda yaxshilik avvalgidagidan kamroq, uchinchisi – ikki yuz ming yil, bunda yaxshilik avvalgi ikki qismdagidan kamroq, to'rtinchisi – yuz ming yil, bu yomonlik va buzuqchilik zamonidir"[2]. Buddaviylarning o'zi ushbu zamonlarning oxirgisida yashayotganiga e'tiqod qilgan.

Beruniyga ko'ra, buddaviylarda insoniyatning yaratilishi borasida ikki xil ixtilofli qarash mavjud bo'lgan. Ularning ayrimlari Odam Atoning barcha insonlar otasi ekaniga iqror bo'ladilar, deydi. Buddaviylarning ba'zilar esa yuqoridagi fikrlarni inkor etib, "Har bir toifani alohida otaga nisbat beradilar va "agar dastlab ota bitta bo'lganda, gavda tuzilishlar va ko'rinishlar albatta bir-biriga o'xshash bo'lar, tillar va lug'atlar muvofiq kelar edi", – deydilar"[2]. Beruniy ikkinchi fikrga javoban odamlarning rangi, surati, axloqi va tilining bir-biriga o'xshamasligi nasablarining turtiligidan emas, balki yashash joylarining boshqa-boshqaligidan ekanligini qayd etadi va birinchi fikr tarafdorlarining qarashi mantiqqa muvofiqligini bildiradi.

Buddaviylarda ruh uch narsadan – buddha (Budda – aql), dharta (din) va sangha (bilimsizlik)dan quvvat oladi, degan qarash bo'lgan. "Birinchi quvvat – rohat va poklik bo'lib, unib-o'sish shu quvvatdan kelib chiqadi. Ikkinchisi, mehnat va mashaqqat bo'lib, sabot va doimiylik shundan paydo bo'ladi. Uchinchisi, kuchsizlik va

hayronlikdan iborat bo‘lib, buzilish va yo‘q bo‘lish shundan vujudga keladi”, – deb yozadi Beruniy[1]. Uning fikricha, birinchi kuch farishtalarga, ikkinchisi odamlarga, uchinchi esa hayvonlarga nisbat berilgan.

Janoza masalasida Beruniy buddaviylarning brahmanlardan farqli ravishda kuydirish emas, balki o‘lik jasadini daryoga oqizishlarini va buni aynan Buddha buyurganini keltiradi[1].

Nemis dinshunos olimi V.Klaynning Beruniyning buddizm dinini yoritishda hech qanday dalilga asoslanmagani hamda unga oid ayrim masalalarni deyarli bilmagani haqidagi fikrga qisman qo‘shilish mumkin. Aslida Beruniyning o‘zi ham buddizm borasida yozganlaridan qoniqmagani. Asosan manbalardagi axborotni yetkazish bilan cheklangan. Xususan, buddaviylarning Meru tog‘i haqidagi ma‘lumotlarini bevosita Eronshahriy kitobidan hikoya qilgan holda u: “Shamaniylarning Meru tog‘i haqida na birorta kitobini va na bu tog‘ haqida ularning fikrini aytib beradigan birorta kishini uchratmaganim uchun men ularning so‘zlarini hikoya qilganimda, Eronshahriyning vositasi bilan hikoya qildim. Lekin bu kishining hikoyasi gumonimcha aniq emas yoki aniqlamay gapiradigan kishidan ko‘chirilgan hikoyadir”, – deb qayd etadi[9].

Shunday qilib, Beruniyning buddizm haqida kam ma‘lumotlar qoldirganini uning shaxsan buddaviylar bilan muloqotga kirisha olmagan va ularning diniy manbalari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lmagan bilan izohlash mumkin[8]. Shunday bo‘lsa-da, olim bu dinning asosiy aqidasi haqida qisman ma‘lumot qoldirgani, hatto uni boshqa dinlar bilan solishtirganini qayd eta olamiz.

Sobiylilik diniy ta‘limoti yahudiylik va xristianlikka yaqinligi sababli musulmon olimlari uning tarafdorlari huquqiy maqomi borasida ixtilofga borganlar. Ba‘zilar ularni mushriklar tarkibiga kiritisa, ba‘zilar ahl al-kitob hisoblanishlarini ta‘kidlaganlar. Masalan, Abu Hanifa sobiiylarni “ahli kitob”larga ko‘shgan, uning ikki shogirdi Abu Yusuf va Muhammad ibn Hasanlar ularni mushrik, deb hisoblaganlar. Ammo, islom ulamolarining aksariyati nima bo‘lganda ham haykallar va yulduzlarga topinuvchi sobiiylarni ahl kitob tarkibiga qo‘shish to‘g‘ri emasligini aytib o‘tganlar. Shunday bo‘lsa-da, ushbu diniy jamoa Qur‘onda yahudiylar hamda xristianlar qatorida zikr qilingan. Jumladan, “Albatta, mo‘minlar, shuningdek, yahudiylar, nasroniylar va sobiiylardan kimki Allohga va oxirat kuniga iymon keltirsa hamda solih amallarni qilsa, ularga Robbilaridan ajr bordir, ularga xavf yo‘qdir va ular tashvish ham chekmaslar” (Baqara, 62), “Albatta, iymon keltirganlar, shuningdek, yahudiy bo‘lganlar, sobiiylar va nasroniylardan Alloh va oxirgi kunga imon keltirib, savobli ishni qilganlari uchun oxiratda xavf yo‘q va ular tashvish ham chekmaydilar” (5:69), “Darhaqiqat, iymon keltirganlar, yahudiy bo‘lganlar, sobiiylar, nasroniylar, majusiylar va mushrik bo‘lganlar – aniqki, Alloh Qiyomat kunida ularning o‘rtasini ajrim qilur” (22:17) oyatlarini misol sifatida keltirish mumkin. Bundan tashqari Muhammad alayhissalomning ularni yahudiylik va xristianlikning asl e‘tiqodchilari sifatida hurmat qilganlari haqidagi hadis ham mavjud[8], deya keltiradi G. Sheder.

Shu o‘rinda tarixda sobiiylar nomini olgan turli diniy jamoalar mavjud bo‘lganini keltirmoqchimiz. Jumladan, professor A.Hasanovga ko‘ra, Qur‘onda nomi eslatilgan sobiiylar “islom arafasida o‘zaro kelishmovchilik tufayli o‘z qavmining diyonatidan chiqib ketgan, ya‘ni sanamlarga ibodat qilishdan chiqib, tavidga da‘vat qilgan kishilar”[6] dir. Islom yuzaga kelgandan so‘ng johiliya arablari, ya‘ni vasaniylar bu so‘zni musulmonlarga qarata ham ishlatganlar. Yana bir ma‘lumotga ko‘ra, “Hozirgi kunda ham Iroqning janubida va Suriyaning Havron rayonida shu nom bilan ataladigan, osmon jismlariga topinadigan diniy jamoalar bor. Ammo bu jamoalarning Qur‘ondagi “sobia”ga aloqasi yo‘q. Ular Iroq tarixchisi Abdurazzoq al-Hasaniyning fikricha, xalifa Ma‘mun (813-833) davrida paydo bo‘lgan diniy toifalardir”[7].

Ta‘kidlaganimizdek, o‘rta asrlarda sobiiylarning ikkita asosiy toifasi haqidagi fikrlar mavjud bo‘lgan va Beruniy ularning o‘ziga ma‘lum bo‘lgan toifasini tavsif etishga uringan.

Shu o‘rinda Beruniy sobiiylar haqida turli fikrlarni keltirib, ularni tahlil qilishga harakat qiladi. Beruniy sobiiylarni asosan Harronda yashaganligi tufayli harroniylar deb ham yuritilishi haqidagi fikrlar mavjudligini keltiradi. Ammo ba‘zilar ularni Ibrohim (a.s.)ning akasi Horon ibn Tarahga nisbat berishlarini ham qayd etib, harroniylar aslida sobiiylar emasligi, balki ular “hunafo” va “vasaniya” (sanam va butga sig‘inuvchilar) vakillari ekanini ta‘kidlashlarini aytib o‘tadi. U shuningdek, ba‘zi olimlarning harroniylar mushrik hamda but-sanamga sig‘inuvchi bo‘lgani uchun ham sobiiylar turkumiga kirmasligi haqidagi fikrni qo‘llagan. Ma‘lumotlarga ko‘ra, aynan harroniylar hijriy 228-yilda Abbosiylar davrida zimmiylik mavqeini olish uchun o‘zlarini sobiiy deb ataganlar. Bungacha esa ular haniflar va vasaniylar deb yuritilganlar[8]. Ayrim ahl kitoblarga ko‘ra, sobiiylik nomi Matusholikning Lamakdan boshqa Sobiyy ismli o‘g‘liga nisbat beriladi[6].

Beruniy “Sobiiylar ... Buxtunnasr Baytulmuqaddasdan Bobilga ko‘chirgan Bobil asirlarining nasllaridandir”[9], – degan ma‘lumotlar ham uchrashini aytib o‘tadi. Ammo, olimning fikricha, sobiiylik hindlardan chiqqan Budosaf (Budosaf Buddaning arabcha nomi bo‘lib, fors tilida Yudasaf (Yudasaf), yunon tilida Ioasaf (Ioasaph), lotin tilida Josafat (Josaphat) deb ataladi.) nomli soxta payg‘ambarning diniy qarashlari asosida vujudga kelgan. U Tahmuras podshohligidan bir yil o‘tib, Hindistonda fors tilida bitilgan bir kitob olib kelgan va sobiiylik diniga asos solgan. Tarixiy manbalarda Budosafning o‘zi mashhur hind

faylasufi bo'lgani, qadimgi Bobilda yashab yil sanalari borasida katta kashfiyotlarni amalga oshirgani ta'kidlanadi[9].

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turganidek, Beruniy Qur'onda nomi zikr etilgan sobiiylarni nazarda tutmagan. Umuman olganda, arab-musulmon tarixchilari tomonidan o'rganilgan sobiiylar bu Qur'onda nomi kelgan sobiiylar hisoblanmaydi, degan fikr o'rinli hisoblanadi.

Beruniy o'rgangan sobiiylar samoviy jismlarni tirik deb bilishgan va olovga sig'inishgan. Ular "...to Bishtosf (Bishtosf – qadimgi eronliklarning afsonaviy podshohi. U Gushtosib, Kushtasb yoki Vishtasb deb ham ataladi) podshohligidan o'ttiz yil o'tib, Zardusht yuzaga chiqqan vaqtgacha ikki yoritqichni, yulduzlar va (osmondagi) barcha unsurlarni ulug'lar va muqaddas hisoblar edi".

Beruniy haqiqiy sobiiylarning monoteizmga e'tiqod qilgani, Xudoni yakka-yu yagona, hamma yomonliklardan pok, cheklanmaydi, ko'rilmaydi, zulm qilmaydi, jabr qilmaydi kabi sifatlar bilan tavsiflashlari hamda uni "eng yaxshi ismlar" bilan atashlarini keltirgan. U yuqorida aytib o'tilgan "eng yaxshi ismlar" iborasi islom dinidagi "Xudoning 99 nomiga aynan mos kelishini qayd etadi.

Beruniyga ko'ra, sobiiylar qadimgi yunon faylasuflari, jumladan misrlik Hirmis, Ag'odimun, Volis, Fisog'ur (Pifagor), Bobo va Aflotunning ona tomonidan bobosi bo'lmish Suvorni payg'ambar sanaganlar. Bu fikrlarni ba'zi olimlar ham tasdiqlab, sobiiylarning qadimgi yunon dinlariga ergashganlarini, ularning ilm vakillarini o'zlariga payg'ambar hisoblaganlarini keltiradilar [1].

Sobiiylarning ibodatxonalariga haqida fikr yuritilganda, quyidagi ma'lumotni aytib o'tish joiz. Beruniyning fikricha, "Damashq masjidi jome'sida maqsura oldidagi mehrob tepasiga qurilgan gumbaz (sobiiylar) asarlaridandir". Abu Ma'shar Balxiyning kitobidan iqtibos keltirgan Beruniy quyidagilarni ham qayd etadi: "Sobiiylarda maxsus haykallar va Quyosh nomlari bilan atalgan ma'lum shakllardagi sanamlar bo'lgan. Masalan, Bal'abakdagi ibodatxona Quyosh sanami uchun edi. Harron ibodatxonasi esa oyga nisbatli bo'lib, Oy shaklida "taylason"[11] ga o'xshatib qurilgan edi. Harron yaqinida Salamsin deb ataladigan va qadimgi nomi "Sanam sin", ya'ni "Oy sanami" degan bir qishloq, Tara'uz, ya'ni "Zuhra darvozasi" nomli boshqa bir qishloq ham bo'lgan". Ular o'z ibodatxonalarini hamda sig'inadigan rasmlarini samoviy jismlar nomi bilan ataganlar. Ularning ruhoniylari ushbu ramzlar va yulduzlar haqqiga qurbonliklar qilishgan. Beruniyning fikricha, Ka'ba va uning sanamlari sobiiylarniki bo'lib, ularga ibodat qiluvchilar aynan shu din tarafdorlari hisoblanganlar.

Beruniyning fikricha, haqiqiy sobiiylar anchagina tarqoq bo'lgan bo'lsalar-da, ammo ularni umumlashtirib turuvchi turli marosimlari, jumladan namoz o'qishdek ibodatlari ham bo'lgan. Ular namozni shimoliy qutbga qarab o'qiganlar.

Sobiiylarning uchta farz (farz) namozlari quyidagilardan iborat:

1. Birinchi farz namoz sakkiz rakaat bo'lib, Quyosh chiqishidan avval o'qilgan.
2. Ikkinchi farz namoz besh rakaat bo'lib, Quyosh osmon o'rtasidan og'ishidan oldin o'qilgan.
3. Uchinchi farz namoz ham besh rakaat bo'lib, Quyosh botishi oldidan o'qilgan.

Sobiiylar farz namozidan tashqari kunning ikkinchi, to'qqizinchi hamda tunning uchinchi soatida nafl namozini ham ado etganlar. Ular ham huddi musulmonlar singari namozni tahorat bilan ado etishlarini Beruniy alohida ta'kidlab o'tadi [11].

Beruniy har bir oyda sobiiy kohinlariga farz qilingan ro'za kunlari bo'lganini va u oyda o'n to'rt kun yoki oyning o'n to'rtinchi kuni bo'lishini taxmin qiladi. Sobiiylardagi qurbonlik qilish marosimiga keladigan bo'lsak, bu ularning yulduzlarga, o'z sanamlari va ibodatxonalariga atab jonlik so'yishlari bilan xarakterlangan. Bu marosimni bajarish sobiiylarning kohinlari zimmasida bo'lgan. Demak, Beruniyning Qur'onda nomi eslatilgan sobiiylarni emas, balki hozirda ham Harronda yashovchi va osmon jismlariga e'tiqod qiluvchi sobiiylarni tadqiq etgan va uning asoschisi sifatida Budosafni qayd etgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Abu Rayhon Beruniy o'z tadqiqotlari asnosida dinlarning turli-tumanligining sabablari, mahalliy aholining urf-odatlari, yashash tarzi, turmush faoliyati bilan bir qatorda ibodat masalalari, e'tiqod obyektlarini batafsil ma'lumotlar berish orqali dinshunoslik faniga kata xizmat qilgan. Uning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" hamda "Hindiston" asari o'zining beqiyos birlamchi boy ma'lumotlari bilan dinlarning tub mohiyatini tushunishga xizmat qiladi. Mazkur asarlarni tadqiq qilish, dinshunoslik fanini o'rganish va o'rgatishda mazkur asarlardagi ma'lumotlardan foydalanish diniy muloqot masalalari bag'rikenglik tamoyiliga amal qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Xususan, yurtimiz bir qancha madaniyatlarini o'zida mujassamlashtirgan hududiy markaz bo'lib, qadimgi savdo yo'li bo'lmish Buyuk Ipak Yo'li orqali kirib kelgan turli madaniyatlar faoliyat olib borganligi, shu bilan birga bugungi kunda ham ko'p konfessiyali mamlakat bo'lganligi sababli diniy tolerantlikni shakllantirishda mazkur asarlarning o'rni beqiyos desak mubolag'a bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Kamar Oniah Kamaruzzaman. *Al-Biruni: Father of Comparative Religion*. – *Intellectual Discourse*, 2003.
2. Livinsky. *History of Civilizations of Central Asia*. Vol. 3. – *New Delhi: South Asia Books*. 1999.
3. Peter Chelkowski, *Studies in Commemoration of Abu'l-Rayhan al-Biruni and Jalal al-Din al-Rumi*. – *New York*, 1975.
4. Gerhard Maletzke, *Innerkulturelle Kommunikation, Zur Interaktion zwischen Menschen verschiedener Kulturen*. – *Opladen*, 1996. – S. 33.
5. Mohammad Yasin. *Reading in Indian History*. – *New Delhi: Atlantic Publishers & Distributors*, 1988. – Б. 23. Hamid Reza Yousefi, *Grundpositionen der interkulturellen Philosophie*. – *Nordhausen*, 2005. – P. 77.
6. Ҳасанов А. Қадимги Арабистон ва илк ислом: I китоб. Жоҳилия асри. – Т.: Тошкент ислом университети, 2001. – Б. 205.
7. Ҳасанов А. Қадимги Арабистон ва илк ислом: I китоб. Жоҳилия асри. – Т.: Тошкент ислом университети, 2001. – Б. 204.
8. *Maha Bodhi Society of India. Bd. 100 – Maha-Bodhi Society*, 1992. – P. 175.
9. John Walbridge. *The Wisdom of the Mystic East: Suhrawardi and Platonic Orientalism (Surya Series in Islam)*. – *New York: State University of New York Press*, 2001. – P. 72.
10. Wassilios Klein, *Abu Rayhan al-Biruni und die Religionen* – *Nordhausen: Traugott Bautz*, 2005. – S. 118.

**XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATI
KARVONSAROYLARIDAGI IMKONIYATLAR HAMDA ULARNING BUGUNGI QIYOFASI**

Toshpulatov Nurbek Boboqul o'g'li,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasida assistenti
nurbektoshpolatov9530@gmail.com
ORCID: 0009-0006-9003-6139

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Samarqand viloyatidagi karvonsaroylarning ahamiyati, tuzilishi va imkoniyatlari o'rganilgan. Ushbu davrda karvonsaroylar savdo, madaniy almashinuv va sayohat uchun muhim inshootlar bo'lib, ular savdogarlarning ehtiyojlarini qondirish va xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Shuningdek, maqolada zamonaviy davrda karvonsaroylarning holati, restavratsiya ishlari va ularning turizm sohasi uchun tutgan o'rni yoritilgan. Muallif, tarixiy ahamiyatni asrab qolish va karvonsaroylarni iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishga jalb etish bo'yicha takliflar ilgari surgan. Qolaversa, tadqiqot davomida muallif tomonidan karvonsaroylarning bugungi qiyofasini saqlash, ularni qayta jonlantirish, raqamli texnologiyalar bilan qayta jihozlash, 3D o'lchovli tizimlarni ko'paytirish, zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish bo'yicha taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Samarqand karvonsaroylari, XIX asr savdo markazlari, karvonsaroy tuzilishi, tarixiy obidalar, Buyuk Ipak Yo'li, madaniy almashinuv, turizm va restavratsiya, savdo yo'llari tarixi, o'zbek madaniy merosi.

**ВОЗМОЖНОСТИ КАРАВАН- САРАЕВ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ В КОНЦЕ XIX -
НАЧАЛЕ XX ВЕКА И ИХ СОВРЕМЕННЫЙ ВИД**

Аннотация. В данной статье рассматриваются значение, структура и возможности караван-сарая в Самаркандской области в конце XIX – начале XX века. В этот период караван-сарая были важными структурами для торговли, культурного обмена и путешествий, они играли важную роль в удовлетворении потребностей торговцев и обеспечении безопасности. Также в статье описано состояние караван-сарая в современное время, реставрационные работы и их роль в сфере туризма. Автор выдвинул предложения по сохранению исторического значения и привлечению караван-сарая к экономическому и культурному развитию. Кроме того, в ходе исследования автором были разработаны предложения и рекомендации по сохранению нынешнего облика караван-сарая, их возрождению, переоснащению цифровыми технологиями, увеличению объёмных размерных систем, эффективному использованию достижений современной науки.

Ключевые слова: Самаркандский караван-сарай, торговые центры XIX века, караван-сарайская структура, исторические памятники, Великий Шёлковый путь, культурный обмен, туризм и реставрация, история торговых путей, узбекское культурное наследие.

**THE CAPACITIES OF THE CARAVAN SAREAS OF THE SAMARKAND REGION AT THE
END OF THE 19TH AND EARLY 20TH CENTURIES AND THEIR TODAY'S APPEARANCE**

Abstract. This article studies the significance, structure and capabilities of caravanserais in the Samarkand region in the late 19th and early 20th centuries. During this period, caravanserais were important structures for trade, cultural exchange and travel, and they played an important role in meeting the needs of merchants and ensuring security. The article also covers the state of caravanserais in the modern era, restoration work and their role in the tourism industry. The author puts forward proposals for preserving historical significance and involving caravanserais in economic and cultural development. In addition, during the research, the author developed proposals and recommendations for preserving the current appearance of caravanserais, revitalizing them, re-equipping them with digital technologies, increasing the use of 3D measurement systems, and effectively using the achievements of modern science.

Keywords: Samarkand caravanserais, 19th century trade centers, caravanserais structure, historical monuments, Great Silk Road, cultural exchange, tourism and restoration, history of trade routes, Uzbek cultural heritage.

Kirish. O'tmish tarixdan ma'lum bo'lishicha jahonda yuz bergan geosiyosiy o'zga rishlar, iqtisodiy omillar xalqlar tarkibining milliy va konfessional jihatdan xilma-xillashuviga, xalqlar tarkibida kam sonli diasporalarning paydo bo'lishiga asos bo'lgan. Shu boisdan, hozirgi globallashuv jarayonida migratsiyalar sababli paydo bo'lgan milliy ozchilikni tashkil qiluvchi xalqlar tarixi va an'analarini qadrlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ko'pgina xorijiy ilmiy tadqiqot markazlari ko'chishlar natijasida boshqa xalqlar tarkibiga kirishga majbur bo'lgan etnoslarning madaniy me'rosini tadqiq etish, ularning boshqaruv apparati va mahalliy aholi bilan o'zaro munosabatlariga daxldor o'z yechimini topmagan bir qator masalalarni o'rganishni davom ettirayotganligi muammo yuzasidan keng qamrovli tadqiqotlar o'tkazish ehtiyojini yuzaga keltiradi. O'zbekistonning barcha soha islohotlarida, jumladan, millatlararo munosabat siyosatida xalqlar va elatlar o'rtasidagi hamjihatlik, o'zaro hurmat, hamkorlik, do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlash vositasida tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga e'tibor kuchaymoqda. Milliy ozchilikni tashkil qiluvchi xalqlar madaniy ehtiyojini qondirish maqsadida har bir tuman va shaharda milliy madaniy markazlar tashkil qilinmoqda

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot jarayonida muammoga oid adabiyotlar tahlil qilinarkan mavzu yuzasidan qator xorijiy va milliy tadqiqotlar o'tkazilganligiga guvoh bo'lamiz. Ushbu tadqiqotlarda asosan XIX asrning o'rtalari – XX asr boshlaridagi afg'on fuqarolari migratsiyasi, uning kelib chiqish sabablari, bunga ta'sir ko'rsatgan ichki hamda tashqi omillar kabi qator masalalar yuzasidan aniq fikrlar bildirilmasdan, mavzuga yaqin jihatlar keltirib o'tilgan yoki boshqa maqsadlarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda kichik bir ob'ektlar, ikkinchi darajali masalalar sifatida qaralgan. Biroq Samarqandda afg'on fuqarolarining paydo bo'lishi sabablari, ularning mamlakat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi o'rni muammosi alohida, yaxlit tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan. Bu esa tanlangan mavzuning ilmiy ahamiyatini belgilaydi.

K.Abaza [1], M.Gruev, F.A.Mixailov, V.O.Novitskiy, A.A.Semyonov [2], V.P. Semyonov-Tyanshanskiy, Yu.A.Sokolov [5]. V.I.Masalskiy, kabi tadqiqotchilar faoliyati mavzuga oid dastlabki tadqiqot ishlari ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ushbu davr tadqiqotlari keltirilgan ma'lumotlarning xususiyatlaridan qat'iy nazar, mavzuni o'rganish uchun birlamchi asos bo'lib xizmat qiladi.

Sovet davri vakillari bo'lgan V.V.Bartold, P.P.Ivanov, A.L.Troitskaya, R.N.Nabiev, G.A.Xidoyatov [3], T.S.Saidkulov [4] tadqiqotlarida muammo Samarqanddagi ijtimoiy-siyosiy hayotining ba'zi jihatlarini, hududlar (viloyatlar) va sohalar bo'yicha qamrab oladi. Lekin, mazkur davr adabiyotlari ma'lum mafkura ta'sirida yaratilganligi bois mavjud reallikni xolisona baholash imkonini bermaydi, tarixiy jarayonlar muayyan darajada bir tomonlama qarashlarga asoslangan. Mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar yangicha nazariy – metodologik yondashuvlari hamda yangicha tadqiqot uslublari yaratilganligi bilan farqlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada adabiyotlar tahlili, natijalar qiyoslash va taqqoslash, ilmiy va amaliy kuzatish usuli, Samarqand shahrining XIX va XX asrlardagi holatlari o'rganilgan.

Tahlil va natijalar. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Samarqand viloyatidagi karvonsaroylar o'z davrida savdo, madaniy aloqalar va sayohatning asosiy markazlari hisoblangan. Ularning imkoniyatlari va bugungi qiyofasi haqida quyidagicha ma'lumot berish mumkin:

1. Savdo markazi: Karvonsaroylar uzoq masofali savdogarlar uchun asosiy to'xtash joylari edi. Ular turli tovarlarni saqlash va almashtirish imkoniyatiga ega edi.

2. Oziq-ovqat va xizmatlar: Savdogarlar va sayohatchilar uchun ovqatlanish joylari, otlarni boqish va dam olish uchun qulay sharoitlar mavjud edi.

3. Turar joy: Mehmonlar uchun yotoq joylari tayyorlangan bo'lib, ular qisqa muddatda o'zlarini qulay his qilishlari uchun mo'ljallangan edi.

4. Xavfsizlik: Karvonsaroylar savdogarlar va ularning mol-mulkini qaroqchilar va yovvoyi hayvonlardan himoya qilish maqsadida qurilgan qalin devorlar bilan himoyalangan edi.

5. Madaniy va axborot almashinuvi: Bu joylar savdogarlarning o'zaro madaniyat va yangilik almashish markaziga aylangan.

Hozirgi paytda Samarqand viloyatidagi karvonsaroylarning ko'pchiligi o'z tarixiy ahamiyatini saqlab qolgan, ammo ularning qiyofasi va foydalanish maqsadlari o'zgaragan:

1. Restavratsiya va muzeylar: Ba'zi karvonsaroylar restavratsiya qilinib, muzey yoki madaniy obida sifatida xizmat qilmoqda.

2. Turizm markazlari: Ayrimlari turistik diqqatga sazovor joylarga aylangan bo'lib, sayyohlar bu yerda o'sha davr muhitini his qilish imkoniyatiga ega.

3. Zamonaviy foydalanish: Bir nechta karvonsaroylar restoran, mehmonxona yoki ko'rgazma zali sifatida qayta foydalanilmoqda.

4. Yodgorliklar: Ba'zi karvonsaroylar xaroba holda bo'lib, ular faqat tarixiy arxeologik joy sifatida qiziqish uyg'otadi.

Karvonsaroylar to'g'risida misollar:

1. Chorsu karvonsaroyi: Bu karvonsaroy XIX asrda savdo va madaniyat markazi sifatida xizmat qilgan. Bugungi kunda uning faqat ayrim qismlari saqlanib qolgan bo'lsa-da, tarixiy ahamiyati saqlanmoqda.

2. Bozor karvonsaroylari: Samarqandning Eski shahar qismidagi ayrim karvonsaroylar eski bozorlar bilan bog'langan bo'lib, ularning ko'plari qayta qurilib, zamonaviy ko'rinishga ega bo'lgan.

3. Raboti Malik (Navoiy yaqinida): Bu karvonsaroy yaxshi saqlanib qolgan va Markaziy Osiyodagi eng mashhur karvonsaroylardan biridir. Uning tuzilishi yuqoridagi elementlarni aks ettiradi.

Samarqand viloyati va umuman Markaziy Osiyodagi karvonsaroylarning tuzilishi ularning asosiy vazifalari - savdogarlarning dam olishi, mol-mulkni saqlash va xavfsizlikni ta'minlashga mo'ljallanganligi bilan bog'liq edi. Karvonsaroylarning arxitekturasi maqsadga muvofiq tarzda ishlab chiqilgan bo'lib, ular bir nechta asosiy elementlardan iborat edi:

1. Umumiy tuzilish:

• **Markaziy hovli:** Karvonsaroylarning markazida odatda ochiq hovli bo'lib, u atrofida turli xizmat xonalari va yotoq joylari joylashgan. Hovli savdogarlarning karvonlarini (tuya, ot, aravalar) joylashtirish va tovarlarni tushirish uchun ishlatilgan.

• **Devorlar va darvozalar:** Karvonsaroylar odatda qalin devorlar bilan o'ralgan va bitta asosiy darvozaga ega bo'lgan. Bu himoya maqsadida qilingan, chunki savdogarlar qimmatbaho tovarlar bilan safar qilgan.

• **Ko'p funksiyali xonalar:** Har xil ehtiyojlar uchun turli xil xonalar bo'lgan, masalan, yotoqxona, omborxonalar, oshxonalar, ibodat xonasi va boshqa xizmat ko'rsatish joylari.

2. Ichki elementlar:

• **Yotoq joylari:** Savdogarlar va sayohatchilar uchun kichik yotoqxona xonalari mavjud bo'lgan. Odatda, ular oddiy bo'lib, bir yoki ikki kishi uchun mo'ljallangan.

• **Omborlar:** Tovarlarini saqlash uchun katta xonalar yoki maxsus joylar qurilgan. Bu xonalar odatda salqin va xavfsiz edi.

• **Hayvonlar uchun joy:** Karvonsaroylarda hayvonlarni boqish va dam oldirish uchun maxsus joylar mavjud edi. Ko'pincha bu joylar hovlining bir burchagida joylashgan.

3. Arxitektura uslubi:

• **Islom arxitekturasi:** Karvonsaroylarning ko'pchiligi islom arxitekturasining an'anaviy uslubida qurilgan. Bu uslubda gumbazli tomlar, peshtoq (markaziy kirish qismi), murakkab naqshlar va g'ishtlardan foydalanilgan.

• **Iqlimga moslashuv:** Samarqand va boshqa hududlarning iqlimi hisobga olingan holda, karvonsaroylarda salqinlikni saqlash uchun qalin devorlar va ventilyatsiya tizimlari o'ylangan.

• **Me'moriy bezaklar:** Peshtoqlar va kirish eshiklari ko'pincha naqshlar va o'yma bezaklar bilan bezatilgan.

4. Geografik joylashuv:

• Karvonsaroylar karvon yo'llarida (Buyuk Ipak yo'li) strategik joylarda joylashgan edi. Ular odatda shaharlar, bozorlar yoki yirik chorrahalar yaqinida qurilgan.

Karvonsaroylarning tuzilishi faqatgina iqtisodiy funksiyalarga emas, balki ijtimoiy va madaniy hayotga ham katta ta'sir ko'rsatgan.

Xulosa va takliflar. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Samarqand viloyatidagi karvonsaroylar xalqaro savdo va madaniy almashinuvning muhim markazlari bo'lib, ular savdogarlar va sayohatchilar uchun xavfsizlik, qulaylik va xizmat ko'rsatishning muhim inshootlari sifatida xizmat qilgan. Karvonsaroylarning tuzilishi o'z vaqtida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ehtiyojlarni qondirishga mo'ljallangan bo'lib, ular tarixiy va arxitektura jihatdan katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda karvonsaroylarning aksariyati restavratsiya qilinib, tarixiy yodgorlik yoki turistik obida sifatida foydalanilmoqda, biroq ayrimlari yetarlicha e'tiborga olinmayapti. Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. **Restavratsiya va konservatsiya:** Eski karvonsaroylarni ta'mirlash va asl holatini saqlab qolish uchun davlat va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish zarur. Bu, nafaqat tarixiy obidalarni himoya qilish, balki turizmni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

2. **Muzey va madaniyat markazlari tashkil qilish:** Karvonsaroylarning ba'zilarini muzeyga aylantirib, u yerda tarix, madaniyat va savdo yo'llari haqida ma'lumot beruvchi ko'rgazmalar tashkil etish lozim.

HISTORY

3. **Turizm infratuzilmasini rivojlantirish:** Karvonsaroylar atrofida zamonaviy infratuzilmani yaratish, masalan, mehmonxonalar, kafelar va yo‘l-yo‘riq markazlari qurish orqali mahalliy va xorijiy sayyohlarni jalb qilish mumkin.

4. **Ilmiy tadqiqot va targ‘ibot:** Karvonsaroylar tarixi va ularning o‘tmishdagi ahamiyati bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish va natijalarni keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida kitoblar, hujjatli filmlar va onlayn resurslar yaratish kerak.

5. **Mahalliy iqtisodiyotga hissa qo‘shish:** Karvonsaroylar atrofida mahalliy hunarmandchilik mahsulotlarini sotish joylarini tashkil qilish orqali hudud iqtisodiyotini qo‘llab-quvvatlash mumkin.

6. **Virtual va interaktiv tajribalar yaratish:** Karvonsaroylar tarixini o‘rganish uchun virtual ekskursiyalar va 3D modellashtirish texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy auditoriyani jalb qilishda samarali bo‘lishi mumkin.

7. **Xalqaro tan olingan madaniy meros ro‘yxatiga kiritish:** Ba’zi karvonsaroylarni UNESCO yoki boshqa xalqaro tashkilotlarning madaniy meros ro‘yxatiga kiritish orqali ularni dunyo bo‘ylab tanitish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. *Абаза К. Завоевание Туркестана. Санкт-Петербург. 1902. - С. 242.*
2. *Семёнов В.П. Полное географическое описание. Изд. Деврина, 1913. - С.875.*
3. *Хидоятов Г.А. Из истории англо- русских отношения в Средней Азии в конце XIX века (60-70 г). Т. “Фан”. 1969.-454 с.*
4. *Саидкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX и начале XX вв. Самарканд 1970 г.- 255с.*
5. *Соколов Ю.А. Бухара, Самарканд, Келиф в 1813 г. Публикация отрывка из “Путешествия мир-Иззатуллы в Среднюю Азию 1812-1813 гг.” Труды ТашГУ им. Новая серия. Вып. X. Исторические науки. Кн. 14. – Ташкент, 1957. – С.196.*
6. *Абрамов М.М. Гузары Самарканда. – Т.: Узбекистан, 1989. – С. 4.*
7. *Morrison A.S. Russian rule in Samarkand 1868-1910. A Comparison with British India. – Oxford University Press. 2008. – P.81.*

ABDURAUUF FITRATNING MUSIQA TA'LIMI RIVOJI YO'LIDAGI BEQIYOS XIZMATLARI

*Radjabova Nodira Mehmonovna,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
rajabovanodira33@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada BXSР yillarida musiqa ta'limi va targ'iboti, Abdurauf Fitratning musiqa ta'limi rivojiga qo'shgan hissasi, Buxoro Shashmaqomini asrab-avaylab, kelajak avlodga yetkazish borasida BXSР yillarida Abdurauf Fitrat tashabbusi bilan amalga oshirilgan ishlar, xususan, Sharq maktabini tashkil etish, uning faoliyatini yo'lga qo'yish, malakali yetuk mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash va Sharq musiqa maktabida o'quvchilarga saboq berishning uslublari, rahbar va o'qituvchilar tarkibi borasidagi amalga oshirilgan ishlar haqida fikr boradi.

Kalit so'zlar: maqom, musiqa, milliy, mutaxassis, mavrigixonlik, buxorcha turkumlar, duxovoy orkestr, teatr san'ati, teatr truppalari, Eski Buxoro.

НЕОЦЕНИМАЯ ЗАСЛУГА АБДУРАУФА ФИТРАТА В РАЗВИТИИ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматривается музыкальное образование и вклад Абдурауфа Фитрата в развитие музыкального образования, работа, проведённая по его инициативе в годы БНСР по сохранению и передаче Бухарского Шаимаккома будущему поколению, в частности, организация Восточной школы, налаживание её деятельности, обеспечение квалифицированными зрельми специалистами и обучение учащихся в Восточной музыкальной школе. Говорится о проделанной работе по руководящему и педагогическому составу.

Ключевые слова: маком, музыка, национальная, специальная, мавригийская, Бухарские категории, духовой оркестр, театральное искусство, театральные труппы, старая Бухара.

ABDURAUUF FITRAT'S INCOMPARABLE SERVICES TO THE DEVELOPMENT OF MUSIC EDUCATION

Abstract. This article discusses the work carried out on the initiative of Abdurauf Fitrat during the years of the USSR on the promotion and promotion of music education, Abdurauf Fitrat's contribution to the development of music education, the preservation and transmission of the Bukhara Shashmaqom to future generations, in particular, the organization of the Oriental School, its activities, provision of qualified and experienced specialists, and the methods of teaching students at the Oriental Music School, as well as the composition of the leadership and teaching staff.

Keywords: makom, music, national, special, mavrigi, Bukhara categories, brass band, theatrical art, theater troupes, old Bukhara.

Kirish. Buxoroda musiqa ta'limi va qo'shiqchilik san'ati rivojini, milliy musiqa durdonalarini asrab-avaylab, kelajak avlodga yetkazishda jadid munavvari, qomusiy ilmlar bilimdoni, adib va tarixchi Abdurauf Fitrat (1886-1938-yy) ning roli beqiyosdir.

Abdurauf Fitrat XX asr dastlabki o'n yilliklarida Buxoro va butun Turkiston ijtimoiy-madaniy jarayonlarning markazida turdi, dunyoviy va diniy bilimlar rivojiga beqiyos hissa qo'shdi [1]. Abdurauf Fitrat musiqa sohasida maxsus bilim olmagan biror bir o'quv dargohini bitirmagan bo'lsa-da, musiqaga bag'ishlab "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" nomli kitobini yaratgan. Bu esa, Fitratning fenomenal qobiliyatga ega ekanligidan, O'rta Osiyodagi mutafakkirlar tomonidan yaratilgan musiqa ilmiga taalluqli asarlarni mukammal o'zlashtirganidan dalolat beradi.

Ayrim ma'lumotlarda, Abdurauf Fitrat musiqaga bag'ishlangan yuqorida ko'rsatilgan asaridan tashqari bu yo'nalishda maqolalar ham yozganligi, uning o'zbek milliy madaniyati tarixiga oid asarlari to'liq to'plansa, uch tomlik kitobni tashkil etishi bilan bog'liq fikrlar keltirilgan [2].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Abdurauf Fitratning musiqa ilmiga qo‘shgan hissasi Sharq dunyosi mamlakatlarida ham e‘tirof etilgan bo‘lib, turk musiqashunosi, jurnalist Etem Ruhi Ungur Istanbulda salkam yarim asr davomida “Muzika to‘plami” jurnalini chop ettirgan. Uning jurnali sahifalarida germaniyalik turkiyshunos olimi Angilika Yung o‘zbek musiqachilik san‘ati, Shashmaqom va Abdurauf Fitrat ijodiga tegishli turkum maqolalar e‘lon qilgan. Shuningdek, Etem Ruhi Ungur jurnalida turkiyalik musiqa shinavandalariga Abdurauf Fitratning “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” kitobi turk tilida bir necha sonlarda bosib borilgan. Turk jurnalxoni Abdurauf Fitrat asari va uning musiqashunoslikka qaratilgan qarashlari bilan tanishib borgan. O‘zbek musiqa san‘atining o‘zgacha sehri borligi, urf-odati, madaniyati, tili bir-biridan farq qilgan xalqlar ham bu sehrli ohang va kuylarga oshuftaligini Etem Ruhi Ungur o‘z maqolalarida alohida ta’kidlagan [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy izlanishlar olib borishning tarixiy- xronologik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez hamda sivilizatsion yondashuv metodlaridan foydalandik.

Tahlil va natijalar. Ma’lumki, BXSР hukumati davrida Turkiston o‘lkasida madaniyat, maorif, fan hamda san‘at rivojida muhim siljishlar ro‘y berdi. Yurtimizning ilg‘or ziyolilari o‘lkani zamonaviylashtirish, dunyoning taraqqiy qilgan mamlakatlari darajasiga olib chiqish maqsadida o‘zlaridagi kuch-quvvatni, bilim va tajribani imkon qadar ishga soldilar. Xalqimizning ota-bobolaridan meros bo‘lib qolgan milliy his-tuyg‘u va qadriyatlar bilan yo‘g‘rilgan dostonchilik, qo‘shiqchilik san‘atini yangi ruh bilan boyitish, yangidan-yangi qo‘shiq va kuylar ijod qilish yo‘lida ham xayrli ishlar amalga oshirildi. Umuman, Sharq musiqasi va unda salmoqli mavqega ega bo‘lgan o‘zbek milliy musiqa san‘ati ozodlik va istiqloqla chorlovchi milliy jihatlari bilan sayqal topdi.

1920-yil sentabrda Buxoro amirligi tugatilganidan so‘ng, ko‘p o‘tmay Fayzulla Xo‘jayev rahbarligidagi Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSР) tashkil topib, Nozirlar kengashidan iborat yangi hukumat tuzildi. O‘nta nozirdan iborat hukumat tarkibida BXSР xalq maorifi nozirligi ham faoliyat yuritib, uning bir necha bo‘lim sho‘balari mavjud edi. Shunday sho‘balardan biri “musiqiy” hisoblanib, uning zimmasiga Respublikada zamonaviy musiqiy ta’limni joriy etish, musiqa maktablari, musiqa to‘garak va klublari ochish, musiqaxonalar, duxovoy orkestr guruhini tashkil etish vazifalari yuklandi. Musiqa va qo‘shiqchilik san‘ati namoyondalari bilan teatr truppalari ta‘minlash, yoshlar va xotin-qizlardan iborat konsert guruhlari tuzish ham mazkur bo‘lim zimmasiga yuklangandi. BXSР hukumati Buxoro san‘at namunalari hisoblangan milliy urf-odat va an‘analari, udumlarini, ruh va ma’naviy kamolini ifodalaydigan maqomlar, mavrigixonlik va “Buxorcha” turkumlarni yoshlarga o‘rgatish borasida ko‘p kuch sarfladi. Ayniqsa, Buxoroda musiqa ta’limining takomilida BXSР maorif noziri lavozimida ishlagan Abdurauf Fitrat, undan oldin va so‘ngra shu lavozimda faoliyat yuritgan Qori Yo‘ldosh Po‘latov, Musojon Saidjonov, “Buxoro axbori” gazetasida muharrirlik qilgan Abdulhamid Cho‘lpon, Ziyo Usmoniy kabilarning xizmatlari beqiyos bo‘ldi. Buxoro shahrida 1922-yilda muallimlar tayyorlov kurslari (uch oylik, olti oylik) tashkil etilib, ularda sobiq amirlik zamonida mudarrislik qilganlardan ham foydalanildi. O‘sha yili muallimlar tayyorlash kursida 52 nafar talaba imtihondan o‘tib, Buxorodan tashqariga shulardan 4 nafari Karkiga, 2 nafari Qorako‘lga, 3 nafari Qarshiga yuborilgan. Qarshiga yuborilgan 3 nafar muallimdan 2 nafari musiqa muallimi bo‘lgan.

1922-1923-o‘quv yilida Respublikada 60 ta boshlang‘ich, ixtisoslangan, o‘rta maktablar bo‘lsa, 1923-1924-o‘quv yilida 90 ta o‘quv yurti bo‘lgan. Shulardan 7 ta musiqa maktabi ham faoliyat yuritgan.

1923-yilda Buxoro shahrida Farobiy nomida musiqa konservatoriyasi ochilgan. 1923-1924-o‘quv yilida ushbu konservatoriyada 75 ta o‘quvchi tahsil oldi. O‘quvchilarning 55 foizi o‘zbek, 25 foizi tojik, 12 foizi tatar, 6 foizi Buxoro yahudiylari, 2 foizi yevropalik aholi vakillarining farzandlari edi. Konservatoriyada Respublika maktablari uchun musiqachilar va musiqa o‘qituvchilari tayyorlangan.

BXSР yillarida musiqa ta’limi va musiqa targ‘iboti haqida fikr yuritilar ekan, bu o‘rinda Abdurauf Fitrat tomonidan amalga oshirilgan ishlar alohida ahamiyatga ega. Fitrat 1921- yilning 9- martida Toshkentdan Buxoroga qaytgach, ona yurtida maorif va madaniyat ishlari bilan jiddiy shug‘ullana boshladi. Sadr Ziyo, Musa Saidjonov kabi bir qator maslakdoshlari bilan hamkorlikda ilmiy jamiyat tuzib, turli fanlarga oid nodir qo‘lyozmalarni to‘plashga kirishdi. 1922-1923- yillarda Buxoro Xalq Sho‘rolar jumhuriyati (BXSР) ning maorif noziri vazifasida ishlagan kezlari bu faoliyati doirasini yanada kengaytirdi. Endi u Buxoroda Sharq dorilfununini tashkil etish asoslarini tayyorlashga kirishdi, ayni chog‘da mamlakat miqyosida umumta’limni yo‘lga qo‘yish va bu jarayonga o‘quvchilarni ommaviy safarbar etish tadbirlarini amalga oshira bordi. Uning musiqiy ta’limni yo‘lga qo‘yish va umuman musiqiy ishlarni jonlantirish sohasidagi tashabbuskorligi alohida ahamiyatga molik. Fitrat musiqiy ta’limni va bu sohadagi tadqiqotlarni yo‘lga qo‘yishni ko‘zlab, Buxoro shahrining Ravg‘angaron guzarida BXSР hukumati tomonidan o‘ziga in‘om etilgan hovli (hozir xususiy lashtirilgan 8-uy) da ixtisoslashgan musiqa maktabi tashkil etdi. Bu maktab “Sharq musiqa maktabi” deb atalib, yevropacha usuldagi musiqa maktabidan farq qilar, unda ta’lim jarayoni sharqona ustoz-u shogird saboqlari asosida qurilgan edi. Unga BXSР hukumatining 1921- yil 10- avgustdagi

farmoyishi bilan Abdurauf Fitrat direktor, Domla Halim Ibodov ilmiy mudir etib tayinlangan edi[4]. Keksa ustoz va ularning shogirdlaridan Ota Jalol, Ota G'iyos, domla Halim Ibodov, Shorahim Shoumarov, Abusoat Vaxobov, Usto Shodi Azizov, Matyusuf Xarratov kabilar iqtidorli yoshlarga saboq berish uchun taklif etildilar [5].

Abdurauf Fitrat tashabbusi bilan Eski Buxoroda bevosita olimning yashagan uyida ochilgan "Sharq" musiqa maktabi haqida fikr yuritmaslik aslo mumkin emas. Abdurauf Fitrat hukumat xizmatida ishlash uchun o'tganida sobiq amir amaldorlaridan biri To'rayi Chorjo'yiga tegishli Buxoroning Dasturxonchi hovuzi yonida joylashgan boloxonali hovlisidan uy-joy berilgan edi. Shuningdek, unga xizmat oti va foytun ham berilib, shu tariqa transport vositasi bilan ta'minlangandi. 1921-yilning martida Abdurauf Fitrat o'zi istiqomat qilib turgan To'rayi Dasturxonchi hovlisini musiqa maktabi uchun bo'shatib berdi va o'zi ukasi Abdurahmon Abdurahim baqqol o'g'li yashab turgan otasining eski hovlisiga ko'chib o'tdi. Abdurauf Fitrat ochgan musiqa maktabida ayrim manbalarda 25-30 ta, ayrim manbalarda 50 tagacha o'quvchi tahsil olganligi qayd etilgan [6]. Ushbu maktab mudiri (direktori) Abdurauf Fitrat bo'lib, Buxoro Sharq maktabida ustozlar izlab topish ham uning zimmasiga yuklatilgandi. O'quvchilarga saboq berish shaxsan Abdurauf Fitrat tomonidan ham amalga oshirilgan bo'lib, u ayrim musiqa asboblari, jumladan, tanbur chertish (chalish)ni yaxshi bilgan. Fitrat ochgan musiqa maktabida o'quvchilar ta'lim olishi tekin bo'lib, hatto, ularga har oy 15 oltin so'm miqdorida stipendiya berilgan. O'quvchilar tushlik (oziq-ovqat), har olti oyda kiyim-kechak bilan ta'minlangan. O'quvchilar o'rganishi uchun musiqa asboblari dutor, tanbur, g'ijjak, doira, do'mbira, qashqar rubob kabi milliy musiqa asboblari bilan birga, yevropa musiqa asboblari ham maorif nozirligi tomonidan tekin olib kelingan.

Sharq musiqa maktabi o'z faoliyatida ko'proq og'zaki uslubga, ya'ni Buxoroda eskidan kelayotgan ustoz-shogird an'analariga tayangan. Unda ustozlar amalda aytib yoki chalib ko'rsatib berganlar, shogirdlar esa bevosita eshitib o'zlashtirib olganlar. Fitrat musiqa maktabi o'quvchilari ham Sharq ham G'arb musiqasidan tahsil olishgan. Shuningdek, Buxoro milliy san'atiga tegishli bo'lgan "Shashmaqom", "Mavrigixonlik", "Buxorcha turkumlar" ham yoshlarga o'rgatilgan. Musiqa maktabi Buxoro maorif nozirligi huzurida ochilgan duxovoy orkestr o'rgatadigan doril musiqa kursi bilan aloqada bo'lgan. Duxovoy orkestr bitiruvchilari BXSР hukumati tadbirlarida ya'ni miting va namoyishlarda, elchi va chet ellik mehmonlarni qabul qilishda, bayram kunlarida, tantanali marshlarda musiqa chalish vazifasini bajarishardi[7]. Bu bir tomondan BXSРga Yevropa musiqa madaniyati bilan transformatsion jarayonlarni anglatsa, ikkinchi tomondan kommunistik mafkura ta'siri kuchayib borayotganligidan dalolat berardi. Abdurauf Fitrat musiqa maktabini malakali musiqashunos pedagog xodimlar bilan ta'minlash maqsadida taniqli rus musiqashunosi V.A. Uspenskiyni maktabga o'qituvchilik qilishi uchun taklif etdi[8]. Uspenskiy kabi muallimlardan ta'lim olgan maktabning sobiq o'quvchilaridan keyinchalik Buxoro musiqashunosligi va qo'shiqchiligi borasida ulkan yutuqlarga erishgan Shonazar Sohibov, Shavkat Niyoziy, Muxtor Ashrafiy, Ayub Qodirov, Fayzulla Karomatov, Ahmadjon Ixtiyorov kabilar yetishib chiqdi. Ular musiqa tarixida "Abdurauf Fitrat va V.A Uspenskiy maktabi musiqachilari" –deb nom oldilar [9].

Tarixiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, Abdurauf Fitrat musiqa maktabi o'quvchilari bir yillik faoliyatlari yuzasidan BXSР hukumati va tomoshabin xalq vakillari oldida hisobot konsert tomoshalarini namoyish etishgan. Maktabning bir yillik hisoboti 1922- yil yozida Buxorodagi "Yetimxon" teatr tomoshaxonasida tashkil etilib, unda Abdurauf Fitratning "O'g'uzxon" musiqali p'yesi namoyish etilgan. P'esa tomoshasida Abdurauf Fitrat O'g'uzxon (Boboy) rolini o'ynab tomoshabinlar e'tiboriga sazovor bo'lgan[10].

O'z-o'zidan ayonki, teatr san'atini, teatr truppalari faoliyatini qo'shiqchi san'atkorlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Buxoro musiqa maktablarida ta'lim olgan musiqachi va qo'shiqchilar joylarda teatr tomoshalarini ta'minotchisi bo'lib, keng faoliyat yuritdilar. 1922-yilda Buxorodagi 3 ta teatr truppassi Karmana, Yangi Buxoro, Sherobod, Karki, Chorjo'y, Qarshi, Termiz, Eski Buxoro shaharlarida konsertlar berdi. O'rtacha har bir teatr truppassi 1922-1923-yillarda o'ntagacha konsertlashtirilgan teatr tomoshalarini tashkil etib xalq e'tiboriga sazovor bo'ldi [11].

Musiqa maktabini bitiruvchilaridan ko'ngilli tarzda "Buxoro ko'ngilli konsert beruvchi yoshlar guruhi" ham tashkil etilgan. Bu kabi guruhlar BXSР viloyat va shaharlarida konsert tomoshasi qo'yib, yordamga muhtojlarga mablag' to'plash kabi xayrli ishlarni ham amalga oshirganlar. Ayniqsa, 1921-1922-yillarda Uraloldi va Volgabo'yida och qolganlarga bunday konsertlardan to'plangan 2 mln rubl pul moddiy yordam sifatida yuborilgan[12]. Xullas, BXSРda musiqa ta'limiga alohida e'tibor berildi, shu sababli 1920-yillarda Buxorodan taniqli musiqashunos, qo'shiqchi va sozandalar yetishib chiqdi.

Xulosa va takliflar. 1920-1924 -yillarda Buxoro xalq Sovet Respublikasi (BXSР) hukumati davrida musiqa san'ati sohasida qisqa muddatda samarali ishlar amalga oshirildi. Buxoro xalq maorifi nozirligining 4 ta sho'basidan biri "musiqa" sho'basi deb nomlanib, ushbu sho'ba ishlari, ayniqsa, Abdurauf Fitrat (1886-1938), Muso Saidjonov (1893-1938), Qori Yo'ldash Po'latov (1890-1965) lar maorif noziri bo'lib faoliyat

HISTORY

yuritgan davrda samarali va ibratli ishlarni amalga oshirdi. Teatr truppalarini san'atkor qo'shiqchilar bilan ta'minlashga alohida e'tibor berildi. Konsert truppalari tashkil etilib, ular BXSР viloyatlari bo'yab gastrollar uyushtirdilar. 1921-yilda Abdurauf Fitratning uyida musiqa maktabi ochilishi, ushbu maktabda ta'lim berishligi va o'quvchilarga har oyda 15 oltin so'm (50 rubl) stipendiya berilishi Buxoroda o'nlab "Shashmaqom", "Mavrigixonlik", "Buxorcha" turkum ijrochilarining yetishib chiqishida muhim bo'ldi. Buxoro shahrida duxovoy orkestr maktabi, 1923-yilda 7 ta musiqiy maktab faoliyat yuritgani ham muhimdir. BXSР maorif nozirliги huzurida dorilmusiqa kursi ochilgani ham tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi.

ADABIYOTLAR:

1. Ahmadova Z. Sh. *Abdurauf Fitratning Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda tutgan o'rni va ilmiy faoliyati. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro. 2023-yil, -127 bet.*
2. *Хайитов Ш.А. Ўзбекистоннинг халқаро муносабатлар тарихидан (қадим замонлардан XX асрнинг 90 йилларига қадар). Бухоро.1996. -Б.71 -72;*
3. *О'zbekiston milliy arxivi, R-2261-fond, 1-ro'yxat, 476- yig'ma jild, 36-varaq, 507-yig'ma jild, 37-varaq, 106- yig'ma jild, 40,41,42,43,44,45-varaqlar;*
4. *О'zbekiston milliy arxivi, R-56-fond, 1-ro'yxat, 184-yig'ma jild, 33-varaq;*
5. *Абдурауф Фитрат. Ўзбек классик муסיқаси ва унинг тарихи. Самарқанд-Тошкент,1927. Кирилда янги нашр. Тошкент.:1993. -Б.3;*
6. *Nusratillo Naimov. Fitrat fojiasi (tarixiy qissa).Toshkent.: "Fan",2005. -B.82 bet (lotin imlosida);*
7. *Duxovoy musiqa haqida//Buxoro axbori,20 -son .1921-yil 11- dekabr, Duxovoy musiqa orkestri holati // Buxoro axbori, 123- son,1929- yil 15- oktyabr;*
8. *О'zbekiston milliy arxivi, R-56 fond, 1-ro'yxat, 124-yig'ma jild,11,12-varaqlar*
9. *Naimov N. Fitrat fojiasi (tarixiy qissa).Toshkent.: "Fan",2005. -B.83 bet (lotin imlosida);*
10. *Qalandar (Cho'lpon). Teatr-tomosha//Buxoro axbori, 59-son,1922-yil 11- dekabr;*
11. *О'zbekiston milliy arxivi, 56-fond, 1-ro'yxat,43-yig'ma jild,132,133-varaqlar;*
12. *О'zbekiston milliy arxivi, R-17- fond, 1-ro'yxat,45 -yig'ma jild, 156- varaq;*

O'ZBEKISTON BOJXONA ISHI TARIXIGA BIR NAZAR

Raxmatov Mirjon Mo'minovich,

*Buxoro davlat universitetining mustaqil izlanuvchisi
rahmatov1778@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda bojxona ishining vujudga kelishi va tarixiy bosqichlari haqida manba va adabiyotlar tahlili orqali fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, boj, bojgir, bojxona, bojxona nazorati, boj undirish, boj olish tartibi, chegara, savdogarlar, tovarlar, pul, savdogar, sudxo'r, sarrof, muhr, tamg'a, xizmatchi, karvon, karvonsaroy, nazorat.

ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ ТАМОЖЕННОГО ДЕЛА УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В этой статье посредством анализа источников и литературы высказаны мнения о возникновении и исторических этапах таможенного дела в Узбекистане.

Ключевые слова: Бухарский эмират, пошлина, плательщик пошлины, таможня, таможенный контроль, взимание пошлины, порядок взимания пошлины, граница, купцы, товары, деньги, купец, ростовщик, меняла, печать, печать, служащий, караван, караван-сарай, контроль.

A LOOK AT THE HISTORY OF UZBEKISTAN'S CUSTOMS

Abstract. This article provides feedback on the emergence and historical stages of customs in Uzbekistan through an analysis of sources and literature.

Keywords: Bukhara Emirate, customs, customs control, customs collection, customs procedure, border, merchants, goods, money, merchant, usurer, money changer, seal, official, caravan, caravanserai, control.

Kirish. Boj atamasi o'rtasrlarda ilk bor Sharq dunyosida savdogar va hunarmandlardan olingan soliq; shuningdek, mag'lub podsholiklar tomonidan yoki zabt etilgan xalqlardan g'olib tomonga to'langan natural yoki pul solig'i sifatida qo'llanilgan. Ikkinchidan, mamlakat chegarasidan olib o'tiladigan import tovarlari, mol-mulk, qimmatbaho buyumlar uchun davlat boj nazorati undiradigan pul yig'imlari ma'nosini ham ifodalaydi. Boj mamlakat manfaatini ko'zlab undiriladi, xalqaro va milliy boj ta'riflariga asoslangan holda milliy bozorga turli tovarlarning noqonuniy oqimi oldini olish vositasi hisoblanadi, shuningdek, tovarlar importini muvofiqlashtirib, mamlakat doirasidagi taqchil tovarlar eksportini chegaralashga xizmat qiladi. Boj aslida soliq turi bo'lib, uning mol kiritish, mol chiqarish va mamlakat hududi orqali tashib o'tkazish (tranzit) uchun undiriladigan turlari mavjud. Boj muayyan tovarlar miqdori, donasi, uzunlik o'lchovi, birligi, shuningdek, tovar bahosi bo'yicha belgilangan boj tarifi doirasida olinadi [1].

Bojxona atamasi quyidagi ma'nolarni ifodalaydi. Birinchidan, boj undiradigan joy. Ikkinchidan, chegara orqali o'tadigan jami yuklarni, jumladan, bagaj va pochta jo'natmalarini nazorat qiladigan davlat muassasasi; o'tkazilayotgan yuklarni tekshirish, tartibga solish va rasmiylashtirish, ulardan boj va yig'imlar undirish bilan shug'ullanadi. Qonunchilikda belgilangan tartib-qoidalarning buzilishini oldini olish, ularga nisbatan choralar ko'rish, surishtiruv va tezkor-qidiruv faoliyatini olib borish, kontrabandaga qarshi kurashish kabilar bojxona vakolatiga kiradi. Bojxona postlari va maskanlari dengiz va daryo portlarida, xalqaro aeroportlarda, temir yo'l stansiyalarining chegara punktlarida joylashadi. Bojxona muassasalari tashqi savdoda mamlakat manfaati ta'minlanishini nazorat qiladi, qimmatbaho boyliklar (san'at asarlari, nodir metallar)ning mamlakat hududidan olib chiqib ketilishining oldini oladi.

Qadimgi Yunon va Rim antik davr tarixi bilan bog'liq ularning xudolari haqida ko'plab afsonalar yaratilgan. Ular xudolarni odam qiyofasida tasavvur qilib, insonlar kabi o'zaro munosabatda bo'ladi, deb o'ylaganlar. O'sha davrda odamlar har bir xudo olamdagi muayyan jarayonni boshqarishiga va homiylik qilishiga ishonishgan. Afsonalarga ko'ra, yunonlar bosh xudosi Zevsning o'g'li bo'lgan Merkuriy ana shunday xudolardan biri hisoblangan.

Rimliklar Merkuriy (*lotincha Mercurius, mercatus so'zidan – "savdo"*) yunonlarda esa uni Germes (*yunoncha Hermes, herma so'zidan – "ustun" ma'nosini bildiradi. Qadimda toshdan yasalgan ustunlar yo'llarga, kirish joylariga va darvozalarga o'rnatilib, ularga himoyachi sifatida sig'inilgan*) deb atashgan.

Merkuriyga yo‘l, yo‘lovchilar, savdogarlar va savdo homiysi sifatida sig‘inilgan. Go‘yoki Merkuriy o‘lchov birliklari va sonlarni kashf etgan. Afsonalarda keltirilishicha, Merkuriy o‘zining “lira” musiqa asbobini akasi, nur va ilhom xudosi Apollonga hadya etgan. Bunga javoban akasi Merkuriyga yong‘oq novdasidan yasalgan sehrli tayoqchani sovg‘a qilgan. Merkuriy sovg‘aning sehrini sinash uchun urishayotgan ikki ilon ichiga tayoqchani tashlaganida ilonlar urishishdan to‘xtab, tayoqchaga o‘ralib olishgan. Demak, bojxona belgilarini paydo bo‘lishi qadimgi Yunoniston va Rim davri tarixiga borib taqaladi.

Dastlabki bojxonalar savdogarlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun boj undirish maqsadlarida tashkil etilgan. Qadimiy Xitoyda ipak qurtini tashqariga olib chiqmaslikni ushbu mamlakat bojxona postlari qat‘iy nazorat qilgan. Chunki, ipak qurtidan olinadigan ipak matosini xitoy hukmdorlari uzoq vaqt sir saqlaganlar. Buyuk Britaniyada boj olish tarixi XI asrga borib taqaladi va 1006-yildan boshlab orolga keltiriladigan har qanday buyumdan "qirol haqi" undirilgan. Boltiq dengizini Jahon okeani bilan tutashtiradigan bo‘g‘ozdan o‘tganligi uchun olinadigan "zund boji" asrlar davomida Daniya qirolligi xazinasini boyitib kelgan. Savdo-sotiq erkinligi va xavfsizligini ta‘minlashda bojxona muhim o‘rin tutgan, olib o‘tilayotgan tovarga maxsus belgi qo‘yilgan va ushbu belgi bu tovardan boj olinganini ifodalagan. O‘rta asrlarda karvon yo‘llarida, maxsus joylar (ko‘priklar, dovonlar hamda shahar tashqarisi)da savdo karvonlaridan boj oluvchi bojxonalar bo‘lgan [2].

Asosiy qism. Ushbu maqolada O‘zbekistonda bojxona tarixi bilan bog‘liq ayrim jihatlar tarixiy xronologik ketma-ketlikda ochib berilishiga harakat qilindi. O‘z geografik joylashuvi va tabiiy sharoitlari tufayli O‘zbekiston hududi qadimgi davrlardan buyon nafaqat Markaziy Osiyo, balki Osiyo mintaqasida iqtisodiy-madaniy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar faol kechgan hudud sifatida e‘tirof etilgan. Buyuk Ipak yo‘li o‘tgan shahar va aholining asosiy qismi ham aynan yurtimizdan o‘tganligi bois, bu zaminda ming yillar davomida o‘troq va ko‘chmanchi aholi o‘zaro savdo-sotiq va madaniy aloqalarda bo‘lishgan. Eramizdan avvalgi minginchi yillardayoq iqtisodiy aloqalar, shu jumladan, savdo-sotiq aloqalarining tobora rivojlana borishi natijasida boj-xiroj olish an‘analari vujudga kelib, asta-sekin davlatning muhim muassasalari bojxona xizmat ko‘rsatish yuzaga kelgan.

Rivojlanib borayotgan Buyuk Ipak yo‘lidagi savdo aloqalari esa ushbu xalqaro savdo-sotiq yo‘lida joylashgan davlatlarda, shu jumladan Markaziy Osiyoda bojxona ishining shakllanishi va takomillashib borishiga o‘zining katta ta‘sirini ko‘rsatgan. Ilk o‘rta asrlarga oid turkiy, so‘g‘diy, xitoy va arab manbalarida o‘sha davrlarda Turkiston deb atalgan yoxud Turon hududida boj to‘lovchilar va boj yig‘imlari haqidagi dastlabki yozma ma‘lumotlar saqlangan.

Demak, o‘tmishda davlatlararo chegara va chegara chiziqlari bilan bog‘liq jihatlar hozirgiga qaraganda farq qilgan. Bunday farq bojxona va boj olish ishlari bilan bog‘liq masalalarda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Garchi, ilk o‘rta asrlarda mamlakat hududidagi bojxona maskanlari aynan qayerlarda joylashganligiga doir ma‘lumotlar juda oz bo‘lsa-da, ularning qay tartibda, qanday miqdorda boj olganliklari, bu borada biror-bir qoidalar ishlab chiqilganligi bog‘liq bo‘lgan hanuzgacha ilmiy yechimini topayotgan emas.

Bugungi kunda o‘zbek tilida “boj”, “bojxona”, “boj undirish”, “boj-xiroj” kabi boj tizimi bilan bog‘liq bir qator atama va iboralar keng qo‘llanilib, ularning asosida “boj” so‘ziga aloqador fikrlar shakllangan. Aslida kelib chiqishi qadimgi So‘g‘diylar tilida “baj” bo‘lgan ushbu so‘z milodiy VIII asrning 20-yillariga taalluqli Mug‘ tog‘i so‘g‘diy hujjatlarga uchraydi [3]. Bu orqali anglab olish mumkinki, o‘sha paytda “bojkirom”lik mansabi mavjud bo‘lib, ushbu lavozimni egallagan shaxslar o‘z faoliyati haqida yuqori lavozimdagi mansabdorlarga xususan, saroy amaldorlariga yozma hisobotlarini vaqti-vaqti bilan jo‘natib turganlar. Hujjatda hisobot xati yo‘llangan amaldor – Tarxon esa qadimgi turkiy nom sifatida qo‘llanilib, ushbu unvonga ega amaldorlar davlat boshqaruvida katta imtiyozlarni qo‘lga kiritganlar.

Bojxona maskanlari faqatgina mamlakatning chegara hududlarida emas, uning ichki shahar va tumanlarida ham, xususan, karvonlarni nazorat qilish imkoniyati yuqori bo‘lgan joylarda o‘rnatilgan. Xususan, hozirgi O‘zbekiston hududida bunday maskanlar Sirdaryo, Amudaryo va Zarafshon kabi daryolarning ot va tuyalarda kechib o‘tish mumkin bo‘lgan, nisbatan sayoz o‘zanlarida yoki sol va qayiqlar vositasida o‘tilishi qulay joylarda faoliyat yuritgan. Shuningdek, daryolar ustida qurilgan ko‘priklar yaqinida ham bojxona maskanlari barpo qilinganligi muhimdir. Ehtimol, Termiz shahri yaqinidagi Amudaryoning kechuv joylaridan biri Pattakesar manziling nomi ham bu yerda bojxona joylashganligi va karvonlardan “patta kesilgan”ligi, ya‘ni boj olinganligi bilan bog‘liq bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Bojxonada qadimdan olib o‘tilayotgan buyumlarga maxsus muhr – tamg‘a bosilgani uchun ham boj xizmatida bo‘lgan davlat xodimlari, ya‘ni bojgilar “tamg‘achi” deb atalgan. Ilk o‘rta asrlarda mamlakat hududida yashovchi aholining asosiy qismini tashkil etgan ikkala etnos tilida bu vazifani bajaruvchilar bir-biridan farqli ravishda “bojgir” yoki “tamg‘achi” deb yuritilgan bo‘lsa-da, aslida bir xil ma‘noni ifodalaydi.

Xususan, So‘g‘diy tildagi *bojgir* – “boj oluvchi” degan ma‘noni bildirib, xorijdan kelayotgan karvon egalari va savdogarlardan davlat ixtiyoriga soliq oluvchi xodim uchun qo‘llanilsa, qadimgi turkiy *tamg‘achi* – so‘zi esa xorijdan kelayotgan mol, buyum va ashyolar ustiga, ulardan soliq, ya‘ni boj olinganini ifodalovchi maxsus belgi – tamg‘ani bosuvchi xodimni ifodalash maqsadida ishlatilgan.

Arablarning Movarounnahrda bosqinchilik urushi yillarida Marv yo‘nalishi asosiy sanalgan va Amul (Amuya, hozirgi Chorjo‘y) asosiy bojxona vazifasini o‘tagan. Movarounnahrda Jayxun orqali Xurosonga o‘tishda Amul kechuvida maxsus nozirlar turishgan. Ular yo‘lovchilarning shaxsini aniqlaganlar va ruxsatnoma (yo‘l xati) so‘raganlar [4]. Arab xalifaligi hukm surgan davrlarda (661–750-yillar) shariat qonun-qoidalariga ko‘ra, boj olish taqiqlangan bo‘lsa-da, ko‘plab bojxonalar (marasidlar) mavjud bo‘lgan. Chunki islom fiqhshunoslari bojni insonparvarlik xayr-ehsoni, ya‘ni “zakot” tarzida rasmiylashtirganlar. “Tavka” nomli kitobda keltirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, savdogar yiliga bir marta o‘z molidan to‘lagan zakot solig‘i aslida boj to‘loviga hisoblangan. Zakot solig‘ini to‘lagan savdogar yil davomida chegaradan erkin kirib-chiqib, o‘z faoliyatini yuritgan.

Xalifalikning bevosita hozirgi O‘zbekiston hududidagi o‘lkalaridan birida joylashgan Amudaryo kechuvidagi bojxonada har bir erkak qul uchun 70-100 dirham, turkiy cho‘ri uchun 20-30 dirham, bir tuya uchun 2 dirham va 1 sayyoh yuki uchun 1 dirham boj olingan. Davlat bojxona idoralari bilan birga viloyat bojxona muassasalari (marasid barriyya) ham bo‘lgan. Mamlakat hududidan olib chiqib ketilayotgan mol uchun salmoqli boj to‘langan. Arab xalifaligi hukmronligining tugatilishi va mustaqil davlatchilikning tiklanishi bilan mintqa hududida yana yangidan taraqqiyot davri boshlandi. Tarixda “Buyuk uyg‘onish” yoki “Sharq renessansi” deb nom olgan IX-XII asrlarda ketma-ket bir necha sulolalar tomonidan boshqarilgan davlatlar hukmronlik qildi.

Arab xalifaligi hukmronligi barham topgandan so‘ng vujudga kelgan dastlabki mustaqil davlat – Somoniylar davlati (875–999-yillar) ga asos solgan Ismoil Somoniy hukmronligi (892–907-yillar) bilan boshlangan mamlakatda hukm surgan bir asrlik tinchlik barqarorlik, o‘z navbatida, siyosiy, iqtisodiy, madaniy rivojlanish uchun zamin yaratdi. Xalqaro miqyosda Somoniylar davlatining savdo-sotiq va elchilik munosabatlari ham rivojlandi. Sharq tomonda Xitoydan g‘arbga va janub tomonda Hindistondan shimol (Volgabo‘yi va Rus)ga qarab yo‘lga chiqqan savdo karvonlari Movarounnahr orqali o‘tar edi.

O‘sha davr yozma manbalaridan savdo yo‘llarida tashkil etilgan bojxonalarga tegishli qimmatli ma‘lumotlar uchraydi. Ana shunday yozma manbalardan biri Ahmad ibn Fadlon yozib qoldirgan safar xotiralari bo‘lib, mazkur asar bugungi kunda nodir manbalar qatorida turadi. Bag‘dod xalifasi al-Muqtadir huzuridan 921-922-yillarda Volgabo‘yi Bulg‘oriyasi podshosiga yuborilgan elchilarning safari Kavkaz orqali, yo‘l notinch bo‘lgani sababli, Buxoro va Xorazm (Gurganj) orqali o‘tgan. Bu haqda mazkur elchilikda kotib vazifasida qatnashgan Ahmad ibn Fadlon o‘z safar xotiralarini yozib qoldirgan va u fanda “Ibn Fadlonning Volgaga safari” nomi bilan saqlab qolingan [5]. Ibn Fadlon aslida xalifa Muqtadirning elchisi bo‘lib, 3 ming tuya yuk, 5 ming kishi bilan Buxoro shahridan Xazrongga yo‘lga chiqqan. Uning karvoni noodatiy karvon hisoblanib, kunduzi hordiq chiqarib, kechqurun qalin o‘rmon va chakalakzorlardan osmon jismlariga qarab yo‘l tanlagan. Uning sayohatnomasini ilk bor muhojir o‘zbek-vatandosh, tarixchi Mubashirxon Salmon Kosonsoy o‘zini O‘rta Osiyo tarixi kitobida bayon qilgan. Bu qo‘lyozmani amaldagi imloga o‘girib, fors-tojik tilidan tarjima etgan.

Keyingi Renessans asoschisi Sohibqiron Amir Temur saltanatida Termiz Amudaryo bo‘yidagi asosiy nazorat punkti sanalgan. Bu yerda mamlakatga keladigan yoki undan chiqib ketadigan elchilar, savdo karvonlari va boshqa yo‘lovchilar o‘rnatilgan tartibga ko‘ra nazoratdan o‘tkazilgan va ular hujjatlari asosida ro‘yxatga olingan. Elchilar uchun alohida e‘tibor bo‘lgan va poytaxt Samarqanddan podshoh huzuridan ularning ahvoli haqida xabar yetkazish uchun maxsus choparlar jo‘natilgan.

Ispaniya qirolligi elchisi Rui Gonsales de Klavixo (1403–1406-yillar) o‘z kundaligida ikkinchi bojxona, ya‘ni Temir darvoza haqida muhim tafsilotlar yozib qoldirgan: “...Dushanbada (1404-yil 25-avgust) ular (elchilar) baland bir tog‘ etagida tunadilar. Uning cho‘qqisida xochsimon shaklda g‘ishtdan qurilgan bir ajoyib bino turardi; u turli rangdagi koshin (kafel) bilan naqshinkor qilingan. Bu tog‘ juda baland, unda tor daradan iborat o‘tkil bor, xuddi inson qo‘li bilan qilinganday; tog‘dan ana shu dara orqali o‘tiladi; ikki tomondan baland tog‘lar qad ko‘targan, (dara) esa tekis va juda chuqur. Ushbu daraning o‘rtasida qishloq bor, undan tepada baland tog‘ yuksalgan. Tog‘dagi bu o‘tkil Temir darvoza deb ataladi. O‘sha yerda bundan boshqa o‘tish joyi yo‘q. Mazkur Temir darvoza Temurbekning ixtiyorida va unga har yili katta daromad keltiradi; chunki Kichik Hindiston (hozirgi Pokiston va Shimoliy Hindiston)dan Samarqand podshohligiga va undan shimoldagi o‘lkalarga yo‘l olgan savdogarlar shu yerdan o‘tadilar...”[6] deb yozgan edi.

G.D. Klavixo ta'riflagan bojxona – Temir darvoza orqali nafaqat Termiz yo'nalishi, balki Amudaryoning undan yuqoridagi kechuvlaridan (masalan Solisaroy) o'tib, Samarqand tomon yo'l olgan karvonlar uchun ham mo'ljallangan edi.

Turli mamlakatlardan kelgan elchilarning hukmdor tomonidan rasmiy qabul qilinishi va ularga qaytish uchun maxsus hujjat (yo'l xati) berish rasmiyatchiliklari bevosita podshoh devonida amalga oshirilgan. G.D. Klavixo safari misolida bunday hujjat Samarqandda tayyorlab berilgan. Mazkur hujjat haqida Klavixo batafsil ma'lumot yozib qoldirgan:

“Biror-bir yorliq berishni buyurganlarida, u yerda doim hozir turgan kotiblar darhol yozadilar; u yozilgach, doim o'sha yerda saqlanadigan qayd daftariga kiritadilar va (unga) belgi qo'yadilar; so'ngra uni oidor (qozixona xizmatchisi)ga ko'rish uchun uzatadilar; (oidor) kumush o'yma muhrni olib, unga siyoh suradi va yorliqning ichki tomoniga muhr bosadi. So'ng uni boshqasi olib qayddan o'tkazadi va o'z boshlig'iga beradi va u (yana bitta) siyohli muhr bosadi. Shu yo'sinda uch yoki to'rt (oidordan) o'tgach, o'rta podshoh muhrini bosadilar, unga fors tilida “Rosti–rusti” so'zi yozilgan va o'rtasida quyidagi uchta belgi bor: o⁰o . Har bir maslahatchi (qozi)ning o'z kotibi va qayd daftari bor. Bu yorliqning (kuchi) shu darajadagi, undagi mirassalar (amaldorlar) va podshoh muhrini ko'rsatgan zahoti hamma (zarur) narsa o'sha kuni, o'sha soatda, kechiktirmasdan amalga oshiriladi” [7] kabi fikrlarni G.D. Klavixo kundaligidan o'qish mumkin.

O'rta Osiyo xonliklarida bir necha ming yillik tarixiy ildizlarga ega asrlar davomida mintaqadagi yirik savdo hamda hunarmandchilik markazlari bo'lib kelgan Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent, Qarshi, Termiz, Marg'ilon kabi shaharlari Buyuk Ipak yo'lida joylashganligi bois qadimdan Sharq va G'arb mamlakatlarining savdo aloqalarida muhim o'rin tutib kelgan. XV–XVI asrlarda dengiz yo'llarining kashf etilishi bilan o'z mintaqaviy ahamiyatini yo'qotgan bu yo'llar XVI–XIX asrning o'rtalarida Afg'oniston, Eron, Hindiston, Rossiya va Xitoy bilan savdo aloqalarida hamon o'z ahamiyatini yo'qotmagan, shu yo'llar orqali mintaqadagi eng yirik savdo markazlari bo'lgan shaharlar bilan an'anaviy bog'langan edi.

Buxoro amirligida mintaqadagi savdo-sotiq ichki va tashqi savdo munosabatlarida juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Amirlikda ayniqsa, Qarshi bekligi hududida savdogarlardan olinadigan boj solig'i davlat xazinasiga katta daromad keltirgan. XVIII asr o'rtalarida Hindiston, Afg'onistondan Buxoroga hamda Buxorodan Kobul va Hirotga boruvchi karvonlar Qarshi shahrida to'xtab, bojxona nazoratidan o'tib, boj to'lab o'tar edilar. Ulardan har biri tuya yuki (16 pud yuk ko'targan) uchun 51 tanga, ot (10 pud) uchun 32 tanga, eshak (5–7 pud) uchun 15 tanga, qullarning har biri uchun 88 tanga miqdorida zakot olingan [8]. Har yili Afg'onistondan Buxoroga 3-3,5 mingta tuyalar orilgan mollar Qarshi orqali kirib kelganligini e'tiborga olsak, bu soliq qanchalik katta miqdorda bo'lib, xazinaga boy daromad keltirganini tasavvur qilish qiyin emas. Qarshi karvonsaroylariga tushadigan mollar bojmonlar va mirshablar tomonidan bir necha kun davomida ko'rib chiqilib, soliq to'latilgach, sotishga ruxsat bergan [9].

Iqtisodiy va savdo-sotiq aloqalari rivoji adolat mezoniga amal qilish orqali soliq va bojar yig'ish bilan ham ko'p jihatdan bog'liq edi. O'rta asrlarda savdodan olinadigan zakot solig'i shariat qoidalariga binoan mahsulotlarning 1/40 foizini tashkil etgan [10]. Musulmon bo'lmagan savdogarlardan yuqori foizda boj olingan. Buxoro amirligida musulmonlardan 5 foiz, xorij musulmonlaridan 10 foiz soliq olingan [11]. Amirlikda XIX asr o'rtalarida hind savdogarlari mahsulotlaridan 10 foiz, nasroniy savdogarlaridan 20 foiz miqdorida boj olingan [12].

Buxoro qushbegisi shahar yaqinidagi Qag'atomda joylashgan bojxonaga ijaradorlik asosida egalik qilgan. Guvohlardan birining ko'rsatishicha, “Bu yerda qushbegining soliq yig'iladigan uyi bojxona bordir. Bu joyda, Qatag'omning o'zida, qushbegining o'zi soliq yig'ish huquqini ijaraga olgan, aytishlaricha, xonga 80 ming Buxoro chervoni to'laydi” [13]. Bunday holatni Xiva xonligi shaharlari misolida ham kuzatish mumkin.

Buxoro shahridan Toshkentga yil davomida har 40 kunda bir marotaba katta karvon Chinoz bojxonasi orqali kirib kelgan. Ma'lumotlarga qaraganda, Buxoro yaqinidagi G'ijduvon shahrida O'rta Osiyodagi eng yirik chorva mollarining bozori bo'lib, bu bozorga butun dunyoga mashhur turkmanlarning “Axaltekini” zotiga mansub otlari ham olib kelingan va bu otlar qo'qonlik savdogarlar tomonidan ko'plab xarid qilib sotib olingan.

Muhim savdo yo'llarida joylashgan Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent, Qarshi, Termiz, Marg'ilon kabi shaharlari Rossiya imperiyasining mintaqaga qarshi istilochilik yurishlari arafasida nafaqat ichki, balki tashqi savdoda muhim rol o'ynar edi. Ushbu shaharlardagi yirik savdo markazlari va karvonsaroylarda mahalliy va qo'shni mamlakatlardan kelgan savdogarlar qizg'in faoliyat olib borar edi. Yirik savdo markazlarida va karvonsaroylarda katta-kichik bozorlar, savdo rastalari, kapponlar, omborxonalar, sarrofxona, zakot va boj solig'i to'plovchi idoralari joylashgan bo'lib, ularda savdo mahsulotlarining ko'tara, ulgurji, chakana, nasiya kabi sotish turlari amalga oshirilardi.

HISTORY

Xulosa. Tarixiy manbalarga ko‘ra xulosa qilib aytganda, bojxona ishining dastlabki elementlari eramizdan avvalgi 3-2-ming yilliklardan boshlab shakllana boshlagan. Savdo-sotiq aloqalarining shakllanishi haqidagi ilk ma’lumotlar Qadimgi Misrning oltinchi sulolasi (eramizdan avvalgi 3-ming yillik boshi) yodgorliklari orqali hozirgacha yetib kelgan. Bu davrda misrliklar Finikiya shaharlari va Qizil dengiz havzasidagi yerlarning aholisi bilan savdo aloqalarini o‘rnatganlar.

Savdo siyosatining ahamiyatini to‘g‘ri tushungan hukmdorlar karvon yo‘llarini obod qilish, karvonsaroylar qurish, karvonlarni xavf-xatardan qo‘riqlash chora-tadbirlarini ko‘ra boshladilar. XIV-XV asrlarda sohibqiron Amir Temur oldingi ko‘p yillik urushlar va ko‘chmanchilarning bosqinlari tufayli deyarli to‘xtab qolgan Buyuk Ipak yo‘lidagi savdo yo‘llarini qayta tikladi.

Amir Temur davrida bojlarni tartibga soluvchi hujjatlar ham ishlab chiqilib, ularga qattiq amal qilishi buyurilgan. Davlat chegaralariga qal‘alar qurdirilib, karvonlar o‘sha yerda kutib olingan. Ular karvonsaroylarga joylashtirilib, shu yerning o‘zida xorij savdogarlaridan bojlar undirilgan, boj to‘langan yuklariga esa tang‘alar bosib berilgan. Boj to‘langanligini yoki yuklarga imtiyoz berilganligini bildiruvchi tang‘a bosish tajribasi aynan Amir Temur davrida joriy qilingan.

Qadimgi davrlarda mintaqada boj olish va bojxona faoliyatini takomillashtirilib borildi. Biroq, 1895-yilda Buxoro amirligi va Xiva xonligi Rossiya imperiyasi bojxona tizimiga kiritildi. Boj to‘lovlaridan tushadigan daromad ham imperiya manfaatlariga xizmat qilishga yo‘naltirildi. Sovet hokimiyati yillarida mustaqil bojxona va boj siyosati amalga oshirilmadi, tarixiy tajribalar unutildi, markaz ichki va tashqi siyosat to‘la o‘z qo‘lida jamlandi.

REFERENCES:

1. *O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Birinchi jild, “O‘zME” davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2000-yil* – www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. *O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Birinchi jild, “O‘zME” davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2000-yil* – www.ziyouz.com kutubxonasi.
3. M. Is‘hoqov *“Unutilgan podsholikdan xatlar”*. Toshkent: Fan, 1992, - B. 26-28.
4. *Материалы по истории Средней и Центральной Азии. С-12.*
5. *Путешествие Ибн Фадлана на Волгу. Перевод и комментарий (А.П. Ковалевского)б под ред. акад. И.Ю. Красковчкого. М-Л.,Изд-во АН СССР, 1939. – С.212.*
6. *“Klavixoning Samarqandga sayohati”*. Rus tilidan tarjima, kirish so‘z va izohlar Omonulla Bo‘riyevniki. Toshkent “Adolat”, 2004.– B. 7-8.
7. *Klavixoning Samarqandga sayohati*,– B. 42.
8. *А. Вамбери “Путешествие по Средней Азии”*. СПб., 1856.– С. 224; *П. Савельев Бухара в 1835 году*. СПб., 1836.– С. 16.
9. *G. Tanayeva “Qarshi viloyatining Buxoro amirligi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o‘rni (XVIII asrning ikkinchi yarmi XIX asrning birinchi yarmi)”*. tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasidan. Toshkent: O‘zR FA TI.– B. 70.
10. *Ибн Хажар ал-Аскалоний “Булуг аль-махрам”*. Москва. Умма.: 2009.– С 69.
11. *Мирза Бади Деван. “Маджа ал-аркон”*, Москва, Наука: 1981.– С. 97.
12. *А. Бёрис “Путешествие в Бухару”*, Москва. 1840.– С. 574.
13. *“Записки о Бухарском ханстве” (отчёты П.И. Демезона и И.В. Виткович)*. Москва, Наука: 1983.– С. 94.



ЖАҲОНДА ЎҚОТАР ҚУРОЛЛАРНИ ЯРАТИЛИШ ТАРИХИ

*Алижонов Азизжон Турсуналиевич,
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Малака ошириш институти Жанговар
тайёргарлик цикли бошлиғи, доцент, подполковник*

Аннотация. Ушбу мақолада турли тарихий даврларда инсоният томонидан йиртқич ҳайвонлардан ҳимоя қилишда, егулик топишда, яшаш учун шароитлар яратишда фойдаланилган улоқтирувчи, тешиувчи ёки кесувчи асбоблар ва ҳарбий ҳаракатларда қўлланилган ўқотар қуролларнинг яратилиши ҳамда нима мақсадида фойдаланилганлиги юзасидан маълумотлар ўз ифодасини топган.

Калит сўзлар: ўқ, порох, ўқотар қурол, жанговар қурол, улоқтирувчи қурол, сойли стволли қурол, ҳарбий ҳаракатлар.

ИСТОРИЯ СОЗДАНИЯ ОГНЕСТРЕЛЬНОГО ОРУЖИЯ В МИРЕ

Аннотация. В этой статье собраны сведения о создании метательных, колющих или режущих инструментах и огнестрельном оружии, использовавшихся человечеством в различные исторические периоды для защиты от хищников, при поиске пищи, создании условий для жизни и в военной тактике, а также о том, с какой целью они использовались.

Ключевые слова: пули, порох, огнестрельное оружие, боевое оружие, метательное оружие, нарезное оружие, военные действия.

HISTORY OF THE CREATION OF FIREARMS IN THE WORLD

Abstract. This article contains information about the creation of throwing, stabbing or cutting tools and firearms used by mankind in various historical periods to protect against predators, when searching for food, creating conditions for life and in military tactics, as well as for what purpose they were used.

Keywords: bullets, gunpowder, firearms, combat weapons, throwing weapons, rifled weapons, military operations.

Кириш. Турли тарихий даврларда халқлар ва давлатлар томонидан олиб борилган урушлар тарихи, ҳарбий ҳаракатларнинг ривожланиш жараёни ҳарбий тарих ҳисобланади. Ҳарбий тарих ҳам ҳарбий фаннинг, ҳам тарих фанининг бир қисмидир, чунки у инсоният ва жамият тарихининг энг муҳим жиҳатларидан бири — ҳарбий ҳаракатларни ўрганади [1]. Ҳарбий ҳаракатларни ўқотар қуролларсиз тассавур қилиш қийин. Ўқотар қуроллар узоқ даврдан бери қатъий афсонга айланиб, инсоният тарихида қуроллар сезиларли из қолдирди. Ҳаётда қуроллар шу даражада муҳим даражага кўтарилдики, ҳаттоки ибодат объектига айланди ва ўз даврининг объектидан бутун даврнинг рамзига айланди.

Инсон ва жамият учун зарур бўлган билимларни фан шакллантиради. Фан-бу табиат, жамият ва тафаккур ҳақидаги янги билимларни ишлаб чиқаришга қаратилган тадқиқот фаолиятининг соҳаси бўлиб, ушбу ишлаб чиқаришнинг барча шартлари ва лаҳзаларини ўз ичига олади. Инсон ҳаётининг барча жабҳалари ривожланади. Бир неча аср олдин электроника, микробиология, робототехника йўқ эди, ҳатто космосга учининг назарий имконияти ҳам йўқ эди. Аммо қуролларнинг пайдо бўлиши ва такомиллаштирилиб борилиши алоҳида эътиборга лойиқдир. Инсоният қадим-қадим замонлардан ўзларига егулик топиш ва ҳимояланиш мақсадида қурол ишлатиб келганлар. Қуролларнинг биринчи турлари таёқ, тўқмоқ ва тошлар бўлган. Аввалдан бошлаб қуроллардан фойдаланишнинг асосий мақсади биринчи навбатда йиртқич ҳайвонлардан ҳимоя қилиниш бўлган, кейинчалик эса егулик топиш мақсадида ов қилинган. Аммо кейинчалик қуроллар ҳарбий мақсадларда кўпроқ қўлланила бошланган.

Асосий қисм. Ҳар бир тарихий давр ўзига хос қурол турлари билан ажралиб турарди. Шу билан бирга, қуроллар жамият эволюцияси билан бирга ривожланиб келган. Бундан ташқари, қуролларнинг эволюцияси деярли ҳар доим бутун жамият эволюциясининг асосий жиҳатларидан бири бўлиб ҳисобланган. Қуролларнинг энг оддий турлари шимпанзеларда кузатилади [2], бу беш миллион йил аввал илк гоминидлар томонидан қурол қўлланилганини тақлиф қилиш имконини

HISTORY

беради, булар оддий калтаклар, ибтидоий найзалар ва кесилмаган тошлар эди. Бирок қуролларнинг бундай дастлабки шаклларининг табиати бизга улардан фойдаланишнинг аниқ археологик далилларини топишга имкон бермайди, аслида, дастлабки гоминидлар турли хил ибтидоий қуроллардан фойдаланган бўлиши мумкин, деган тахмин қилишни беради.

Гоминидлар - приматлар туркумига мансуб оила вакиллари бўлиб, улар тахминан 2,8 миллион йиллар олдин яшаган [3].

Найза- улоқтирувчи, тешувчи ёки кесувчи кутбли пичокли қурол

Ўқ-отиш қуроли бўлиб, найзаларга нисбатан бироз кичикроқ ва енгилроқ ва отиш қулайлиги учун мос равишда мувозанатланган бўлади.



Миссисипи маданиятининг *монолит* тош болтаси



Тошдан ясалган асбоблар

Бугунги кунда бизга дастлабки қуролларнинг ёши 300 минг йилдан ортиқ бўлган археологик топилмалар мавжудлиги маълум. Эрта палеолит даврига оид маълум бўлган энг қадимги инсон томонидан фойдаланилган қиррали қуроллар Шёнингендан топилган ёғоч ўқлар ҳисобланади. 1998 йилда Германиянинг Шёнинген шаҳри яқинидаги саёз кўмир конида доктор Х.Тхйёми бошчилигида олиб борилган казишмалар пайтида 8 дона учи учланган ёғоч найзалар топилган. Найзалар тахминан 300 000 йил олдин пайдо бўлган ва ов қуролларининг энг қадимги тўлиқ сақланиб қолган намуналари ҳисобланади. Улар одамлар томонидан ов қилиш учун онгли равишда яратилган қурол сифатида энг муҳим далил ҳисобланади. Ушбу топилмалар қадимги инсоннинг маданий ва ижтимоий ривожланиши ҳақидаги бугунги тушунчаларни бутунлай ўзгартириб юборади. Шунингдек, дунёнинг турли минтақаларида кўплаб тош болталар, тош ўқлар ва найза учлари топилган. Шу билан бирга, ёғочдан ясалган қуроллар билан бир қаторда суяклардан ясалган қуроллар ҳам ишлатилганлиги аниқланган. Кейинчалик эса аста секин тош қуроллари ҳам пайдо бўла бошлаган.

Бронза даврига (инсоният тарихининг археологик маълумотлар асосида аниқланган даврига (милоддан аввалги XXXV / XXXIII - XIII / XI асрлар) келиб қуроллардан фойдаланиш мақсадли эди. Қадимги Эллинлар ва Мисрликлар орасида турли хил бронзадан яратилган қилич ва қалқонлар пайдо бўлган.

Қилич - текис пичокли қуролнинг бир тури бўлиб, кесиш ва тешиш учун мўлжалланган.

Ханжар – калта текис ёки қавс тигли, икки томони ўткирланган пичокли қурол.

Қалқон – бу шахсий ҳимоя воситалари, совуқ қўл ва отиш қуролларидан ва маълум даражада ўқотар қуроллардан ҳимоя қилиш учун мўлжалланган қурол тури

Темир даври келиб темирдан ясалган қуроллар икки турга бўлина бошлаган, булар:

- жанговар қуроллар (қилич, болта);

- улоқтирувчи қуролларга (камон, найза, слинг, ўқ)

Палаҳмон – бу эгилувчан, қаттиқ ёки бирлаштирилган отиш ҳарбий ёки ов қуроли бўлиб, тошлар ёки махсус тайёрланган ўқларни отиш учун мўлжалланган. Палаҳмон Миср, Греция, Рим ва қадимги дунё кўшинларида ўрта асрларда кенг қўлланилган. Бугунги кунга қадар сақланиб келинган ва энг қадимги ҳисобланган палаҳмон тахминан милоддан аввалги 2500 йилга тегишли. Жанибуий америкаликларнинг археологик қазилмалар пайтида Перу соҳилларидан топилган.

Камон – найзали ўқ отиш учун мўлжалланган индивидуал отиш қуроли. Қадимда одамлар ов қилиш ва тажовузкор ҳаракатларни амалга ошириш учун камондан фойдаланганлар ва бу амалиётда кўплаб тарихдан олдинги маданиятларда кенг тарқалган эди [4].

HISTORY

2010 йил Жанубий африкалик олимларнинг фикрига кўра, ер юзидаги энг қадимги камон тош ўқининг учи бу Сибуду ғоридан топилган ва тахминан 64000 минг йиллик тарихга эга бўлиши мумкин, деб хулоса қилинган.




Скиф камончиси. Рассом Эпиктета асари, эрамиздан аввалги 520 йиллар.



Парфия чавандози. Милодий 200 йиллар. Палаццо Мадама қадимий санъат музейи, Италия

Арбалет – отиш учун хўроз механизми билан жиҳозланган камондир. Оддий камондан ўқ отиш аниқлиги ва жароҳатлаш кучи юқорилиги билан устун туради [5].



IV асрлардаги Хитой стационар арбалетнинг кўриниши.

Бу даврда қўл қуролларидан ташқари турли қамал машиналари (баллисталар, катапултлар, кўчқорлар) ва бошқа отиш қуроллари ишлатила бошлаган. Хусусан, баллисталар билан бир қаторда биринчи арбалетлар ҳам пайдо бўлган.

Баллиста – қадимги юнонча атама бўлиб, отиш маъносини англатади ҳамда катта ўқларни ва тошларни отиш учун мўлжалланган антиқа икки қўлли бурилиш машинаси.

Катапулта – юнонча атама бўлиб, ҳар қандай отиш машинасига ишора қилади. Энг қадимги катапултлар Қадимги Юнонистонда ва Қадимги Ҳиндистонда милoddан аввалги 5-асрнинг боши ва ўрталарида қўлланилган.

Кўчқорлар – деб қадим замонларда шаҳарларни қамал қилиш пайтида, дарвозалар, деворлар, миноралар ва бошқа иншоотларни вайрон қилиш учун охирида темир ёки бронза учи билан жиҳозланган мослама(таран)га айтилади.

Отиш қуроллари – бу одамнинг мушак кучи, тортишиш кучи, ёғоч (металл, пластмасса) эластиклик хусусиятлари ёки ўралган (чўзилган) толалар энергиясидан фойдаланишга асосланган масофали қуролларга айтилади.



Баллиста



Катапулта



Кўчқорлар

Ўрта аср қуроғлари олдинги давр қуроғларидан унчалик фарқ қилмаган. Қадимги дунё даврининг охирида ҳам оғир қуроғланган катафратлар пайдо бўғди, улар ўрта асрларнинг оғир қуроғланган рицарларнинг прототипига айланди ва шунга мос равишда уларга қарши кураша оладиган қуроғ керак бўғди. Шунинг учун ўрта асрларнинг охирида ўқотар қуроғларнинг пайдо бўғлиши билан фарқланади. Бу даврдаги қуроғларнинг асосий турлари: жанговар қуроғлар, отиш қуроғлари, шунингдек, ўқотар қуроғлар ва қамал қуроғлари эди. Энг кенг тарқалган пичокли қуроғлар, қиличлар, ханжарлар ва жанговар найзалар эди (аслида, ўрта аср пикелари Македония сариссаларининг бевосита авлоғлари). Бундан ташқари, отиш қуроғлари орасида турли хил қиличлар, рапиралар ва бошқалар пайдо бўғди. Слинглар эса фақат ихчам отиш қуроғли сифатида, масофасидан отишдан кўра ихчамлик муҳимроқ бўғлан ҳолатлардаги жанговар фойдаланишда ўз ўрнини топган. Ўша даврда пайдо бўғлан ўқотар қуроғларга мушкетлар, аркебуслар, шунингдек, тўп ва бомбардимонлар қиради.

Қамал қуроғлари арсеналига бир хил баллисталар, катапултлар, кўчқорлар, требучетлар, шунингдек, қамал артиллериясининг биринчи намуналари хусусан бомбардимонлар киритилган. Россия империясида бундай тош отувчи қуроғларни катапултлар ва баллисталар билан биргаликда иллатлар ҳам деб номланган

Қуроғ – бу тузилишига кўра жонли нишонни ёки бошқа нишонни уриш, сигналлар бериш учун мўғжалланган қуроғлар ва ашёларнинг номи [6].

Ўқотар қуроғлар – узоқ масоғали ва жанговар қуроғлар бўғлиб, унда ёқилғини оксидловчи ёнувчи аралашмаларнинг, одатда порохнинг ёниши пайтида ҳосил бўғлан газларнинг босим кучи снарядни (мина, ўк) тезлаштириш ва баррелдан чиқариб юбориш учун ишлатилади.

Тўп – текис траектория бўғлаб узоқ нишонларга қарши отилдиган артиллерия қуроғмасининг отиш мосламаси.

Пороғ – бу кўп компонентли қаттиқ "портловчи" аралашма бўғлиб, параллел қатламларда мунтазам ёнишга қодир маҳсулот. Ёниш натиғасида қатта миқдордаги иссиқлик энергияси ва газсимон маҳсулотлар ишлаб чиқарилади ва снаряд отиш, ракета ҳаракати ҳамда бошқа мақсадларда ишлатилади.

Пороғ Хитойда ихтиро қилинган ва 12-асрдан бошлаб жангда ишлатила бошланган деб ҳисобланади, аммо у ерда у улкан ўқларни отиш учун ишлатилган. XIV асрдан бошлаб порох ёрдамида мисдан ясалган қуроғлардан тош тўпларни отиш йўлга қўйилган. Ушбу қуроғларнинг ҳар бирига тонна металл сарфланган ва аслида уларни фақат монархлар ишлаб чиқаришга қодир бўғлан. Кейинчалик, қуйма темир тўплар ихтиро қилиниши билан, тош тўпларига бўғлан эҳтиёж аста секин йўқола бошлади, чунки металдан ясалган тўплар кичикроқ диаметрли бўғлиб, улар жиддийроқ ҳалокатли таъсир кучига эга бўғлади.

Юнон олови – (ёки суюқ олов, ўрта асрларда ҳарбий мақсадларда ишлатилган ёнувчан аралашма.



Мадрид Скилица Миниатюраси. Юнон оловидан фойдаланиш. Иоанна Скилицанинг "Хроникалари"

Юнон олови ёнувчан аралашмаси биринчи марта византияликлар томонидан денгиз жангларида ишлатилган. У Византия армияси ва денгиз флоти жанглари ҳамда қалъаларни қамал қилиш пайтида ишлатилган. Ёнувчи аралашмани отиш учун мис қувурларидан фойдаланилган.



Х ва XII асрларда Ханя арсенали. Юнон олови ва саримсоқли қўл гранаталари

Биринчи ўқотар қурол (ёғочдан ясалган "оловли найза" - қўлда ушлаб туриладиган) Хитойда пайдо бўлган ва унинг қўлланилиши 1132 йилда қайд этилган [7].



Оловли найза 14 аср охири. Армия музйи (Париж)

Оловли найза – шунингдек, шиддатли оташ найзаси сифатида ҳам танилган. Оловли найзалар Хитойнинг прото-ўқотар қуроллари бўлиб, бундай найзалар ҳақида биринчи эслатмалар 1959 йилларда пайдо бўлган. Уларнинг кўп турлари 1260 йилларда пайдо бўлган ва бу қуроллар Хитойнинг Минг сулоласи ташкил этилишидан олдин ҳам, ташкил этилгандан кейин ҳам машҳур бўлган [8].

Кулеврина – ўқотар қурол, аркебуз, мушкет ва енгил пушқаларнинг собиқ аждоди. Кулеврина калибри 12,5 см. дан 22 см. гача бўлган ва узунлиги 1,2 метрдан 2,4 метргача бўлган. Кулвериннинг оғирлиги қўл ёки дала қуроли сифатида ишлатилишига қараб 5 кг. дан 28 кг. гача бўлган бўлиб, уларнинг ўқлари енгил рицарларнинг зирҳини 25-30 метр масофада тешиб ўтган.



«Қотил». Француз кулевринаси, 1410 йил.

Бомбард – XIV-XV асрларда кенг тарқалган турли калибрли ва дизайндаги биринчи артилерия қурилмасининг номи.

Ручница – силлиқ найли, тумшуғидан ўқланадиган дастлабки Европа ўқотар қўл қуроли. Темир ёки бронза материалларидан қуйилган ручнитчаларнинг калибрлари 12,5 миллиметрдан 25 миллиметргача бўлган. XV-асрда тўппончалар ўрнини аркебуслар, XVI-асрнинг бошида эса мушкетлар эгаллади.



Юан Мўгул сулоласи давридаги қўл қуроли Ручница. (1271-1368)

Аркебузлар – силлиқ стволли, гугурт ушлагичли ва тумшуғидан ўқланадиган қуролдир. Аркебузлар 1379 йилда Германияда пайдо бўлган тўппончаларнинг асл мисолларидан бири.

HISTORY




Гилдирак қулфли аркебуз XVI-аср.

Мушкет – бу қадимий қўл қуроли бўлиб, гугуртли милтиғ турларига киради. Мушкет оғир ўкотар қурол бўлиб, порох ёрдамида турли хил калибрли ўқларни отадиган қурол ҳисобланади. Мушкетлар тобора юқори сифатли металлдан ясала бошлаган ва аркебуз ва ручницалар ўрнини эгаллай бошлаган ва тахминан 1521 йилда Испания империясида мушкетлар пайдо бўлган.



Византия қамалидаги тош отувчи. Жон Скилиттс хроникасининг нусхасининг XII аср



Перриер - тортиши арқонлари билан қўлда тробучет. Масиеевски Инжилидан миниатюраси 1250 йиллар



Шаҳарни қамал қилиши. “Китоб-ал-булхон” арабча қўлёзма миниатюраси, кон. XIV аср



Франциядаги Лес Беау қалъаси яқинидаги Тробучет



XV-асрнинг бомбардимонлари




Аркебуз билан қуролланган аскар



Буюк Мўғул Акбар қўшинидаги аскар мушкет билан қуролланган. Мўғул миниатюраси 1585 йил

Мушкетлар аркебуслардан сезиларли даражада устун эди, гарчи улардан енгилроқ бўлса-да, стволнинг калталиги ва ўқнинг 18-22 мм. ли кичик калибри туфайли улар енгил зирхга бардош бера олмасдилар, аниқроғи, улар ҳар доим ҳам енгил зирхни теша олмасди.



Мушкетёрлар учун кўрсатмалар. Якоб де Гейн томонидан Гравюралар. Нидерландия, 1607 йил
Мушкетларнинг стволлини узунлиги 1400 мм гача, отилаётган ўқнинг бошланғич учиш тезлиги 500 м/с ни ташкил этган. Бу 200 метргача енгил зирх ортидаги ва 600 метргача масофада жойлашган

HISTORY

душманга жароҳат етказиш имконини берган. Бирок, мушкетлардан якка нишонларни мўлжалга олишда аниқлик етишмаган, сабаби, мушкетлардан мўлжалга олиб отиш масофаси атиги 150-200 кадамни ташкил этган ва узоқ масофадаги душманни отиш учун траектория бўйича отишга тўғри келган.

Карабин – душманнинг жонли кучини яқин масофалардан яқсон қилиш учун мўлжалланган ўқотар қурол. Карабин деб қурол ишлаб чиқарувчилар томонидан милтиқларнинг силлиқ сойли баъзи бир моделлари номланган. Карбиналар-бу ўқотар қуролларнинг махсус намуналари ҳисобланиб, милтиқ тизимларининг вариантлари, оғирлиги, узунлиги ва баъзи дизайн деталлари билан ажралиб туради. Мақсадларига кўра, улар жанговар, ов ёки ўзини ҳимоя қилиш қуролларига ажратилади. Карабинларни пайдо бўлишида икки хил версия мавжуд бўлиб, биринчи версияда 1498 йилда Лейпцигга ихтиро қилинган деса, иккинчиси кўра Венада қуролсоз Гаспара Цольнер томонидан яратилган деб ҳисобланади.

Милтиқ – бу сойли стволли ўқотар қурол бўлиб, елкага кўндок билан тираладиган ва икки қўл билан ушлаб туриш ва бошқариш учун мўлжалланган қурол бўлиб ушбу қуроллар XVII асрлардан бошлаб кенг тарқала бошлаган.



1855 йил Британия полкининг 68-пиёда аскарлари Энфилд милтиқлари билан Қримда. Роджерс Фентон сурати

Пулемёт – бу турли хил ер, ер усти ва ҳаво нишонларини ўқ билан уриш учун мўлжалланган гуруҳли ёки индивидуал автоматик қурол. Пулемётлар душманга қарши ўқ отиш тезлигини ошириш мақсадида бўлган узоқ ва доимий излаш натижасида пайдо бўлган. 1718 йилда инглиз адвокати Жеймс Пакл ривольвер типигаги барабан билан жиҳозланган қуролини патентлаган. Автоматик отиш механизми ташқи омиллардан эмас, балки ўқ энергиясидан ишлаган биринчи пулемёт америкалик Хайрем Стивенс Максим томонидан 1883 йилда ихтиро қилинган ва биринчи марта 1899-1902 йиллардаги Британия империясига қарши чиққан Жанубий Африка республикалари орасидаги урушида кенг қўлланилган [9].

Автомат – яқин масофаларда душманнинг жонли кучи ва ўт очиш воситаларини яқсон қилиш учун мўлжалланган юқори зичликдаги ўқ отишга қодир бўлган, қўлда ушлайдиган индивидуал автоматик ўқотар қурол. Биринчи намунадаги автоматлар 1913-1916 йилларда Владимир Григорьевич Фёдоров томонидан яратилган [10].

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, қуролларнинг таркиби ва уларнинг ривожланиши маълум бир давлатнинг географик жойлашуви билан боғлиқ бўлган. Маданий алоқалар туфайли уларнинг қурол тизимлари ўхшаш ва биргаликда ривожланган мамлакатларнинг асосий гуруҳларини аниқлаш мумкин. Бир вақтлар камон ва ўқдан фойдаланиш инқилобий нарса эди. Уруш қанчалик қарама-қарши бўлмасин, барибир инсоният жамияти ривожланишининг ажралмас қисмидир. Жаҳон тарихида бўлиб ўтган ҳар бир тўқнашувда рақиблар қуролларнинг ҳалокатлилиги, жароҳат етказиш кучи бўйича бир-бирларидан устун келишга ҳаракат қилишган ва бу борадаги беллашув ҳеч қачон тўхтамайди.

АДАБИЁТЛАР:

1. Ачкасова Н.Б. Военная история. Учебник для военных вузов. –СБП: Питер 2020. –ст 9.
2. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Оружие>
3. Володина Э. Общество. Публикации, посвященные социальным и общественно-политическим проблемам в мире. “Ученые уточнили возраст человечества” 5 март 2015 г.

HISTORY

4. Худяков Ю.С. Вестник Бурятского государственного университета. “Копье и стрела как символы воинской и государственной власти у древних и средневековых номадов Центральной Азии” № 7 – 2012 г. Ст-22
5. Акрамбаев Х.М. “Блокли инеппер – арбалети” Ўқув – услубий қўлланма. –Т, –2024., 18-б.
6. 2019 йил 29 июлдаги Ўзбекистон Республикасининг “Қурол тўғрисида”ги ЎРҚ-550-сон Қонуни;
7. https://ru.wikipedia.org/wiki/Огнестрельное_оружие
8. Уильям Карман История огнестрельного оружия. С древнейших времен до XX века. – М.; 2006 ст-90.
9. Алижонов А.Т. Ўқотар қуроллар ва ўқ отиши тайёргарлиги. Ўқув қўлланма. – Т, –2022., 83-б.

DINIY BAG'RIKENGLIK – MILLATLARARO TOTUVLIKNING GAROVIDIR

Haydarova Hanifa Buranovna,

*Buxoro davlat universiteti Islom tarixi va manbashunoslik,
falsafa kafedrasida katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bag'rikenglik (tolerantlik) tushunchasining mohiyati, ko'p millatli va ko'p konfessiyalik sharoitida shaxs, millat va dinlar o'rtasidagi munosabatlar barqarorligini ta'minlashning muhim omili sifatida, bag'rikenglikni rivojlantirib borish davr talablardan biri ekanligi asoslab berilgan. Bag'rikenglikning, Markaziy Osiyo xalqlari tarixidagi tarbiyaviy ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, diniy bag'rikenglikning mohiyati Islom dinining muqaddas manbalarida o'z aksini topganligi yoritib berilgan. Hozirgi kunda, O'zbekistonning taraqqiyoti bevosita unda yashovchi millatlarning o'zaro hamjihatligiga bog'liq ekanligiga asoslanib, davlatimiz tomonidan qabul qilingan qonunlarda ham bag'rikenglik mohiyati qayd etilganligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: diniy bag'rikenglik, tolerantlik, vijdon erkinligi, islomda e'tiqod erkinligi, konfessiya, Islom– tinchlikparvarlik dini, an'anaviy bag'rikenglik, diniy e'tiqod, ma'naviy qadriyatlar.

РЕЛИГИОЗНАЯ ТОЛЕРАНТНОСТЬ – ГАРАНТИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО СОГЛАСИЯ

Аннотация. В статье раскрывается суть понятия толерантности, утверждается, что развитие толерантности является одним из требований времени, как важный фактор обеспечения стабильности отношений между людьми, нациями и религиями в многонациональной и многоконфессиональной среде. Дается информация о воспитательном значении толерантности в истории народов Центральной Азии. Также подчёркивается, что суть религиозной толерантности отражена в священных источниках ислама. Подчёркивается, что суть толерантности закреплена и в законах, принятых нашим государством, исходя из того, что развитие Узбекистана напрямую зависит от взаимного согласия проживающих в нем национальностей.

Ключевые слова: религиозная толерантность, толерантность, свобода совести, свобода вероисповедания в исламе, конфессия, ислам – религия мира, традиционная толерантность, религиозные убеждения, духовные ценности.

RELIGIOUS TOLERANCE IS A GUARANTEE OF INTER-NATIONAL PEACE

Abstract. This article explains the essence of the concept of tolerance, as an important factor in ensuring the stability of relations between individuals, nations and religions in a multinational and multi-confessional environment, and argues that developing tolerance is one of the requirements of the time. Information is provided about the educational significance of tolerance in the history of the peoples of Central Asia. It is also highlighted that the essence of religious tolerance is reflected in the sacred sources of Islam. It is highlighted that the development of Uzbekistan today directly depends on the mutual harmony of the nations living in it, and the laws adopted by our state also reflect the essence of tolerance.

Keywords: religious tolerance, tolerance, freedom of conscience, freedom of belief in Islam, confession, Islam is a religion of peace, traditional tolerance, religious belief, spiritual values.

Kirish. Bugun biz tarixiy bir davr- xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinchoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor o'z kuch imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

Bag'rikenglik (tolerantlik) insonlar, millatlar, ijtimoiy guruhlar, xalqlar va turli diniy e'tiqodlardagi kishilarni bir-biri bilan bog'lab, ular o'rtasidagi munosabatlarda do'stona muhitning yuzaga kelishini va mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Hozir O'zbekiston Respublikasida 16 diniy konfessiya emin-erkin faoliyat ko'rsatmoqda. Turli konfessiyalar vakillari bilan muloqot qilishning yuksak madaniyatiga erishish katta ahamiyat kasb etadi.

Ko'p millatli va ko'p konfessiyalik sharoitida shaxs, millat va dinlar o'rtasidagi munosabatlar barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida bag'rikenglikni (tolerantlik)ni

rivojlantirib borish talab qilinadi. Chunki manfaatlarining turli-tumanligi muayyan ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ziddiyatlar esa turli millat va dinlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni yuzaga keltiradi. Barqarorlikning ta'minlanishi har qanday jamiyat va mamlakat uchun katta ahamiyatga ega. buning uchun esa manfaatlarni muvozanatga keltirish "mexanizmi"ni ishlab chiqish zarur. Ana shunday "mexanizmlar"dan biri- dinlar va millatlar, ijtimoiy guruhlar va shaxslar o'rtasida bag'rikenglikni shakllantirishdir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Maqolani yozishda bir qator tarixiy adabiyotlar va jurnal, gazeta, shuningdek, ayrim to'plamlardagi ilmiy maqolalarga tayanishib ish ko'rildi. Bu boradagi manba va adabiyotlarni quyidagilardan iborat: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi" qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.

Bundan tashqari, Islom dinining muqaddas manbalari. Ochildiyev A., Shabatov A, Xssanov B va boshqa olimlarning asarlari va maqolaridan foydalanildi.

Ayrim o'rinlarda YUNESKO tomonidan qabul qilingan "Bag'rikenglik tamoillari" deklaratsiyasi va internet ma'lumotlaridan ham foydalanildi.

Mazkur maqolani yoritishda tarixiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Ma'lumotlarni to'plash jarayonida tahlilning tarixiy va hujjatlar tahlili kabi uslublaridan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. «Bag'rikenglik», «sabr-toqatlilik» va uning ziddi «toqatsizlik» tushunchalari ilmiy faoliyat va ijtimoiy hayotning turli sohaları, jumladan, siyosat va siyosatshunoslik, sosiologiya, filosofiya, ilohiyot, ijtimoiy axloq, qiyosiy dinshunoslik va hokazolarda ishlatiladi. Lotincha «tolerare», ya'ni «chidamoq», «sabr qilmoq» ma'nosini anglatgan bu so'z, asosan bir insonning boshqa inson dunyoqarashiga toqat qilishini bildirsada, etimologik tahlil uning tom ma'nosini doim ham ochib beravermaydi.

Qiyosiy dinshunoslik nuqtai nazaridan qaraganda 2 xil, bir-biridan keskin farq qilgan bag'rikenglik tushunchasi mavjud: formal, tashqi ko'rinishdagi bag'rikenglik va ichki-pozitiv (ijobiy) bag'rikenglik. Formal ravishdagi bag'rikenglik bu boshqa kishining diniy e'tiqodiga nisbatan oddiy toqatlilik ko'rsatish, uning e'tiqodiga qarshi kurashmaslikdir. Ichki (ijobiy) bag'rikenglik esa muayyan diniy e'tiqodda mustahkam bo'lgan holda boshqa dinlarni yaxshi bilishni ham taqozo etadi. Demak, ijobiy bag'rikenglik kengroq, to'g'riroq va hayotiy zarurat hisoblanadi. Dinlarning ichiga, barchasi uchun bir bo'lgan mutlaq mohiyatiga kirmoq darkor va shu asosda diniy hayot fenomen (hodisa)larini talqin qilmoq kerak. Bu o'z navbatida bag'rikenglik ruhidagi yondashuvni talab qiladi.

Maks Myuller barcha insonlar dinga-e'tiqodga muhtojlar, zero, barchaga ideal kerak, degan. Eng quyi dinlarda ham haqiqat parchasi bor. Barcha dinlarni, hatto eng qadimgilarini ham bag'rikenglik ruhida o'rganmoq kerak.

Rus tilida "терпимость" so'zi boshqachasiga aytganda "снисходительность", ya'ni bag'rikenglik, kengfe'llik ma'nolarini anglatar ekan, diniy soha haqida gap ketganda ruslar "Веротерпимость" so'zini ishlatishadi. O'zbek tilida «diniy bag'rikenglik» iborasi aynan shunga adekvat, ya'ni to'g'ri keladi. Diniy bag'rikenglik turli din vakillari e'tiqodidagi mavjud aqidaviy farqlardan qat'i nazar ularning yonma-yon, o'zaro tinch-totuv yashashini anglatadi. Har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkin bo'lgani holda bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini e'tirof etmoq'i lozim.

1995- yilda YUNESKOning bosh konferensiyasida qabul qilingan "Tolerantlik tamoyillari" Deklaratsiyasiga ko'ra, "tolerantlik"-bu olam madaniyatini, o'zligini namoyon qilish ko'rinishlari va insonning individualligini ro'yobga chiqarish usullarining turli-tumanligini to'g'ri tushunish va qabul qilish, hurmat qilishni anglatadi, bu uy'unlik va rang-baranglik, bu tinchlikka erishish imkonini beruvchi va urush madaniyatining tinchlik madaniyati bilan almashinishigan xayrixoh bo'luvchi mehribonlikdir".

Markaziy Osiyo va Sharq xalqlarida tolerantlik tarbiyasi uzoq tarixga ega. Ota-bobolarimiz farzandlariga juda yoshlikdan boshlab boshqa din va millatlarining vakillariga nisbatan sabr-bardoshli bo'lib, o'zga xalqlarining madaniyati, tili, urf-odatlarini hurmat qilish kabi fazilatlarini singdirganlar. Shu bilan birga, tolerantlik tarbiyasini kelgusi avlodlarga ham targ'ib qilganlar. "Avesto" dagi axloqiy tarbiyaning asosini terisining rangi, tili va yashash manzolidan qat'iy nazar pokniyat, halol, qalbansof insonlarni tarbiyalash masalasi tashkil etadi.

Odamning odobliligi, jahonning osoyishtaligi uchun jiddu jahd qilmoq, uni asramoq va yorug'likka tomon eltmoq kerak deyilishi fikrimizning dalilidir. Ya'ni inson zardushtiylar nazdida hech qanday aybsiz tug'iladi va har qanday irqqa mansub kishilar iloh oldida mutlaq barobardirlar.

Umuminsoniy, dunyoviy qadriyat bo'lgan islom ta'limotida boshqa dinlarga, mazhablarga mansub kishilarnigina emas, hatto zolimlarni, buzuqlarni ham sabr-toqat bilan tarbiyalab, to'g'ri yo'lga solish eng savobli, eng euzu ish, deb uqtirilgan.

Islom o'zining ilk davridayoq bag'rikenglik dini sifatida namoyon bo'ldi. Jahon dinlarining ichida faqat islomda e'tiqod erkinligi ochiq-oydin e'lon qilingan: Baqara surasining 256- oyatida «La ikroha fid-din» «Dinda zo'rlash yo'q»-deyilgan. Qur'oni Karimda qaysi dinda bo'lishidan qat'iy nazar, insonlarga yomon munosabatda bo'lishdan qaytarilgan. Jumladan, An'om surasi 108-oyatida "Allohdan o'zgaga sig'inadiganlar (butlarni)ni so'kmangiz!.." deya, o'zga dindagilarning o'zlarini ham, e'tiqodlarini ham haqorat qilmaslikka buyurilgan. Shuningdek, Qur'oni Karimda boshqa din vakillari bilan yaxshi munosabatga bo'lish targ'ib qilinadi:

"Din to'g'risida sizlar bilan urushmagan va sizlarni yurtigingizdan (haydab) chiqarmagan kimsalarga nisbatan yaxshilik qilishingiz va ularga adolatli bo'lishingizdan Alloh sizlarni qaytarmas. Albatta, Alloh adolatli kishilarni sevar" (Mumtahana, 8-oyat). Shunday deya yomon niyatda bo'lmagan insonlar bilan, ular kim yoki qaysi dinga bo'lishlaridan qat'iy nazar, ularga yaxshilik qilish, adolatli munosabatda bo'lishga chaqiriladi.

Yana Rum surasining 22-oyatida:

"Uning belgilaridan (yana biri) -osmonlar va yerni yaratishi va sizlarining tillaringiz va ranglaringizning xilma-xilligidir. Albatta, bunda barcha olimlar uchun alomatlar bordir" deya marhamat qilinadi.

Xalqimizga azaldan xos bo'lgan xislat-bag'rikenglik biz uchun an'anaviydir. IX asrdan boshlab hozirgi O'zbekiston hududida islom dini sunna yo'nalishining hanafiy (Imom A'zam) mazhabi qaror topdi. Bu ham bejiz bo'lmasa kerak, zero, Imom A'zam mazhabi o'zga dinlar va mahalliy urf-odatlariga nisbatan erkinlik berish bilan boshqa mazhablardan ajralib turadi. Hanafiylik ta'limotini takomulga yetkazgan vatandoshlarimiz -al-Moturidiy, Abul Mu'in Nasafiy va al-Marg'inoniy kabi allomalar musulmonlar orasidagi g'oyaviy tarafkashlikka barham berish, islom dinining «ahli sunna va jamoa» yo'li barqaror bo'lib qolishiga katta hissa qo'shdilar.

Hanafiy mazhabining mashhur tavsirlaridan biri bo'lgan Imom Nasafiyning "Madorak at-tanzil" asarida mazkur oyat tavsiri xususida insonlarning tillari, so'zlashuvlarining turfaligi, teri ranglarining xilma-xilligidan ko'zlangan hikmat ularning o'zaro taniganlari va hamjihat hayot kechirganlari ekani, buning aksi esa har tomonlama ham manfaatlarga zid ekani ta'kidlangan.

Islom dinining asosiy manbalaridan yana biri hisoblangan hadisi sharifda shunday deyiladi:

"Tymonning afzali sabr va bag'rikenglikdir". Shuningdek, hadislarda boshqa dinlarga mansub bo'lgan kishilarga tazyiq o'tkazish, qoralash katta gunoh ekani aytilib, odamlarni bunday illatlardan yiroq yurishga da'vat etiladi:

"Kimki musulomon mamlakatida yashovchi boshqa dinga mansub kishini haqorat qilsa, qiyomat kuni qattiq jazolanadi, kimki sulh bitimi bilan yashayotgan g'ayri dinni o'ldirsa, u jannatning bo'yini ham hidlamaydi"- deb ta'kidlangan.

Mustaqillik tufayli o'zligimizni anglash, ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash jarayoni kechayotgan hozirgi paytda umuman dinga va ayniqsa, ota-bobolarimiz dini bo'lib kelgan islomga munosabat tubdan o'zgardi.

Milliy istiqloq mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri bag'rikenglik turli millat va elatga daxldor kishilarning, turli xil diniy e'tiqodli insonlarning bir zamin, yagona Vatan, bir yurtda, bir hududda oliyanob g'oya, orzu-umid, maqsad va niyatlar yo'lida hamkor, hamfikir va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi. O'zbekiston turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o'z e'tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o'rtasida qadimiy mushtarak an'analarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Konstitutsiyamizda «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar», - degan qoidaning mustahkamlab qo'yilgani bunday yutuqlarga siyosiy-huquqiy zamin yaratdi.

Har bir diniy konfessiya o'z mafkurasiga ega bo'lishi mumkin. Lekin bu mafkura xalqqa tazyiq bilan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. Jamiyatimizda diniy tashkilotlar faoliyati xalqimizda milliy g'urur va iftixor, vatanparvarlik va fidokorlik, komil insonni shakllantirishga qaratilgan. Bugungi kunda O'zbekistonda Adliya organlaridan rasman ro'yxatdan o'tgan 16 ta diniy konfessiya faoliyat olib bormoqda. Ularning jamiyat hayotida birdek ishtirok etishlari uchun zarur imkoniyatlar yaratib berilgan. 2021-yil iyun oyida qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi" qonunning 7-moddasida "Davlat konfetsiyasilarining tinch-totuv yashashiga kafil bo'ladi. Missionerlik va prozeletizmni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi"deb ta'kidlanadi. Bu bag'rikenglik tamoyillarini yanada rivojlantirishga qaratilgan.

HISTORY

O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 35-moddasida, jumladan, shunday deyiladi: «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi».

Davlat va din munosabatlaridagi asosiy jihat-bu dinning siyosatga aralashmasligidir. Zero, har qanday din, birinchi o'rinda ma'naviy axloqiy jihatni o'z ichiga oladi..

Din va davlat orasidagi munosabat asosida dinning davlatdan ajratilishi tamoyili ham yotadi. Bu haqda Konstitutsiyada shunday deyiladi: «Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalar faoliyatiga aralashmaydi». O'zbekistonda e'tiqod erkinligi va diniy bag'rikenglikni mustahkamlashda qonunchilik ham takomillashib bordi. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonun 1991- yilda qabul qilingan bo'lib, 1993- yilda kiritilgan ba'zi qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan 1998- yilga qadar amalda bo'lib qoldi. So'nggi yillar davomida mazkur qonunni davr talablari asosida tubdan o'zgartirish zarur bo'lib qoldi va 1998- yilning 1 may oyida Respublika Oliy Majlisi tomonidan qonunning yangi tahriri qabul qilingan edi. 2021- yil iyun oyida "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar" to'g'risida qonunga o'zgartirishlar kiritildi.

Vijdon erkinligi haqidagi qonun dinga e'tiqod qilish yoki o'zga e'tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajadagina cheklanish mumkinligini ta'kidlaydi. Mazkur me'yor 1966- yil 16 - dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro paktning 18-moddasiga muvofiqdir.

Aytish joizki, hozirga qadar YUNESKO tomonidan bag'rikenglikka doir bir qanchadan ortiq xalqaro hujjat, konvensiya, kelishuv va protokollar qabul qilingan. Jumladan, 1995- yil 16- noyabrda YUNESKO Bosh konferensiyasining 28-sessiyasida «Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi» qabul qilindi. Deklaratsiyada irqi, jinsi, kelib chiqishi, tili, dinidan qat'i nazar bag'rikenglikni targ'ib etish, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat bilan qarash kabi majburiyatlar aks etgan. 1995- yil «Xalqaro bag'rikenglik» yili deb e'lon qilindi.

1998- yil 6- noyabrda Toshkentda o'tkazilgan YUNESKO Ijroiya Kengashining 155-sessiyasida «Tinchlik madaniyati va YUNESKOning a'zo davlatlaridagi faoliyati» Deklaratsiyasi qabul qilindi. YUNESKOning «Tinchlik madaniyati» konsepsiyasi BMT tomonidan ma'qullanib, 2000- yil «Xalqaro tinchlik madaniyati yili», 2001- yil esa «xalqaro madaniyatlararo muloqot yili» deb e'lon qilindi.

1995 -yilda, shuningdek, YUNESKOning «Dinlararo va madaniyatlararo muloqot» Dasturi qabul qilindi. U diniy urf-odatlar va o'ziga xos madaniy qadriyatlar, ularning dunyo madaniyatida tutgan o'rnini yoritishga xizmat qiladi. Dastur doirasida Rabot (1995, 1998), Malta (1997), Toshkent (2000) shaharlarida dinlararo muloqot mavzusida xalqaro anjumanlar o'tkazildi.

O'zbekiston zaminida kishilarda, yurtimizda tarixan diniy zamindagi adovat va kelishmovchiliklar bo'lmagani, turli konfessiyalar va din vakillariga nisbatan yuksak ehtirom va hurmat, o'zaro murosada yashashga intilish xalqimizning asrlar osha kamol topgan fazilatlaridan biri ekani haqida tegishli bilim, ko'nikma va qadriyatlar tizimini shakllantirish bag'rikenglik madaniyatini tarbiyalashning zarur sharti hisoblanadi.

Davlatimiz tomonidan yurtimizda tinch-totuvlikni kamol toptirish, millatlararo bag'rikenglik tamoyilini yanada mustahkamlash borasida bir qancha ustuvor vazifalar amalga oshirilmoqda.

Bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy e'tiqodni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan harakatlarimiz butun dunyoda manzur bo'lmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan rezolutsiyaning qabul qilish taklifi O'zbekiston tomonidan ilgari surilgani va ushbu hujjatning qabul qilingani bunga yaqqol misol bo'la oladi.

2017-yil 19-sentabr BMT Bosh Assambliyasining 72-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib nutq so'zlad. Shavkat Mirziyoyev sessiya ishtirikchilariga BMT Bosh Assambliyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifini berdi. Bu hujjatning asosiy maqsadi:

1. Barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashishdan iborat

2. Ushbu rezolyusiya bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan.

2018-yil 19-dekabr BMT Bosh Assambliyasi 12-yalpi sessiyasida rezolyutsiya qabul qilindi.

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan milatlararo totuvlikni va hamjihatlikni, rivojlantirish borasida bir qancha vazifalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Yangi

HISTORY

O'zbekiston-taraqqiyot strategiyasi" asarida ta'kidlaganidek, "Mamlakatimizda diniy erkinlik, millatlararo hamjihatlilik borasida ham vaziyat tubdan yaxshilandi. Bu sohadagi faoliyatimizning o'zagini "Bag'rikenglik va millatlararo totuvlik-barqaror taraqqiyot omili" degan tamoyil tashkil etadi. Millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni yanada mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlarni amalga oshirmoqdamiz. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan xalqaro do'stlik kuni deb belgilangan 30-iyul sanasini yurtimizda "Xalqaro do'stlik" kuni deb e'lon qildik, va 2021-yili uni keng nishonladik".

Davlatimizning asosiy qonunni hisoblangan O'zbekiston Respyblikasi Konstitutsiyasida hurfikrlilik, vijdon va diniy e'tiqod erkinligi, bag'rikenglik masalalarga katta e'tibor berilgan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 8-moddada "O'zbekiston xalqi millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini tashkil etadi" deb yozilgan.

O'zbekistonning kelajagi tinchlik va bag'rikenglik, madaniyatlararo uyg'unlik va millatlararo totuvlik kabi omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Yurtimizda millatlararo va davlatlararo totuvlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan yangi g'oya va tashabbuslarning paydo bo'layotganligi do'stlik va hamjihatlik qo'rg'onining yanada mustahkam bo'lishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa o'rmda shuni aytish mumkinki, milliy bag'rikenglik – turli millatga mansub kishilarning bir-birlarining tilini, dinini, turmush tarzi, urf – odati va an'nanalarini, milliy-madaniy merosini hurmat qilishni, ularning sha'ni, qadr-qimmatini, or-nomusini qadrlash orqali amalga oshiradigan o'ziga xos ma'naviy kenglik(bag'rikenglik)ni anglatadi.

O'zbekistonning taraqqiyoti bevosita unda yashovchi millatlarning o'zaro hamjihatligiga bog'liq. Turli millat va elatlarni bir-birlariga yaqinlashtirishda, ular o'rtasida tinchlik, do'stlik, birodarlik va o'zaro hamkorlik tuyg'ularini qaror toptirishda tolerantlik muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Jamiyat hayotida tenglik va adolat g'oyalarining ustuvor bo'lishi va amaliyotda o'z ifodasini topishi ko'zlangan maqsadlarga erishishga, fuqarolar o'rtasida birdamlik va hamjihatlilik, o'zaro bir-birini tushunish va hurmat ruhi qaror topishiga zamin yaratadi. "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi"da ta'kidlanganidek, "Bag'rikenglik bo'lmasa tinchlik bo'lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo'lmaydi".

ADABIYOTLAR:

1. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston". T 2023.*
2. *"Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun (2021- yil 5- iyul yangi tahriri tasdiqlangan).*
3. *Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. "O'zbekiston" Toshkent-2022.*
4. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. Xalq so'zi-2017-yil 20-sentabr №189*
5. *Декларация принципов толерантности. Утверждена резолюцией Генеральной конференции ЮНЕСКО от 16 ноября 1995 г.*
6. *Обучение толерантности. Методическое пособие. Подред. Г.Л.Бардиев. – СПб.:Норма, 2004.*
7. *Al Buxoriy Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil. Hadis: Al-Jome as-saxih (Ishonarli to'plam). 4 jidlik. –T.: Qomuslar bosh tahririyati,1996.*
8. *Qur'on Karim ma'nolari tarjima va tafsiri. A.Mansur. - Toshkent islom universiteti. 2012.*
9. *Ochildiyev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. –T.: O'zbekiston, 2004.B.92.*
10. *Falsafa, qomusiy lug'at.*
11. *A. Rasulov, L Tursunov. Diniy bag'ri krnglik – ijtimoiy-psixologik fenomen sifstida. – T. 2015.*
12. *Aymatova Z. Properties of the Citizens of the Emirate of Bukhara (End of the 19th and the Beginning of the 20th Century) //Центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2023. – T. 40. – №. 40.*
13. *Buranovna H. H. Abu Hafs Kabir Bukhari's Contribution to Religion //World of Semantics: Journal of Philosophy and Linguistics. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 27-32.*
14. *Aymatova Z. Hajj Pilgrimage by the Muslims of Central Asia In The 19th Century: Official Rules And Rout //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – T. 6. – №. 6.*

BUXORO KALOBODIY SHAYXLARI BAYONI (Abu Bakr Kalobodiy misolida)

Hayotov Feruz Umidjonovich,

Buxoro davlat universiteti magistranti

feruzfirstname@mail.com

Ilmiy rahbar taqrizi asosida: Ergashev Jahongir Yunus o‘g‘li,

Buxoro davlat universiteti dotsenti, Y.G‘ulomov nomidagi

Samarqand arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi t.f.f.d. (PhD)

j.y.ergashev@buxdu.uz

j.ergashev91@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro shahrida joylashgan Kalobod mavzesida yetishib chiqqan allomalar islom olamida mashhur qomuschi olim shayx Abu Bakr Kalobodiy shaxsi hayoti va ijodi misolida yoritib o‘tilgan. Bunda uning shaxsi, ustozlari, yetishtirgan shogirdlari, islom olamidagi o‘rni, uning asarlari, asarlarining mazmun mohiyati va ularning naqadar qimmatli ekanligi bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Buxoro, Kalobod, fiqh, kalam, hadis, Qur‘on, tafsir, tasavvuf, so‘fiy, ahl as-sunnat val-jamoat, ahli tariqat, aqida, “At-Ta‘arruf”, Daxmai Behishtiyyon.

ИСТОРИЯ ШЕЙХОВ БУХАРЫ КАЛАБАДИ (на примере Абу Бакра Калабади)

Аннотация. В статье освещается жизнь и творчество исламского учёного шейха Абу Бакра Калабади, который происходил из района Калобод города Бухары. Рассматриваются его биография, учителя, ученики, значимость в исламском мире, его труды, их содержание и ценность.

Ключевые слова: Бухара, Калобод, фикх, калам, хадис, Коран, тафсир, мистика, суфийский, ахлю сунна валь джамаа, ахли тарикат, акида, «Ат-Таарруф», Дахмаи Бехиштиён.

STATEMENT OF THE SHAIKHS OF BUKHARA KALABADI (IN THE EXAMPLE OF ABU BAKR KALABADI)

Abstract. This article highlights the life and works of the Islamic scholar Shaykh Abu Bakr Kalabadi, who emerged from the Kalobod district of Bukhara. It examines his biography, mentors, and students, his significance in the Islamic world, and his contributions. The discussion also explores the content and importance of his works, emphasizing their value and relevance.

Keywords: Bukhara, Kalobod, fiqh, kalam, hadith, Qur‘an, tafsir, tasawwuf, Sufi, ahl as-sunnat wal-jamaat, ahli tariqat, aqida, “At-Ta‘arruf”, Dakhmai Behishtiyyon.

Kirish. O‘rta Osiyo hududiga islom dini kirgandan boshlab, ushbu o‘lkada din ravnaq topib asrlar davomida rivojlanib kelgan. Turli shaharlar, Jumladan, Buxoro shahri Islom dinining rivoji uchun hissa qo‘shgan ko‘plab diniy ilm egalari, mashhur imomlar, muhaddis, faqih, shuningdek tasavvuf allomalarini ham yetishtirgan. Jumladan, tarixan hali chuqur o‘rganilmagan, tadqiq etilmagan Buxoro shahrining eski Kalobod jaribidan yetishib chiqqan allomalar haqida kam eshitganmiz. Shunga qaramay Buxoro shahri ichida eng ko‘p mashhur diniy allomalar tavallud topgan, yashagan va ijod etgan joyi ham Buxoro shahrining Kalobod mavzeyi hisoblanadi.

Asosiy qism. Kalobod – Buxoro eski shahar qismining shimoli-sharqiy qismida joylashgan hudud bo‘lib hisoblangan. Arab alifbosida “g” tovushini ifodalaydigan harf bo‘lmaganligi sababli bu nom Kalobod (كلاباد) shaklida yozilgan [12. 121]. Alloma as-Sam‘oniyning “Nasabnoma” asarlarida ushbu joy haqida quyidagi fikrlar keltirilgan: “Kalobod – Buxoro shahrining yuqorisida joylashgan mahalla. Bu mahalla “Gulobod” (گلاباد) deb ham aytiladi. Undan imomlar, olimlar va o‘z fanining mohir va mashhur bilimdonlari yetishib chiqqanlar. “Kalobod” nomli mahalla Nishopurda ham bor” [5. 126].

Ushbu joy nomi nisbasi bilan atalgan Abu Bakr Muhammad ibn Ibrohim ibn Ya‘qub Kalobodiy, Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad al-Kalobodiy al-Hofiz, Abul Qosim Ali ibn Abu Nasr al-Kalobodiy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad al-Lu‘luy al-Kalobodiy, Abu Sahl Abdulkarim ibn Abdurahmon al-Kalobodiy al-Buxoriy, Abul Qosim Ubaydulloh ibn Muhammad al-Buxoriy al-Kalobodiy, Al-Hofiz Shamsuddin Abulalo Mahmud ibn Abu Bakr ibn Abulaloal-Kalobodiy al-Buxoriy al-Hanafiy va boshqa olimlar tarixiy va diniy qiymatga ega asarlarda tilga olinganlar.


Jumladan, Abu Bakr Kalobodiy (yoki Kaloboziy [2] ya'ni arab tilida "dal" va "zal" harflaridagi nuqtaning qo'yilishi sabab so'z o'zgargan bo'lishi mumkin) barcha Kalobodiy shayxlar orasida eng ulug'i va eng mashhuri bo'lib hisoblanadi. Abu Bakr Kalobodiy yashagan davr Movorounnahrda madaniy-ma'naviy hayotning jonlanishi bilan xarakterlanadi. Buxoro, Samarqand, Urganch, Shosh, Marv kabi shaharlar ilmiy-madaniy mazkaz sifatida taraqqiy qila boshlagan. Buxoro va boshqa markaziy shaharlarda islom dini ta'limotining asosiy manbalari, shariat qonun-qoidalari, diniy bilimlarni o'qitish uchun madrasalar ochilgan [7. 13]. Shunday bo'lsada, uning hayotlik yillari Islom dinining og'ir davriga borib taqaladi. Bu davrda, Islom dinida bo'linishlar yuz berib, turli xil vayronkor diniy sektalar paydo bo'la boshlagan edi. E'tiqod masalasida turli g'oyaviy ixtilof va kurashlar maydoniga aylanib borayotgan Movorounnahr IX asr o'rtalariga kelib o'ziga xos kuchli g'oyaviy immunitetga ega bo'ldi. Ya'ni bu davrda islom dinining hanafiya mazhabi fiqhiga asoslangan va ahli sunnat val-jamoatni mu'taziliya va karmatiya kabi oqimlardan himoya qilishga qaratilgan ash'ariya va moturudiya kalom maktablari yuzaga keldi [12. 123]. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu vaziyat davr taqozo etib turgan yechilishi lozim bo'lgan masalalardan bo'lib hisoblangan. Ushbu diniy ixtiloflarni oldini olish maqsadida boshqa diniy oqimlar, jumladan, Abul Hasan Ash'ariy (873-935) asos solgan Ash'ariyya va Abu Mansur Moturidiy (870-945) tomonidan tuzilgan Moturudiyya maktablari jidd-u jahd ko'rsatishgan. Ularning qatorida tasavvuf ilmida Abu Bakr Kalobodiy islom uchun yot g'oyalardan voz kechib ularning asosiy aqoidlarini tanishtirishni o'z zimmasiga olgan.

Abu Bakr Kalobodiy shaxsiyati haqida gapiradigan bo'lsak, shayxning aniq tug'ilgan sanasi aniqlanmagan bo'lib, 906-yilda tug'ilganligi taxmin qilinadi [11. 61]. Ammo tarixiy hujjatlar buni tasdiqlamaydi. Boshlang'ich ta'limni o'zi tug'ilib o'sgan joyida olgan bo'lg'usi olim keyinchalik o'sha zamonda keng tarqalgan diniy va dunyoviy ilmlarni o'rganishga kirishadi. Hayotlari davomida yuz mingdan ortiq hadisni yod olgan. Fiqh va hadis ilmlari bo'yicha sakson to'rt olimning asarlarini o'qib chiqqan Kalobodiy o'z davrining mashhur ulamolaridan ushbu ilmlarni puxta o'rgangan.

Ba'zi tadqiqotlarda Abu Bakr Kalobodiy ulug' ustozlardan saboq olganligi aytiladi, ammo u o'qigan madrasalar, oilasi, ota-onasi, farzandlari borasida manbalarda deyarli ma'lumotlar uchramaydi [7. 4]. Shunday bo'lsada, allomani o'qitgan ustozlari va uning shogirdlari haqida ma'lumotlar ko'pdir. Jumladan, Abu Hafs al-Kabir al-Buxoriy kalom ilmida, Muhammad ibn Ahmad ibn Ibrohim Forsiy hamda Mansur Hallojning shogirdlaridan bo'lgan Abulqosim Foris ibn Iso Bag'dodiyler esa tasavvuf ilmida Kalobodiyning ustozlari bo'lishgan [12. 122]. Bundan tashqari, "Tarixi Mullozoda"da keltirilishicha, Buxoro xalqi orasida pir sifatida shuhrat qozongan Sayid Abul Hasan Pobandikusho Hazratlari ham Abu Bakr Is'hoq Kalobodiyga saboq bergan [11. 61], huquq ilmini esa Muhammad ibn Fadl (yoki Fazl) dan o'rgangan [3.]. Abu Bakr Kalobodiy nafaqat ustozlar tarbiyasida, balki, shaxsan o'z maktabiga ham asos solgan bo'lib, turli shogirdlarni yetishtirgan. Kelgusi yillarda ular mashhur faqih, mutasavvif va avliyolar sifatida xalq orasida shuhrat qozonishgan. Ular qatoriga Abu Nasr Ahmad ibn Ali Moyamarg'iy (X asr), Abu Bakr Ahmad ibn Ali ibn Muhammad Isfahoniy (X asr), Mustamliy Buxoriylarni kiritish mumkin [12. 122]. Abu Nasr Turki Jandiy haqida ham "Tarixi Mullozoda"da: "Andar on pushta Ahmadi Jandist...As'hobi Bo' Is'hoq Kalobodist". ("O'sha pushta Ahmad Jandiyning qabridir. Shayx Jandiy esa Abu Is'hoq Kalobodiy bilan suhbatdoshdir") [9. 94, 6. 51, 95, 11. 62, 7. 22] keltirilgan ushbu bayt ham uni Abu Bakr Kalobodiyning shogirdi ekanligini tasdiqlaydi. Quyida Abu Bakr Kalobodiyning ustozlari va shogirdlari ro'yxatini klaster shaklida tuzdik (1-rasmga qarang).

Shunday ekan, olim Abulhasan Zarrinko'b ushbu zot haqida: "Hazrat Abu Bakr Gulobodiy az aimai tasavvuf va hifzi hadis budaand" (A. Зарринкўб, "Жусту жў дар тасаввуфи Эрон", Душанбе, "Ирфон" 1992) Ya'ni Hazrat Gulobodiy so'fiylarning peshvosi, ulug'i va ko'plab hadislarni yoddan bilguvchi bo'lganlar deya bejizga yozib qoldirmagan edi [11. 59, 8.].

Abu Bakr Kalobodiy qozilik lavozimida ham ma'lum muddat faoliyat ko'rsatgan bo'lsada, hayotining asosiy faoliyatini o'zi o'rgangan ilm sohalarida, xususan, hadis, fiqh va tasavvuf borasida tadqiqotlar olib borish va fundamental asarlar yozish bilan bog'liq bo'lgan [12. 122]. Chunonchi, o'z ilmiy-ijodiy faoliyati davomida turli asarlar, shu jumladan, hadisga oid "Arba'in fi-l-hadis" ("Qirq hadis"), "Amoli fi-l-hadis" ("Hadis haqida qaydlar"), Imom Buxoriyning "Jome' us-sahih" ("Sahih hadislar to'plami") kitobiga sharh, "Ma'oni al-axbor" ("Xabarlar ma'nolari"), hadisga oid "Bahr ul-favoyid" ("Foydalar dengizi"), fiqhga oid "Muaddil us-salot" ("Namoz qoidalari"), "Al-ashfo' va-l-avtor" ("Juft va toq namozlar") va "Fasl ul-xitob" ("Haqni botildan ajratuvchi"), tasavvufga oid "At-ta'arruf li-mazhab at-tasavvuf" ("Tasavvuf ahli yo'lini tanishtirish") va Qur'on tafsiriga oid asarlar yozgan.



1-rasm¹.

Abu Bakr Kalobodiyning asarlari orasida katta qismini ham aynan hadisga oid asarlari tashkil etadi. Jumladan, turli manbalarda uning “Arba’in fi-l-hadis” va “Amoli fi-l-hadis” kabi asarlar yozgani, shuningdek, Imom Buxoriyning “Jome’ us-sahih” kitobiga sharh bitgani eslab o‘tilgan [12. 122-123]. Ammo, shunga qaramay, hadisga oid “Maoniy ul-axbor” nomi bilan shuhrat topgan hadisga oid “Bahr ul-favoyid” (To‘liq nomlanishi “Bahrul favoid fi ma’oniy al-axbor” – **F.H**) nomli asarlari hozirgi kunlargacha yetib kelgan yirik shoh asarlardan bo‘lib hisoblanadi. Jumladan, ushbu asarda asosan besh yuz to‘qson ikki hadis keltirib o‘tilgan va tahlil etilgan. Boshqa bir manbada keltirilishicha, “Maoniy ul-axbor”da bir-biriga o‘xshash yoki bir-biriga zid keladigan turli xabarlar va hadislar orasidagi tadqiq, taqqoslash va muvofiqlashtirish orqali tanlab olingan ikki yuz yigirma ikki hadis keltirilgan [12. 122-123, 11. 59]. Bundan kelib chiqadiki, Abu Bakr Kalobodiy muhaddis olim sifatida ham talqin qilsa bo‘ladi. Bundan tashqari biz ushbu shaxsning boshqa sohalarda ham ijod qilganini ham ko‘rishimiz mumkin. Bu esa o‘z navbatida olimni islom qomuschisi ekanligini isbotlaydi.

Hadis ilmining yirik vakillaridan bo‘lgan Ibn Hajar Asqaloniy (1372-1449) “Fath ul-Boriy” (“Yaratuvchi tomonidan ochib berilgan ma’nolar”) hamda Abdurrauf Minoviy “Fayz ul-qadiyr” (“Qodir zotdan taralgan fayz”) asarlarida Kalobodiy to‘plagan hadislariga tayanishganligi haqida ushbu manbalarda ko‘rish mumkin [12. 123]. Bu esa shayx Abu Bakrning hadis ilmidagi shuhrati naqadar yuqori bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Islom fiqhiga oid ham asarlar yaratgan Kalobodiy “Muaddil us-salot” (“Namoz qoidalari”), “Al-ashfo‘ va-l-avtor” (“Juft va toq namozlar”) va “Fasl ul-xitob” (“Haqni botildan ajratuvchi”) kabi asarlar yozgan. Bundan tashqari, uning Qur‘on tafsiriga oid asar ham yaratganligi to‘g‘risida taxminlar mavjud. Abu Hafis Kabir Buxoriyning shogirdi hisoblangan Kalobodiy kalom ilmida ham yetuk olim bo‘lgan. Jumladan, Ibn Taymiya (1263-1328) o‘z asarlarida Kalobodiy tomonidan o‘rtaga tashlangan kalomiy xulosalardan foydalangan [12. 123].

Yuqorida biz tilga olgan islomiy yo‘nalishlar orasida mukammal asarlar ko‘p bo‘lsada, Abu Bakr Kalobodiyga eng ko‘p shuhrat olib kelgan asar bu arab tilida yozilgan “At-ta’arruf li-mazhab at-tasavvuf” (“Tasavvuf ahli yo‘lini tanishtirish”) bo‘lib hisoblanadi. Bunda, alloma yozgan asar islom olamida tasavvuf haqidagi yozilgan dastlabki qo‘llanma bo‘lib hisoblanadi. Ko‘pchilik manbalarda asar nomini qisqartirib ba‘zan “At-Ta’arruf” yoki “At-Taaruf” deb ham nomlashadi.

Ushbu asar yaratilishining bosh maqsadini Sadriddin Salim Buxoriy (Sadriddin Salimov) “Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari” kitobida quyidagicha talqin qiladi: “Ma’lumki Hazrat Abu Bakr Gulobodiy Forisi Dinavariyning shogirdlaridan edilar. Forisi Dinavariy atoqli so‘fiy Mansuri Hallojdan (858-922) saboq olganlar. Mansuri Hallojni “Analhaq” deganlari bois bir guruh mutaasib, aqidaparastlar shahid etadilar va tariqatga qarshi murosasiz jang boshlanadi. So‘fiylar va ularning muridlari tazyiq ostida qoladi. Hur fikr zotlar qatag‘onga uchraydi. Mana shunday paytda jasorat bilan tariqatni himoya etmoq, so‘fiylarga qalqon bo‘lmoq, darhaqiqat, qahramonlik edi” [11. 60-61]. Falsafa fanlari doktori, professor Bobir Bahriyevich

¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

Namozovning ham ushbu tarixiy murakkab vaziyat xususida fikr yuritgan bo'lib, Abu Bakr Kalobodiy yashagan davrda hur fikrlashga intilgan shaxslar qatag'onga uchrab, turli aqidaviy masalalarda kelishmovchiliklar avj olgan edi. Shunday vaziyatda Abu Bakr Kalobodiy tasavvufning to'la mohiyatini anglab yetish maqsadida har qanday tazyiqdan hadiksiramay "Ana-l-haq" tasavvufiy-irfoniy ta'limotini chuqur o'rgangan [7. 15].

Atoqli tasavvufshunos olim Najmiddin Komilov: "At-Ta'arruf" asari tasavvuf haqida nazariy ma'lumot beruvchi birinchi yirik va yaxlit manbadir. Uning ahamiyati va qimmatini ham shunda. X-XI asrlar orasida tasavvufning qoida-qonunlari, tushuncha va istilohlari o'rganilgan va bir nechta kitoblar ta'lif etilgan edi. Chunonchi, Abu Nasr Sarrojning (vaf. 988) "Kitobal luma", Abutolib Makkiyning (vaf. 988) "Qutul qulub", Sulamiyning (vaf. 1021) "Risolatal malomatiya", Qushayriyning (vaf. 1072) "Risolai tasavvuf", Al Hujviriyning (vaf. 1076) "Kashful mahjub", Abdulloh Ansoriyning (XI asr) "Manozil as soirin" nomli asarlari yozildi. Ammo "At-Ta'arruf" davr nuqtai nazaridan bularning hammasidan oldin yozilgan va nomlari zikr etilgan mualliflar barchasi Gulobodiy asaridan foydalanganlar" deb yozadilar (Шайх ал Калободий, "Тасаввуф сарчашмаси", Т. Ф. Фулом, 2002 й. 4 саҳифа) [11. 60]. Shuningdek, Najmiddin Komilovning ta'kidlashicha bu davrda tasavvuf namoyandalari ichida islomga zid bo'lgan yot g'oyalalar paydo bo'la boshlagan, ko'pchilik so'fiylar faqatgina o'zining obro'-e'tibori uchun ish yuritgan, tariqat ustozlari ichida nopok odamlar paydo bo'lib, tariqat ketib faqat uning nomi qoladi. "At-Ta'arruf" esa asl tasavvuf nima ekanligi, unga qanday kirish mumkin, e'tiqod masalalari, tasavvufning islom dini bilan hamohang ekanligi va boshqa masalalarni yoritib o'tgan.

Abu Bakr Kalobodiyning "At-Ta'arruf"i muqaddimasida tasavvufning mohiyati, shuningdek, so'fiylar holi bayon etilgan. Asosiy qismida so'fiylar aqoidi islom aqidiga mos ekanligi, so'fiylar ravishida kufr, bid'at, xurofot yo'qligi, inchunin, maqomot, so'fiylar ahvoli, so'fiylar ijodiga mansub bo'lgan she'rlar, so'fiylar qo'llaydigan istilohlarning sharhi, so'fiylar karomatining haqligi, ularning hikmati berilgandir [11. 60].

Asar tuzilishi va mazmun-mohiyati jihatdan qaraganda professor Najmiddin Komilov iborasiga ko'ra, uni shartli ravishda uch qismga bo'lish mumkin:

1. Tasavvufning paydo bo'lish tarixi, uning ta'rifi, tasavvuf ilmiga oid atamalar sharhi, uning yirik namoyandalari haqidagi ma'lumotlar.

2. Tariqat va shariat ahkomlarining o'zaro uyg'unligi, tasavvufning islomiy negizlari bayoni.

3. So'fiylik holatlari, tariqat talablari, maqomotlar haqidagi tushunchalar sharhi [4].

Kalobodiyning o'zi tomonidan ushbu kitobga sharh sifatida yozgan "Husn at-tasavvuf" ("Tasavvufni eng yaxshi tarzda ko'rsatib berish"), shuningdek, bizgacha yetib kelmagan "Sharaf ul-faqri va ahlihi" ("Faqrning va faqr ahlining ulug'ligi") asarlari ham tasavvuf tadqiqotlariga bag'ishlangan [12. 123].

Garchi Abu Bakr Kalobodiy ijodida tasavvuf g'oyalari yoritilsada, aslida alloma ahli tariqat emas balki, ahl-as-suhhat val jamoatdan bo'lgan. Tasavvuf xususidagi asarlar esa faqatgina ushbu yo'nalish vakillari uchungina qo'llanma bo'lib xizmat qilganini ham hisobga olmoq kerak.

“Yashil” moliyalashtirish vositalari xilma-xil bo‘lib, korxonalarga investitsiyalarni davlat ishtirokisiz jalb qilish, “yashil” faoliyatdan moliyaviy foyda olish va atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish imkonini beradi.

Tadqiqotda «aylanma iqtisodiyot» konsepsiyasi yashil iqtisodiyot modelining asosi sifatida paydo bo‘ldi. An’anaviy «chiziqli iqtisodan», ya’ni "atrof muhitdan resurs olish, undan mahsulot yasash va resursni yo‘q qilish" modelidan voz kechish orqali aylanma iqtisodiyot materiallardan doimiy foydalanish va qayta tiklanishiga urg'u beradi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, aylanma iqtisod amaliyotini qo‘llagan tarmoqlar «resurs iste‘moli» va «chiqindi hosil bo‘lishi»ni sezilarli darajada qisqartirishga erishgan. Bu o‘tish «ishlab chiqarish», «elektronika» va «to‘qimachilik» kabi tarmoqlarda, ayniqsa, «qayta ishlash», «qayta foydalanish» va «mahsulotning ishlash muddatini uzaytirishdagi innovatsiyalar uchun muhim bo‘ldi. « atrof-muhitga ta'sirini kamaytirdi.



2-rasm. Chiqindisiz ishlab chiqarishda resurslar aylanma sxemasi

«Barqaror resurslarni boshqarish» konsepsiyasi iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlagan holda ekologik muvozanatni saqlashning asosiy strategiyasi sifatida ta'kidlandi. Tadqiqot «qishloq xo‘jaligi», «o‘rmon xo‘jaligi» va «suv xo‘jaligi» kabi sohalarda tabiiy resurslarni himoya qilish va biologik xilma-xillikni oshirish uchun barqarorlikni ta'minlash amaliyotini integratsiyalashganligini ta'kidlaydi.

Masalan, almashlab ekish, organik dehqonchilik va «biologik zararkunandalarga qarshi kurash» kabi «agroekologik usullar» tuproq salomatligini yaxshilashga, kimyoviy o‘g‘itlarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirishga va mahalliy aholini qo‘llab-quvvatlashga yordam berdi. Xuddi shunday barqaror o‘rmon xo‘jaligi amaliyotlari, jumladan, «tanlab kesish» va «o‘rmonlarni qayta tiklash», global biologik xilma-xillik va uglarod sekvestratsiyasi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan «Amazon yomg‘ir o‘rmonlari» kabi asosiy hududlarda o‘rmonlarni kesish darajasini pasaytirdi.

Ushbu sa'y-harakatlarning yana bir natijasi bu “Yashil makon” dasturi asosida ko‘plab daraxtlar ekilayotganidir.



3-rasm. “Yashil makon” dasturida ekilgan daraxtlar

Xulosa. Ushbu tadqiqotdan xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot XXI asrning dolzarb ekologik muammolarini hal qilishning asosiy modeli sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tadqiqot shuni ta'kidlaydiki, yashil iqtisodiyot o'ziga xos yoki qo'shimcha yondashuv bo'lmay, uzoq muddatli ekologik va iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun «keng qamrovli, barqaror asosni» taklif etadi. «aylanma iqtisodiyot», «qayta tiklanadigan energiya» va «barqaror resurslarni boshqarish» kabi tamoyillarni birlashtirgan holda yashil iqtisodiyot atrof-muhit degradatsiyasini kamaytirish, iqlim o'zgarishini yumshatish va barqaror foydalanishni ta'minlash uchun zarur vositalarni taqdim etadi. ona yerimizning cheklangan resurslari.

Ushbu tadqiqot natijalari «iqtisodiy rivojlanish» va «ekologiyani muhofaza qilish» bir-birini inkor etmaydi degan fikrni mustahkamlaydi. Yashil amaliyotlarni qabul qilish orqali sanoat chiqindilarni kamaytirishi, yangi yashil ish o'rinlarini yaratishi va qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tishi mumkin, shu bilan birga atrof-muhitga zararni minimallashtirishi mumkin. Bundan tashqari, yashil iqtisodiyotga o'tish inson tizimlarida ham, tabiiy ekotizimlarda ham barqarorlikni rivojlantiradi va jamiyatlarga iqlim o'zgarishi va resurslar tanqisligi bilan bog'liq muammolarga yaxshiroq moslashish imkonini beradi.

Oxir oqibat, yashil iqtisodiyot shunchaki iqtisodiy model emas; bu inson taraqqiyoti va atrof-muhitni boshqarish o'rtasidagi a'loqalarni qayta ko'rib chiqadigan «o'zgartiruvchi yechim». Iqtisodiy qarorlar qabul qilishda ekologik qadriyatlarni kiritish orqali bu yondashuv yanada «to'g'ri, barqaror» va «bardoshli kelajak» sari yo'lni taklif etadi. Dunyo tobora kuchayib borayotgan ekologik bosimlarga to'qnash kelar ekan, yashil iqtisodiyotni qabul qilish nafaqat ekotizimlarning omon qolishini ta'minlash, balki kelajak avlodlar uchun farovon va adolatli kelajak yaratish uchun ham juda muhimdir.

ADABIYOTLAR:

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi. (2011). *Yashil iqtisodiyot sari: Barqaror rivojlanish va qashshoqlikka barham berish yo'llari*.
2. Jahon banki. (2020). *Yashil iqtisodiyot: o'sishning yangi yo'llari*.
3. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti. (2019). *Yashil o'sish ko'rsatkichlari*.
4. Barqaror rivojlanish xalqaro instituti. (2018). *Yashil iqtisodiyot bo'yicha qo'llanma*.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son “2030-yilgacha bo'lgan davrda „O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni, <https://lex.uz/docs/-4574008>.
6. Geissdoerfer, M., Savaget, P., Bocken, N. M. P., & Hultink, E. J. (2017). *Aylana iqtisodiyoti: yangi barqarorlik paradigmasi? Journal of Cleaner Production, 143, 757-768*.
7. Hawken, P. (1993). *Savdoning Ekologiyasi: Barqarorlik Deklaratsiyasi. HarperBusiness*.
8. Haas, W., Korre, A., & Birkved, M. (2013). *Qayta tiklanadigan energiya o'tishining ekologik ta'sirini o'rganish. Environmental Science & Technology, 47(21), 12228-12235*.
9. World Economic Forum. (2020). *Global Risk Report 2020. World Economic Forum*.

**INTERFAOL INTELLEKTGA ASOSLANGAN ELEKTRON PLATFORMA ORQALI
ELEMENTAR MATEMATIKA O'QITISH TIZIMINI BOSHQARISH**

To'xtamishova Gulnora Mels qizi,

Buxoro davlat universiteti

Fizika-matematika va axborot texnologiyalari fakulteti

Kompyuter tizimlari mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar taqrizi asosida:

Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari

kafedrası dotsenti U.M. Xalikova

Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarini kompetensiyaviy yondashuv asosida hayotga, maktab ta'limiga puxta tayyorlash, ularga dasturiy vositalar orqali bilish kompetensiyasini va o'yin kompetensiyasini shakllantirish hamda rivojlantirish imkoniyatlari, usullari va metodlari haqida, yaratilgan dasturiy vosita tahlili haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *bo'lajak, boshlang'ich ta'lim, maktabgacha ta'lim, dasturiy vosita, o'yin, kompetensiya, metod, usul, multimedia, interfaol, elektron platforma.*

**УПРАВЛЕНИЕ СИСТЕМОЙ ОБУЧЕНИЯ ЭЛЕМЕНТАРНОЙ МАТЕМАТИКЕ
ПОСРЕДСТВОМ ЭЛЕКТРОННОЙ ПЛАТФОРМЫ НА ОСНОВЕ ИНТЕРАКТИВНОГО
ИНТЕЛЛЕКТА**

В данной статье представлена информация о возможностях, способах и методах подготовки будущих младших школьников к жизни и школьному образованию на основе компетентностного подхода, формирования и развития их познавательной компетентности и игровой компетентности посредством программных средств, а также анализ созданного программного средства.

Ключевые слова: *будущее, начальное образование, дошкольное образование, программный инструмент, игра, компетентность, метод, метод, мультимедиа, интерактивный, электронная платформа.*

**MANAGEMENT OF THE SYSTEM OF TEACHING ELEMENTARY MATHEMATICS
THROUGH AN ELECTRONIC PLATFORM BASED ON INTERACTIVE INTELLIGENCE**

This article provides information about the possibilities, ways and methods of preparing future primary schoolchildren for life and school education based on a competency-based approach, the formation and development of their cognitive competence and gaming competence through software, as well as an analysis of the created software.

Keywords: *future, primary education, preschool education, software tool, game, competence, method, multimedia, interactive, electronic platform.*

Kirish. Dunyo tendensiyasida XXI asrdan boshlab ta'lim tizimi, ayniqsa, maktabgacha ta'lim qat'iy belgilangan kompetensiyaviy yondashuv asosida faoliyat olib bormoqda. O'tgan asrning oxirida, YUNESKO o'z vakolatlari doirasida kompetensiyalar to'plamini belgiladi va ular uchinchi ming yillik ta'lim tizimida kutilayotgan natijalar samarasini beradi. Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv, bolani hayotga tayyorlash, mustaqil fikrlash doirasini kengaytirish, boshlang'ich bilim va ko'nikmalarni egallashiga qaratilgan ta'limning modernizatsiyalashgan modelini yaratishga qaratilgan.

Bolalarning aqliy tarbiyasida boshlang'ich matematik tasavvurlarni rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tarkibiy qismidagi matematik rivojlanishi raqamlar va oddiy geometrik raqamlar haqidagi g'oyalarni ishlab chiqish, hisoblashni, qo'shishni va olib tashlashni o'rganishdan charchamasligi kerak Eng muhimi, maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv qiziqishi va matematik tafakkurini rivojlantirish, mulohaza yuritish, bahslashish va amalga oshirilgan harakatlarning to'g'riligini isbotlash muhim hisoblanadi. Bolaning ongiga ta'sir etadigan, fikrlashning moslashuvchanligini rivojlantiradigan, mantiqqa o'rgatadigan, xotirani, e'tiborni, tasavvurni, nutqni shakllantirishga xizmat qiladigan elementar matematikadir.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda O'RQ-595 sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunining 53-moddasida [1] ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun o'quv-uslubiy va didaktik materiallar ishlab chiqish-ishlab chiqarish, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish vazifalari belgilangan.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanishning tub mazmuni - kompyuterli ta'lim bo'lgani uchun, birinchi navbatda, tahlilni kompyuterlarning ta'lim jarayoniga kirib kelishidan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim-tarbiya jarayonida kompyuterdan foydalanish g'oyasining dastlabki nazariy asoslari ilk bor 1964-yilda Seymur Peyiyert tomonidan berilgan [2].

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Ammo kompyuter ko'p mamlakatlarda ta'lim tizimiga vosita sifatida 1970-yildan kirib kela boshladi. Uning ommaviy ravishda tatbiq etilishi, Angliya va Amerikada 1981-yil. Franinyada 1982- yil, Rossiyada esa 1983-1984 -yillarga to'g'ri keladi [3; 106-107 b].

Rossiyada kompyuterlarni maktabgacha ta'limga eksperimental darajasidagi tatbig'i 1990-yildan boshlangan [4; 91-b.]. Bu davrda kompyuterlardan maktab va maktabgacha ta'limda, asosan. Kompyuterli o'yinlarni amalga oshirishda keng foydalanib kelingan.

S.V.Guryev maktabgacha ta'lim muassasalarining katta yoshdagi bolalariga ta'lim berishda kompyuter texnologiyalari samarali vosita ekanligini ta'kidlaydi [5]. V.I.Varchenkova, A.V.Larinalarning ishlarida maktabgacha yoshdagi nutqi ravon bo'lmagan bolalarga ta'lim berishda kompyuterli o'rgatuvchi dasturlardan foydalanish yaxshi natijalarga olib kelishi yoritilgan [6; 564-b.]. Y.E.Voronova maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan ko'zi ojiz bolalarga ta'lim berishda multimedia taqdimotlaridan samarali ko'rgazmali qurol sifatida foydalanishni taklif etgan [7].

N.N.Ogoltsovaning nomzodlik dissertatsiyasida axborot-kommunikatsiya va multimedia texnologiyalaridan foydalanib, pedagoglarning malakasini oshirish yo'llari o'rganilgan [8; 140-b.]. N.M.Klimeshovaning nomzodlik dissertatsiyasida multimedia vositalaridan oliy ta'limda samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Bundan tashqari, S.P.Domonovanning nomzodlik dissertatsiyasida ta'limda kompyuter va multimedia texnologiyasidan foydalanish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borilgan bo'lib, ijobiy natijaga erishilgan [9; 24-b.].

Pedagogik jarayonda axborot texnologiyalaridan nafaqat umumiy, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy muassasalari ta'lim-tarbiya jarayonida, balki maktabgacha ta'lim muassasalarining maktabga tayyorlov guruhlarining ta'lim-tarbiya jarayonida ham keng foydalanish mumkin. Bu sohada ham bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, ijobiy natijalarga erishilganligi tadqiqotlar davomida isbotlangan.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida foydalanish uchun xorijsda va respublikamizda ko'plab multimedia vositalari ishlab chiqishga yetarlicha e'tibor berilayotgan bo'lsa-da, xozirgi kunga qadar ulardan maktabgacha ta'lim muassasalarining turli yosh guruhlarida ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishning ilmiy asoslari keng tadqiq etilmagan va mavjud ta'lim vositalaridan ta'lim jarayonida foydalanish yo'lga qo'yilmaganligini tadqiqotlar davomida aniqlandi. Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalariga asoslangan mustimedialli vositalardan foydalanish metodikasi, bolada visual tasvirlar yordamida axborotni yetkazishni ta'minlaydigan va bola xotirasida uzoq vaqt saqlanishiga xizmat qiladigan metodika hisoblanadi. Chunki inson axborotlarning 90 foizini ko'rish va 5 foizini eshitish orqali qabul qiladi. Agar bolaga multimedialli ta'lim vositalari yordamida ma'lumotlar yetkazilsa, demak, bola axborotning 95 foizini olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirishiga yetarlicha xizmat qiladi degan gipotezani ilgari surishimiz uchun asosli hisoblanadi.

Hozirgi kunda yurtimizda bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarini maktabga tayyorlash kompetensiyaviy yondashuv asosida olib borilmoqda. 2018-yilda tasdiqlangan "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi BMTning Bolalar jamg'armasi YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi texnik ko'magi yordamida yaratilgan. Ushbu dasturda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish kompetensiyaviy yondashuv asosida amalga oshirilishi belgilangan. Dasturda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan axloqiy-me'yor va qadriyatlarini o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, "Men" obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan qat'iyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlik ko'zda tutilgan. Dasturda takidlanganidek, boshlang'ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq subekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi. Kompetensiya bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlarini majmuidir. Boshlang'ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat'iy nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi deb takidlangan [10].

Dasturning 3.1-bandida maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari keltirilgan:

kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi; o‘yin kompetensiyasi – bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanish. o‘quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi;

ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va meyorlariga rioya qilgan holda o‘zini tuta olish mahorati;

bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni bajarish uchun foydalanish.

Maqolada asosan bolaning o‘yin kompetensiyasi va bilish kompetensiyasini dasturiy vositalar orqali shakllantirish va rivojlantirish masalalariga urg‘u berilgan.

Pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki ta‘limning kompetensiyaviy modeli bu ta‘lim natijasi bo‘yicha ta‘lim va natijaning assimilyatsiya qilingan ma‘lumotlar yig‘indisi emas, balki inson qobiliyatining turli muammoli vaziyatlarda harakat qilishi hisoblanadi. Ushbu modelning quyidagi prinsiplari mavjud:

1) ko‘nikmalarni egallash va hayotiy ehtiyojni qondirishda bilimlarga bo‘ysunish prinsipi;

2) ta‘lim maqsadlarini hayotga tayyorlashga moslashtirish prinsipi;

3) o‘quvchilarni hayoti davomida ta‘limning uzluksizligiga yo‘naltirish va o‘z-o‘zini tarbiyalash prinsipi.

Uzoq vaqt davomida adabiyotlarda “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari mavjud edi. Xorijiy tillar lug‘atlarida “kompetensiya” har qanday tashkilot yoki mansabdor shaxsning vakolatlari, huquq va majburiyatlari va bilim-tajribasi sifatida talqin qilinadi. Xuddi shu lug‘atda “kompetensiya”, “vakolatli” so‘zidan kelib chiqqan tushuncha bo‘lib, munosib, qobiliyatli ma‘nolarini bildiradi.

Umumiy ta‘limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv muammolarini o‘rganish ta‘lim kompetensiyasi tushunchasini kiritgan A.V. Xutorskiy tomonidan olib borilgan va “semantik yo‘nalishlar, bilimlar, ko‘nikmalar va o‘quvchining ma‘lum bir obektlar doirasidagi real tajribalariga asoslanadi” degan fikrni ilgari surgan [11]. Muallif qarashlarida ta‘lim kompetensiyasi, o‘quvchining faqatgina shaxsiy faollik yondashuvini o‘rganish asosida kelib chiqadi, chunki kompleks topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchi egallagan bilim va ko‘nikmalariga asosan harakat qiladi.

Zamonaviy jamiyatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu ta‘limni axborotlashtirishdir. Ta‘limni axborotlashtirish allaqachon bir necha bosqichlarni bosib o‘tgan o‘z tarixiga ega, O‘zbekiston hukumati ta‘limni axborotlashtirish sohasida dasturlar va loyihalarni amalga oshirmoqda, asosan bu loyihalar maktab va oliy ta‘lim tizimiga taalluqlidir. Maktablarni kompyuterlar bilan jihozlash, AKT sohasida o‘qituvchilarning malakasini oshirish va boshqalar bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Ammo maktabgacha ta‘lim tizimi ancha orqada qolmoqda.

Jahon hamjamiyatiga nazar soladigan bo‘lsak maktabgacha ta‘limda kompyuterlardan foydalanish 1985-1986-yillarda boshlangan. 1986-yilda Moskvada bolalar bog‘chasida birinchi kompyuter o‘yinlari kompleksi ochilgan. 1990-yillarning boshlarida bolalar uchun birinchi kompyuter dasturlari ishlab chiqilgan, maxsus kompyuter o‘yin komplekslari bilan jixozlangan maktabgacha ta‘lim tarmog‘i rivojlana boshlagan. Biroq umuman olganda maktabgacha tarbiya muassasalarida axborotlashtirish jarayoni sekin rivojlanmoqda.

Zamonaviy jamiyatni axborotlashtirish jarayonining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu ta‘limni axborotlashtirish-ta‘lim, ta‘limning psixologik va pedagogik maqsadlarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan zamonaviy yangi dasturiy vositalarni ishlab chiqish va ulardan optimal foydalanish uchun ta‘lim sohasini metodika va amaliyot bilan ta‘minlash jarayonidir. Ushbu jarayon quyidagilarni boshlaydi:

ilmiy-pedagogik ma‘lumotlarning avtomatlashtirilgan ma‘lumotlar banklari, axborot uslubiy materiallari, shuningdek aloqa tarmoqlaridan foydalanish asosida ta‘lim tizimini boshqarish mexanizmlari takomillashtirish;

jamiyatni zamonaviy axborotlashtirish sharoitida shaxsni rivojlantirish vazifalariga mos keladigan ta‘lim, ta‘limning mazmuni, usullari va tashkiliy shakllarini tanlash uslubiyoti va strategiyasini takomillashtirish;

shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantirishga, bilimlarni mustaqil ravishda egallash, axborot o‘quv, esperemental va tadqiqot faoliyatini mustaqil ravishda ishlov berishning har xil turlarini amalga oshirish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan uslubiy o‘quv tizimlarini yaratish;

talim jarayonida foydalanish uchun dasturiy vositalarni yaratish va ulardan keng foydalanish, bolaning bilim darajasini nazorat qilish va baholash usullarini diagnostika qilishdan iborat.

Natijalar. Zamonaviy raqamli texnologiyalar butun dunyo bo‘ylab barcha ta‘lim muassasalarini rivojlantirish uchun yangi vositalarni taqdim yetadi. Raqamlashtirish, o‘rgatiladigan saboq va bilimlarni almashish uchun imkoniyatlar yaratib, odamlarga ko‘proq ma‘lumot olish va kundalik hayotlarida yaxshi

qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. Yaqin kelajakda ta'lim muhitida raqamlashtirish bilan bog'liq katta o'zgarishlar yuz beradi.

Elektron ta'lim tizimi yangi imkoniyatlar va yangi vazifalarni yaratmoqda. Asosiy imkoniyatlar qatoriga ta'limga oid muammolarni hal qilish, ta'lim shaklini tanlashni kengaytirish, bilimlarni uzatish vositalarini ko'paytirish kiradi. Raqamli texnologiyalarning zamonaviy ta'limdagi o'rni va rolini anglash zarurati maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi va didaktikasi sohalaridagi zamonaviy tadqiqotlarda o'z aksini topishi kerak. Hozirgi kunda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim integratsiyasida raqamli texnologiyalarni qo'llash muammolari kelgusida rivojlanish strategiyasini va unga yo'naltirilgan yo'nalishni tanlash bilan bog'liq izlanishlarga sabab bo'ladi. Kelajakda raqobatdosh ta'lim va tadqiqot modeliga o'tish uchun raqamli transformatsiya dasturi allaqachon ishlab chiqilishi kerakligini taqozo etmoqda.

Elektron ta'lim tizimining muammolarini ikkita sinfga bo'lish mumkin: hozirgi (o'tish davri) va immanent.

Bugungi kunda ta'lim tizimining raqamli texnologiyalarga tez kirib borishi axborot makonida taqdim etilayotgan ko'pgina muammolarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik asoslash uchun asos yaratmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi ta'lim jarayonini raqamli rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini, ularning afzalliklari va tahdidlariga asoslangan holda aniqlashdir, raqamli texnologiyalarni maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimida ilmiy asoslangan holda amalga oshirish zarurati gipotezasi asosida tahlil qilishdan iborat.

Ta'lim muhitini raqamlashtirish turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- mavjud o'quv materiallarini, shu jumladan ma'ruzalar, prezentatsiyalar, darsliklar, mustaqil ish uchun topshiriqlarni va bilimlarni boshqarish vositalarini elektron muhitini tarjima qilish;

- o'qituvchi va bola-o'quvchi o'rtasidagi o'zaro aloqalar uchun interaktiv elektron muhitni shakllantirish, shu jumladan, o'qituvchilar uchun elektron sinflar yaratish, veb-seminarlar, munozarali forumlar o'tkazish va hk.;

- yangi turdagi o'quv vositalarini yaratish: elektron darsliklar, elektron muammoli kitoblar, video ma'ruzalar, elektron topshiriqlar bazasi, kompyuter o'yinlari;

- elektron muhit imkoniyatlaridan foydalangan holda ta'limning tubdan yangi shakllarini yaratish - axborotni xayoliy uzatish spektrini kengaytirish, rolli o'yinlar jarayonida turli vaziyatlarni modellashtirish, raqobatbardosh o'yinlarga taqlid qilish va hk.;

- sun'iy intellekt imkoniyatlarini o'quv jarayoniga tatbiq qilish.

Bugungi kunda ta'lim tashkilotlarining aksariyat qismida ta'limni raqamlashtirish jarayoning dastlabki shakli amalga oshirilmoqda. Bu o'quvchilarning o'quv materiallariga kirishini yengillashtirish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lmagan o'quv yuklarni kamaytirish, o'quv intizomi va o'quv jarayoni mazmuni ustidan nazoratni osonlashtirishga imkon beradi. Bundan tashqari, ushbu jarayon masofadan boshqarish pultini sezilarli darajada kengaytirishga imkon yaratmoqda.

Bugungi kunda har qanday darajadagi ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarini kiritish dunyo ta'limi rivojlanishining eng barqaror tendensiyalaridan biridir. Barcha axborot kanallari orasida eng kuchli va rivojlangan munosabat bu dasturiy vositalar orqali ta'sir ko'rsatishdir. Multimediali dasturiy vositalar ko'proq samarali o'rganishni amalga oshiradi, chunki bolaning hissiy analizatorlari hisoblanib, multimedia orqali axborotni idrok etishiga yordam beradi. Zamonaviy rivojlanayotgan axborot jamiyati sharoitida katta guruh yoshidagi bolalarning kompyuterni obyektiv o'rganishga bo'lgan ehtiyoji tobora erta rivojlanmoqda. Bugungi kunda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, multimedia texnologiyalaridan kengroq va muvaffaqiyatli foydalanishga ehtiyoj juda yuqori. Dasturiy vositalar bolaning bilim qobiliyati, barqaror qiziqishini shakllantirishni ta'minlaydigan yangi ma'lumotlar taqdim etib, rivojlanishni eng to'liq va muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi. Ular nihoyatda samarali motivator bo'lishi mumkin, chunki bolalar axborot vositalari yordamida barcha bilim olishdagi to'siqlarni qiziqarli hal qilishni o'rganadilar va kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanadilar. Bu esa ta'lim jarayonidagi muammolar va ilgari ko'rilmagan ta'lim imkoniyatlarini taqdim etadi. Bolalarning ta'lim faoliyatiga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada oshadi, ularning o'zlashtirish darajasi, bilish qobiliyatlari yanada samarali rivojlanadi.

Tushuntirish va mustahkamlashning yangi, xilma-xil va g'ayrioddiy usullaridan foydalanish, mavzular ko'proq o'yin tarzida tashkil etilib tushuntirilishi, o'rganish jarayonida bolalarning beixtiyor e'tiborini kuchaytiradi. Axborot texnologiyalari shaxsiy-orriyentatsiyani ta'minlaydi va tanishish uchun taklif qilinadigan material miqdorini ko'paytirishga imkon beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia vositalaridan keng foydalanish bolalarning boshlang'ich sinfdan barcha bilimlarni va matematika va informatika kabi muhim sohalarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishiga, qolaversa axborot madaniyatining rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim jarayoniga qo'llash uchun juda ko'plab multimediali dasturiy vositalar yaratilgan. Bular Macromedia Flash, Action Script, Power Point, Scrach animator, Crazy Talk

Animator kabi dasturlarda tayyorlangan. Zamonaviy tarbiyachi har bir mashg'uroti uchun didaktik o'yinlarni va taqdimotlarni eng oddiy Power Point dasturida tayyorlashi mumkin. Mutaxassislar tomonidan yaratilgan murakkab animatsion dasturlar esa juda qulay interfeysga ega bo'lib, hatto bolajonlarimiz ulardan mustaqil ravishda foydalanishlari mumkin.

Ammo muammo shundaki, hozirgi kunda yurtimizda miliy tilimizda, ya'ni o'zbek tilida yaratilgan bunday multimedia mahsulotlari juda kam va mukammal darajada o'quv dasturlarini qamrab olmagan.

Tadqiqot doirasida 6-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlov kurslarini elektronlashtirish va o'quv jarayonni elektron platforma orqali boshqarishni amalga oshirish maqsadida maktabgacha ta'lim muassasasining "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari" va O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2020-yil 27-martdagi 54-son buyrug'ining 1-ilovasi "Ilm yo'li" variativ dasturi talablari asosida elektron platforma ishlab chiqilishi nazarda tutilgan bo'lib, uning taxminiy prototipi quyidagicha shakllantirilishi nazarda tutilgan(1-rasmga qarang).



1-rasm. Ishlab chiqiladigan elektron platformaning taxminiy prototipi

Rasm ishlab chiqiladigan elektron platformaning oynalari keltirilgan. 1-oyna ma'ruza matnlari oynasi bo'lib unda maktabgacha ta'lim sohasiga oid barcha me'yoriy hujjatlarning elektron ko'rinishi, matematika mashg'ulotlarining ma'ruza matnlari va qo'shimcha adabiyotlar kiritiladi. 2-oykada mavzular kesimida elektron ko'rgazmalar to'plamlari joylashtiriladi. 3-oykada matematika mashg'ulotlari mavzulariga mos ravishda yaratilgan o'zbek tilidagi o'rgatuvchi video roliklar joylashtirilishi nazarda tutilgan (2-rasmga qarang). 4-oykada esa har bir mavzuni mustahkamlashga doir rivojlantiruvchi kompyuter o'yinlari joylashtirilishi nazarda tutilgan (3-rasmga qarang).



2-rasm. Elektron platformaning video roliklar oynasi. Taxminiy shakllantirilishi rejalashtirilgan video roliklarning ko'rinishi



3-rasm. Interfaol kompyuter o‘yinlarining taxminiy ko‘rinishi

Tadqiqot davrida ishlab chiqiladigan elektron platformani amaliyotda sinovdan o‘tkazish va natijasini o‘rganish maqsadida Buxoro viloyat Romitan tuman davlat va xususiy sherikchilik asosida tashkil etilgan MTM tashkilotlarida tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgan.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining maqsadi ilmiy tadqiqotda ilgari surilgan farazning nechog‘lik to‘g‘ri ekanligini isbotlashdan iborat. Bu jarayon shartli ravishda bir nechta bosqichlarga bo‘linadi.

Birinchi bosqich tayyorgarlik bosqichi 2024-2025-o‘quv yili davomida o‘tkazilishi rejalashtirilgan bo‘lib, bu davrda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- tadqiqotning asosiy yo‘nalishini aniqlab olinadi;
- muammoning nazariy va amaliy holatini o‘rganiladi;
- maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyachilari bilan so‘rovnomalar o‘tkaziladi;
- o‘quv-me‘yoriy hujjatlarni tahlil qilindi va o‘rganiladi;
- ayanch maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini tanlandi, ularda tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish uchun moddiy-texnik, ilmiy-uslubiy negiz va pedagogik shart-sharoitlar mavjudligi o‘rganiladi;
- tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan materiallar tayyorlanadi va taqdim etiladi;
- tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan materiallar tayyorlanadi va taqdim etiladi.

Munozara. Zamonaviy kompyuterli animatsion mukammal dasturiy vositalardan foydalanish, uchinchi relesans bolasining zamon talablariga mos ravishda bilim olishiga, mustaqil fikrining shakllanishiga, tafakkur doirasining ortishiga, kompyuter savodxonligiga ega bo‘lishiga, aqliy salohiyaning yuksalishiga xizmat qiluvchi zamonaviy vosita hisoblanadi [12; 40-b.].

O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish maktabgacha ta‘limga keng imkoniyatlar yaratishning zarurati va muhimligi hamda bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlashning muqobil va kamchiqim modellarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bolaning erta rivojlanishi uning kelgusida shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bolalarning bilish va ijodiy rivojlanish jarayoni ta‘limda kompetentlik yondashuvi asosida bilim olishga qiziqishni oshirish, raqamlar, hisob-kitobni bilish va ularni hayotda qo‘llay olish, makon, shakl va vaqtga mos matematik tasavvurlarini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi [13; 332-b.].

Maktabgacha ta‘limdagi modernizatsion o‘zgarishlar tarbiyachilarga maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish metodlari va shakllarini tanlab olish erkinligini beradi. Zamonaviy o‘qitishning asosiy natijasi bolaning rivojlanishiga oid kompetensiyalarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishiga qanchalik yordam bera oladigan nimalarni o‘zlashtirgani e‘tiborga olinadi. Pedagog tomonidan tanlab olingan o‘qitish shakllari intellektual jarayonlarning shakllanishiga yordam berishi, masalalarni ijodiy hal qilish uchun shart-sharoitlarni yaratishi, mustaqillikni va ma‘suliyatni o‘rgatishi, bolalarni o‘z xulq-atvorini boshqarishni mashq qildirishi lozimdir [14; 46-b.]. Maktabgacha ta‘lim uzluksiz ta‘limning boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lib sanaladi. Bolalarning bilish va ijodiy rivojlanish jarayoni ta‘limda kompetentlik yondashuvi asosida bilim olishga qiziqishni oshirish, raqamlar, hisob-kitobni bilish va ularni hayotda qo‘llay olish, makon, shakl va vaqtga mos matematik tasavvurlarini shakllantirish sog‘lom va rivojlangan bola shaxsining shakllanishini ta‘minlashi, tizimli o‘qitishga tayyorlash bilan unda o‘qish-o‘rganishga intilishni uyg‘otishi zarurligi masalalarini hal etishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki multimediali dasturiy vositalar bolaning nafaqat o‘zlashtirish darajasini oshiradi, balki diqqat, xotira, fikrlash, tasavvur, nutq kabi jarayonlarning rivojlanishiga hissa qo‘shadi, rang, kompozitsion tuyg‘ularni rivojlantiradi, bolalarning intellektual, hissiy va axloqiy rivojlanishida ishtirok etadi. Kompyuter va interfaol jihozlarning yangiligi bolaning bilimlari, qobiliyatlari va ko‘nikmalarini kengaytirish va boyitishda, intellektual va motivatsion-emotsional tabiatning tarkibiy majmualarini yaratishni intensivlashtirishda, aqliy rivojlanish jarayonining dinamikasidagi

o'zgarishlarda namoyon bo'ladi. Interfaol intellektga asoslangan elektron platforma orqali elementar matematika o'qitish tizimini boshqarish orqali O'zbekistonda Respublikasida yagona yondashuv va dastur, dasturning mavzular bazasi asosida ta'lim jarayonini tashkil etish, maktabga tayyorlov guruhlarida ta'lim oluvchi bolalarning yetarlicha elementar matematik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda O'RQ-595-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni.
2. О раннем компьютерном обучении и его влияние на развитие ребёнка. <http://bibigosha.m/conteit/psil.aspx>,
3. Полат Е. Проблемы использования компьютеров в система образования развитых капиталистических стран // Информатика и образование. - № 4. 2007. - С. 106-107.
4. Реуцкая И. НИТ в дошкольном образовании // Информатика и образование. - № 2. 2009. - 91 с.
5. Гурьев С.В. Информационные компьютерные технологии как эффективное средство в образовательном процессе детей старшего дошкольного возраста. <http://www.256.m/pedagogics/gurievstati.plip>
6. Варченко В.И. Ларина А.В. Использование компьютерных обучающих программ для дошкольников // XVIII международная конференция. Москва. 27-28.06.2018г.стр. 564-565.
7. Осмакова М.В. Мультимедийные презентации в обучении дошкольников. <http://stoscliet.ucoz>
8. Огольцова Н.Н. Мультимедийные проекты как средство повышения квалификации педагогов. Дисс...канд.пед. наук. - Новокузнецк, 2020. -140 с
9. Домонова С.Р. Методы компьютерного обучения. Автореф. дпсс. ... канд. пед. наук. – Ростов-на-Дону. 2009. - 24 с.
10. Maktabgacha ta'lim muassasasining "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi. 2018 yil.
11. Alimov N. Maktabgacha yoshdagi bolalarni matematik ta'limga tayyorlash // Maktabgacha ta'lim. - T., 2005. -№ 2.
12. Xalikova U.M. Maktabgacha ta'lim muassasalarida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi. Magistrlar va iqtidorli talabalarning "Tafakkur va talqin" mavzusidagi ilmiy-amaliy onlayn konferentsiyasi. Buxoro-2020. 15-may.40-bet.
13. Xalikova U.M. Maktabgacha ta'lim muassasalarida zamonaviy kompyuterli ta'limiy o'yinlar texnologiyasi. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachilarning kreativ va innovatsion faoliyatini tashkil etishning dolzarb masalalari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy materiallari 2-chiqish. Andijon, 2020 yil 14-aprel.332-bet.
14. Xalikova U.M. "Ilk qadam" dasturiga mos matematikadan mavzulashtirilgan elektron qo'llanma. "Maktabgacha ta'limda kompetensiyaviy yondashuvlar istiqbollari, muammolari va yechimlar" mavzusidagi respublika onlayn ilmiy-amaliy anjuman. Buxoro, 2020 yil 3-noyabr.46-b.

2025/2026 ЎҚУВ ЙИЛИДАН БОШЛАБ ОТМЛАРДА БОСҚИЧМА-БОСҚИЧ ДУАЛ ТАЪЛИМ ЖОРИЙ ЭТИЛАДИ

Хўжаев Сулаймон Султонович,

Ахборот тизимлари ва рақамли технологиялар кафедраси катта ўқитувчиси

Дуал таълим қандай тизим? Дуал таълим тизимидан таълимнинг қайси бўғинларида фойдаланиш мумкин, таълим соҳасига “дуал таълим” тушунчасининг кириб келишига нима сабаб бўлди?

Анъанавий таълим шаклида ўқувчи/талаба олий ёки профессионал таълим муассасасида назарий билимларни кўпроқ эгаллаб, амалиёт қисмини жуда оз соатларда корхона ва ташкилотларда ўтайди. Ишлаб чиқариш, саноат ва хизмат кўрсатиш соҳаларида ишчи касб ва мутахассисликларга бўлган эҳтиёж жуда юқори кўрсаткичларни ташкил этади.

Ривожланган мамлакатларнинг таълим тизими ўрганилиб, замонавий технологиялар ва дастгоҳларда ўқиш билан бир вақтда корхона, ташкилотларда иш фаолиятини олиб бориш имкониятини берувчи дуал таълим шакли Ўзбекистон таълим тизимига киритилди.

“Дуал” сўзи лотин тилидан олинган бўлиб, бирор нарсанинг икки қисмга тааллуқлилиги, иккита нарсани ифодаловчи, икки қисмдан иборат, деган маъноларни билдиради.

Дуал таълим – ўқувчи/талабага таълимни ўз йўналишига мос ташкилотда меҳнат қилиш билан бирга олиб бориш имкониятини берувчи тизимдир. Бунда ёшлар 2-3 кун таълим муассасасида назарий билимларни ва 3-4 кун корхона ва ташкилотларда ҳақиқий иш жараёнларида амалий кўникмаларни эгаллайди, дуал таълим шаклида таҳсил олаётган ўқувчи/талаба корхона ва ташкилотларда ишга қабул қилинганда уларга корхона томонидан устоз бириктирилади ва ойлик маоши тўланади.

Бугунги кунда ушбу тизим Германия, Австрия, Швейцария ва Корея Республикаси каби мамлакатларда иқтисодий ривожлантиришда жуда катта ўринга эга.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Камбағалликни қисқартиришда тадбиркорлик субъектлари билан ўзаро манфаатли ҳамкорлик ўрнатишга қаратилган чора-тадбирлар тўғрисида” 2023 йил 12 июлдаги ПФ-93-сон Фармони ижросини таъминлаш юзасидан Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Мадкамаси 2025 йил 16-январдаги 14-сонли “Олий таълим тизимида дуал таълимни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги қарори тасдиқланди. Ушбу қарорнинг иловаси билан “Олий таълим тизимида дуал таълимни ташкил этиш тартиби тўғрисида” ги низом тасдиқланди.

Дуал таълимнинг асосий мақсади талабаларнинг назарий билимларини мустаҳкамлаш, таълим олаётган таълим йўналиши (мутахассислиги) бўйича амалий кўникмаларни шакллантириш, талабалар учун ташкилий-ҳуқуқий шаклдан қатъий назар, корхоналарда ишлаб чиқариш (шунингдек, ташкилий-бошқарув) фаолиятига оид тажрибаларни ўрганишни ташкил этиш, касбий ва ижодий қизиқишларини ривожлантириш, битирувчиларнинг замонавий техника ва технологиялар билан ишлаши учун зарур амалий кўникма ва малакаларга эга бўлишини таъминлаш, олий таълим ташкилоти ва корхонада ўқитиш, шунингдек, олий таълим ташкилотининг ўқув жараёнига янги ўқитиш технологияларини жорий этиш орқали талабаларнинг рақобатбардошлигини оширишдан иборат бўлади.

Дуал таълимнинг асосий вазифалари меҳнат бозори эҳтиёжларига, иқтисодий тармоқларини ва ривожланиш истикболларига мос равишда мутахассислар тайёрлаш, ижтимоий шерикликни такомиллаштириш, олий таълим ташкилотининг таълим дастурлари мазмуни ва тузилмасининг мобиллигини таъминлаш, ишлаб чиқариш шароитидаги касбий тажрибани ўргатиш учун талабаларга етарли шароит яратиш, талабаларга ўқиш ва ишлаш имкониятларини яратишдан иборат бўлади.

Дуал таълимда қуйидаги тушунчалар ишлатилади:

дуал таълим — назарий қисми олий таълим ташкилотида, амалий қисми эса корхонада (иш жойида) ўтказиладиган таълим жараёни;

дуал таълим дастури — олий таълим ташкилоти ва корхонада талабанинг муайян таълим йўналиши (мутахассислик) бўйича билим олиши ҳамда унинг касбий билим ва кўникмаларини шакллантиришга қаратилган ўқув режаси, ўқув дастур (модул)лари, ўқув ва ишлаб чиқариш амалиёти дастурларидан иборат ҳужжатлар тўплами;

дуал таълим асосида ўқитиш — талабалар ўқув машғулотларини бир ҳафтада, қоида тариқасида, камида икки кун таълим дастурининг назарий қисмини олий таълим ташкилотида, қолган кунлари ишлаб чиқариш билан боғлиқ амалий қисмларини корхонада ўтказишларини назарда тутувчи ўқитиш усули;

“Касб эгаси” дуал таълим тизими — назарий қисми олий таълим ташкилотида, амалий қисми эса йўлланма асосида иш жойида ўтказиладиган ҳамда корхона томонидан иш ҳаққи тўланадиган таълим жараёни;

ўқув режаси — ўқув жараёнининг барча таркибий қисмлари ва ўқитиладиган ўқув фанларининг соатлари миқдори, кетма-кетлиги, ўқув жараёни жадвали ва тингловчиларни аттестациядан ўтказиш муддатларини белгилайдиган ҳужжат;

корхона (ташкilot) — олий таълим ташкилоти билан дуал таълим асосида кадрлар тайёрлаш бўйича шартнома тузган юридик шахс;

иш жойи — дуал таълимда талабага корхонанинг ички тартиб-қоидалари, тегишли вазифалари ҳамда таълим дастурларига мувофиқ амалий кўникма ва малакаларни эгаллаш учун белгиланган иш ўрни;

амалиёт раҳбари (устоз) — таълим жараёнининг ишлаб чиқариш билан боғлиқ амалий қисмини ўтказиш учун корхона томонидан талаба(лар)га бириктирилган масъул ходим;

шартнома — корхона, олий таълим ташкилоти ва талаба ўртасида дуал таълимни амалга ошириш учун тузилган уч томонлама битим.

Давлат олий таълим ташкилотларининг дуал таълим шакли бўйича қабул параметрларини шакллантириш учун вилоят ҳокимликлари ҳар йили 1 июнга қадар дуал таълим шаклида талабаларни қабул қиладиган корхоналар имкониятларини ўрганади ва дуал таълим ташкил қилиниши мумкин бўлган корхоналар рўйхатини эълон қилади, ҳар йили 1 сентябрга қадар дуал таълим шаклида ишга қабул қилинган талабаларни дуал таълим ташкил қилинадиган корхоналарга бириктириш бўйича корхона, талаба ва олий таълим ташкилоти ўртасида шартномалар имзоланишини ташкил этади, дуал таълим ташкил қилинган корхоналарда талабалар учун яратилган шарт-шароитларнинг доимий мониторингини юритади.

Давлат олий таълим ташкилотларига дуал таълим шакли бўйича талабалар ўқишга олий таълим муассасаларининг бакалавриятига талабаларни ўқишга қабул қилиш тартиби тўғрисидаги низомга мувофиқ қабул қилинади.

Дуал таълимни ташкил қилиш қуйидаги босқичларни ўз ичига олади: дуал таълим шакли асосида олий маълумотли кадрларни тайёрлашга бўлган талаб ва таклифларни ўрганиш, дуал таълим ташкил этиладиган корхоналар ва олий таълим ташкилотлари рўйхатини шакллантириш, дуал таълим ташкил этиладиган олий таълим ташкилотлари ва таълим йуналишлари (мутахассисликлар) рўйхатини иқтисодиёт тармоқларида олий маълумотли кадрларга бўлган эҳтиёжларидан келиб чиқиб шакллантириш, дуал таълим дастурларини ишлаб чиқиш, корхона, олий таълим ташкилоти ва талаба ўртасида уч томонлама шартнома тузиш, корхоналарда кафедра филиалларини ташкил этиш, талабаларни дуал таълим шакли бўйича ўқишга қабул қилиш, дуал таълим дастурлари асосида кадрлар тайёрлашни йўлга қуйиш каби босқичларни ўз ичига олади.

Дуал таълимнинг назарий ва амалий қисми муддатлари ҳамкор корхона ва ташкилотлар билан келишилган ҳолда, олий таълим ташкилоти томонидан белгиланади ҳамда ўқув режасида талабаларнинг олий таълим ташкилотида таълим дастурининг назарий ва амалий қисмини, ишлаб чиқариш билан боғлиқ амалий қисмларини корхонада ўтказишларини назарда тутилади.

Таълим йўналиши (мутахассислик) хусусиятидан келиб чиқиб, талабаларни дуал таълим асосида бир ҳафтада камида икки кун таълим дастурининг назарий қисмини олий таълим ташкилотида, қолган кунлари эса ишлаб чиқариш билан боғлиқ амалий қисмларини корхонада ўтказиш орқали ёки амалиёт шаклида ҳам ташкил этилиши мумкин.

Дуал таълимнинг назарий қисми қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ олий таълим ташкилотида ҳар йили сентябрь ойининг биринчи ҳафтасидан бошлаб ташкил этилади. Корхонанинг тегишли буйруғи асосида дуал таълим бўйича талаба(лар)га тажрибали ходимлардан амалиёт раҳбари (устоз) бириктирилади.

Амалиёт раҳбарига (устозга) корхона томонидан белгиланган тартибда қўшимча равишда меҳнатга ҳақ тўлаш тартиби жорий этилади.

Амалиёт раҳбарининг фаолияти корхона томонидан назорат қилинади.


REFLECTION

Талабага дуал таълим жараёнида корхонадаги фаолияти учун корхона томонидан қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ иш ҳаққи тўланади.

Хулоса ўрнида иқтисодиётнинг барча соҳаларида малакали ва замонавий касбий кўникмаларга эга олий маълумотли кадрларини тайёрлаш ҳамда ёшларнинг касблар ва мутахассисликларни эгаллашга бўлган қизиқишларини қўллаб-қувватлаш учун кенг имкониятлар яратиш, ёшлар таълим олиш билан бирга ҳақиқий иш жойида ўз касбий кўникмаларини ривожлантирадилар.

Бугунги кунда Германияда 1,4 миллион ёшлар дуал таълим шаклида таълим олишади. Германияда ҳар йили 500 минг ўқувчи дуал таълимда иштирок этиш учун корхоналар билан шартнома имзолашга эришади ва 74 фоиз ёшлар ўқишни яқунлагандан сўнг иш берувчи билан меҳнат шартномаси имзолашга эришади. Германияда дуал таълимда иштирок этаётган ўқувчиларга иш берувчи томонидан ойига ўртача 930-1200 евро ойлик иш ҳақи тўланади.

Юқорида таъкидлаб ўтганимдек, дуал таълим мамлакатимиз таълим тизимида янги бўлиб, ушбу тизимни ривожлантириш бўйича бир қанча ишлар босқичма-босқич амалга оширилмоқда. Дуал таълим тизими келажакда иқтисодиёт тармоқлари учун етук, тажрибали касб эгаларини етиштириб чиқаришга хизмат қилади.



**"SCIENTIFIC REPORTS
OF BUKHARA STATE
UNIVERSITY"**

The journal was composed
in the Editorial and
Publishing Department of
Bukhara State University.

Editorial address:

Bukhara, 200117
Bukhara State University, main
building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing
Department.
[https://buxdu.uz/32-buxoro-
davlat-universiteti-ilmiy-
axboroti/131/131-buxoro-davlat-
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted
30.01.2025 y. Paper format
60x84,1/8. Printed in express
printing method. Conditional
printing plate – 35,30.
Circulation 70. Order № 30.
Price is negotiable.

Published in the printing house
"BUKHARAHAMD PRINT" LLC
Address: Bukhara, Hofiz tanish
Bukhari street, 190 B-house